



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**



**DENOVA TADBIRKORLIK  
VA PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

## **O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**21-OKTABR - O‘ZBEK TILIGA DAVLAT TILI  
MAQOMI BERILGANLIGINING  
35 YILLIGI MUNOSABATI BILAN**

**“ZAMONAVIY O‘ZBEK TILINING ASOSIY  
MASALALARI VA DOLZARB MUAMMOLARI”  
MAVZUSIDAGI AN’ANAVIY  
V ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI**

**DENOVA-2024**



**“ZAMONAVIY O‘ZBEK TILINING ASOSIY  
MASALALARI VA DOLZARB MUAMMOLARI”  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA V ILMIY-AMALIY  
ANJUMANI MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**DENOV – 2024**

UO‘K 811.512.133’0

KBK 81.2 O‘zb

S 160

Ushbu to‘plamda «Zamonaviy o‘zbek tilining asosiy masalalari va dolzarb muammolari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanga yuborilgan maqolalar jamlangan. To‘plamda o‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik, amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika muammolari, til ta‘limi, o‘zbek tilining o‘qitilishi va o‘zaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqotda o‘zbek tilining o‘rni, o‘zbek tilini davlat tili sifatida har tomonlama rivojlantirish, o‘zbek tili va turkiy tillar tarixi, o‘zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro aloqalari tadqiqi, lug‘atshunoslik, atamashunoslik, til korpusi kabi o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari haqida so‘z yuritiladi. To‘plam filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

**Muassis:**

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA‘LIM

**BOSH MUHARRIR:**

**Oybek Abdumo‘minovich Ruziyev,**

*iqtisod fanlari nomzodi*

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

Suvonov Zavqiddin, filologiya fanlari doktori (DcS).

**Mas‘ul muharrir:**

**Sanjar Amirqulov,** katta o‘qituvchi

**Akbarali Boymirzayev,** katta o‘qituvchi

**Ilmiy kotib:**

**Qahramon Ro‘ziyev,** o‘qituvchi

## ADABIY VA BADIY SISTEMATIK TAHLIL

Baxtiyor Mengliyev  
(TAFU)

**Adabiy sistematik tahlil.** Sistema nazariyasi qoidalariga ko‘ra, adabiy tahlilda ikki tur sistema farqlanadi:

- adabiy sistema;
- badiiy sistema.

Adabiy sistema – tushunchalar sistemasi. Bir umumiy xususiyat ostida birlashuvchi va o‘ziga xos jihatlari asosida o‘zaro zidlanuvchi birdan ortiq abstrakt adabiy tushunchalar majmuyi adabiy sistema deyiladi. Masalan, janrlar sistemasi, adabiy oqimlar sistemasi, syujet sistemasi kabi. Bular adabiy sistemaning elementlaridir. O‘z navbatida, bu elementlar quyidagi o‘z tashkil etuvchilariga nisbatan sistema sifatida namoyon bo‘ladi va bunday bo‘linish pastga qarab muayyan badiiy asargacha davom etadi.

Adabiy sistemaning elementlari: adabiy oqimlar sistemasi, uslublar sistemasi, badiiy vositalar sistemasi, obrazlar sistemasi, syujet sxemalari sistemasi, badiiy san’atlar sistemasi va boshqalar. Buni yana davom ettirish mumkin. Adabiy sistema (masalan, janrlar sistemasi) da elementlar bir jinsli bo‘ladi (gomogen: bir sistema faqat janrlardan iborat bo‘ladi, boshqa sistema faqat adabiy oqim tushunchalaridan tashkil topadi).

Sistema elementlari o‘zaro munosabatlarga ega. Adabiy (tushunchaviy) sistemada umumiylik va zidlanish (oppozitsiya) hukmronlik qiladi. Bu sistema elementlari orasida paradigmatic (o‘xshashlik va farqlilik) munosabati mavjud. Uni oppozitiv (qarama-qarshilik) munosabati ham deyish mumkin. Oppozitiv munosabatning eng yetakchilari quyidagilar:

- noto‘liq ziddiyat (bunda ziddiyat belgisi bir tushuncha-elementda to‘liq, ikkinchisida qisman voqelanadi. Masalan, “jonlidek tasvirlash” ziddiyat belgisi “metafora”da bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin, ammo “jonlantirish” faqat jonlantirishdir);
- teng qiymatli zidiyat (bunda ziddiyat belgisi zidlanuvchi ikki element-tushunchada teng taqsimlanadi. Masalan, “janrlar” sistemasida “syujet tarmolari miqdori” belgisi “roman” element-tushunchasida “ko‘p tarmoqli”, “hikoya” elementida esa “bir tarmoqli”;
- darajali ziddiyat (bunda sistemadagi elementlar bir ziddiyat belgisining ortib yo kamayib borishi (darajasi)ga ko‘ra qat’iy qatorni tashkil etadi. Masalan, “syujet tarmog‘ining orti borisihi”: hikoya – qissa – roman).

Shuningdek, adabiy sistema elementlarida quyidagi paradigmatic belgilar farqlanadi: “elementning sistemaga kirishiga asos bo‘luvchi belgisi”, “elementning sistemada hosil bo‘luvchi belgisi” va “elementning sistema uchun ahamiyatsiz belgisi”. Masalan, “roman”, “qissa”, “hikoya” element-tushunchalari uchun “janr”, “nasr” kabi belgilar sistemaga olib kiruvchi (ya’ni birlashtiruvchi, integral) belgi bo‘lsa, “syujet tarmog‘i soni” belgisi har bir unurni boshqasidan farqlovchi,

sistemada paydo bo‘luvchi (farqlovchi, differensial) belgidir. “Hajm” belgisi esa ularning sistemadagi o‘rni uchun ahamiyatsiz hisoblanadi).

Umuman olganda, adabiy sistema badiiy asar yaratish, ularni tahlil va talqin qilish uchun vosita, asos bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy sistema o‘quvchiga muallifning fikr va his-tuyg‘ularini yetkazadi, estetik ta’sir ko‘rsatadi, hayot va insonning badiiy tasvirini beradi.

Adabiy va badiiy sistemalar bir-biriga o‘zaro ta’sir qiladi. Adabiy sistemalar asos, badiiy sistema esa hosiladir.

**Badiiy sistematik tahlil.** Muayyan badiiy asar badiiy sistemadir. Badiiy sistema adabiy sistemalar asosida yuzaga keladi, uning voqelanishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bir badiiy sistema turli adabiy sistemalardan o‘ziga kerakli jihatlarni “uzib-uzib” oladi. Adabiy sistemalarni adabiyot nazariyasi (ratsional, nazariy adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi) o‘rgansa, badiiy sistemalarni adabiy tanqid (empirik, amaliy adabiyotshunoslik) tadqiq qiladi. To‘g‘ri, adabiyot nazariyasida muayyan asarlar ham tahlil qilinadi, lekin u nazariy maqsadlarga bo‘sundiriladi. Shuningdek, adabiy tanqid (amaliy adabiyotshunoslik)da nazariy qonuniyatlarga ham murojaat qilinadi, ammo bunda u asar tahliliga bo‘ysundiriladi. Shunday qilib, nazariy adabiyotshunoslik adabiy qonuniyatlarni ochadi, amaliy adabiyotshunoslik ushbu qonuniyatlarning muayyan asarda voqelanish xususiyatlarini tekshiradi, ya’ni ularning umumiy nazariy qonuniyatlarga muvofiqlik darajasini tanqidiy o‘rganadi.

Badiiy sistemaning elementlari sifarida muayyan asarni tashkil etuvchi barcha unsurlar: personajlar, voqealar, makon, zamon, syujet, kompozitsiya, til, uslub kabilar namoyon bo‘ladi. Ular turli jinsli (geterogen) elementlardir. Badiiy sistemada elementlararo o‘zaro moslashuv aloqasi mavjud. Shu ma’noda, badiiy sistema elementlari orasidagi munosabatni sintagmatik (qo‘shnichilik, uyg‘unlashuv, birlashuv, bog‘lanish) munosabatlari deyish mumkin. Ammo badiiy “xususiy syujet” adabiy “umumiy syujet” doirasida bo‘ladi, undan tashqariga chiqib keta olmaydi. So‘fi Olloyorning “Sifat zoti emas, na g‘ayri zoti” degan misralari bu umumiylik va xususiyliklarni farqlashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nazariyotchi olim uchun adabiy sistemadagi bir jinsli elementlar (masalan, tablig‘ va g‘ulu) ning farq va o‘xshashliklari (ziddiyatlari, oppozitsiyalari) ahamiyatli bo‘lsa, amaliyotchi (empirik) adabiyotshunos badiiy sistemadagi turli jinsli element (masalan, muayyan asardagi syujet va kompozitsiya) ning o‘zaro muvofiqligiga e’tibor qaratadi. Zero, elementlar turli jinsli bo‘lganligi sababli ularni, adabiy sistema tahlilida bo‘lgani kabi, qarama-qarshi qo‘yish mantiqdan emas.

Mazkur ikki (adabiy va badiiy) sistemaning o‘zaro dialektik munosabatini jadvalda quyidagicha berish mumkin:

Adabiy Sistema (adabiy tushunchalar sistemasi)	Badiiy sistema (muayyan asar, m-n, “O‘tkan kunlar” romani)
Umumiylik	Alohidalik
Mohiyat	Hodisa
Imkoniyat	Voqelik
Sabab	Oqibat

Badiiy sistema adabiy sistemani voqelantiradi, tasdiqlaydi, boyitadi, ya’ni unga xos tamoyillarni rivojlantiradi, hatto inkor qilishi ham mumkin. Masalan, “Don Kixot” romani, bir tomondan, ritsarlik romantikasi an’alariga asoslangan bo’lsa, ikkinchi tomondan, ularni hajv qilish bilan adabiy sistemadagi bu oqimni rivojlantirgan, boyitgan. Shunday qilib, bu ikki sistema bir varaqning ikki tomoniga o’xshaydi, ular bir narsa emas, ammo alohida-alohida ikki narsa ham emas. Adabiy va badiiy sistema zotan ajralmas, yaxlitlangan ikki narsadir.

## QOZOG‘ISTONDA O‘ZBEK TA’LIMI VA BADIY MATN MASALALARI

*Madaliyev Y.X*

M.Auezov nomidagi JQU universiteti  
Filologiya fanlar bo’yicha PhD  
doktori, xalqaro adabiyot, san’at,  
madaniyat va ijtimoiy fanlar  
akademiyasi akademigi  
Tel: 8 701 642 43 83  
madaliev\_61@mail.ru

Zamonaviy bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash shu ishga ma’sul bo’lgan kishilar uchun muqaddas burch darajasidir. Mubolag’asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, davlatning kelajagi albatta kadrlar tayyorlashimizga bog’liq. Hozirgi davr talablarini davr talabi darajasida o’qitish extiyoji nima bilan bog’liq? Bir so’z bilan aytganda, maqsad tahlilda har bir fan yutug’ini umumlashtirgan holda yo’l tutishdan iborat bo’lib, jumladan unda filolog kadrlar uchun zaruriy bilimlar berish, olgan bilimlarni yanada mustahkamlash va matn ustida ishlashga xizmat qildirish masalasi ko’zda tutilmog’i lozim.

Ma’lum va amalda bo’lgan o’quv rejaga ko’ra adabiyotdan va tilshunoslik alohida fanlari sifatida o’qitilib kelinmoqda. Bu struktur xususiyatlarini o’rganish va tadqiq etish bo’lgan. Biroq bu ulug’ maqsad bir yoqda qolib, ko’p hollarda mutahassislik umumfilologniig maqsad bilan shug’illanib kelmoqda. Bu esa zamondan orqaga qolmaslik shunchaki ”yangi texnologiyalarga ergashib yangilikka nisbatan bag’rikenglik qiladi, avvalam bor yangilikni anglash kerak. Ya’ni sistema- struktur tilshunoslik nima, adabiyotshunoslik nima-yu, matnning filologik tahlili nima ekanligi haqida afsuski, tugal fikr yo’q.

Shunday qilib tahlilda filolog kadrlar uchun zaruriy bilimlar berish, olgan bilimlarini yanada mustahkamlash va matn ustida ishlashga xizmat qildirish masalasi ko’zda tutilganligi bois ham u quyidagi masalalarini qamrab oladi:

- Tahlil metodi va metodlogiyasi haqida ma’lumot berish;
- Amaliyot va laboratoriya mashg’ulotlari uchun har uch turga tegishli matnlarni tanlab olish;
- Tanlangan matnlar ko’zda tutilgan maqsadga muvofiq bo’lishiga e’tibor berish;
- Eski yozuv bo’yicha talablar malakasini oshirish ;

- Transkripsiya bilan ishlash haqida tasavvur uyg‘otish;
- Lingvistik sohaga oid bilimlarini mustahkamlash uchun mashqlar ustida ishlash;
- Adabiyotshunoslikka oid bilimlarni mustahkamlash, takrorlash uchun materiallarni tashkil qilish;
- Yozma va og‘zaki nutqni o‘stirish mashqlari bajartirish ifodali o‘qitishni tashkil qilish;
- Umumlashtirish filolig tahlil haqida tasavvur berish singari qator masalalar ko‘zda tutiladi.

Istiqlol davri taraqqiyotida tamomila yangi bosqichni boshlab berdi. Shu tufayli kishilar ongida o‘tmishga, tarixda yashab o‘tgan turli siymolar faoliyati va ijodiga holisona, to‘g‘ri munosabatida bo‘lish ma’suliyati shakillandi . Bu bilan ilm-fan oldiga ham yangi-yangi vazifalar qo‘yiladiki, bu shubhasiz,filologiyaning keyingi taraqqiyotiga ham aloqadordir.Ma’lumki, har bir fanning ta’limidan ko‘zlangan bosh maqsad muayyan soha bo‘yicha yetuk mutaxassis tayyorlashga qaratilgandir. Xuddi shuningdek, filologiya ilmi ta’limi esa bo‘lajak mutaxassisda, avvalo, idrokiy tafakkurni takomil topshirishni bosh maqsad qilib oladi. Pirovard natijada, milliy mafkura talablariga mos ravishda mutaxassis, shaxs va barkamol irsonni voyaga yetkazish mumkin bo‘ladi. Shu ma’noda bo‘lajak filologlarga berilayotgan bilimlar va buning kelajakdagi samarasi haqida ayrim mulohazalarni bildirish o‘rinli ko‘rinadiki, biz quyida shu haqda ayrim fikrlarni bildirib o‘tmoqchimiz.

Ta’lim jarayonida turli aspektdagi tahlillarda foydalaniladi. Bu talabalarga muayyan fanlari o‘tilishida bilim berish uchun zarur. Matning turli aspektlardagi tahlili amalga oshirilayotgan bir paytda filologik tahlil haqida so‘z yuritish ,uni ommalashtirish muhimligiga e’tibor qaratish, bu haqida kelajak poydevori bundyodkorlari- filoliglikka da’vogar talabalarga tushuncha berish zaruriyatiga nima uchun kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qaralmog‘i lozim?

Muammoning ilmiy-metodik yechimi masalasida shuni aytish mumki, bizga ma’lum va amalda bo‘lgan rejaga ko‘ra adabiyotshunoslik va tilshunoslik alohida fanlar sifatida o‘qitilib kelinmoqda. Undan ko‘zlangan maqsad esa, eslatilganidek til va adabiyotning sistem- struktur hususiyatlarinio‘rganish va tadqiq etishga qaratilgan. Deylik agar belgi sof lingvistik (grammatik) nuqtai nazardan qaraladigan bo‘lsa,albatta uning ifoda vamazmun fanlari muayyan metodlar asosida o‘rganiladi. Biroq u matn doirasida o‘rganiladigan bo‘lsa,uning funksiya plani ham tadqiq etiladiki, aksariyat holatlarda ,asosan shu bilan chegaralanib qolinmoqda.

Ko‘rinadiki, har qanday matnning asosini uning materiali bo‘lgan til xususiyati tashkil etadi. Binobarin,tahlil bu jihatsizto‘laqonli bo‘lishi mumkin emas.Biroq uning poetic tamoni hammavjudki, mazkur holat umumfilologik nuqtai nazardan yondashuvni talab etadi. Umuman olganda ta’limda fanlararo va sohalararo bog‘lanish masalasi dolzarb. Binobarin, uning yechimi nazariy fikrlarning amaliyot bilan bog‘liqligi, zamonaviy bilm berish masalasi, talabani mustaqqil fikrlashga o‘rgatish,matnning Urdi aspektlardagi tahlili amalga oshirilayotgan bir paytta” filologik tahlil” tushunchasini ommalashtirish bu haqida kelajak poydevori

bunyodkorlari bo‘lgan filologikka da‘vogar talabalarga tushuncha berish zaruriati yuqorida bildirilgan fikrlarning dalilidir.

Qozog‘istonda 900 mingga yaqin o‘zbek millati istiqomat qiladi Turkiston viloyatida 121 o‘zbek maktabi bor. O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari soni 520 ta, shulardan 180 ta nafaqa yoshida, yuqori o‘quvchilari esa 79998 ta.

Chimkent shahrida 32 ta umumiy o‘rta maktab va 5 ta hususiy o‘zbek maktabi bor. O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarining soni 130 ta shulardan 48 tasi nafaqa yoshida. Jami 158 ta maktabda 650 o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi bor. Shulardan 228 tasi nafaqada, yuqori sinf o‘quvchilari soni 94988 ta.

Otoqli Avar shoiri Rasul Gamzatovning «Ona tilimdan ayrilsam, bugun o‘limga tayyorman», degan so‘zi qalbimda muhirlanib qolgan degan so‘zidan boshqa so‘z topa olmayapman.

To‘g‘ri, o‘zbek tili Qozog‘iston davlati uchun milliy tili emas, lekin o‘zbek millati uchun butun dunyodir....

O‘zbek tili millatning tili, o‘zbek milliy madaniyatining ko‘zguvidir.

Bizga ma‘lum dunyoda 60 milliondan ortiq o‘zbek millati istiqomat qiladi. Jamiyatda millatchilik, mahalliychilik degan illatlar bor buni yaxshi bilamiz.

## ESP – O‘ZBEKISTONDA FANNING YANGI YO‘NALISHI

*Nortojoyeva Umida Uralovna*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yo‘nalishi magistranti  
UO‘K:372.881.111.1

**Annotatsiya:** Hozirda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) butun dunyoda xorijiy tillarni o‘rganishga doir dolzarb masalaga aylandi. U umumiy ingliz tilidan asosan maqsadiga qarab farq qiladi. Aytmoqchimanki, ESP o‘rganuvchilari allaqachon ingliz tilining asosiy bilimlariga ega, ular faqat professional ko‘nikmalar va funksiyalarni o‘rganishni xohlashadi, umumiy ingliz tilini o‘rganuvchilar esa grammatika va jumlar tuzilishini o‘rganadilar. ESP kursi talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va istaklariga qaratilgan, shuningdek, zaif tomonlarini aniqlaydi va dars davomida muammolarni hal qilish uchun yechimlarni topadi. Bu soha bank, turizm yoki biznesdan tortib tibbiyotgacha bo‘lgan turli mavzularni qamrab oladi. Bu kombinatsiya talabalarni o‘z sohalarida o‘rgangan narsalaridan foydalanishga undaydi.

**Kalit so‘zlar:** ESP, EGP, ESP kursi, talaba ehtiyojlari, talabalar, biznes, materiallar.

## ESP – НОВОЕ НАПРАВЛЕНИЕ НАУКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Нортожиева Умида Ураловна*

Денауский институт предпринимательства и педагогики

**Аннотация:** В последнее время английский для специальных целей (ESP) стал прибыльным направлением изучения языка во всем мире. Он варьируется от общего английского, главным образом, в зависимости от цели. Я имею в виду, что изучающие ESP уже имеют базовые знания об английском языке, они хотят освоить только профессиональные навыки и функции, тогда как изучающих

общий английский изучают грамматику и структуру предложений. Курс ESP фокусируется на потребностях, интересах и пожеланиях учащихся, а также выявляет недостатки и находит решения для решения проблем в ходе урока. Эта область охватывает различные темы: от банковского дела, туризма или бизнеса до медицины. Такое сочетание вдохновляет студентов использовать полученные знания в своей области обучения.

**Ключевые слова:** ESP, EGP, курс ESP, потребности учащихся, студенты, бизнес, материалы.

## ESP IS A NEW SCIENCE FIELD IN UZBEKISTAN

Nortojiyeva Umida Uralovna

Denau Institute of Entrepreneurship Pedagogy

**Abstract:** English for Specific Purposes (ESP) has become a profitable language learning issue all over the world lately. It varies from general English, mainly, according to the aim. What I mean is that, ESP learners already have basic knowledge about English, they only want to learn professional skills and functions, whereas, general English learners are taught grammar and sentence structures. An ESP course focuses on students' needs, interests and wishes, also determines lacks and finds solutions to tackle problems down during the lesson. This field covers different subjects from banking, tourism or business to medicine. Such a combination inspires students to use what they learn in their field of study.

**Key words:** ESP, EGP, ESP course, learners' needs, students, business, materials

In recent years, special attention has been paid to the study of foreign languages in our country. In particular, the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev signed a decision No.5117 on May 19, 2021 named "On measures to bring activities to popularize the study of foreign languages to a qualitatively new level in the Republic of Uzbekistan", to develop the study of foreign languages widely. The tasks set for the organization in this area are being implemented at a rapid pace. This decision concerns not only the sphere of general and higher education, but also representatives of other spheres. In fact, paragraph 7 of this regulatory document states: "In order to increase the level of foreign language proficiency of civil servants and fill government bodies with highly qualified and competitive personnel: from July 1, 2021, government bodies "Let teachers of educational organizations be attracted on a contract basis, and practice training employees in a foreign language at least once a week"<sup>1</sup>

In the 21st century, the rapidly changing environment and growing demand for professional communicators pose new challenges for language learners and teachers. Competitive business organizations try to hire employees with excellent linguistic skills combined with non-linguistic skills and abilities. Acquiring these additional qualifications and skills is not easy. However, most of them can do it. Significant improvement can be achieved if students are provided with appropriate learning

---

<sup>1</sup> Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida, 2021. Tashkent. No.5117

materials and appropriate teacher input. The new approach is more challenging for ESP teachers and requires much higher competencies such as content knowledge and integrative skills. The need for learning materials and approaches that help students simplify their efforts and save time to improve their chances of employment and advancement means that this topic is timely. In this article problems are identified in the process of developing integrated skills in English language learners for a specific purpose and methods for eliminating them are applied, and the level of effectiveness is considered.

Teaching English for Specific Purposes is a prime illustration of the saying "what comes in time, changes over time".<sup>2</sup> Origins of ESP goes back more than 50 years. The concept of language for specific vocational purposes emerged in the 1960s and early 1970s and was associated with the research of Holliday, MacIntosh and Strevens. ESP has continually changed and evolved since its inception and is expected to continue to change and evolve in the future.

According to Widdowson, "ESP simply describes a specific area of language and then uses that description as a course specification to give students the required limited competence in that area".<sup>3</sup> Hutchinson and Waters support the idea that ESP should be viewed as an approach rather than a product. English for Specific Purposes (ESP) has gradually established itself as one of the most important and popular subjects in English Language Teaching (ELT) since the 1960s. This is because most English language learners, especially those with higher education, want to learn English communication skills that are specifically applicable to a particular profession or discipline. Hutchinson and Waters ESP emphasize the importance of student success in ESP courses, emphasizing the purpose of learning English primarily to achieve the specific language skills needed for the target situation. ESP also takes into account the unique needs of students to develop effective teaching and learning methods and select appropriate course content.<sup>4</sup>

This means that a needs analysis (NA) is an important step before delivering an ESP course to ensure that certain aspects of the language, teaching methods and classroom activities are ideally designed to meet the specific needs of the class. students and meet the requirements of their profession. Many ESP scholars (e.g., Basturkman, Hutchinson and Waters, Hyland, Ibrahim, Jordan) confirm that the results of NA implementation are critical to improving the effectiveness of curriculum, curriculum, and instructional materials. ESP courses and therefore NA should be used as one of the practical guides for developing effective ESP courses. As mentioned above, NA is required for development and design.<sup>5</sup>

---

<sup>2</sup> Elżbieta Jendrych. Developments in ESP teaching, 2013. Warsaw. P. 43-58

<sup>3</sup> Mohammed Larouz, Email Kerouad. Demystifying the Disparity between ESP and EGP Methodology, 2016. Morocco. P. 97-105

<sup>4</sup> Padermprach, N., & Yaemtui, W. (2023). English language skills required by international relations officers: A target situation analysis and its implications for English for International Relations Officers course design. *LEARN Journal: Language Education and Acquisition Research Network*, 16(2), 184-204

<sup>5</sup> Basturkmen, H. (2010). *Developing courses in English for Specific Purposes*. Palgrave Macmillan

One of the main features of many ESP courses, which are very different from EGP (English for General Purposes) courses, is the presence of adult learners who are both primary and secondary school students. Because ESP is a high-level approach to learning, it is important to pay close attention to the multidimensional needs of students. Thus, ESP teachers should not only focus on the language needs of students, but also follow a holistic, adult-centered approach, paying special attention to students' psychological needs and preferences. In this situation, the ESP teacher should take an integrated approach, acting as both a teacher and a consultant. Thus, ESP teachers must go beyond the classroom, which leads them to a second important role that involves working closely with content teachers.<sup>6</sup>

In order to get acquainted with the events of the rapidly developing world, a person needs to know English. Because this language is accepted and widely used all over the world. Talking about the role and importance of ESP, ESP is a new developing field in our country. There are various fields that require materials in ESP subjects such as Economics, Industry, Manufacturing, Agriculture including Cotton, Horticulture and Wheat Cultivation among others. If the necessary ESP materials are prepared and distributed, experts in these fields are likely to achieve positive results in training courses. Because specialists often do not have the opportunity to familiarize themselves with ESP. However, with the help of ESP courses and materials, professionals may have a better chance of solving these problems.<sup>7</sup>

The teaching of English for Specific Purposes (ESP) has been seen as a separate activity within English language teaching (ELT). It is believed that for some of its teaching ESP has developed its own methodology and its research draws on research from various disciplines in addition to applied linguistics – this is the key distinguishing characteristic of ESP. ESP, if sometimes moved away from the established trends in general ELT, has always been with needs analysis and preparing learners to communicate effectively in the tasks prescribed by their field of study or work situation. The emphasis of ELT is always on practical outcomes. The theory of ESP could be outlined based on specific nature of the texts that learners need knowledge of or need-related nature of teaching 1) English for Academic Purposes (EAP) involving pre-experience, simultaneous/in-service and post-experience courses, and 2) English for Occupational Purposes (EOP) for study in a specific discipline (pre-study, in-study, and post-study) or as a school subject (independent or integrated). Pre-experience or pre-study course will omit any specific work related to the actual discipline or work as students will not yet have the needed familiarity with the content; the opportunity for specific or integrated work will be provided during in-service or in-study courses. Another division of ESP divides EAP and EOP according to discipline or professional area in the following way: 1) EAP involves English for (Academic) Science and Technology (EST), English for (Academic) Medical Purposes (EMP), English for (Academic) Legal Purposes (ELP), and English

---

<sup>6</sup> Hutchinson Tom, Waters Alan. English for Specific Purposes, 1987. New York. P. 42-52

<sup>7</sup> Zufarova Kamola (2019). Importance of esp as a new field in Uzbekistan. Вопросы науки и образования, (7 (53)), 147-149.

for Management, Finance and Economics; 2) EOP includes English for Professional Purposes (English for Medical Purposes, English for Business Purposes –EBP) and English for Vocational Purposes (Pre-vocational English and Vocational English); in EAP, EST has been the main area, but EMP and ELP have always had their place.<sup>8</sup>

#### Conclusion

ESP is a widespread approach which has been applied recently. Courses and programs on ESP are being organized in order to develop learners' target skills and study or job-related functions. During this process teachers are responsible for providing students with appropriate materials to complete their goals. By doing that, students will be ready to the demands of not only their work or study in Uzbekistan but also standards of ESP around the world.

#### Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida, 2021. Tashkent. No. 5117
2. Elzbieta Jendrych. Developments in ESP teaching, 2013. Warsaw. P. 43-58
3. Mohammed Larouz, Email Kerouad. Demystifying the Disparity between ESP and EGP Methodology, 2016. Morocco. P. 97-105
4. Padermprach, N., & Yaemtui, W. (2023). English language skills required by international relations officers: A target situation analysis and its implications for English for International Relations Officers course design. LEARN Journal: Language Education and Acquisition Research Network, 16(2), 184-204
5. Basturkmen, H. (2010). Developing courses in English for Specific Purposes. Palgrave Macmillan
6. Hutchinson Tom, Waters Alan. English for Specific Purposes, 1987. New York. P. 42-52
7. Zufarova Kamola (2019). Importance of esp as a new field in Uzbekistan. Вопросы науки и образования, (7 (53)), 147-149.
8. Dzugaeva Zarina Ruslanovna (2017). Teaching English for specific Purposes (esp). International scientific review, (2 (33)), 91-92.

#### O‘ZBEK VA INGLIZ RAQS LEKSIKASI: FONOLOGIK, MORFOLOGIK VA SEMANTIK O‘ZIGA XOSLIKLAR

*Xudoyberdiyeva Oyjamol Muzaffarovna*

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tel: +998994196491

e-mail: teacheroyjamol@gmail.com

**Anotatsiya:** *Mazkur maqola ingliz va o‘zbek raqs terminologiyasining fonologik, morfologik va semantik o‘ziga xosliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan.*

<sup>8</sup> Dzugaeva Zarina Ruslanovna (2017). Teaching English for specific Purposes (esp). International scientific review, (2 (33)), 91-92.

*Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi raqsga oid terminlar fonetik, morfologik va semantik jihatdan qanday farqlanishi va o‘xshashligi ko‘rib chiqiladi. Ingliz tili global tilda keng tarqalganligi sababli raqs terminlari xalqaro maydonda keng qo‘llaniladi va o‘zbek tiliga kirib kelgan xorijiy raqs atamalari fonologik va morfologik moslashishga uchraydi.*

**Kalit so‘zlar:** raqs terminologiyasi, fonologik xususiyatlar, morfologik tahlil, Ingliz raqs leksikasi, O‘zbek raqs leksikasi, xalqaro raqs atamalari.

**KIRISH.** Insoniyat tarixida raqs san’ati madaniy ifodaning muhim qismi bo‘lib kelgan va har bir millatning madaniy merosida alohida o‘ringa ega. Raqsning rivojlanishi bilan bir qatorda unga oid terminologiyaning shakllanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqsga oid terminlar ma’lum bir til va madaniyatga xos bo‘lgan xususiyatlarni aks ettirib, xalqaro miqyosda ham o‘zaro almashinuv va ta’sir jarayonida boyitilib kelmoqda. Xususan, ingliz tili global tillardan biri sifatida ko‘plab raqs terminlarining dunyo miqyosida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Bunga misol qilib, “ballet”, “hip-hop”, “jazz” kabi xalqaro atamalarni keltirish mumkin.

O‘zbek tilida esa raqsga oid terminlar asosan milliy va xalq raqslari atamalarini o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, zamonaviy raqs janrlari va texnikalari rivojlanishi bilan xorijiy terminlar ham kirib kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan raqs leksikasi o‘zbek tilining fonologik va morfologik tizimiga moslashgan holda o‘zlashmoqda. Bu jarayonda ba’zi terminlar talaffuzi va shakli o‘zgarishga uchragan bo‘lsa, ayrimlari asliy holatda saqlanib qolgan. [1;2]

Mazkur maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi raqs leksikasining fonologik, morfologik va semantik o‘ziga xosliklarini o‘rganishni maqsad qiladi. Bu o‘rganish raqs leksikasi qanchalik til va madaniyat o‘ziga xosliklarini aks ettirishi, shuningdek, xalqaro va milliy raqs terminlarining tilga qanday integratsiya qilinishini tahlil qiladi. O‘zbek tiliga inglizcha raqs atamalarining kirib kelishi bilan bog‘liq jarayonlarni ko‘rib chiqish til o‘zgarishlari va madaniy o‘zaro ta’sirlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. **Fonologik tahlil:** Ingliz va o‘zbek tillarida raqsga oid terminlarning talaffuz xususiyatlari va fonetik tizimi o‘rganildi.
2. **Morfologik tahlil:** Terminlarning tarkibi, qo‘shimchalar va morfologik o‘zgarishlar, shuningdek, ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlarning o‘zlashishi ko‘rib chiqildi.
3. **Semantik tahlil:** Raqs terminlarining ma’noviy tuzilishi va ularning ikki tilda qo‘llanilishi o‘rganildi.
4. **Chog‘ishtirma usul:** O‘zbek va ingliz raqs terminlari o‘rtasidagi leksik o‘xshashliklar va farqlar chog‘ishtirildi.

An’anaga ko‘ra, raqs madaniyatshunoslik va san’atshunoslik tadqiqotlari doirasida o‘rganiladi. Bu tadqiqotlar orasida V.V. Rommning ishi alohida ajralib turadi [6], unda raqsning tarixiy-madaniy nuqtai nazardan evolyutsiyasi tahlil qilingan. V.V. Romm raqsning tarixiy-madaniy jihatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. U raqs evolyutsiyasini tadqiq qilgan bo‘lsa-da, uning ishlarida raqs terminologiyasi va lingvistik aspektlarga ham e’tibor qaratgan. Shuningdek, N.V.

Osintsevaning dissertatsiyasi [4] raqsni antropologik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Qator dissertatsiyalarda raqs terminologiyasi tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi. Masalan, A.E. Karapetyan raqs terminologiyasi bo‘yicha o‘z dissertatsiyasida rus va ingliz tillaridagi raqs terminlarining leksik-semantik va lingvokulturaviy jihatlarini tadqiq qilgan. Uning ilmiy ishi raqs sohasidagi terminologiyaning lingvistik o‘ziga xosliklarini o‘rganishga qaratilgan. [3], T.N. Petrova-Maslakova – U "sport raqslari" termin maydonining rus va ingliz tillaridagi leksikografik tahliliga bag‘ishlangan dissertatsiya yozgan. Uning ishida raqs terminlari va ularning ikki tildagi leksik tuzilishi chuqur tahlil qilingan. [5].

O‘zbek raqs leksikasidagi terminlar ko‘pincha turkiy ildizga ega bo‘lgan yoki forsiy va arabcha so‘zlardan iborat. Masalan, “o‘yin”, “qayroq”, “lazgi” kabi so‘zlar milliy raqs turlarini ifodalaydi.

O‘zbek tilida so‘z yasashda qo‘shimchalarning roli katta. Qo‘shimchalar yordamida yangi so‘zlar yasaladi, masalan:

- “-chi” qo‘shimchasi: o‘yin + chi → “o‘yinchi” (raqs ijrochisi)
- “-kor” qo‘shimchasi: san‘at + kor → “san‘atkor” (o‘yinni ijro etuvchi)

Ingliz raqs leksikasida ko‘plab so‘zlar fransuz, italyan va ispan tillaridan olingan. Masalan, "ballet" (fransuzcha), "tango" (ispancha), "pirouette" (fransuzcha).

Affikslar: Ingliz tilida affikslar yordamida so‘z yasash keng tarqalgan:

- er/-or** qo‘shimchasi: “dance” + “er” → “dancer” (raqqos)
- ing** qo‘shimchasi: “dance” + “ing” → “dancing” (raqsga tushmoq)
- ation** qo‘shimchasi: “interpret” + “ation” → “interpretation” (talqin)

Ingliz tilidagi raqs terminlari ko‘pincha boshqa tillardan, xususan, fransuzcha yoki italyanchadan kirib kelgan. Bu so‘zlar ingliz tilida moslashtirilganda, talaffuzda o‘zgarishlar ro‘y beradi. Masalan, “*pirouette*” (fransuzcha *piruèt* so‘zidan) ingliz tilida [ˌpɪrʊˈet] tarzida talaffuz qilinadi, ya'ni [p] tovushi bilan boshlanadi va urg‘u oxirgi bo‘g‘inda bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi raqs terminlari esa ko‘pincha rus tili orqali yoki bevosita boshqa tillardan o‘zlashgan. Masalan, “*piruet*” so‘zi rus tilidan o‘zlashgan va o‘zbek tilida [pɪruet] tarzida talaffuz qilinadi, talaffuz soddalashgan va vokal tovushlari qisqartirilgan.

Ingliz tilida xalqaro raqs terminlari talaffuzi juda o‘zgarishi va moslashishi mumkin. O‘zbek tilida esa bu so‘zlar fonetik jihatdan soddalashtirilgan va tildagi mavjud fonologik qoidalarga moslashtirilgan.

Ingliz va o‘zbek tillarida raqsqa oid terminlarning talaffuz va fonetik tizimlari sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tilida diftonglar, murakkab vokal tizimi, yumshoq undoshlar va urg‘u o‘zgarishlari mavjud. O‘zbek tilida esa vokallar va undoshlar aniqroq, talaffuz oddiyroq va soddalashtirilgan bo‘lib, urg‘u tizimi nisbatan oddiyroq. Bu raqs terminlarining har ikki tildagi talaffuziga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi va xalqaro terminlar ikki tilga moslashish jarayonida turlicha fonetik o‘zgarishlarga duch keladi.

O‘zbek tili raqs terminologiyasi asosan xalq raqslari va milliy madaniy an'analar bilan bog‘liq bo‘lib, bu so‘zlar chuqur ma'naviy va estetik mazmuni ifodalaydi. Milliy raqs turlari, xoreografik uslublar va ijro shakllari terminlarning asosiy manbasi hisoblanadi.

O‘zbek raqs terminlari milliy va folklor raqslari bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha madaniy va tarixiy an‘analarga asoslanadi. Misol uchun:

- **“Lazgi”**: O‘zbekistondagi xalq raqslaridan biri bo‘lib, bu so‘zning ma‘nosi qadimiy va ritmik harakatlarga asoslangan raqs turini ifodalaydi. Lazgi so‘zi faqat o‘zbek yoki qozoq madaniyatida ma‘noga ega bo‘lib, boshqa tillarda bevosita ekvivalentga ega emas.

- **“O‘yin”**: O‘zbek tilida raqs ma‘nosida ishlatiladigan umumiy so‘z bo‘lib, ko‘pincha xalq o‘yinlariga, an‘anaviy raqslarga taalluqli. **“o‘yin”** so‘zi raqsni ham, butun bir madaniy tadbir yoki namoyishni ham ifodalashi mumkin.

- **“Andijon polkasi”**: Milliy raqs turining nomi bo‘lib, aniq ma‘naviy va estetik kontekstda ishlatiladi. Bu so‘z o‘zida raqsni ham, ushbu raqsning an‘anaviy kuyini ham o‘z ichiga oladi.

Ingliz tili raqs terminologiyasi asosan global raqs turlaridan kelib chiqadi va ularning aksariyati xalqaro raqs madaniyatlari bilan bog‘liq. Bu terminlar dunyodagi turli madaniyatlar ta‘sirida shakllangan va ularning ko‘pchiligi boshqa tillardan olingan.

Ingliz raqs terminlari xalqaro va klassik raqs turlariga asoslanadi. Misol uchun:

- **“Ballet”**: Fransuzcha kelib chiqqan bo‘lib, bu termin klassik raqs uslubini ifodalaydi. So‘zning ma‘nosi va maqsadi faqat raqsqa emas, balki raqs uslubi, texnika va sahnalashtirishga ham bog‘liq. **“Ballet”** ma‘nosida qat‘iy ravishda klassik raqs san‘ati ko‘zda tutiladi.

- **“Hip-hop”**: Zamonaviy va ko‘cha raqsi bo‘lib, bu termin nafaqat raqsni, balki hip-hop madaniyatining bir qismi bo‘lgan ijodiy harakatlarni, musiqani va kiyinish uslubini ham ifodalaydi.

- **“Tango”**: Argentina kelib chiqqan raqs turini ifodalaydi, lekin ingliz tilida keng qo‘llanilib, bu raqsning texnikasini va his-tuyg‘ularini ham o‘z ichiga oladi.

## XULOSA

Maqolada o‘zbek va ingliz tillarida raqsqa oid terminlarning fonologik, morfologik va semantik jihatlari o‘rganilib, raqs terminologiyasining lingvistik o‘ziga xosliklari aniqlangan. Ingliz tilidagi raqs terminlari ko‘plab xorijiy tillardan, jumladan, fransuz, ispan va italyan tillaridan kirib kelgani ta‘kidlangan. O‘zbek tilida esa asosan milliy va xalq raqslari bilan bog‘liq terminlar o‘rganilgan bo‘lib, xorijiy atamalar o‘zbek fonetik va morfologik tizimiga moslashib kirib kelmoqda. Maqola raqs terminlarining talaffuz, morfologik tuzilish va semantik tarkibini chog‘ishtirish orqali ikki til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va farqlarni ochib beradi. Tadqiqot natijasida, o‘zbek tiliga kirib kelgan inglizcha raqs terminlari talaffuzda va ma‘noda ba‘zi o‘zgarishlarga uchragani aniqlangan bo‘lib, bu jarayon o‘zbek tilining o‘ziga xos fonologik va morfologik tizimi bilan bog‘liq ekani ko‘rsatib berilgan.

## Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:

1. Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna. (2024). ENGLISH AND UZBEK NATIONAL DANCE TERMINOLOGY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 26, 154–158. Retrieved from <https://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1070>

2. Muzaffarovna, K. O. (2023). The Role of Dance Terminology in Linguistics. *Genius Repository*, 26, 83–85.
3. Карапетьян А.Э. Терминосистема танца в английском и русском языках :лексико-семантический и лингвокультурный аспекты: дисс. ... канд. филол. наук. Краснодар, 2008. 175 с.
4. Осинцева Н. . Танец в аспекте антропологической онтологии: дисс.... канд. филол. наук. Тюмень, 2006. 167 с.
5. Петрова-Маслакова Т.Н. Лексикографический анализ терминополья “спортивные танцы”: на материале русского и английского языков: дисс. ... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2006. 326 с.
6. Ромм В.В. Танец как фактор эволюции человеческой культуры: дисс. ... докт. культурол. наук. Барнаул, 2006. 403 с.

## **O‘ZBEK TILIDA PSIXOLOGIK TERMINLARNING MAVZUVIY GURUHLARI TASNIFI**

*Jovbo‘riyeva Saodat O‘ktamovna*

Termiz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi  
(97) 840-80-88

[Saodat.yoldosheva@mail.ru](mailto:Saodat.yoldosheva@mail.ru)

**Annatsiya:** Mazkur maqolada ilm-fan taraqqiyoti natijasida o‘zbek tili psixologiyasida paydo bo‘layotgan yangi psixologik sohalar keltirib o‘tilgan. Hamda o‘zbek tili psixologik terminlarning mavzuviy guruhlari tasniflangan va ularga oid terminlar misollar bilan dalillantirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologiya, termin, mavzuviy guruhlar, umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, psixofiziologiya, neyropsixologiya, ijtimoiy psixologiya, maxsus psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, patopsixologiya, psixolingivistika va boshqalar.

O‘zbek psixologiyasi bugungi kunda ilmiy psixologiya fundamental va amaliy psixologiyaga ajratiladi. Fundamental va ilmiy psixologiya o‘z navbatida o‘z ichiga bir qator mavzuviy guruhlarni qamrab oladi. Psixologiyaga oid terminlarni o‘rganishda E.G‘oziyevning darsliklari va psixologiyaga oid boshqa kitoblar asosiy manba vazifasini o‘tadi.

O‘zbek tilining psixologik terminlarining mavzuviy guruhlari o‘z ichiga quyidagi guruh nomlarini qamrab oladi:

**1.Umumiy psixologiya-** psixologiyaning predmeti, psixologik bilimlarning tuzilishi tamoyillarining nazariy va metodologik asoslarini o‘rganadi. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *e‘tibor, hulq, faollik, tafakkur, nutq, eslash, psixologik to‘siqlar* va h.k. [1:11]

**2.Shaxs psixologiyasi-** insonning ijtimoiy muvofiqlashgan xususiyatlarini, qobiliyatlari rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, temperamenti, xarakteri, motivatsiyasi, o‘z-o‘zini anglashni o‘rganadi. Mavzuviy guruhga kiruvchi terminlar: *hasad, qizg‘anish, qat‘iylik, vijdon, o‘jarlik, temperament, fantaziya, xarakter* va h.k. [2:430]

**3.Psixofiziologiya-** psixikaning markaziy asab tizimi faoliyati va organizmning fiziologik jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. Mazkur

guruhga tegishli terminlar: *shartsiz refleks, miya bioritmlari, mushak hissi, neyron, asab sistemasi, reaksiya, refleks, tush ko‘rish, tormozlanish* va h.k.

**4. Neyropsixologiya-** oliy psixik funksiyalarning anomatik fiziologik asoslarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Mazkur guruhga oid terminlar: *faollashtirish, amneziya, xotirani yo‘qotish, apraksiya, atrofiya, afaziya, nutqning buzilishi, paramneziya* va h.k.

**5. Ijtimoiy psixologiya-** odamlarni ijtimoiy guruh tarkibida bo‘lganlik fakti bilan muvofiqlashgan hatti-xarakatlari va faoliyatlarining qonuniyatlarini, shuningdek, mazkur guruhlarining psixologik xarakteristikasini o‘rganadi. Mazkur mavzuviy guruhga oid terminlar: *ijtimoiy adaptatsiya, me‘yordan ortiq faollik, ishontirish, guruhdan ajratib qo‘yish, guruhlararo munosabat, amaliy muomala, ommaviy sarosima* va h.k.

**6. Maxsus psixologiya** (anomal rivojlanish psixologiyasi)- normadagi rivojlanishdan og‘ish bilan bog‘liq psixologik muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *defektologiya, oligofrenopsixologiya, imo-ishora nutqi, kar-gunglar psixologiyasi, surdopsixologiya, tiplopsi-xologiya* va boshqalar.

**7. Zoopsixologiya-** hayvonlar psixikasi, psixik aks ettirish qonuniyatlari, ularning xulqining tug‘ma va egallangan shakllari haqidagi fan. Mavzuviy guruhga oid birliklar: *jonivorlarning agressiv hulqi, maqsad gradient, jonivorlarning guruhli fel-atvori, taassurot, jonivorlar o‘yini, imprinting, instinct, jonivorlar intellekti* va h.k.

**8. Pedagogik psixologiya-** insonning ta‘lim va tarbiya jarayonining psixologik qonuniyatlari haqidagi fan. Mavzuviy guruhga taalluqli terminlar: *tarbiya, esdan chiqarish, motivlashish, xotirlash, o‘z-o‘zini tarbiya qilish, o‘zlashtirish* va h.k.

**9. Tibbiyot psixologiyasi-** turli kasalliklarda psixikaning namoyon bo‘lishini, kasalliklarning paydo bo‘lishi va kechishida, ularni davolashda, kasalliklarni oldini olish va salomatlikni mustahkamlashda psixikaning rolini o‘rganadi. Mavzuviy guruhga xos terminlar: *autogipnoz, og‘riq, depressiya, psixologik tashxis, psixik holat, psixogigeyena, psixoprofilaktika, xavotir, eyforiya* va h.k.

**10. Mehnat psixologiyasi-** Mehnat psixologiyasiga psixologiyaning bir qator tarmoqlari kiradi. Bular: muhandislik psixologiyasi, aviatsiya psixologiyasi, kosmik psixologiya va boshqalar. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *adaptatsiya, ko‘nikma, psixologik tanlov, mehnatni ilmiy tashkillashtirish psixologiyasi, ishga qobiliyatlilik, mehnatdan qoniqish, charchash* va h.k.

**11. Injenerlik psixologiyasi** (muhandislik psixologiyasi)- inson va mashina o‘rtasidagi munosabatni, insonga mashinaning psixologik ta‘sirini va insonning mashina bilan munosabati jarayonining psixologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *adaptatsiya, operator faoliyati, mikrostrukturaviy yondashuv, qarorga kelish, inson omili* va h.k.

**12. Konsultativ psixologiya yoki maslahatlashuv psixologiyasi-** amaliy psixologiyaning muhim sohasi bo‘lib, psixologik mutaxasisi tomonidan psixologik yordamga ehtiyoji bo‘lgan insonlarga psixologik maslahat ko‘rinishidagi yordam

ko‘rsatish bilan bog‘liq. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *kasbiy konsultatsiya, kasbiy tanlash, psixologik yordam, psixologik xizmat, ijtimoiy-psixologik trening, apatiya, ijtimoiylashuv, introvert shaxs, psixodiagnostika* va boshqalar.

**13. Patopsixologiya-** inson bosh miyasining zararlanishi yoki uning yetarli darajada rivojlanmaganligi natijasida kelib chiqadigan psixologik holatlarni o‘rganadi. Mavzuviy guruhiga tegishli terminlar: *alahsirash, depressiya, psixoz, qo‘rquv, xavflilik, fanatiklik, fobiyalar* va h.k.

**14. Psixolingvistika-** nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimlari bilan o‘zaro bog‘lanish holatida o‘rganuvchi fan; psixologiya va lingvistika sintezidan paydo bo‘lgan. Mavzuviy guruhga taalluqli terminlar: *konversiya, matn, lingvistik nisbiylik farazi, nutq* va h.k.

**15. Jinsiy farqlar psixologiyasi** (gender psixologiya) Mavzuviy guruhga oid terminlar: *maskulinlik va femininlik, jins, jinsiy differensiyasiya, jinsiy aynan bir xillik, jinsiy roller* va b.

**16. Boshqarish psixologiyasi-** rahbar kadrlarni psixologik baholash, ularga zarur bo‘lgan hislatlarni majmuasini ishlab chiqish, nomzodlarni to‘g‘ri tanlash masalalarini o‘rganish an‘ansisining ijtimoiy psixologiyadagi sohasi. Mavzuviy guruhga doir terminlar: *avtoritarlik, buyurokratizm, liderlik, tashkilot, qarorga kelish yechim* va boshqalar.

**17. Psixoterapiya-** ruhiy kasal bemorlarni davolash maqsadida so‘z, xushmuomala bilan hamda qulay sharoit yaratish orqali ular ongiga psixik ta‘sir etish. Mavzuviy guruhga xos terminlar: *ta‘sir ko‘rsatish, ishontirish, gipnoz, meditatsiya, musiqiy terapiya, relaksasiya* va h.k.

**18. Psixometriya-** bu o‘lchov nazariyasi va texnikasi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologiyaning o‘rganish sohasi. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *o‘lchash (psixologiyada) klaster analiz, kontinent analiz, korrelyasion analiz, statistik mezonlar, shaxsiy so‘rovnomalar, ijtimoiy xohish, test, kreativlik testi, shkala* va h.k.

**19. Psixofizika-** odamlarning individual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o‘rganuvchi sohadir. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *sensor adaptatsiya, reaksiya vaqti, sezish pogonasi, ta‘sirlanuvchanlik, signal, subsensor qabul qilish, sezgirlik* va h.k.

**20. Ekstremal psixologiya-** bu insonning muhit o‘zgargan shart-sharoitlarda psixik faoliyatining kechishi qonuniyatlarini o‘rganadi. Eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. Mavzuviy guruhiga oid terminlar: *to‘lqinlanish, afferentasiya, kosmik psixologiya, yakkalik, tanxolik, tavakkal, qo‘rquv* va h.k.

**21. Etnopsixologiya-** (xalqlar psixologiyasi, etnik psixologiya) Mavzuviy guruhga oid terminlar: *dunyoning etnik manzarasi, etnik konflikt, etnik stereotiplar, etnik ustanovkalar* va h.k.

**22. Yuridik psixologiya-** huquq doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixikfaoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o‘rganuvchi sohadir. Mavzuviy guruhiga mansub terminlar: *axloq, tuzatish psixologiyasi, jinoyat psixologiyasi, so‘roq va ko‘rsatma berish psixologiyasi, sud psixologiyasi, sud psixologik ekspertiza* va h.k.

**23. Psixologiya metodlari-** mavzuviy guruhga oid terminlar: *biografik metod, genetik metod, guruhda diskussiya metodi, diagnostik intervyu, klinik intervyu, sinov va xatolar metodi, zoopsixologiya metodi, shaxsni tekshirish metodlari* va h.k.

**24. San’at psixologiyasi-** san’atkorlarning qobiliyatlarini, asar yaratishdagi hissiy ko‘rinishlarini, shaxslararo munosabatlarini psixologik nuqta’i nazardan o‘rganadi. Mavzuviy guruhni shakllantiruvchi terminlar: *musiqa psixologiyasi, musiqiy qobiliyat, sahna san’ati psixologiyasi, ijodiyot* va h.k.

**25. Differensial psixologiya** (yoki individual farqlar psixologiyasi) Mavzuviy guruhga tegishli terminlar: *ontogenez, longityud tadqiqot, imprinting, sensitivlik* va h.k.

**26. Taraqqiyot psixologiyasi** (yosh davrlar psixologiyasi)- shaxsning turli psixik jarayonlari va xususiyatlarini rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *genotip, gerontopsixologiya, o‘smirlar psixologiyasi, o‘spirinlar psixologiyasi, akseleratsiya, genesis* va boshqalar.

**27. Parapsixologiya-** hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyint bo‘lgan psixik hodisalarni o‘rganadi. Mavzuviy guruhga a’loqador terminlar: *telepatiya, sipiritizm, xiromantiya, ekstrosensorika, psixotronika* va h.k.

**28. Oila psixologiyasi-** oilaning psixologik muammolarini o‘rganadi, u oilaga ta’sir qiluvchi omillarni, er-xotin munosabatlarini psixologik jihatdan o‘rganadi. Mavzuviy guruhga oid terminlar: *oila tiplari, oila iyerarxiyasi, yosh xususiyatlari, jinsiy tafovutlar* va boshqalar.

**29. Sport psixologiyasi-** sportchi shaxsining va faoliyatining psixologik xususiyatlarini, samarali mashq jarayonining sharoitlari va vositalari, shuningdek, musobaqalar bilan bog‘liq psixologik muammolarni o‘rganadi. Mavzuga oid terminlar: *autogencha mashq, dinamika, kinestetik sezgilar, kooperatsiya uslubi, tonus, sotsimetriya uslubi* va boshqalar.[3:143]

**30. Siyosiy psixologiya-** Mavzuviy guruhga a’loqador terminlar: *psixologik tashviqot, targ‘ibot, psixologik imidj, ijtimoiy guruh* va boshqalar.[4:150]

**32. Kasb psixologiyasi-** bu shaxsni kasbni egallashi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos tomonlari, qonuniyatlari, mexanizmlarini o‘rganish hisoblanadi. Shaxs va kasb o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, bu ta’sirning natijalarini o‘rganadi.[6:14] Mavzuviy guruhga doir terminlar: *Kasbiy maslahat, motiv, pedagogik ixlos, kasbga yo‘naltirish, qobiliyat* va boshqalar.[7:20]

**33. Bolalar psixologiyasi-** bolaning tug‘ilgan paytidan boshlab to maktab yoshiga yetgunga qadar psixik jihatdan taraqqiy etish qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlari tarkib topish jarayonini o‘rganadi. Mavzuviy guruhga oid terminlar; *Yosh bosqichlari, inqirozlar, chaqaloqlik, go‘daklik, birinchi bolalik, ikkinchi bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik, yetuklik, manipulyatsiya* va h.k.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek tilida psixologiyaga oid terminlar shakllangan va uning o‘ziga xos mavzuviy guruhlari mavjud. O‘zbek tili terminalogiyasida psixologik terminlarning tadqiqiga yuzlanar ekanmiz, o‘zbek tilida ilm-fan taraqqiyoti sababli psixologiyaning yangidan-yangi mavzuviy guruhlari, sohalari va albatta ularga oid terminlar ham paydo bo‘layotganini va ularni o‘rganishning tilshunoslikdagi ahamiyatining oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Jo‘rayeva.S., Sharafutdinova.X. Mamaradjabova. B.-umumiy psixologiya: o‘quv-qo‘llanma:B.11.
2. Umarov B. Xuquqshunoslik faoliyati psixologiyasi-T.: Yangi asr avlodi, 2005.-106 b; Arifxodjayeva I.X. Ichki ishlar idoralari hodimlari faoliyati psixologiyasi- T.: O‘qituvchi, 2008.-431 b.
3. Masharipov Y.-Sport psixologiyasi- T., 2010.-143 b.
4. Xayitov A. Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya “O‘zkitobsavdonashriyoti”, 2020-156 b.
6. Hayitov O. Boshqaruv psixologiyasi: darslik-Chirchiq:O ‘Zdjtsu,2020.-14 B.
7. Abdurahmonov F, Abdurahmonova Z. Kasb psixologiyasi-T.: “Barkamol fayz media”, 2018. 20 B.

**THE IMPORTANCE OF THE USE OF ABBREVIATIONS IN LINGUISTICS**

*Gavhar Salomova,*

Doctor of philosophy in philological sciences, PhD

Termez Economics and Service University

E-mail:gavhar.salomova@mail.ru

tel: 90 327 88 00

UO‘K: 811.111’366.552

811.512.133’366.552

**Abstract.** This article defines the functions of replacing abbreviations, their word combinations and compound nouns in world linguistics, describes the ways of occurrence of abbreviations in the typological aspect, scientifically substantiates the aspects of the ability of abbreviations to give meaning in compound nouns, uses them in official, artistic and journalistic styles. The main task has been to study the application. In further studies, the linguistic justification of the full use of abbreviations in scientific and official texts, the development of methods of using abbreviations in the condensing of such texts are gaining relevance.

**Key words:** acronyms, abbreviations, typology, systemocentrism, anthrocentrism

**TILSHUNOSLIKDA QISQARTMALAR QO‘LLANISHINING  
AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola dunyo tilshunosligida qisqartma so‘zlar, ularning so‘z birikmalari va birikma nomlarni almashtirish vazifalarini aniqlash, qisqartmalarning yuzaga kelish yo‘llarini tipologik aspektda tavsiflash, qisqartmalarning birikma nomlardagi ma’noni bera olish jihatlarini ilmiy asoslash, rasmiy, badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanishini o‘rganish asosiy vazifa bo‘lib keldi. Keyingi tadqiqotlarda esa qisqartmalarni ilmiy va rasmiy matnlarda to‘laqonli qo‘llanishini lingvistik asoslash, bunday matnlarni ixchamlashtirishda qisqartmalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish dolzarblik kasb etmoqda.

**Kalit so‘zlar:** qisqartma so‘zlar, abbreviatsiya, tipologiya, sistemasentrizm, antropocentrizm

**ЗНАЧЕНИЕ УПОТРЕБЛЕНИЯ СОКРАЩЕНИЙ В ЯЗЫКОЗНАНИИ**

**Аннотация.** В данной статье определены функции замены аббревиатур, их словосочетаний и сложных существительных в мировой лингвистике, описаны способы возникновения аббревиатур в типологическом аспекте, научно обоснованы аспекты способности аббревиатур придавать значение в сложных существительных, используется их в официальный, художественный и публицистический стили. Основной задачей было изучить приложение. В дальнейших исследованиях приобретают актуальность лингвистическое обоснование полноценного использования сокращений в научных и официальных текстах, разработка способов использования сокращений при сокращении таких текстов.

**Ключевые слова:** аббревиатуры, аббревиатуры, типология, системоцентризм, антропоцентризм.

**Introduction.** Abbreviation is a complex linguistic phenomenon and involves a number of theoretical issues in the fields of vocabulary, word formation, communication and information theory, semiotic theory, and motivation theory. Being a complex phenomenon, the acronym gives rise to ambiguous approaches to its definition and evaluation. The system-based approach makes it possible to consider abbreviation as a phenomenon that includes all types of relations: formal-structural, motivational, derivational, semantic, paradigmatic, discursive, etc.).

According to the pragmatic approach to the problem, the acronym is illuminated in several interrelated aspects: content (pragmasemantics or "internal pragmatics"); functional-communicative (in terms of pragmatic principles of creation and use); sociolinguistic (social position, nationality, gender, in terms of differentiation according to parameters of age, profession);

**Literature review.** From the 18th century to the beginning of the 20th century, this word has its original etymological meaning used. In particular, according to the interpretation of this word in the dictionary of F. Pavlenkova: abbreviation is given as "abbreviation in writing and printing". According to scientists such as E.S. Kubryakova, A.N. Eldishev, E.A. Dyuzhikova, it is appropriate to equate the concepts of "abbreviation" and "abbreviation" with the term "shortening", because the main difference is only in the etymology of the following concepts: the term "abbreviation" is a borrowed word. In turn, I. V. Arnold also claims that the concepts of "abbreviation" and "abbreviation" are synonymous and cannot be distinguished. We are in favor of distinguishing and limiting these concepts. Because, as Kubryakova and Arnold said, abbreviations are not equal concepts.

As we all know, abbreviation is a process of shortening and is considered a linguistic phenomenon. Y. Odilov also expressed the following opinion about the limited application of these concepts and a differentiated approach: "- it is clear from the researches that abbreviations and abbreviations are not distinguished, and the types of abbreviations are not sufficiently described. At this point, it is necessary to make a serious distinction between the methods of shortening words and the concept of abbreviations formed by shortening methods.


An anthropocentric approach to the problem allows us to consider abbreviations in terms of the interaction between the language system and the native

speaker, and abbreviations as one of the main means of conceptualizing the denomination. Taking into account the "human factor" manifested in the unconscious and conscious creation and use of language units, the specificity of SLE storage in the human lexicon, the nature of encoding and decoding, and the nature of associations between languages are taken into account. the sign's referent, concept, and body are revealed.

It should be noted that all existing approaches to the problem have to recognize the linguistic nature of the abbreviation. The theoretical basis for determining the abbreviation in our work is E.S. Kubryakova, "the process of creating secondary nominal units with the status of a word, which consists in cutting any linear parts of the source of motivation and leads to the appearance of a word that reflects some part or part in its form. from the components of the original unit"

**Analysis and results.** The effective unit of such a process is the abbreviation. Abbreviation has the morphological signs of the word (gender, case, plural), as well as the main signs of the word (phonetic form, grammatical integrity, non-transition, separability, phraseological meaning, nominative, etc.) only then will it have the status of a word. The presence of similar symbols in the lexical abbreviations analyzed in our work confirms their lexicalization and the nature of independent lexical units. Lexical abbreviations act as the same means of communication as other words, that is, they are full-fledged communication units that enter the language system and become the basis for the formation of new words in language-specific ways. Filling the vocabulary of the modern English language with new lexemes, including shortened derivatives, is due to the influence of external and internal factors. At the same time, the influence of external factors, as a rule, is expressed very clearly and is directly related to the processes taking place in the life of society. The appearance of abbreviated neologisms shows the relevance of the event they denote in a certain period of time.

**Picture 1**



**Indicators of the relative concepts of English acronyms in percentages**

The widespread use of abbreviations is often associated with major social changes, scientific and technical progress, and the development of international socio-cultural relations, which make it necessary to name a number of new phenomena based on the improvement or improvement of well-known names. causes. use of new methods of output and, in particular, contribute to the activation and more energetic manifestation of the abbreviated method of word formation.

Intensive formation of abbreviations is a certain period of language development. At the same time, it is one of the components of the word formation and lexical levels of the language system, so the change of the language in general depends not only on socio-cultural events that occur in the life of a person and society, but also about linguistic processes at all stages of its development and development, because the functioning of language as a means of communication "is capable of generating impulses for change independent of people" (Serebrennikov 1968). The internal changes of the linguistic picture of the world are less noticeable. However, intrasystemic neoplasms are diverse in nature and the nature of the functions they perform. External stimuli (socio-historical and socio-cultural events that occur in the life of a person and society, communicative and discursive directions of the development of society) help to implement intralingual stimuli (methods of secondary nomination, economy of linguistic expression, solving antinomies of language development "code-text", "speaker-listener", semantic innovations and transformations, the development of additional connotations) and activates the language mechanism that seeks to give an already known concept. a convenient sign for a certain state of the language system that corresponds to one or another trend of modern development of society.

According to the information in "Oxford Advanced Learner's Dictionary" and "Oxford Advanced American Dictionary", which are most frequently used in English studies, *an abbreviation* is a short form of a word, etc. ; 2) the process of abbreviating something - the process of abbreviating something. This is how it is explained in "Macmillan English Dictionary": *A short form of a word or phrase: MIA is an abbreviation for "Missing in Action."*<sup>9</sup>

These types of abbreviations (acronyms) are transliterated into English as new terms. Such units are easily stabilized in terminology due to their compact form: *ASAP – as soon as possible – iloji boricha tezroq; ADSS – Association of Directors of Social Services-ijtimoiy xizmatlar direktorlari uyushmasi; AE-Age Equivalent – yoshga teng; AEN-Additional Education Needs-qo‘shimcha ta’limga ehtiyojlar; laser – light amplification by stimulated emission of radiation – induksiyalangan nurlanish orqali yorug‘likni kuchaytirish; radar – radio detection and ranging – radio aniqlash va masofani aniqlash; scuba – self-contained underwater breathing apparatus – mustaqil suv osti nafas olish apparati; TESOL – Teachers of English to Speakers of Other Languages – boshqa tillarda so‘zlashuvchi ingliz tili o‘qituvchilari*<sup>10</sup>.

In English, acronyms are used to replace one word by combining or shortening words with two different meanings and combining them into a single word.

**Conclusion.** When studying the research on abbreviations in world linguistics, it became clear that abbreviation is a unique word formation process at the current stage of its development. We agree that abbreviations should be systematically

<sup>9</sup> Macmillan English Dictionary. For Advanced Learners. – USA: Macmillan Education, 2001. – P. 2.

<sup>10</sup> Esl.com

reviewed. The possibility of counting abbreviations as derived words is often denied, because their semantics correspond to the semantics of compound names.

**Adabiyotlar ro‘uxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Иванова Л.В. Структурно-семантические и функционально-прагматические особенности отаббревиатурной лексики: на материале немецкоязычных текстов СМИ. Автореф. дис. ... канд. филол. наук –Барнаул, 2010. – 18 с.
2. Salomova G.A. Ingliz va o‘zbek tillardagi qisqartma so‘zlarning chog‘ishtirma tadqiqi. F.f.f.d. (PhD) dis... - Termiz, 2023. – 220 b.
3. Словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка. – СПб.: Ф. Павленков, 1900. – С.4. (714 с.).
4. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: Семантика производного слова. – М., 1981. – С.103.; Елдышев А.Н. Стрoение и мотивированность сокращённых слов (к проблеме взаимодействия формально-содержательных признаков в слове): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1982. – С.14;
5. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: ФЛИНТА, 2012. – С.188. (376 с.).
6. Одилов Ё.Р. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти: монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – В.35.
7. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. 7th edition. London. 2005. – P.74.
8. Macmillan English Dictionary. For Advanced Learners. – USA: Macmillan Education, 2001. – P.

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KOMPYUTER DISKURS  
TUSHUNCHALARINI QISQARTMALAR KO‘RINISHIDA**

**Salomova Gavhar Abdinazarovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, f.f.f.d., (PhD)

tel:+998 (90) 327-88-00

E-mail: [gavhar.salomova@mail.ru](mailto:gavhar.salomova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada "kommunikatsiya" tushunchasi bir-biriga nisbatan ajratilmagan holda qo‘llaniladi. Maqolada nafaqat axborot tarmoqlari foydalanuvchilarining aloqasi (masalan, xabarlarni uzatish va ma'lumotlar almashinuvi), balki aloqa ishtirokchilarining ta'sir darajasi ham ko‘rib chiqiladi. Aynan shu ko‘p qirrali yondashuv qisqartmaning kompyuter aloqasi doirasidagi samaradorlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Muloqot qiluvchilar o‘rtasidagi asosiy munosabatlarga ko‘ra aloqaning rasmiy va norasmiy shakllari mavjud.

**Kalit so‘zlar:** qisqartma, konsept, kommunikatsiya, diskurs, kompyuter, rasmiy, norasmiy

**KIRISH.** Hozirgi vaqtda abbreviatura so‘z yasashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Turli intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta'siri ostida tilning leksik birliklarini qisqartirish tendensiyasi kuchayib bormoqda, bu qisqartmani sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqadi - bu belgilashning umumiy

usuliga aylanadi. Qisqartirish jarayonining murakkabligi va intensivligi so‘z yasashning ushbu usulini batafsil o‘rganishni talab qiladi. Zamonaviy jamiyatning pragmatik munosabatlariga javob beradigan qisqartma shuningdek, ma'lumotni siqish funksiyasini nominativ, kognitiv va ekspressiv funksiyalarni bajaradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Qisqartirish jarayonlari va qisqartma turlari 20-asr tilshunoslari (D.I.Alekseyev, Z.A.Aliqulov, V.V.Borisov, R.I.Mogilevskiy) tomonidan to‘liq va har tomonlama tavsiflangan; qisqartmalarning funksional, pragmatik, kognitiv va struktur-semantik xususiyatlarini A.N. Yeldeshechev, E.H. Ojogin, E.R.Mustafinova. Qisqartmalarning o‘ziga xos xususiyatlariga murojaat qilish ko‘pincha nutq (V.I. Karasik, N.A. Lukseriyuva) va aloqa nazariyasi (A.N. Baranov, V.B. Kashkin, G.G. Pocheptsov, S. Herring) muammolarini o‘rganish bilan bog‘liq. Qisqartma va kompyuter nutqi bo‘yicha mavjud ishlardan farqli o‘laroq, ushbu dissertatsiya tadqiqoti matnini kommunikativ tahlil qilish doirasida olib borilgan va kompyuter aloqasining inglizcha qisqartmalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kompyuter sanoati obyektlarini bildiruvchi ko‘p komponentli nominatsiyalarni siqish va kompyuter aloqasi jarayonida axborot mazmuniga erishish o‘z vaqtida leksikografik ro‘yxatga olish va adekvat leksik tavsifni talab qiladigan qisqartma modellarini ishlab chiqishga yordam beradigan mexanizmlar sifatida taqdim etiladi. Tadqiqotning tematik sohasini tanlash g‘oyasi hozirgi vaqtda qisqartma so‘z yaratishning eng samarali usullaridan biri sifatida qaralayotganligi bilan izohlanadi. Turli intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida tilning leksik birliklarini qisqartirish tendentsiyasi kuchaymoqda, bu qisqartmani sifat jihatidan yangi darajaga ko‘taradi - qisqartma nominatsiyaning keng tarqalgan usuli hisoblanadi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Qisqartirish jarayoni qulay aloqa vositasi hisoblanadi va shakllangan ijtimoiy munosabatlarning diskursiv-semantik ta'siriga bo‘ysunadi. Qisqartmaning shakli va mohiyati ong va aqliy mexanizmlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini, axborotni idrok etish qonuniyatlarini aks ettiradi. So‘z yasashning abbreviatura usulining mohiyati yangi til birligidagi gap mazmunini kodlashdan iborat. Shu bilan birga, kontseptsianing integratsiyasi va siqilishiga erishiladi va aloqaning informatsion tomoni ortadi. So‘z va iboralarning moddiy qobig‘ini qisqartirish orqali ma'lumotni uzatish va idrok etish tezligi oshadi, vaqt chegaralari qisqaradi va ma'ruzachining talaffuz harakatlari va / yoki yozuvchining harakatchanligi tejaladi. Kompyuter nutqi qisqartmalarining o‘ziga xos xususiyatlariga qiziqish muqarrar ravishda virtual makonda muloqotni o‘rganish muammosiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, agar ma'lum bir davrda professional muloqot muhitida kommunikantlar o‘rtasidagi rasmiy munosabatlar maqbul bo‘lsa, u holda rasmiy muloqot haqida gapirish mumkin. Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari asrida axborot tarmog‘idan foydalanuvchilarni professional va oddiylarga bo‘lish umumiy qabul qilingan. Janubiy ingliz tilida shaxsiy kompyuter foydalanuvchisini belgilash uchun quyidagi leksik birliklar mavjud: user - foydalanuvchi, net-user - user of information networks, riewbie, neophyte - noob, beginner va luser - the division of users into those who contribute to a favorable communication process, and those who who hinders him. Shunday qilib,

faol tarmoq foydalanuvchilari va sub'ektiv xarakterdagi ayrim nomzodlarning yangi paydo bo‘lgan kommunikativ faoliyati turlari nomlari indekslarini terminologik taqsimlash fakti bayon etilgan. Professional kompyuter foydalanuvchilari nutqida ishlaydigan leksik birliklarning materiali bo‘yicha qisqartmalarning empirik tadqiqotini qurish tavsiya etiladi. Bu foydalanuvchilarning maxsus ijtimoiy maqomi, ularning kasbiy va kommunikativ vakolatlari bilan izohlanadi. Empirik materialni o‘rganishda professional shaxsiy kompyuter foydalanuvchilarining muloqot shakli hisobga olingan. Muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar, albatta, ma'lumot almashish paytida leksik vositalarni va qisqartmalarning tarkibiy turlarini tanlashni aniqladi. Shu munosabat bilan uchta shartli tarkibiy va mazmunli komponentlar aniqlandi, xususan:

1. qisqartmalar- atamalar;

2. qisqartmalar - kompyuter sinxron va asinxron kompyuter aloqasi elementlari;

3. professional shaxsiy kompyuter foydalanuvchilarining kundalik axborot almashinuvida ishlaydigan qisqartirilgan evfemistik rangli elementlar. Ko‘rib chiqilayotgan ishda tadqiqot muammolarini hal qilish uchun tizimli-tipologik, grafik, fonetik, orfografik, leksik-semantik, so‘z yasalishi, stilistik, funktsional tahlilni o‘z ichiga olgan darajali tasniflash printsipti tanlandi, bu sizga har tomonlama ko‘rish imkonini beradi. kompyuter aloqasida qisqartmalarning shakllanishi va qo‘llanilishi tasviri. Qisqartmalar-kompyuter nutqining atamalarini o‘rganishga har tomonlama yondashish bizga quyidagilarni aniqlashga imkon berdi: a) belgili so‘zlarning strukturaviy tipidagi grafik qisqartmalar guruhi ustunlik qiladi. Ushbu turdagi qisqartma so‘z yoki iboralarning birinchi harfi / harflaridan iborat bo‘lgan birliklarni o‘z ichiga oladi. A< Automatically Backup My Documents, ADP<'J-sharp'a programming language like JAVA);

b) Professional kompyuter foydalanuvchilari muloqotida eng kam ifodalangan kontrakturalar - faqat undosh tovushlarni o‘z ichiga olgan belgilarni o‘z ichiga olgan undosh qisqartmalar. Grafik va leksik qisqartmalar - atamalar otga xos bo‘lgan ba'zi grammatik kategoriyalarni oladi. Amaliy materialni o‘rganish jarayonida quyidagi grammatik kategoriyalar aniqlandi: qisqartirilgan birliklarning soni va holati.

Qisqartmalarning grammatik xususiyatlari ularning stilistik xususiyatlarini belgilaydi. Qisqartmalarning ba'zi xususiyatlari ularning asta-sekin stilistik jihatdan tez-tez ishlatiladigan "neytral" lug‘atga o‘tishini ko‘rsatadi. Bu esa yuqorida qayd etilgan grammatik kategoriyalarni batafsilroq ko‘rib chiqish va tahlil qilishga asos bo‘ldi. O‘rganilayotgan material sinxron va asinxron kompyuter aloqasining elementlari bo‘lgan qisqartmalarni aks ettiradi. Oldingi guruh bilan solishtirganda, bu turkum unchalik katta emas, chunki u to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompyuter foydalanuvchilari tomonidan yaratilgan iboralarni ham, oddiy so‘zlashuv tilini ham o‘z ichiga oladi. Qoida tariqasida, kundalik nutqda me'yoriy lug‘at faqat kichik guruh tomonidan qo‘llaniladi, so‘zlashuv lug‘ati esa har qanday ijtimoiy qatlamning lug‘atida mavjud. Xususan, shaxsiy kompyuter foydalanuvchilarining kundalik tilining elementlari qisqartmalar va neologizmlardir. Keling, har bir til darajasining tahliliga murojaat qilaylik. O‘rganilayotgan qisqartmalar - shaxsiy kompyuter foydalanuvchilarining kundalik tilining elementlari korpusida ikkita asosiy tarkibiy turga bo‘lish mumkin:

grafik va leksik qisqartmalar. Grafik qisqartmalar eng katta guruhni ifodalaydi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘rganilayotgan qisqartmalarning tahlili orfografik printsipga asoslangan grafik dizayn mavjudligini ko‘rsatdi: D/A Qisqartmalarning imlosi beqarorlik bilan tavsiflanadi, u qayta-qayta o‘zgarishlarga uchraydi, buning natijasida qisqartmalarning imloning turli xil variantlari mavjud. bitta korrelyatsiya. Bu turli xil imlo variantlarini bir vaqtning o‘zida birga yashashga imkon beradi. Tahlil davomida modal va yordamchi fe'llar sig‘ining asosiy komponentlari bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi: ADR

Kompyuter nutqining qisqartmalari nafaqat ekspressiv, balki stilistik jihatdan ham belgilanadi. Hozirgi vaqtda omoakronimiya qisqartmalarning eng rivojlangan shakllaridan biri hisoblanadi. Ular, ayniqsa, maxsus atamalarni yaratishda omoakronimiyaga murojaat qilishga tayyor, bu tushunarli: atamalarning ko‘pligi ularni yodlashni qiyinlashtiradi, lekin ba'zi bir keng tarqalgan va tez-tez ishlatiladigan so‘zlarga "moslangan", ular tezda kundalik nutqqa kirishadi va keyin. tilda mustahkamlanadi, chunki qisqartmalarning stereotipik shakllari va ularni xotirada osongina saqlashga imkon beradi:

ACT<Application Control Table;  
AID<Autonet Information Director;  
BOSS<Back Office Software System;  
BUMP<Bring Up My Post;  
BUN<Back Up Name;  
BYE<Between Your Ears;  
CHAOS<Create Havoc Around Our System.

Omoakronimlarning shakllanish mexanizmining xususiyatlarini o‘rganar ekan, shuni ta’kidlash kerakki, ikki xil jarayon mavjud. Birinchi qisqartmada nominatsiyalar odatiy so‘zlar bilan mos kelishi mumkin, odatiy so‘z va omoakronim o‘rtasida majoziy-assotsiativ aloqaning etishmasligi:

BABE<Big At Both Ends; BANG<Be A Nice Guy;  
BAR<Beyond All Recognition;  
BET<Big Every Time;  
CASE<Computer-Aided Software Engineering. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pchilik omoakronimlar boshlang‘ich leksik qisqartmalardir. Boshqa holatda, ataylab shakllanish omoakronimlarni kuzatish mumkin, agar ma'ruzachi allaqachon yangi birlikni yaratish jarayonida bo‘lsa, uyg‘un kombinatsiyani tanlash maqsadi qo‘yilgan. Model sifatida nafaqat eng tanish so‘z tanlanadi, balki uning ma'nosi ichki shakl, ushbu atamaning ma'nosi bilan bog‘liq:  
BOSS<Back Office Software System;  
CHAOS<Create Havoc Around Our System;  
EGO<Everyone's Got One;  
FAIR<Forum Against Islamophobia Racism.

Qisqartirilgan neoplazmalar nafaqat atamalar, omoakronimlar, balki kundalik axborot almashinuvida ishlaydigan qisqartirilgan evfemistik rangli elementlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi qisqartirilgan elementlar kompyuter nutqida va ma'lumot almashishda qatnashadigan oddiy foydalanuvchilar tilida "to‘g‘ri"

bayonotlar va baholashlarda eng yuqori chastotaga ega bo‘lib, tasvirlangan hodisalarning noo‘rin jihatlarini kodlaydi.

**XULOSA.** Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar qisqartmalar siqishning samarali usuli bo‘lib, professional kompyuter foydalanuvchilari nutqida etarlicha ifodalanganligi haqidagi gipotezaning to‘g‘riligini ko‘rsatdi. Kompyuter aloqasining bilvosita tabiati qisqartmalar turlarini, ularning funktsional va stilistik yo‘nalishini belgilaydi.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Alekseyev D. I. Abbreviated words in the Russian language: a textbook / D. I. Alekseev. - Saratov: Phoenix, 1979. - 328 p.
2. Alekseyev D.I. Graphic abbreviations and abbreviations // Development of the modern Russian language. Moscow, 1963. p.49.
3. Arnold I.V. Lexicology of the modern English language/ I.V. Arnold – Moscow: FLINT, 2012. – p. 188.(376 p.)Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1996. – С.26. (598 с.)
4. Zhrebilo T.V. Dictionary of linguistic terms. Ed. 5th, ispr. and dop. – Nazran: LLC "Pilgrim", 2010. – p.20. (486 p.)
5. Kovrigina A.I. Implementation of the principle of saving language resources in the modern Spanish press: lexical and syntactic aspect: abstract. dis. ... Candidate of Philology. sciences. – Moscow, 2013. – pp. 6-7.(23 p.)
6. Salomova G.A. O‘zlashgan qisqartma so‘zlarning ingliz va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi.// Хоразм маъмуни академияси ахборотномаси, Хива-2023. №4/4– В.119-122 [10.00.00 №21]
7. Salomova G. Bo‘g‘inli qisqartmalar ingliz va o‘zbek tillari misolida.// O‘zbekiston milliy universiteti xabarлари, Toshkent-2022. ISSN 2181-7324. – Б.284-286. №1/3/1 [10.00.00 №15]
8. Хуснуллина Ю.А. Структурно-семантическая и функциональная специфика аббревиатур компьютерного дискурса// Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук// Москва-2012, - 28 с.

**NAZAR ESHONQULNING “MOMOQO‘SHIQ” QISSASIDA SO‘Z  
YASOVCHI AFFIKSLARNING QO‘LLANISHI**

*Gulnora Xolmurodova*

Denov tadbirkorlik va pedagogika  
instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Nazar Eshonqulning “Momoqo‘shiq “ qissasida qo‘llangan ba’zi affikslar tahlili aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** Affiks, so‘z yasovchi, shakl yasovchi, ot yasovchi, sifat yasovchi, fe‘l yasovchi,

## USE OF AFFIXES IN NAZAR ESHONQUL'S STORY "MOMOQOSHIQ"

**Abstract:** This article presents an analysis of some affixes used in the short story "Momogo'shiq" by Nazar Eshanqul, one of the bright representatives of modern Uzbek literature.

**Key words:** Affix, word maker, form maker, noun maker, adjective maker, verb maker,

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АФФИКСОВ В ИСТОРИИ НАЗАРА ЭШОНКУЛЯ «МОМОКОШИК»

**Аннотация:** В данной статье представлен анализ некоторых аффиксов, использованных в рассказе «Момого'шик» Назара Эшангула, одного из ярких представителей современной узбекской литературы.

**Ключевые слова:** аффикс, словообразователь, формообразователь, создатель существительного, создатель прилагательного, создатель глагола,

Biz nutqimizda so‘zlarni faqat tub holda emas balki yasama holatda ham qo‘llaymiz. Albatta, yangi so‘z hosil qilish uchun so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shamiz. Bu ilmiy tilda “Affiks” deb yuritiladi. Affiks – lotincha so‘z bo‘lib biriktirilgan degan ma‘noni anglatadi. Affiks so‘zga qo‘shilib yangi so‘z yoki so‘z shaklini hosil qiluvchi til birligi hisoblanadi. Masalan: -xo‘r tekin+xo‘r tekinxo‘r . Ya‘ni ot so‘z turkumidagi so‘zdan sifat so‘z turkumiga kiruvchi so‘z hosil qilindi.

Endi esa Nazar Eshonqulning “ Momoqo‘shiq” qissasida qo‘llangan affikslarni tahlil qilamiz. “ – Men sizni o‘qitish uchun hamma narsani gaplashib qo‘ydim. Siz faqat borsangiz bo‘ldi – qo‘lingizni sovuq suvga urmaysiz. Faqat ovozingizni parvarish qilish bilan mashg‘ul bo‘lasiz; o‘qiysiz, o‘rganasiz, eng muhimi – yaxshi, bilimdon, dardi katta odamlar ichida bo‘lasiz...”

**Gaplashib.** Bunda ot so‘z turkumidagi so‘zga fe‘l yasovchi -lash qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida gaplashmoq fe‘li yasalmogda.

**Sovuq** ushbu so‘zning yasalishiga nazar tashlasak **sovi+ q** holatda yasalish sodir bo‘lyabdi hamda tovush almashish hodisasiga uchrab fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zdan ( sovuq) sifat so‘z turkumiga oid so‘z hosil bo‘ldi.

**Bilimdon** bu so‘zda yasalish hodisasi bir necha marta sodir bo‘lgan. Ya‘ni ikkita ot yasovchi affiks ketma ket qo‘shilib **bil+im+don** so‘zini yasalishini kuzatamiz.

“Mening ildizim shu yerda! Shu odamlar orasida, men boshqa joyda **ko‘karmayman.**”

**ko‘karmayman** ushbu so‘zda yasalish quyidagicha bo‘lgan , **ko‘k+ar+may+man** , ya‘ni sifatga fe‘l yasovchi affiks ,fe‘lning bo‘lishsizlik shakli hamda shaxs-son affikslari qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan.

“Shamsi Saloh tund, biroz oliftaroq, jimjima narsaga o‘ch, biroz kibrliroq, hamma narsaning go‘zal bo‘lishini istovchi va hamisha shunga intiluvchi, hashamli va jilvali narsalarni sevuvchi, har bir manzaraning nihoyatda zebo tomonlarini ko‘ra oluvchi, nafis tashbehlariga ustasi farang, yashashi va kiyinishida ham o‘ta ziyolilik

barq urib turuvchi kishi edi; u hayotga ham, tevarak-atrofga ham mana shu ziyolilik “ko‘zoynagi” bilan qarardi”.

**Kibrliroq** bu so‘zdagi yasalişga e‘tibor qaratsak, **kibr+li+roq** ya‘ni kibr otiga **-li** sifat yasovchi affiks qo‘shilgan.

#### **Hasham+li jilva+li**

Yashashi bu so‘zning yasalişhi quyidagicha: yosh+a Yasha+sh yashash+I

**yosh+a** sifatga fe‘l yasovchi affiks qo‘shish orqali

**Yasha+sh** fe‘lga harakat nomi yasovchi affiks qo‘shish orqali

**yashash+I** harakat nomiga shaxs-son affiksi qo‘shish orqali.

Bunda **-sh -ish** affiksini harakat nomi yoki fe‘l nisbati yasovchi affiks ekanligini farqlash biroz mushkul bo‘lishi mumkin.

**Nisbat-** bu bajaruvchining ish-harakatga qay darajada ishtirok etishi bo‘lsa, **harakat nomi** fe‘lning otga xoslangan shakli hisoblanadi. Bu ikkalasini farqlashimiz uchun avvalo, biz ulardan so‘ng qo‘llanuvchi birliklarni bilishimiz zarur. Agar **-sh -ish + mayl shallari,shaxs-son shaklari hamda zamon** qo‘shimchalari bo‘lsa bu nisbat shaklini yasovchi affiks hisoblanadi. Agar **-sh -ish+** egalik, kelishik, ko‘plik shakllari bo‘lsa, bu harakat nomi yasovchi affiks hisoblanadi. Bundan tashqari harakat nomi otini vazifasini bajarishga moyil bo‘lsa nisbat shakllari fe‘lga moyil bo‘ladi.

**Ziyolilik** bunda ot so‘z turkumidagi so‘zga sifat yasovchi **-li** affiksi qo‘shilib sifat so‘z turkumi yasalyabdi. Keyin esa sodda yasama sifatga ot yasovchi **-lik** affiksi qo‘shilib yan ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘zning yasalganini ko‘rishimiz mumkin.

#### **Ziyo+li+lik**

**Istovchi** Bu so‘zimizda istamoq fe‘lga **-vchi** ot yasovchi affiksi qo‘shilishi natijasida tovush almashish hodisasiga uchrab ot so‘z turkumiga oid yangi so‘zning hosil bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

**Sevuvchi** so‘zimizda sevmoq fe‘lga **-uvchi** ot yasovchi affiksi qo‘shilishi natijasida ot so‘z turkumiga oid yangi so‘zning hosil bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

#### **XULOSA**

Nazar Eshonqulning "Momoqo‘shiq" qissasida so‘z yasovchi affikslarning mohiyati va ulardan foydalanish usullari o‘ziga xos ravishda yoritilgan. Muallif, tilning rang-barangligini ta‘kidlab, affikslarning yangi so‘zlar yaratishdagi ahamiyatini ochib beradi. Qissa davomida affikslarning qator ko‘rinishlari - prefikslar, suffikslar va interfikslar - o‘zaro muvofiqlikni, o‘zaro aloqalarni kuchaytiradi.

Ushbu affikslarning ma‘no qatlamlarini ochish orqali, Nazar Eshonqul o‘z qissasini yanada qiziqarli va jozibador qiladi. Har bir affiks so‘zning ma‘no va tasvirini boyitadi, ayniqsa, inson his-tuyg‘ularini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, "Momoqo‘shiq" qissasi nafaqat hikoya, balki tilning boyligi va uning aql-idrokni aks ettirishdagi kuchini namoyish etuvchi asar sifatida ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Nazar Eshonqulning Momoqo‘shiq qissasi asosida.
2. Sayfullayeva-2019 “O‘zbek adabiy tili.
3. Shavkat Rahmatullayev- “O‘zbek adabiy tili.

## LINGVOKONSEPTOLOGIYADA TUSHUNCHALARNI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

*Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi*

Termiz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Tel: +998 (99) 244-00-97

E-mail: [njorayeva461@gmail.com](mailto:njorayeva461@gmail.com)

**Annotatsiya:** Tushunchalar insonning bilish va muloqot jarayonida markaziy o‘rinni egallab, dunyo haqidagi bilimlarni tartibga soluvchi aqliy tuzilmalar sifatida xizmat qiladi. Lingvokontseptologiya, tilshunoslik va kognitiv fanlarni birlashtiradigan fanlararo bo‘lim, tushunchalarning tilda qanday tuzilishi, ifodalanishi va talqin qilinishini tushunishga intiladi. Ushbu tezis lingvokontseptologiyada tushunchalarni o‘rganishning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganadi.

**Key words:** *Tushuncha (konsept), kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, smile, tabassum*

Tushunchalar(konseptlar) bizning dunyo haqidagi tushunchamizni kodlaydigan va lingvistik ma‘no uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan aqliy tuzilmalar hisoblanadi. Tushunchalar bir biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kontseptual tarmoqni tashkil qiladi.

Lingvokontseptologiya tushunchalarning til va muloqotda qanday namoyon bo‘lishiga etibor qaratiladi. Ushbu sohadagi konseptlarni o‘rganishni shakllantiruvchi asosiy nazariyalarga quyidagilar kiradi:

**Kognitiv yondashuv.** Tushunchalarni o‘rganishda kognitiv yondashuvlar inson ongi bilimlarni qanday qayta ishlashini, ifodalashini va tartibga solishini tushunishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar til, fikr va idrok o‘rtasidagi munosabatni ta’kidlab, tushunchalarning muloqotda qanday shakllanishi va ishlatilishini o‘rganadi.

Kognitiv tilshunoslik - bu til va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadigan, odamlarning tilni qanday tushunishi, ishlab chiqarishi va kontseptsiyalashiga e’tibor qaratadigan soha.

Jorj Lakoff va Mark Jonson qarashlariga asoslangan holda, kontseptual metafora nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, mavhum tushunchalar metaforik xaritalar orqali aniqroq tushuniladi [1]. Masalan, biz vaqt, his-tuyg‘ular yoki ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar kabi murakkab tushunchalarni harakat, makon yoki kuch kabi jismoniy tajribalar bilan bog‘lash orqali tushunamiz.

Kognitiv tilshunoslik shuni ta’kidlaydiki, til shunchaki ramzlar to‘plami emas, balki insonning fikrlash jarayonlari bilan chuqur bog‘liqdir. Bu bizning lingvistik tanlovimiz dunyoni qanday idrok etishimiz va tushunishimiz bilan shakllanishini anglatadi. Shunday qilib, tilni o‘rganish asosiy kognitiv mexanizmlar haqida tushuncha berishi mumkin.

Kognitiv tilshunoslikda “*smile/tabassum*” kabi tushunchalarni til, bilish va inson tajribasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir orqali o‘rganish, tushunish mumkin. Kognitiv tilshunoslik shuni ko‘rsatadiki, tushunchalar mujassamlangan va kontekstualdir, ya’ni ular bizning tajribalarimiz, madaniy me’yorlarimiz hamda aqliy jarayonlarimiz bilan shakllanadi. “*Smile*” (ingliz tilida) va “*tabassum*” (o‘zbek tilida) tushunchalarini kognitiv tilshunoslikda turli xil nuqtai nazaridan o‘rganish mumkin.

Ingliz tilida tabassum ko‘pincha yorug‘lik, iliqlik yoki ochiqlik, o‘zbek tilida esa mehmondo‘stlik hamda hurmat shu bilan birga xushchaqchaqlik ma‘nolari bilan bog‘liq. Masalan, “*Her smile lit up the room*” hamda “*tishini oqi ko‘rinmoq*” kabi iboralar tabassumning boshqalarga hissiy ta‘sirini yetkazish uchun og‘zaki nutqda foydalaniladi. Tabassum tushunchasini o‘rganish nafaqat jismoniy harakatni tushunishni, balki hissiy iliqlik va ijobiylikni ifodalovchi ushbu metaforik kengaytmalarni tushunishni ham o‘z ichiga oladi.

**Lingvokulturologik yondashuv.** Tushunchalarni o‘rganishda lingvokulturologik yondashuv til, madaniyat va kontseptualizatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka qaratilgan. Unda til ma‘lum bir nutq jamoasining madaniy qadriyatlarini, me‘yorlari va dunyoqarashini qanday aks ettirishi o‘rganiladi. Ushbu yondashuv tushunchalarga nafaqat kognitiv tuzilmalar, balki madaniy kontekst va an‘analar ta‘sirida shakllanadigan hamda ta‘sir qiladigan madaniy hodisalar sifatida ham qaraydi.

Konseptlar madaniy ma‘lumotlarning tashuvchisi sifatida qaraladi, ya‘ni ular ma‘lum bir madaniyatning qadriyatlarini, e‘tiqodlari va me‘yorlarini aks ettiradi. Tushunchalarning lingvistik ifodalari bir guruh odamlarning noyob tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribalari bilan shakllanadi.

Kubryakova inson bilimlari va lingvistik dunyoqarashni tuzishda tushunchalarning rolini ta‘kidlaydi. Uning so‘zlariga ko‘ra, kontseptsiya tilga chuqur singib ketgan jamiyatning madaniy va ijtimoiy tajribasini ifodalaydi [2].

Lingvokulturologiyada kontseptsiyani ifodalash uchun ishlatiladigan lingvistik shakllarni va bu shakllar madaniy nuanslarni qanday qamrab olishini tahlil qilish juda muhimdir. Ingliz va o‘zbek tillarida tabassum tushunchasini ifodalaydigan “*smile/tabassum*” so‘zlari ham turli xil hissiy, ijtimoiy va madaniy ma‘nolarga ega bo‘lgan lingvistik hamda semantik qatlamlarga ega.

Ingliz tilida “*keep smiling*” yoki “*a smile goes a long way*” kabi iboralar ijtimoiy muhitda ijobiy, muloyim xulq-atvorni saqlashga madaniy e‘tiborni aks ettiradi.

O‘zbek tilida “*tabassum qilmoq*” kabi so‘zlar nafaqat harakatni, balki ijtimoiy uyg‘unlikni kutishni ham anglatib qolmay, balki boshqalarga hurmat va e‘tiborning yashirin belgisi sifatida qaraladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, zamonaviy yondashuvlar til, fikr va madaniyat o‘rtasidagi farqni bartaraf etadi. Kognitiv tilshunoslik tushunchalarning aqliy va tajribaviy asoslarini o‘rganadigan bo‘lsa, lingvokulturologiya - bu tushunchalar jamoaviy madaniy ongini qanday ifodalashini o‘rganadigan yondashuvdir. Ushbu yondashuvlar birgalikda konseptlarning mohiyatini tushunish bo‘yicha keng qamrovli tushunchalarni beradi, shu bilan birga tilshunoslarga “*smile/tabassum*” kabi tushunchalar umuminsoniy tajribalarni va madaniy o‘ziga xoslikni qanday aks ettirishini tahlil qilishga imkon beradi.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.

2. Kubryakova, E. S. (2004). *Language and Knowledge: On the Way to Gaining Knowledge about Language*. Moscow: Languages of Slavic Culture

## BOBURNING LIRIK ASARLARIDA LAB GO‘ZALLIGINI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI

*Soatova Yulduz Soatovna*

Surxondaryo viloyati Termiz tumani

29-maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

<tel:+998990732153>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boburning “Devon” tarkibiga mansub lirik asarlarida lab go‘zalligini tasvirida qo‘llanuvchi so‘z va birikmalar leksik-semantik jihatdan tahlilga tortilgan

**Kalit so‘zlar:** gradatsiya, antonomaziya, semema, ko‘p ma‘nolilik, metafora, sinonimik qator

Bobur tilning ko‘p qirrali qatlamini, lug‘at fondini, uning tabiatini, go‘zalligini, nafisligini, soddaligini, sermazmunligini chuqur bilgan va tushungan, yurakdan his etgan va tilning imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalangan adibdir. Biz ushbu maqolada ijodkorning lab go‘zalligini tasvirlashda qo‘llangan so‘zlarni leksik-semantik jihatdan tahlilga tortdik.

Bobur she‘rlarida qimmatbaho tosh nomlari: *la’l*; antonomaziyalar: *Xizr suyi (chashmasi) Masih alfozi*; gastronomik birliklar: *sharbat, mul(may), shakar,qon, obi hayot*; fitonim: *g‘uncha*; kabi birliklar bilan *lab go‘zalligi* tasvirlangan.

*So‘z so‘rg‘ali la‘li nuqtadoning topmon,*

*Yuz surtgali ul ostoning topmon.*

*Benomu nishonlig‘ istasam, ne tongkim,*

*Nomingni eshitdimu nishoning topmon*

*(Ruboiy)*

**La’l** – a qizil rangli tosh, yoqut.1.Qizil qimmatbaho tosh; qizil yoqut[1]. Ruboiyda lab tasviri la’l so‘zi orqali ifodalangan bo‘lib, mumtoz badiiy matnlarda labdagi “*qizillik*” belgisi la’l so‘zi orqali aniqroq tasvirlanadi, shu sababli badiiy matnda lab uchun funksional-semantik sinonim bo‘lib qo‘llanadi. Boburning “Devon” tarkibiga mansub asarlarida *la’l* 12 marotaba qo‘llanilgan. Shundan 11tasida lab tasviri uchun xizmat qilgan.

Mumtoz adabiy asarlarda go‘zallik belgilaridan biri labning *hajmining kichikligi* go‘zallik belgisi hisoblangan. Bobur quyidagi ruboiyda “*la‘li nuqtadoning topmon*” birikmasi orqali yorning labining go‘zalligi: *hajm(kichiklik)* va *rang (qizil)*belgilariga urg‘u bermoqda:

*So‘z so‘rg‘ali la‘li nuqtadoning topmon,*

*Yuz surtgali ul ostoning topmon.*

*Benomu nishonlig‘ istasam, ne tongkim,*

*Nomingni eshitdimu nishoning topmon.*

*(Ruboiy)*

Lutfiy ijodida esa hajm belgisi uni *pistaga* mengzashini ko‘rishimiz mumkin:

*Hayratda qolib pista o‘giz ochti-yu, qoldi,*

*Majlisda chu og‘zing soridin kechti hikoyat*

(“*Xat qilding yuzing*” g‘azali)

*Pista* leksemasi og‘iz kichikligini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Sababi sharqona go‘zallik etalonida og‘izning kichikligi va xushbichimlik va go‘zallik belgisi hisoblanadi[2].

Atoiy ijodida esa labning kichikligidan uni qayerda ekanligini topib bo‘lmasligi tasvirlangan:

*Tamanno qilg‘ali la‘lingni ko‘nglum*

*Kishi bilmasoni kim qoldi qanda*

(“*Jamoling vasfini*” g‘azali)\_

Bobur labni tasvirlashda antonomaziyalardan ham samarali foydalangan.

**Antonomaziya** – haqida Saidov. Y va Salimova. D quyidagicha fikrlarni berib o‘tadi: “Mazkur san‘at Yevropa tilshunosligida antonomaziya termini bilan ataladi. U badiiy asar yoki nutqda mashhur tarixiy voqea va shaxslar, afsonalar, adabiy asarlar va maqollarga ishora qilish usulidir. Antroposentrik paradigma yo‘nalishidagi tadqiqotlarda esa bu tushuncha *allyuziya* yoki *pretsedent* nomlari bilan yuritilmoqda. O‘zbek tilshunosligida talmeh badiiy san‘atiga asos bo‘luvchi birliklar lingvopoetika va antroposentrik yo‘nalishlarda onomastik birlik, onomastik metafora, pretsedent nom, allyuziv nom va “so‘zlovchi” nomlar kabi atamalar ostida o‘rganilib kelmoqda. Hozirgi davr nuqtayi nazaridan Bobur qo‘llagan talmehlarning aksariyatini o‘qiganda yoki eshitganda fahmlash, qaysi faktga ishora, murojat etilayotganini tezda anglash mumkin. Uning lirik asarlarida qo‘llangan antonomaziyalarning asosiy qismini badiiy asarlardagi obraz: payg‘ambar va tarixiy shaxslar nomi tashkil etadi “[3].

“Devon”da *Xizr* besh marotaba qo‘llanib, faqat yor labiga timsol sifatida qo‘llangan. *Masih* uch bora qo‘llanilib yorning *labi*, *so‘zi*, *yor haqidagi xabari* uchun ramz bo‘lib kelgan.

Ijodkorning quyidagi she‘rida payg‘ambarlar asosida shakllangan antonomaziyalarni guvohi bo‘lamiz.

*Kim Xizr suyini og‘izlag‘ay labingning qoshida?*

*Kim Masih alfozidin degay kaloming borida?!*

(“*Ne ko‘ray to‘boni qaddi xushxiroming borida?!*” g‘azali)

Yuqoridagi misralarda *Xizr* suyini (bulog‘i), *Masih* alfozi (so‘zi) antonomaziyalari *lab* va *so‘zga* qiyos qilinishining asosi “*tiriltiruvchi*”, “*yoshartiruvchi*” “*yangi hayot beruvchi*” semalarga ega ekanligi. Bobur ijodida *Masih alfozi*, *Xizr suyini*, *obi hayot* kabi so‘zlarida integral sema “*tiriltiruvchi*” borligi lab tasvirida qo‘llanishiga asos bo‘lgan.

*Ey qomati sarvu lablari obi hayot,*

*Budur tilagimki, — yetkamen vaslingga bot!*

*Hajringda manga ne sabr qoldi, ne sabot,*

*Yo kel bu sorig‘a yo meni o‘zungga qot!*

(*Ruboiy*)

Yor lablarining shirin ta‘mga egaligi “*sharbat*” leksemasni qo‘lanishi orqali aniq ifodalangan. Chunki *sharbat* sememasi tarkibida “*yoqimli ta‘m*” semasi mavjuddir. Quyidagi misralarda g‘ayr so‘ziga *zahr qotil*(*o‘ldiruvchi qotil*) sifati, yor labining

sharbatini *yuhyil-izoming(suyaklarni tiriltiruvchi)* ikki qarama-qarshi so‘zlar orqali antiteza hodisasini yuzaga keltirgan.

*Ey ko‘ngul, gar g‘ayr so‘zi zahri qotildur, ne g‘am,*

*Lablaridin sharbati yuhyil-izoming boride*

(“*Ne ko‘ray to‘boni qaddi xushxiroming borida?*” g‘azali)

**Shakar** so‘zi jami olti marta *shakarxon shakarrez, shakarboring, shakarxo, shakar* shaklida qo‘llanilib, hammasida ma‘shuqa labiga bo‘lgan emotsional-ekspressiv fikrni ifodalash uchun xizmat qilgan.

*Kim ko‘rar xurshidni ul mohsiymo bo‘lmasa?!*

*Kim so‘rar shakkarni ul la‘li shakar bo‘lmasa?!*

(“*Kim ko‘rar xurshidni...*” g‘azali)

**Qon** so‘zining ma‘no tarkibida *qizil rang* semasi mavjud bo‘lib, u labdagi rang belgisini kuchliroq ifodalab kelgan.

*Yuzida ul labi xandon ko‘runur,*

*Sutga ko‘p boqsa, bale, qon ko‘runur.*

(“*Yuzida ul labi xandon ko‘runur*” g‘azali)

**G‘uncha** leksemi o‘n yetti marta Bobur she‘riy devonida qo‘llanilgan, unda *yorning labi, oshiqning ko‘ngliga* etalon sifatida qo‘llanilgan. Bobur birgina she‘rda bu so‘zni ikki timsol sifatida qo‘llash mahoratini (“*Chun falak qo‘ymas meni...*” g‘azalida **g‘uncha** og‘iz va *ko‘ngilga* timsol sifatida qo‘llanganligida ko‘rishimiz mumkin. G‘unchadagi *hajm(kichiklik)* va *rang(qizillik)* belgilari lab va g‘uncha o‘rtasida mutanosiblikni hosil qilgan. Ko‘ngilga timsol qilib olinish sababi ko‘ngilning holati va g‘unchaning tashqi holatiga o‘xshashligi sabab bo‘lgan.

**G‘unchadek og‘zing g‘ami ko‘nglumda gar yo‘q, bas nedur**

**Chok ko‘nglum xay‘ati gul g‘unchasi andomida?**

(“*Chun falak qo‘ymas meni bir laxza vasl ayyomida*” g‘azali)

Bobur quyidagi baytda ma‘shuqa lab tasviri gradatsiyadan foydalangan holda undagi go‘zallik mazmuni ta‘kidi yanada kuchliroq ifodalangan:

*Gul yuzung erur lola, vale, lolai xudro‘y,*

*Tor og‘zing erur g‘uncha, vale, g‘unchai xandon.*

(“*Xurshid yuzung birla bu kun, ey maxi tobon*” g‘azali)

**Gradatsiya**-(lot.gradatio – zinapoya bosqichma-boshqich kuchaytirish) nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma‘nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon[4].

Yuz va lab uchun uchun ko‘tariluvchi gradatsiya

*Yuz→lola→ lolai xudro‘y*

*Og‘iz→g‘uncha→g‘uncha xandon*

*Yuz* va *lola* ikki leksemaning mutanosiblik belgisi “rang”; *yuz* va *lola xudro‘y* “fe‘l atvori” jihatidan mutanosiblik hosil qiladi. Og‘izning *hajm* va *rang* jihatdan go‘zalligi *g‘uncha* orqali veraballashsa *g‘uncha xandon* birikmasi orqali go‘zallik ma‘nosi yanada bo‘rtiriladi.

*Ey qomati sarvu lablari obi hayot,*

*Budur tilagimki, — yetkamen vaslingga bot!*

*Hajringda manga ne sabr qoldi, ne sabot,*

*Yo kel bu sorig‘a yo meni o‘zungga qot!*

(*Ruboiy*)

**Xulosa:** Bobur ijodida go‘zallik tasviri yetakchi mavzulardan bo‘lib, lab go‘zalligi tasviri uchun keltirilgan *g‘uncha, la‘l, shakar* leksik birliklari predmetlik tushunchasi bilan birga poetik tushuncha ham ifodalashi uning traditsion poetik so‘zga aylanishiga asos bo‘lgan.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. ЎТИЛ. Л ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Б. 491
2. Marufova Z. Mumtoz badiiy matnlarda “go‘zallik” konseptining verballashuvi. Farg‘ona – 2022.14B
3. Saidov Y.S., Salimova D.F. “Bobur lirikasidagi antonomaziyalarning semantik xususiyatlari”. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosini o‘rganish dunyo talqinida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. 2021 –46,47B
4. Marufjon Y. “Badiiy matnning lisoniy tahlili”–Toshkent.2010–92B

**LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES OF THE CONCEPT OF “YOLG‘IZLIK (LONELINESS)” AND “HIJRAN (PARTING)” IN UZBEK AND ENGLISH**

*Sobirjonova Mukhlisa Sobirjonovna,*

Teacher, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

[m.sobirjonova11@gmail.com](mailto:m.sobirjonova11@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0001-2468-9215>

**Abstract:** This article analyzes in detail the linguistic and cultural features of the concepts of "loneliness" and "parting" in Uzbek and English languages. The semantic load of these concepts in both cultures, how they are expressed in literature, folklore and national culture is studied. In Uzbek, the concept of emigration is related to national values and longing, while in English, the concept of loneliness reflects the concepts of individuality and freedom. The analysis of these concepts, intercultural differences and their social and psychological aspects are covered within the framework of linguoculturology.

**Key words:** loneliness, parting, linguistic and cultural studies, Uzbek language, English language, cultural symbols, metaphor, national values, individuality

**Introduction:**

Relevance of the topic:

Human emotions such as loneliness and exile manifest themselves in different cultures, and the ways in which these emotions are expressed depend on the culture, traditions and values of the people. In Uzbek culture, feelings of exile and loneliness are mainly associated with longing, distance and collective values, while in English culture, these concepts are often based on individuality and freedom. Linguistics studies the possibilities of expressing human inner feelings through language. This

allows us to analyze the cultural context of concepts such as loneliness and emigration.

A general understanding of the concepts of loneliness and emigration:

In Uzbek and English, the concepts of loneliness and emigration have different meanings, and these concepts have their own expression in different cultural contexts. In Uzbek, “hijron” is more associated with longing, distance from love, and separation, while in English, loneliness is associated with concepts of individuality, self-awareness, and inner freedom. Also, the English word "parting" means positive solitude, that is, creative and personal development.

Linguistic culture and its content:

Linguistics is a field that studies the relationship between language and culture, which helps to analyze intercultural differences through language. This approach tries to understand the emotional world of a person through language and studies the influence of cultural values and customs on language. Cultural expressions of loneliness and exile are important material for analyzing the deep semantic meaning of language.

English and Uzbek culture: a brief comparison:

English and Uzbek cultures interpret loneliness and “parting” in different ways. In Uzbek culture, these feelings are more related to longing, community and human relationships, while in English culture, loneliness is closely related to personal freedom and individuality. In Uzbek poems, emigration is often associated with love, longing, and separation, and is expressed through folk poetry. In English literature, loneliness is interpreted more as a part of personal experience, inner isolation and philosophical life.

#### **Materials and methods (Methods and Materials):**

In the research, literary works written in Uzbek and English languages, folklore and cultural materials were analyzed. Semantic and pragmatic features of the concepts of loneliness and emigration in two cultures were studied using the linguistic and cultural approach.

1. Analysis of literary sources: poetic works, folk epics and novels written in Uzbek and English were analyzed.

2. Analysis of the cultural context: cultural symbols and metaphors of the concepts of loneliness and emigration were studied in the cultural context.

3. Comparison method: the semantic and pragmatic differences of these concepts in Uzbek and English languages were compared.

#### **Results:**

According to the results of the analysis, the concepts of "loneliness" and "parting" in the Uzbek language are mainly related to love, longing and separation, and are widely used in folk songs and poetry. In Uzbek culture, the concept of emigration has a symbolic meaning related to being far from the homeland and relatives.

In English, the concept of "loneliness" means social separation, the negative aspects of loneliness, and "parting" gives a positive meaning of internal isolation, that is, it means personal development, internal freedom. In English literature, loneliness

is interpreted as individuality, independence and philosophical experience. These results show cultural differences and national interpretations of emotions expressed through language.

**Discussion:**

The concepts of loneliness and “hijron” in Uzbek and English are linguistically and culturally different. In Uzbek culture, “hijron” and loneliness are associated with collective relationships and love, while in English culture, loneliness is more associated with individuality and personal development. Linguistic differences relate the meaning of these concepts to culture and social values.

In Uzbek culture, collective values and family relations shape “hijron”. In folk poetry, these concepts are mainly associated with homeland, love and separation. In English culture, loneliness is represented by symbols of social isolation and internal isolation.

**Conclusion:**

This study shows that the concepts of loneliness and “hijron” in Uzbek and English languages have significant linguistic and cultural differences. In Uzbek culture, emigration is more associated with longing and separation, while in English culture, the concept of loneliness is more associated with individuality and personal development. In future studies, a deeper linguistic and cultural analysis of these concepts will be useful in studying the influence of national values and traditions on language.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Ахмедова, Д. Ж. [2010]. "Ўзбек шеърлятида ҳижрон мотиви". Миллий маданият ва фольклор тадқиқотлари, 4(10), 23-35.
2. Бердиева, М. А. [2018]. "Миллий қадриятлар ва тил: Ўзбек тилидаги лингвокультурологик хусусиятлар". Ўзбек тили ва адабиёти, 2(34), 45-57.
3. Белова, А. Д. [2022]. Лингвокультурология: теория и методы исследования. Москва: Гнозис.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. [1980]. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Мирзахмедов, А. [2017]. "Лингвокультурологик таҳлилда халқ ижодиётининг аҳамияти". Адабиётшунослик ва тилшунослик журнали, 1(15), 29-42.
6. Muxlisa, S., & Mohinur, Q. [2022]. Lingvokulturalogiyaning kelib chiqish tarixi. *Евразийский журнал академических исследований*, 2[3], 379-383.
7. Nasrullayeva, G. [2019]. An Anthropocentric Metaphor in The System Of A Linguistic World Picture. *Philology Matters*, 2019[1], 64-70.
8. Насруллаева, Г. (2022). Антропоморфемик метафоралар луғатини тузиш мезонларига доир мулоҳазалар: Насруллаева Гулшан, Тошкент ахборот технологиялари университети Қарши филиали ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти в. б. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (3).

9. Sobirjonova, M., Qayumova, M., Turdalieva, S., & Xayitaliyev, S. [2024]. Lingvokulturologiyaning shakllanishida konseptning o‘rni. *Interpretation and researches*.

10. Sobirjonovna, S. M., & Xoliqulovna, B. M. [2024]. The Concept of “Loneliness” and “Alienation” in the English Language. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* [2994-9521), 2[6], 400-403.

## **YOSH O‘ZBEK SHOIRLARI IJODIDA LIRIK KECHINMA VA BADIY KO‘CHIMLAR –SHE’RIYATNING O‘ZAGI SIFATIDA**

*Saitova Nilufar Djumaydillayevna,*

Denov tadbirkorlik va Pedagogika institute  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi  
E-mail: eyehdhue76@gmail.com

**Annotatsiya:** Yosh o‘zbek shoirlari ijodidagi lirik kechinma va badiiy ko‘chimlar uyg‘unligi ulardagi shaxsiy ifoda, madaniy meros va ijodiy yangilikning jozibali uyg‘unligini yaqqol ifodalaydi. Bu yetishib chiqayotgan iste’dod sohiblari o‘zlarining ta’sirchan misralari orqali o‘zbek adabiy an’analari va zamonaviy badiiy oqimlarning boy merosidan ilhom olish bilan birga, she’riyatiga chuqur hissiy chinlik tuyg‘usini singdiradi. Maqolada biz yosh o‘zbek adiblari she’riyatidagi lirik kechinma va badiiy harakatlar o‘rtasidagi nozik o‘zaro ta’sirlarni ko‘rib chiqamiz, ularning she’riy ifodalarini belgilovchi mavzular, uslublar va ijtimoiy-madaniy jihatlariga chuqurroq kirib boramiz.

**Kalit so‘zlar:** yosh o‘zbek adiblari, lirik kechinma, adabiyot, badiiy ko‘chimlar, shoir.

**KIRISH.** Har bir ulug‘ shoirning dunyoga kelishi alohida hodisa. Alohidaligi shundaki, chin shoir ijodiyoti millat ma’naviy hayotida yangi o‘zgarishlar, tafakkurda esa yuksalishlar paydo etadi. Shuningdek, haqiqiy shoir har qanday sharoitda ham xalqining ishonchlarini oqlash bilan bir qatorda, uning qalb tayanchi ham bo‘la oladi. Tarixiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, xalq qiyin ahvolda qolgani zamon Mavlono Jaloliddin Rumiya murojaat qilar, undan yordam va tasalli istar ekan. Bir kun hunarmandlar haqsizlik va zulmdan shikoyat etishganda Mavlono, «Qassob itni so‘yganini hech ko‘rganmisiz, albatta u qo‘yni so‘yar», degan ekanlar. Jaloliddin Rumiya eng tahlikali vaqtlarda ham mehnatkash xalqdan ajralmagan, o‘zini aslo chetga tortmagan. Masalan, mo‘g‘ul lashkarboshisi Boychu qo‘shinlarining Kunyo chegarasiga yaqinlashishi bilan hukumatdan umidini uzgan xalq Mavloning huzuriga intilishgan. Rumiya hazratlari o‘sha kecha bola-chaqani tashlab bir o‘zlari mo‘g‘ul lashkarboshisi qarorgohining yonidagi bir tepalikka borib, bosqinchilar ahvolini kuzatib, shu tepalikda tong ottirmishlar. Azonda Ko‘nyoga qaytib, xaloyiqqa qo‘rqmaslik va hech nima bo‘lmaslikni bildirganlar. Yosh o‘zbek shoirlari ijodidagi lirik tajriba va badiiy harakatlar uyg‘unligi hissiyotlar, madaniy o‘ziga xoslik va jamiyat evolyutsiyasining ko‘p qirrali izlanishlarini namoyish etadi. O‘zbekiston yosh shoirlari, ayniqsa, yetishib chiqayotgan iste’dod egalari o‘z shaxsiy tajribalarini badiiy, ijtimoiy va siyosiy manzaralarning keng konteksti bilan bog‘lashda muhim rol o‘ynadi va shu orqali ham mahalliy, ham jahon miqyosida tomoshabinlarda aks-sado

beradigan boy adabiy ifoda gobelenini yaratdi. Ushbu muqaddimada biz yosh o‘zbek adiblari she’riyatida lirik kechinma, badiiy harakatlar va ularning yaqinlashuvi ahamiyatini chuqurroq ochib, individual ijod va jamoaviy hikoyalar o‘rtasidagi o‘ziga xos o‘zaro bog‘liqlikni yoritib beramiz.<sup>11</sup>

### **METODOLOGIYA**

Lirik tajriba va hissiy ifoda. Lirik she’riyat ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi, bu orqali yozuvchilar o‘zlarining ichki fikrlari, his-tuyg‘ulari va kechinmalariga chuqurroq kirib boradilar, inson tuyg‘ularining mohiyatini o‘zida mujassam etgan misralar yaratadilar. Yosh o‘zbek shoirlari ijodida muhabbat, sog‘inch, sog‘inch va matonat mavzularini o‘z ichiga olgan shaxsiy sayohatlari bilan chuqur ishtiyok aks etgan. Bu shoirlar o‘z she’rlari orqali insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning nozik jihatlarini, o‘z-o‘zini kashf etishning nozik jihatlarini ifodalaydi. Lirik tajriba, bu paydo bo‘lgan ovozlarda she’riyatida namoyon bo‘lganidek, lingvistik to‘siqlarni engib o‘tib, o‘quvchilarni hissiy ifodaning xomligi va haqiqiylikiga sho‘ng‘ishga taklif qiladi.

Badiiy va madaniy harakatlar. Tarixiy va zamonaviy badiiy harakatlar O‘zbekistonning bunyodkorlik manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Mumtoz adabiyotning boy merosidan tortib, zamonaviy badiiy ifodalarning jadal oqimlarigacha bo‘lgan shoirlar O‘zbekistonning ijtimoiy tuzilishiga singib ketgan madaniy, badiiy va intellektual oqimlardan ilhom olganlar. Qolaversa, she’riyatning an’anaviy shakllarining avangard eksperimentlari bilan uyg‘unlashuvi yosh o‘zbek shoirlarining badiiy traektoriyasini belgilab, ularni madaniy davomiylik va zamonaviy innovatsiyalar chorrahasida joylashtirdi. Badiiy harakatlar va madaniy kontekst o‘rtasidagi bu dinamik o‘zaro ta’sir ularning ijodiga o‘zbek jamiyatining doimiy rivojlanib borayotgan dinamikasini aks ettiruvchi jo‘shqinlik va dolzarblik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Identifikatsiya va ijtimoiy hikoyalarni o‘rganish. Yosh o‘zbek yozuvchilari she’riyati o‘ziga xoslik va jamiyat hikoyalarni kengroq o‘rganish uchun individual introspektsiyadan ustun turadi. Bu shoirlar o‘z she’rlari orqali shaxsiy o‘ziga xoslik, madaniy meros va jamiyatdagi o‘zgarishlarning murakkab uyg‘unligini yo‘lga qo‘yib, zamonaviy o‘zbek yoshlarining ko‘p qirrali kechinmalariga chuqur tushunchalar beradi. An’analar va zamonaviylik, meros va diaspora hamda jamiyatdagi o‘zgarishlar sharoitida barqarorlik mavzulari ularning ijodida keng tarqalgan bo‘lib, bu o‘zbek jamiyatining rivojlanayotgan axloqi bilan chuqur aloqadorlikni aks ettiradi. Demak, ularning she’riyati o‘zbek o‘zligining rang-barang va rivojlanib borayotgan gobelenlarining ko‘zgusi bo‘lib, an’ana va taraqqiyot chorrahasida sayr qilayotgan avlod ma’naviyatini aks ettiradi.

### **MUHOKAMA**

Global aks-sadolar va madaniyatlararo muloqot. O‘zbekistonning madaniy va til merosidan ildiz otgan yosh o‘zbek adiblarining she’riyati milliy chegaralardan

<sup>11</sup> Yo‘lchiyev, Q. (2022). LIRIK JANR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 27-27.

tashqarida aks sado beradi, butun dunyo kitobxonlari bilan mazmunli madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi. Bu shoirlar o‘zlarining ta’sirchan tasvirlari, nozik hikoyalari va hissiyotli aks sadolari orqali mahalliy va umumbashariy, geografik chegaralardan oshib ketadigan mavzu va tajribalar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etadilar. Natijada, ularning ijodi global adabiy almashinuvning kengroq hikoyasiga hissa qo‘shadi, turli madaniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ularning lirik ijodining asosini tashkil etuvchi sevgi, yo‘qotish, umid va chidamlilik kabi universal mavzular bilan shug‘ullanishga taklif qiladi.<sup>12</sup>

Yosh o‘zbek adiblari she’riyatining zamirida lirik tajribaga chuqur kirishish – she’riyat orqali shaxsiy his-tuyg‘ular, kechinmalar va ichki mushohadalarni o‘rganish yotadi. Ularning she’riyati sevgi, sog‘inch, sog‘inch, chidamlilik kabi mavzularni insoniy tuyg‘ularga nafis sezgirlik bilan uyg‘unlashtirib, chuqur hissiy manzaralarni ifodalash uchun idish bo‘lib xizmat qiladi. Bu shoirlar o‘z tillarining ta’sirchan kuchi orqali o‘quvchilarni o‘z his-tuyg‘ularining jonli manzaralarini kezib o‘tishga, inson tajribasining xomligi va haqqoniyligiga chuqurroq kirib borishga chorlaydi. Ana shunday shoirlardan biri, keling, uni Amina deb qo‘yaylik, o‘zining lirik kechinmalarini shaxsiy judolikning o‘tkir aks sadosi bilan nozik bog‘laydi, misralariga g‘am va xotiraning umumbashariy tilda so‘zlovchi ta’sirchan go‘zallik singdiradi. O‘zining nafis kompozitsiyalari orqali u insoniy qayg‘uning labirint tubida sayr qiladi, o‘quvchilar bilan chuqur hissiy darajada aks-sado beradigan misralar yaratadi. Uning she’riyati lirik kechinmaning o‘zgartiruvchi kuchidan dalolat berib, o‘quvchilarga uning she’rlari orqali ochib bergan hissiyotli manzaralarga hamdard bo‘lish va ularni o‘z ichiga qamrab olish imkonini beradi.

Yosh o‘zbek shoirlari lirik tajribani o‘rganish bilan bir qatorda badiiy harakatlar va madaniy kontekstlarning boy gobelenidan kelib chiqib, o‘z ijodiga an’analar aks-sadosi, zamonaviylik ritmi va jamiyat evolyutsiyasi to‘qimalarini singdiradi. Bu shoirlar o‘zbek adabiyotining mumtoz merosidan tortib, zamonaviy badiiy iboralar oqimigacha bo‘lgan davrda o‘zlarining badiiy merosi bilan faol shug‘ullanadilar va hozirgi O‘zbekistonning ravon dinamikasi doirasida o‘zlarining badiiy merosini qayta kontekstualashtiradilar. Masalan, she’riyatida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, tasavvuf an’analari aks-sadosi uyg‘unlashgan yosh shoirlarning ijodini olaylik. Shoirlar o‘zining an’anaviy shakllarni innovatsion hikoya usullari bilan uyg‘unlashtirishi orqali o‘zbek adabiy merosining boy merosini jonlantirib, unga zamonaviy dolzarblik va madaniy aks-sado beradi. Uning misralari o‘zbek adabiy an’analari va zamonaviy ijodiy ifodasining dinamik davomiyligini o‘zida mujassam etgan o‘tgan yillardagi badiiy oqimlar bilan bugungi o‘zgaruvchan kuchlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi.<sup>13</sup>

## NATIJA

Yosh o‘zbek shoirlari she’riyati shaxsiy introspektsiya va badiiy ta’sirlardan tashqari, shaxsiy va jamoaviy o‘ziga xosliklarning ko‘p qatlamli murakkabliklari

<sup>12</sup> Aralovna, M. S., & Abdukadirovna, A. U. (2023). USMON AZIM LIRIKASIDA IJROVIYLIK XUSUSIYATLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(2), 266-271.

<sup>13</sup> Ergasheva, M. (2023). ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA POETIK OHANGDORLIKNING RANG-BARANGLIGI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 103-106.

hamda ular bilan chambarchas bog‘langan ijtimoiy hikoyatlarga oyna bo‘lib xizmat qiladi. Bu shoirlar o‘z she‘rlari orqali an‘ana va zamonaviylik chorrahasida, madaniy diasporaning tarangligini va jamiyatdagi o‘zgarishlar oqimlarida suzayotgan avlodning o‘zib borayotgan intilishlarini kezaadi. Ko‘plab shoirlar madaniy birdamlik, diaspora intizorligi va rivojlanayotgan jamiyatning barqarorligi haqidagi hikoyalarni birlashtirib, zamonaviy o‘zbek yoshlari odob-axloqini mohirlik bilan tasvirlaydi. Uning she‘riyati individual va jamoaviy o‘ziga xosliklarni birlashtirgan chegaraviy bo‘shliqlarni qamrab olgan bo‘lib, zamonaviy o‘zbek tajribasi tarixiy meroslar, global ta’sirlar va mahalliyashtirilgan intilishlar mozaikasi orqali qanday shakllanayotganining nozik tasvirini ifodalaydi. Bunda u o‘zbek o‘ziga xosligining doimiy o‘zgarib borayotgan o‘lchovlari va u tomonidan shakllantiriladigan va shakllantirilayotgan ijtimoiy hikoyalar haqida o‘tkir mulohaza yuritadi.

Yosh o‘zbek adiblari she‘riyati milliy chegaralardan tashqarida ham aks-sado berib, til, geografik va ijtimoiy-siyosiy chegaralarni chetlab o‘tgan boy madaniyatlararo muloqotni rivojlantirmoqda. Ushbu shoirlar o‘zlarining nozik hikoyalari, hissiy aks sadolari va universal mavzuli izlanishlari orqali turli madaniy kelib chiqishi o‘quvchilarini o‘zlarining she‘rlari orqali qamrab olgan hissiy manzaralar va ijtimoiy hikoyalar bilan shug‘ullanishga taklif qiladilar. Yosh shoirlar sevgi, yo‘qotish, umid va chidamlilik kabi umumbashariy mavzularga mohirlik bilan tayanadi va butun qit‘alar o‘quvchilarida aks-sado beradigan misralar yaratadi. O‘z she‘riyatining ajoyib kuchi orqali u mazmunli madaniyatlararo muloqotni osonlashtiradi va o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan universal insoniy tajribalar bilan hamdard bo‘lishga va mulohaza yuritishga taklif qiladi. uning o‘zbek madaniy merosi. Ularning misralari turli madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, jahon hamjamiyatlarida hamdardlik, tushunish va hamjihatlikni rag‘batlantiradigan she‘riyatning o‘zgaruvchan salohiyatidan dalolat beradi.<sup>14</sup>

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, yosh o‘zbek shoirlari ijodida lirik tajriba va badiiy harakatlar uyg‘unligi she‘riyatning o‘zgartiruvchi kuchidan chuqur dalolat beradi. O‘zining ta’sirchan misralari orqali o‘zining zamonaviy o‘zbek adabiy iboralarini belgilab beruvchi hissiy manzaralar, madaniy rezonanslar va global dialoglarni bosib o‘tadi. Ularning she‘riyati lirik tajribaning doimiy dolzarbligidan, badiiy harakatlar dinamikligidan, she‘riyatning individual va jamoaviy hikoyalar vositasi sifatidagi transsendent salohiyatidan dalolat beradi. Yosh o‘zbek adiblari she‘riyatida lirik tajriba va badiiy harakatlarning uyg‘unlashuvi shaxsiyintrospektsiya, madaniy rezonans va global o‘zaro bog‘liqlikning jadal uyg‘unligini ifodalaydi. O‘zining she‘riy ifodalari orqali yangi paydo bo‘lgan ovozlari hissiy haqqoniylik, badiiy yangilik va madaniy muloqot uchun makon yaratadi, o‘zbek adabiy merosining boy gobelenlarini qamrab oladi va ijodiy izlanishning yangi hududlarini belgilab beradi. Ushbu maqola yosh o‘zbek shoirlari she‘riyatida individual ifoda va jamoaviy

---

<sup>14</sup>Mukhammadjonova, G. (2020, December). Artistic interpretation of the creative concept in world literature. Конференции.

hikoyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni har tomonlama o‘rganishni taklif qilib, ular ijodining ko‘p qirrali jihatlarini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan.<sup>15</sup>

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Yo‘lchiyev, Q. (2022). LIRIK JANR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. Scientific journal of the Fergana State University, (2), 27-27.
2. Aralovna, M. S., & Abdukadirovna, A. U. (2023). USMON AZIM LIRIKASIDA IJROVIYLIK XUSUSIYATLARI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 3(2), 266-271.
3. Ergasheva, M. (2023). ZEBO MIRZO SHE’RIYATIDA POETIK OHANGDORLIKNING RANG-BARANGLIGI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(7), 103-106.
4. Mukhammadjonova, G. (2020, December). Artistic interpretation of the creative concept in world literature. Конференции.
5. Yo‘lchiyev, Q. (2023). ANVAR OBIDJON LIRIKASIDA SEMIOTIK XUSUSIYATLAR. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 80-80.

**INGLIZ TILIDAGI NEOLOGIZMLARNING KIRIB KELISHI VA KUNDALIK HAYOTIMIZDAGI O‘RNI**

*Ziyoieva Dilshoda Burxon qizi*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich talabasi.

**Annotatsiya.** Maqolada “Neologizm” atamasiga ta’rif berilib, uning paydo bo‘lish sabablari, aholi orasida qanchalik tez tarqalishi, uning foydali va zararli tomonlari, hamda ulardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Neologizm, internet, axborot, jurnal, gazeta, elektron, television, telefon, radio.

Neologizm atamasi yunonchadan olingan bo‘lib, “neos”-yangi, “logos”-so‘z degan ma’noni anglatadi. Jamiyat taraqqiyoti va talab-ehtiyojlaridan paydo bo‘lgan so‘zlar. Ya’ni, taraqqiyot orqali deganda turli tilda so‘zlashuvchi insonlarning internet orqali yoxud o‘sha davlatga qilgan safari orqali o‘rgangan so‘zlarini o‘z jamiyatlarida targ‘ib qilishini va chet elliklar bilan hamkorlikdagi siyosiy majlislarda ishtirok etgan shaxslarning o‘sha so‘zlarni aholi orasida qo‘llab, uni keng jamoatchilikka tarqatishini tushunish mumkin. Kundalik hayotda ishlatadigan zamonaviy buyumlarimizning ona tilimizdagi tarjimasidan ko‘ra o‘z nomi bilan atash ham qulay, ham tushunarliroq bo‘lgani uchun ularni chetdan kirib kelgan nom bilan ataymiz va bu talab-ehtiyojlari orqali paydo bo‘lgan so‘zlar degan tushunchaga misol bo‘ladi.

Bilamizki, bosma ommaviy axborot vositalari (jurnal, gazeta, kitob) doimo adabiy tilda yoziladi. Shuning uchun, neologizmlar ko‘pincha elektron va radio

<sup>15</sup> Yo‘lchiyev, Q. (2023). ANVAR OBIDJON LIRIKASIDA SEMIOTIK XUSUSIYATLAR. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 80-80.

eshittirish vositalari (televezion, an’anaviy telefon, film) orqali tezroq tarqaladi. Bu kabi elektron va radio eshittirish vositalaridan yoshlar ko‘proq foydalanadi. Shuningdek, hozirgi kunda aholining 60%ini yoshlar tashkil etadi. Bu esa neologizmlarning qanchalik tez tarqalayotganiga yaqqol misoldir.

Mamlakatimizda o‘zlashma so‘zlarning ko‘pligi yaxshi, albatta. Chunki, bu chet el davlatlari bilan siyosiy aloqalarni yaxshilashga, jamiyatning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Shuningdek, bir sozni ham o‘z tilida , ham adabiy tilimizda qanday talaffuz qilinishini ,qanday ma’no anglatishini bilib olishimiz mumkin. Masalan, “chiroq “ so‘zini misol qilib oladigan bo‘lsak, hozirgi kunda hamma bu so‘zni “svet” nomi bilan ataydi ,xatto uning asl nomini bilmaydiganlar ham yo‘q emas. Bu adabiy tilimizni yo‘qotayotganimizdan darak. Shuning uchun , biz iloji boricha o‘z ona tilimizda muloqot qilishimiz kerak. Quyida esa o‘zlashma so‘zlardan namunalar va ularning asl ma’nolari keltirilgan:

Admin (ing. admin – ega) –ijtimoiy tarmoq guruhlari yaratuvchisi ,egasi.

Akademik (ing. academic –olim )- fan sohasi mutaxassislari

Aktiv (ing. active –faol )- faol , harakatchan shaxslar.

Akkaunt (ing. account – hisob raqam ) – bank , ilovalardagi hisobot.

Atmosfera (ing. atmosphere– havo ) – ma’lum bir joydagi havo.

Effekt (ing. effect – ta’sir)- biror bir ishning natija ,samarasi.

Layfhak (ing. lifehack – yangi usul ) – bi jarayonni yaxshilashga yordam beradigan aqlli va oddiy yechim .

Prank (ing. prank –hazil )- kimdir bilan hazil yoki o‘yin qilish.

Skrinshot (ing. screenshot – tasvir nusxasi ) – kompyuter monitori , telefon va boshqalar ekranidagi tasvirning elektron nusxasi.

Xeyter (ing. xeyter – salbiy fikr bildiruvchi shaxs) – biror kishi yoki narsaga zarar yetkazish uchun ataylab salbiy munosabat bildiruvchi shaxs.

Lavash (ing. lavash – yassi non) – qalinligi 5 mm dan oshmaydigan yassi non.

Vayfay (ing. wifi – simsiz texnologiya)- qurilmalarni simsiz, radio to‘lqinlar orqali internetga ulash imkonini beradigan qurilma.

Feyk (ing. fake –soxta ma’lumot ) – haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan yoki haqiqiy deb o‘ylash uchun yaratilgan soxta ma’lumot.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh\\_Sahifa](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa)

2.<https://elibrary.tdpu.uz/>

3.<https://cyberleninka.ru/>

4.<https://izoh.uz/>

5. <http://www.linguistics.tsuull.uz/>

6. O‘zbekiston: til va madaniyat.

## TIL – MILLAT QIYOFASINING BIR BO‘LAGI

*Nabiyeva Nodira Saidovna,*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tili va uning ahamiyati, shuningdek, ona tilimizning dunyo tillar oilasida tutgan o‘rni borasida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat tili, muloqot, “Til-millat ko‘zgusi”, “Til-ma’naviyat ko‘zgusi”, “Til-millatning bebaho boyligi”, ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari.

Til insonlarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, yaratuvchining insonga bergan bebaho ne‘matidir. Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri ham tildir. Dunyoda har bir xalqning o‘z tili uning bebaho boyligi, iftixori, najoti hisoblanadi. Hikmatli so‘zlar, she’ru dostonlar, qo‘shiqlar avvalo biror bir millatning ona tilida dunyoga keladi. Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi, tili yashar ekan u millat boshqa millatlar orasida o‘z nufuzi, obro‘sigacha ega bo‘ladi. Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktyabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi. Istiqloq yillarida ona tilimiz tom ma’noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni millat tarixida tarixiy hodisa bo‘ldi desak, yanglishmaymiz. Chunki mazkur farmon asosida uzoq yillar yig‘ilib qolgan muammolar yechimini topyapti, har yili oktabr oyida mutaxassislar tomonidan kuyinchaklik bilan aytilib, so‘ngra qog‘ozlarda qolib ketgan takliflar, tavsiyalarning hukumat doirasida e’tiborga olinishi o‘chib borayotgan umid uchqunlarini yana yondirdi. Prezidentimiz tomonidan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish bo‘yicha qator vazifalarning qo‘yilishi tilimizga bo‘lgan hurmatning yuksak namunasidir.

Farmonga muvofiq, 2020–2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi.

Asosiy yo‘nalishlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- 2025 yilga qadar davlat maktabgacha ta‘lim tizimida o‘zbek tilli guruhlar qamrovini 72 foizga, 2030 yilgacha esa 80 foizga yetkazish;
- 2030 yilga qadar umumta‘lim maktablarida o‘quv yillari uchun tayanch o‘quv rejalarida ona tili fanini o‘qitish ko‘lamini amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish;
- oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tili kafedralari sonini 2025 yilga qadar 120 taga, 2030 yilgacha esa 140 taga yetkazish;
- lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida «O‘zbekiston milliy qomusi» jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko‘paytirib borish;
- 2020 yilda o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug‘atlar yaratish;
- teleradiokanallar suxandon-boshlovchilarining o‘zbek adabiy tilidagi nutq madaniyatini oshiruvchi qayta tayyorlov kurslarida o‘qitish tizimini joriy etish va qamrovni 2030 yilgacha 100 foizga yetkazish;
- 2025 yilga qadar davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030 yilgacha esa ushbu ko‘rsatkichni 25 taga yetkazish;
- dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalari va elektron lug‘at dasturlarini yaratish;
- xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratish;
- 2030 yilga qadar xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha ko‘paytirish;
- 2025 yilga qadar «O‘zbek tilining do‘stlari» klublari sonini 30 taga, 2030 yilgacha esa 40 taga yetkazish.

Tilimizga davlat miqyosida maxsus farmon asosida e‘tibor qaratilayotgan ekan, uning jamiyatdagi nufuzi, o‘rni, obro‘sini oshirish, huquqiy maqomini belgilash, tom ma‘nodagi davlat tili darajasiga olib chiqish uchun nima qilish kerak? Ya‘ni davlat tili muhofazasi qanday bo‘lishi lozim, degan masala ko‘pchilikni o‘ylantirishi, tabiiy. Buning uchun esa, birinchi navbatda, tilimizni har tomonlama mukammal ishlangan qonun vositasida himoyalab qo‘yishimiz kerak bo‘ladi.

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma‘lumki, mashhur bo‘lgan A. Navoiy bobomizga tegishli “Ko‘ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so‘z bil”. Inson qalbining xazinasini til, bu qalb xazinasining kaliti so‘zdir. O‘zbek tilining so‘zlari shu qadar ma‘noli, ko‘pki bitta ma‘noga ega bo‘lgan tushunchasi bir nechta so‘zlar orqali ifodalash bo‘ladi. Masalan, birgina ko‘z so‘zining bir necha ma‘nolari bor. Bilamizki bir tushunchaga tegishli so‘z, bir necha so‘zlar bilan ifodalansa, ya‘ni sinonim so‘zlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Ko‘plab adiblarimiz til haqida ko‘plab hikmatli so‘zlarni aytganlar va tilni turlicha ta‘riflaganlar. Masalan, “Til-millat ko‘zguisi”, “Til-ma‘naviyat ko‘zguisi”, “Til-millatning bebaho boyligi” va shu kabilardir. Shuni ta‘kidlash kerakki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy

mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri bo‘lgan edi. Istiqloq yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosda obro‘si oshdi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so‘z va so‘z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Til – millat qiyofasining bir bo‘lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o‘zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog‘liq. Mutaxassislarning so‘zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xaftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so‘zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so‘zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo‘lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so‘zlashuvchi aholining 80 foizi xamon o‘z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta‘lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo‘q. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqida-ku aytmasa ham bo‘ladi. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o‘z tillaridan ko‘ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo‘lmoqda. Bugun Internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to‘g‘ri keladi. To‘g‘ri, avvallari ham tillar paydo bo‘lgan, muammolada bo‘lib, ma‘lum vaqtdan so‘ng yo‘q bo‘lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo‘qolishi tarixda kuzatilmagan. Yo‘qolib ketish havfida bo‘lgan tillarning saqlab qolish yo‘lida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta‘minlashdan iboratdir. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlarini saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Tilshunoslar yo‘qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo‘ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta‘lim tizimida keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so‘ng hozir muammolada bo‘lgan tillarning o‘ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Til – millatning ma‘naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o‘z navbatida o‘zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo‘llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu

sababli ham xar bir xalq o‘z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi. XXI asr o‘rtalariga borib, Xitoy tili asosiy til bo‘lib olishi mumkin. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so‘zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O‘zbek tili ham mana shu 250taning ichida ekani quvonarli, albatta.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati uning tilida o‘z ifodasini topadi. Til – millat ko‘zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko‘hna va serqirra madaniyati o‘zbek tili ta’sirida shakllangan. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g‘alabalari sharafiga o‘zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir.

Biz o‘z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go‘zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. “Til yashasa, millat yashaydi”. Agar biz o‘z tilimizning ko‘rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog‘on bo‘ladi va birligimiz musyakkam bo‘ladi. Zero rus tarixchisi Shobelev aytganidek “Millatni yo‘q qilish uchun u yerga qurol ko‘tarib borish shart emas, uning tilini, ma’naviyatini, adabiyotini yo‘q qilish kerak, shunda millatning o‘zi yo‘q bo‘lib ketadi” degan fikri naqadar to‘g‘ri ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Boisi milliy tilda xalqning ma’naviy-madaniy hayoti, ajdodlarning dunyoqarash va tafakkuri, boy ilmiy va ijodiy merosi mujassam bo‘ladi. Dunyodagi barcha ezguliklar ona allasi orqali farzand ong-u shuuriga ona tilida singadi. Istiqloq, milliy g‘urur kabi tushunchalar ham ona tili bilan chambarchas bog‘langan. Shu sababdan o‘zligini saqlab qolishga intilgan har bir xalq, millat ona tilini asrab-avaylashni va avlodlarga uni rivojlantirgan holda yetkazishni o‘zining muqaddas burchi deb biladi.

Muhtaram yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimdir. Zero, Ona tilimiz – millatimizning ruhi, tariximizning ko‘zgusi, milliy ma’naviyatimizning asosidir. Shunday ekan, ona tilimizni e’zozlash, munosib hurmat hamda ehtirom ko‘rsatish barchamizning muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni
3. Turdieva K, Axmedova D. O‘zbek tili. T., 2007.

**STRUCTURAL ANALYSIS OF PROVERBS WITH  
ZOO COMPONENTS WITH MODAL MEANING IN ENGLISH AND UZBEK**

**Uralova Oysulov Poyan kizi**

**Termiz Economics and Service University**

**Associate Professor of the Department of**

**Foreign Language and Literature**

**PhD.**

**Annotatsiya**

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida modallik ma’nosiga ega zookomponentli maqollar tahliliga bag‘ishlangan. Har ikkala tilda maqollar struktur jihatdan tahlil etilib ba’zi o‘rinlarda ularning semantic xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maqol, modallik, sturuktura, semantika, zookomponent, ingliz tili, o‘zbek tili.

**Abstract**

This article is devoted to the analysis of zoo-component proverbs with modal meaning in English and Uzbek languages. In both languages, proverbs are structurally analyzed and their semantic features are higohlighted in some places.

**Key words:** Proverb, modality, structure, semantics, zookomponent, English language, Uzbek language.

The activation of modern society in the world causes the importance of one of the components of paremiology in linguistics - the spiritual wealth of the peoples of the world - the lexical-semantic, syntactic, artistic-poetic specific aspects and typological characteristics of proverbs to increase. Advanced higher education institutions pay special attention to the use of a complex of proverbs expressing their linguistic and cultural characteristics in the study of the culture and language of different ethnic groups in their programs. It is impossible to imagine the culture and language of any people without proverbs and proverbs. They are priceless linguistic units that embody experience and wisdom passed down from mouth to mouth for centuries. In the life of the people, proverbs were regularly used and applied to certain events.

J. Boronov has shown some similarities and differences of speech in English and Turkish languages, including Uzbek. According to the scientist, the structures are different at first glance. -Positional heterogeneity (being different in terms of composition or origin) is not important. The languages being compared are characterized by the SV (S - possessive, V - partitive) structural model.

Most of the analyzed English proverbs are in the form of *declarative/darak* sentences. By studying the grammatical structures of paremiological units, we can observe the expression of declarative, interrogative, and negative meanings of proverbs.

Most adverbs with a modal component are declarative adverbs. This article explores adverbs with a modal component. In English, reality is represented by the meanings of reality, desire, desire. Example: *Little pigeons can carry amazing messages* (small pigeons can bring big messages); *you cannot similar ox over two*

*times* (you cannot simulate an ox more than twice); they don't charge twice for anything done at any time.

Negation is often used in proverbs with a modality component and occurs in the form of a conjunction: You can take a horse to the water but you cannot make him drink modality component "imkoniyat"/"mumkinsizlik" used in the sense of

Proverbs connected with simple conjunctions: The cat would consume fish and should not eat up her paws - (The cat eats fish but should not eat up her paws). The cat wants to eat fish, but is afraid to get its paws wet.

The peculiarity of complex sentences of the first type (MQG) is that the similarity of the predicative parts of the sentence can be observed in Uzbek folk proverbs, for example: *Bo‘ri bolasin qafasga solib ishlatib bo‘lmas*.

The following examples of proverbs in the form of The Simple Sentence/simple sentence can be given: Bedov ot surinar on the road (Bedov is a strong, agile, thoroughbred horse. Surinmak means to stumble) Var. "Even if the horse has four legs, it stumbles" . These proverbs are a metaphor: Every good person has some flaws, every smart person can make a mistake, so it is not good to hold a grudge against him.

Proverbs with secondary clauses have the form of a simple sentence: *Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonga sig‘maydi; Ayinlining bolasi qarg‘ani tilini bilar; Bemaxal o‘tgan tovuqning boshi ketadi; Var.: “Bevaqt qichqirgan xo‘roz qonga belanur”; “Burun qichqirgan xo‘rozning boshini ketadi”; “Bemaxal o‘tgan tovuqning boshini kesarlar”; “Tovuq( xo‘roz bo‘lib) qichqirsa –o‘z boshiga balo”; “Bevaqt qichqirgan xo‘rozni so‘y”; “Mezgilsiz qichqirgan tovuqning tepa sochin yulmoq kerak”. “Quzg‘in sayrasa- o‘z boshiga , Zag‘izg‘on sayrasa- yel boshiga”; “It, ulisang o‘z boshingga ko‘rinsin, Qush, talpinsang o‘z boshingga ko‘rinsin”; “It ulisa , yeldan chiqarilur” There are also proverbs.*

*In the past, people feared the singing of some birds, and welcomed the singing of others. The raven and the raven are among such birds. For example, quzg‘un sayrasa: ”Qorni , sovuqni tilayapti, bu uning o‘z boshiga so‘ragani”, - deb yo‘yardilar. Zag‘izg‘on sayrasa: “Yaxshilik bo‘ladi, some good news will come, his singing is a wish for good for the family and the people, they rejoice, and welcome his singing with the words "Oil for your mouth!" When a dog barks (looking at the sky), they think that it will start a disaster, and they drive it out of the yard, saying, "May the barking (that is, calamity, calamity) be seen by yourself, not by us." They thought that even if a bird of prey wanders into the lake, it will cause trouble. Probability meanings are expressed in the article.*

Having studied paremiological units with a modality component in English and Uzbek, we can conclude that proverbs of the studied languages are linguistic logical units that express these or other considerations in a laconic form. We examined the grammatical structures of proverbs with a modality component, presented the classification of proverbs, conducted their structural analysis, and revealed ways of expressing modality in English and Uzbek languages.

The structural aspect of paremiological units with a modality component in English and Uzbek languages is represented by two-component structural models.

**Adabiyotlar ro‘uxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Абдурахманов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964. – 18 с.
2. Авербух, К.Я. Лексические и фразеологические аспекты перевода: учеб. пособие / К.Я. Авербух, О.М. Карпова. - М.: Академия, 2009. - 176 с.
3. Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 286 с.
4. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учеб. пособие для пед. ин-тов. – М.: Высш. шк., 1983. – С.25
5. Parker J.W. On the Lessons in Proverbs: Being the Substance of Lectures Parker. - London: AbeBooks Seller, 2009. - 149 p.
6. Уралова О. Инлиз ва ўзбек тилларида ”оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва стурктураси. Филол. фан. докт. (PhD) дис. – Самарқанд, 2021. – 235. б.
7. Mieder, W. Proverbs are never out of fashion: Popular wisdom in the modern age / W. Mieder. - New York; Oxford: Oxford University Press, 1993. - 284 p.

**O‘ZBEK TILIDAGI SINONIMLAR TASNIFI**

To‘rayeva Oqila Akmal qizi  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta‘lim  
yo‘nalishi 3-bosqich 5BT-22 guruh  
talabasi  
Tel:+998881946005

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek tili sinonimlarining to‘liq klassifikatsiyasi yoritib beriladi, ya’ni dominantani aniqlash, sinonimik qatorlardagi yuqori, o‘rta va quyi qatlamini aniqlash, bundan tashqari ushbu sinonimik bazani yaratish mobaynida o‘zbek tili leksikonidagi sinonimlar qatorini shakllantirish jarayonlari natijasida an’anaviy tilshunoslik qarashlaridagi sinonimiya hodisasiga oid qarashlar ham berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, leksikologiya, amaliy leksikografiya, sinonimiya, klassifikatsiya, leksik, frazeologik, grammatika.

Bilamizki, dunyodagi barcha tillarning asosini so‘z tashkil etadi. Shuningdek insonlarning nutqi ham aynan so‘zlarning qo‘llanilishiga bog‘liq. Nutqimizning ravon bo‘lishi, so‘zlagan so‘zlarimizning takrorlanmasligi va tuzayotgan matnlarimiz chiroyli bo‘lishi uchun bizga sinonim so‘zlar yordam beradi. Sinonim so‘zlar shaklli har xil ma’nosi esa bir so‘zga teng bo‘lgan so‘zlardir. Sinonim so‘zlar shunchaki xashamdorlik emas, balki tilning chinakam boyligidir. Sinonimlar nutqda quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi, ayrim o‘rinlarda hatto zarur hisoblanadi:

- fikrni yanada aniqroq va to‘g‘ri ifodalash (qiyos uchun: chet el va xorij)da;
- hissiy-emotsional rang berish, fikrni yorqinroq ifodalashda;

- tautologiya (takror – bir gapda muayyan so‘zning takror qo‘llanishi)dan saqlanish maqsadida;
- matndagi qo‘shni jummalarni bog‘lash maqsadida sinonim so‘zlardan unumli foydalaniladi.

Sinonimlar so‘zning ma’noli shakllaridan biri bo‘lib, talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil bo‘lgan qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsion ma’nosi qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Sinonim so‘zlar haqida so‘z borar ekan, biz sinonimlarni tilshunoslikda asosan ideografik va stilistik turlarga bo‘lamiz. Ideografik sinonimlar masalan: to understand-to realish, to expeet-to anticipate-tushunmoq, anglab yetmoq, kutmoq, oldindan ko‘rmoq - bir xil ma’noni anglatadi va bir xil neytral stilistik turga tegishli bo‘ladi. Stilistik sinonimlar ularni ba’zida emotsional ekspressiv deb ham atashadi. Stilistik sinonimlar stilistik xususiyatiga ko‘ra turli hil ma’noni anglatadi. Masalan: to help - to aid - to assist yordamlashmoq ma’nosini anglatadi. Yuqoridagi ta’riflarga ko‘ra, sinonimiya asosan semantik ko‘rinish har qanday holatda ham sinonimlarni belgilash stilistik me’zonlar, boshqa me’zonlar va birikadigan sof semantik me’zonlar asosida amalga oshiriladi. Sinonimlar doim kutilmagan birliklarni yoki logik ma’nolarni beradi, shuning uchun sinonimik takrorlash asarni stilistik jihatdan bezaydi. Ideografik sinonim tarjimon holatda til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag‘alligi, rangsizligidan qochish uchun foydalanadi. Sinonimlar qator bir necha so‘zdan iborat bo‘lishidan qat’iy nazar unda bir so‘z asosiy shu sinonimik qatorning harakterini belgilovchi so‘z bo‘ladi. Bu so‘z **dominant** deb yuritiladi. Sinonimlik qatorining chegarasini belgilashda shuningdek undagi har bir so‘zning o‘ziga xos xususiyatini ochishda shu qutordagi asosiy so‘zni to‘g‘ri belgilash muhim rol o‘ynaydi. Sinonimik qatorda ma’no hajmi boshqalarnikiga nisbatan keng bo‘lgan so‘z asosiy so‘z hisoblanadi. Sinonimik qatorning chegarasini belgilashda asosiy so‘z hisobga olinadi, boshqa so‘zlar bir-biriga qiyoslanmaydi, balki asosiy so‘zga qiyoslanadi. Masalan: kulmoq, jilmaymoq, irjaymoq, tirjaymoq so‘zlaridagi asosiy so‘z **kulmoq** hisoblanadi. chunki ushbu so‘z har jihatdan ijobiylik va salbiylik miqdori tengdir. Sinonimlarning turli xususiyati bo‘yicha tasnifi:

- Ekspressiv (bo‘yoqdor, konnotativ) semantikaning mavjudligi / yo‘qligi:
  1. Ekspressiv-neytral: foydasiz – befoyda – zoye – nafsiz – benaf – samarasiz;
  2. Ekspressiv-emotsional: gunohkor; ayyom – tantana – shodiyona
    - Uslubiy xoslanishiga ko‘ra:
      1. Uslubiy betaraf (neytral): aybdor; bayram
      2. Uslubiy sinonim: qism (neytral), parcha (badiiy), fragment (ilmiy, rasmiy)
    - Sinonim qator a’zolarining asosi (o‘zagi):
      1. Bir asosli: tartibsiz – betartib; serhosil – hosildor; aybli – aybdor.
      2. Turli asosli: afzallik – ortiqlik – ustunlik – maziyyat; aldamoq – laqillatmoq – avramoq; adolatli – odil – barhaq.
    - Kelib chiqishi:
      1. O‘zlashmagan: ajratmoq – ayirmoq; kuylamoq – aytmoq.
      2. O‘zlashgan: korrektor [lot] – musahhih [a], asorat [a] – asar [a] – nishon [f-t] – iz [o‘z] – qoldiq [o‘z].

- Leksikografik mansubligi:

1. Lug‘atli sinonimlar (leksik, frazeologik, derivativ (so‘z yasovchanlik), grammatik (affiksiv, morfemo-leksik, sintaksik)

2. Lug‘atsiz sinonimlar (kontekstual)

- Bo‘yoqdor (emotsional)likning mavjudligi / yo‘qligi:

1. Ijobiy bo‘yoqdor: chiroyli – ko‘rkam – suluv –lobar –xushro‘y -go‘zal – ofatijon.

2. Salbiy bo‘yoqli: xunuk – badbashara – badburush – badqovoq – tasqara – bedavo – ta’viya – beo‘xshov – beso‘naqay – badsurat.

Hozirda olimlar sinonimlarni jamlash jarayonida bir muhim jihatni aniqlashdiki, „sinonimik qator bir so‘z turkumiga mansub bo‘ladi “ deyilgan mezon sinonimlar uchun qa’tiy cheklov bo‘lgan, bugungi kunda uchbu mezon o‘zini oqlamayotganligini aytishmoqda, ya’ni ko‘pgina sinonimik qator tarkibida bir-biriga ma’nodosh bo‘lib qo‘llanilayotgan so‘zlar boshqa-boshqa so‘z turkumlariga mansubligi aniqlanmoqda. Jahon tilshunosligida bunday ma’nodosh so‘zlar **kvazisinonimlar** deyilmoqda.

“kvazi-” termin elementi lotin tiliga mansub bo‘lib, **xayoliy, haqqoniy emas, soxta, xayoliy** degan tushunchalarni anglatadi. XVIII asrda cherkov terminologiyasida “yolg‘on” ma’nosida foydalanilgan. Rus tiliga XIX asrda kirib kelgan bo‘lib, mazkur prefiks ot so‘z turkumiga mansub tasavvur qilingan narsa, haqiqatdan yiroq hodisani ifodalashda faol qo‘llanilgan. Kvazisinonimlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Bir-biriga o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan kvazisinonim atamalar, masalan: uy – bino, iste’dod – daholik;

2. Bir so‘zning ma’nosi va ko‘lami boshqa sohaga ham tegishli bo‘lgan qisman sinonimlar, masalan: metall – temir;

3. Qarama-qarshi semantikaga ega so‘zlarning nutqiy voqelanish jarayonida ma’nodoshlar tarzida qo‘llaniladigan sinonim so‘zlar (bitta hodisaning miqdoriy xususiyatlari kabi), masalan: qattqlik – yumshoqlik, shaffoflik – qorong‘ulik.

**Xulosa**, nutqiy voqelanish jarayonidagi kvazisinonimlar ma’no jihatidan yaqin bo‘lsa-da, turkumga xoslanishi turlicha bo‘ladi. Kvazisinonimlarning semantik munosabatida birikish yoxud kesishish semalari mavjud bo‘ladi. Shu bois ham mazkur lug‘atda sinonimik qatorlar kvazisinonimlar bilan ham to‘ldirildi. Shunday bo‘lsa-da, sinonimlarni pragmatik jihatdan ham o‘rganish, mavjud sinonimlar unga maxsus ilmiy ishlar, monografiyalar, bir qancha maqolalar va ko‘plab darslik va qo‘llanmalarning alohida bo‘limlari bag‘ishlangan.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. - Toshkent. O‘qituvchi, 1974.

2. Polvonova B. O‘zbek tili grammatikasi. Farg‘ona. "Classik", 2021.

3. Rahmonov G‘. O‘zbek tili sinonimlarida darajalanish// O‘zbek tili va adabiyoti. 2020.

4. Orifjonova Sh, Lug‘aviy sinonimiya va graduonimiya munosabati xususida, // O‘zbek tili va adabiyoti, 6-son, 2007.

5. Rahmatullayev Sh. Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta’riflash masalasi// O‘zbek tili va adabiyoti. 1979.

## O‘ZBEK TILIDA METAFORIK TIMSOLLAR TAHLILI

Safarova Feruza Achildiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti maktabgacha

ta’lim yo‘nalishi 5-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilida ishlatiladigan metaforik timsollarning tahlili yoritiladi. Maqolada metaforalar va timsollarning o‘zbek tilidagi o‘rni, ularning ma’no ifodalashdagi roli va estetik funksiyalari o‘rganiladi. Badiiy asarlardagi metaforik obrazlarning semantik qirralari va ularning ma’no qatlamlarini ochib berish, ularning milliy va madaniy jihatlarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘zbek adabiyotida keng tarqalgan metaforalar misolida til vositalarining badiiy matnlardagi estetik qiymati hamda ular orqali yaratadigan badiiy tasvir kuchi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Metaforik timsollar, o‘zbek tili, badiiy tasvir, semantik tahlil, badiiy obrazlar, milliy va madaniy timsollar, estetik funksiya, o‘zbek adabiyoti, til va ifoda vositalari, timsollar tahlili.

Kirish

Til – inson tafakkuri va dunyoqarashining mahsuli bo‘lib, u orqali inson o‘z fikrlarini ifoda etadi. Har bir tilning o‘ziga xosligi, uning ma’no ifodalash qobiliyati va tuzilishi orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek tili ham mazmun jihatidan boy, xilma-xil obrazlarga ega tildir. Ushbu maqolada O‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan metaforik timsollar tahlil qilinadi. Metafora – bu tilning birinchi navbatda estetik va tasviriy vositasi bo‘lib, ma’noni boyitish, yanada chuqurroq ifodalash usullaridan biridir. Metafora bu – bir narsani boshqa narsa orqali tasvirlash, ya’ni o‘xshatish vositasi. Tilshunoslikda metafora ko‘pincha "tilning estetik vositasi" deb ta’riflanadi, chunki u so‘zning ma’nosini yanada boy qiladi. Misol uchun, "hayot yo‘li" iborasida "yo‘l" hayotning davomi sifatida qabul qilinadi va shu orqali hayotning bir-biridan farq qiladigan bosqichlari va yo‘nalishlari tasvirlanadi. Metaforalar har bir tilning ichki tabiatiga, xalqning tafakkur tarzi va madaniyatiga bog‘liq holda shakllanadi. O‘zbek tilidagi metaforalar ham xalq hayoti, qadriyatlari va ijtimoiy muhitga mos ravishda paydo bo‘lgan va rivojlangan.

**O‘zbek tilida keng tarqalgan metaforik timsollar.** O‘zbek tilida xalqning hayoti va dunyoqarashiga bog‘liq turli metaforik timsollar uchraydi. Ularning ayrimlarini tahlil qilamiz:

1. “Ona zamin”

"Ona zamin" iborasi o‘zbek tilida eng ko‘p ishlatiladigan metaforalardan biri bo‘lib, yerning muqaddasligini va xalqning unga bo‘lgan ehtiromini aks ettiradi. Yer hayot manbai sifatida tasavvur qilinadi va unga "ona" sifatida qaraladi, bu yerning barcha mavjudotlarga hayot bergani, oziqlantirgani bilan bog‘liq.

2. “Daryo oqimiday hayot”

Daryo obrazining hayotga nisbatan qo‘llanishi o‘zbek tilida keng tarqalgan metaforalardan biri hisoblanadi. Bu iborada hayot daryoga qiyoslanadi, ya’ni hayotning o‘zgaruvchanligi, doimiy harakatda bo‘lishi va oxir-oqibat bir manzilga

yetib borishi tushuniladi. Daryo timsoli hayotning murakkabligi va o‘ziga xosligini aks ettiradi.

### 3. “Ko‘ngil ko‘zgusi”

"Ko‘ngil ko‘zgusi" iborasi insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi obraz sifatida ishlatiladi. Ko‘ngil insonning ruhiy holati, his-tuyg‘ularini ifodalaydi, ko‘zgu esa bu his-tuyg‘ularni ochib beruvchi vosita. Ushbu metafora insonning haqiqiy niyatlari va ichki hissiyotlarini tushunish, ular orqali tashqi dunyoga ma’lum bir obrazni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

### 4. “Oq yo‘l tilash”

Bu ibora kimgadir omad yoki muvaffaqiyat tilash ma’nosini anglatadi. O‘zbek xalqida yo‘l ko‘pincha hayot yo‘nalishiga qiyoslanadi. "Oq yo‘l" esa poklik, halollik va to‘g‘ri yo‘l ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ibora inson hayotida yaxshi niyatlar bilan yo‘lga chiqishni tilash timsolidir.

### 5. “Tog‘dek sobit”

Bu metafora odamning mardligi, qat’iyati va sobitligini ifodalash uchun ishlatiladi. Tog‘ obrazini kuchli, o‘zgarmas va mustahkam narsa sifatida qabul qilish o‘zbek tilidagi madaniy va an’anaviy qadriyatlarning bir qismidir. Shunday qilib, insonning ruhiy bardoshligi tog‘ bilan taqqoslanadi.

Metaforaning kommunikativ vazifasi

Metaforaning asosiy vazifalaridan biri bu muloqotning yanada ta’sirchan va tushunarli bo‘lishini ta’minlashdir. Til orqali insonlar o‘zaro fikr almashar ekan, metaforalar ularga murakkab tushunchalarni sodda va tasvirli tarzda ifodalash imkonini beradi. Masalan, "qalb og‘rig‘i" yoki "ko‘ngil oynasi" kabi iboralar insonning ichki kechinmalarini obrazli tarzda tasvirlaydi va shu orqali tinglovchi yoki o‘quvchida chuqur his-tuyg‘ular uyg‘otadi.

O‘zbek tilidagi metaforalar ko‘pincha kundalik muloqotda va adabiy asarlarda qo‘llaniladi. Ular orqali yozuvchi yoki gapiruvchi o‘z fikrini yanada ifodali, mazmunli tarzda yetkazishga erishadi. Metaforalar, ayniqsa, she’riyatda keng qo‘llaniladi. O‘zbek adabiyotining buyuk vakillari bo‘lgan Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov kabi ijodkorlar asarlarida bunday obrazlarga ko‘p duch kelishimiz mumkin.

Xulosa. O‘zbek tilida metaforalar nafaqat tilning estetik boyligi, balki xalqning dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan munosabati, an’analari va qadriyatlarini aks ettiruvchi vositadir. Metaforik timsollar orqali til o‘ziga xos obrazlilikka, chuqur ma’nolarga ega bo‘lib, odamlar o‘rtasidagi muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Metaforalarning to‘g‘ri ishlatilishi fikrning yanada mazmunli, ta’sirli bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi boy obrazlar tilni yanada go‘zal va chuqurroq qiladi, bu esa tilning ma’naviy va madaniy boyligini yanada namoyon etadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Abduazizov, S. (2008). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Navoiy, A. (1993). Xamsa. Toshkent: Sharq Nashriyoti.
3. Karimov, A. (2016). Metaforalar tahlili va adabiy timsollar. Toshkent: Adib Nashriyoti.

4. Qodiriy, A. (2009). O‘tkan kunlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
5. Vohidov, E. (2011). Yurak sayyorasi. Toshkent: Sharq.
6. Boboyev, H. (2004). O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
7. Rahimov, M. (2019). Til va timsollar: o‘zbek adabiyoti misolida. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.

## LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE PECULIARITIES OF GRATITUDE EXPRESSIONS OF ENGLISH DISCOURSE

*Rahimova Shahnoza Jo‘raqulovna*

Termiz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi  
+998995888525

E-mail: raximovashaxnoza68@gmail.com

**Annotation.** The article deals with the multifaceted phenomenon that is gratitude, which has distinctive features in every language culture, in particular, in English. It also distinguishes the peculiarities of expressing gratitude in the context of English literary discourse. The article focuses on the linguistic and communicative peculiarities of gratitude verbalized on the pages of English literary works.

**Keywords:** gratitude, literary discourse, communicative situation, pragmatic aspects

Communication is considered to be one of the most important activities of human life. Compliance with the standards of polite behavior is a guarantee of an equitable, successful and non-conflict process of communication. It is known, that in the context of human communication, a special role is given to phrases expressing conventional rules of human behavior in society and belonging to social etiquette.

An important element of social etiquette is expressions of gratitude. The increasing interest towards it points out the importance of this issue in human relationships in general and in intercultural communication in particular.

«Oxford English Dictionary» [1] explains «gratitude» as the quality of being thankful; readiness to show appreciation for and to return kindness; feeling or showing an appreciation for something done or received; received or experienced with gratitude; welcome. It arises on the basis of emotional and rational assessment of what is happening; the ways of its expression are highly ritualized. Besides, gratitude can be addressed not only to specific individuals, but also to groups of people (for example, ancestors) and non-personalized notions: the world, God [2].

The relevance of the study is conditioned by the special interest of linguists in the study of the cultural aspects of the concept of gratitude and their manifestation in language and speech and certain impact on them. Better understanding of communicative situations in which it is accepted to express gratitude by foreign society, lexical means which are appropriate in a particular case, explicit and implicit context of thankfulness may be helpful in the process of communication with speakers whose native language is English.

The objective of the article is to analyze the main linguistic and communicative, pragmatic aspects of the English expressions of gratitude within English literary discourse.

The objective implies the following tasks of the research:

- 1) to define the concept “discourse” and its main types;
- 2) to find out the concept «gratitude» in the minds of the inhabitants of the English speaking areas and generalize its classification;
- 3) to generalize the stereotyped means of gratitude nomination;
- 4) to analyze communicative fragments expressing thankfulness and the establishment of their pragmatic aspects.

The subject matter is the expressions of gratitude in English literary discourse.

The specific topic of the study is linguistic and pragmatic aspects of expressing gratitude within English literary discourse.

The methodological basis of the study involves the communicative analysis of English expressions of thankfulness taken from the literary works of classical and contemporary American, British and Australian writers; as well as the use of the method of comparison.

The category of gratitude serves as a system-forming core that regulates the behavior of representatives of various linguistic cultures. However, it should be mentioned, that communicative behavior having national and cultural features is conditioned by the fact, that the concept «politeness» has different content [3, p. 90], different implicit meaning in the communicative consciousness of representatives of different cultures.

The mental «script» of gratitude expression includes the following types of interrelated information:

- 1) background knowledge that any good deed must be rewarded in one way or another, that is especially important for the ritual (stereotyped) gratitude;
- 2) understanding of the main intentions of the subject of gratitude;
- 3) awareness of the fact that a potential subject of gratitude is given a particular kind of service;
- 4) awareness of the communicative conditions of the gratitude situation (the social roles of the communicants, the factor of the past, etc.);
- 5) understanding of how to express verbally the language act of gratitude (knowledge of all possible ways of expressing a sense of gratitude (direct and indirect);
- 6) knowledge that ingratitude is strictly condemned by society.

Therefore, the expression of gratitude is conditioned by observance of ethical rules commonly accepted in the society and it is a marker of individual's politeness and courtesy.

Language means of expressing gratitude is a field in the center of which is a met adictionary (term M. Ya. Hlovinsky) consisting of word markers such as:

thank you, thankful, grateful; phrases and clichés: I'm grateful / obliged / indebted to you for Much obliged to you for the favor; I can never thank you enough; I would like to express my gratitude; idioms: thank your lucky stars; I owe you

(one) and so on. Phraseological or lexical units may be used to show appreciation as well:

My most heartfelt thanks to you for ...; deeply indebted.

*Emotionally* expressive expressions of gratitude can be as follows: I do not know how to thank you; My thanks can't be expressed in words / Words cannot

*Expressions* of gratitude are usually implemented in dialogical speech. Expressions of thankfulness for received help, encouraging, affection, etc. are the expressions of etiquette manner, courtesy and good breeding. According to the basics of etiquette a person is thankful not only in the case someone does him/her a favour, but also in a bunch of other situations.

It is obvious, that in English literary discourse, as, for example, in Uzbek, a person will thank for the material benefits provided to him/her. Let's look at the example given below:

I tugged a fold of hundredrupee notes from my pocket, and gave it to him.

One can find expressions of appreciation for help or received service of an interlocutor addressed to the other one in literary works quite often. For e.g.:

«Thank you both very much. You've been very helpful. » he said, his mind going back to the appearance of the suite [5, p. 283].

«Thank you for coming, Landon», she said. «I know you're busy, but I appreciate your taking the time to do this» [6, p. 20].

#### Conclusions

English linguistic expression gratitude

1. The concept «gratitude» in English discourse has its own rules and norms, which sometimes differ from the Ukrainian ones.

2. The expressions of gratitude, which usually occur because of emotional and rational evaluation of what is happening, are highly stereotyped. Therefore, the main means of expressing gratitude in English is phrases Thanks/Thank you. However, depending on the communicative situation, the amplifying phrases such as a lot, very much, so, so much, really, thousand (thanks), from the bottom of my heart, etc. are also used.

3. Gratitude can be addressed towards individuals, group of people and abstract notions in various communication situations.

4. Gratitude may be expressed at the beginning of a conversation (etiquette gratitude); it also may be expressed for material (gift, money) or non-material (care, attention, support, help, affection, forewarning, compliment) service.

5. Appreciation may be expressed explicitly and implicitly. It is more appropriate to express acknowledgement implicitly in particular situations.

#### **Adabiyotlar ro‘uxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Oxford English Dictionary (2012). [Electronic resource]. Oxford : Oxford University Press, 1024 p. - Access mode : <https://en.oxforddictionaries.com/definition/gratitude>. - (15.11.2017).

2. Vdyachnist. Wikipedia [Wikipedia. Vilna entsyklopedia.] - URL: <https://uk.wikipedia.org/wiki/Вдячність>. (10.11.2017).

3.

Larina T. V. (2003). The category of politeness in English and Russian communicative cultures. - Moscow : Izdatelstvo «RUDN», 315 s.

4. *Interlanguage pragmatics* (1993). Ed. by Gabriele Kasper, Shoshana Blum-Kulka. New York : Oxford University Press, Inc, 252 p. - URL: [https://books.google.com.ua/books?id=QAsbd2oi7LMC&printsec=frontcover&hl=uk&source=gbs\\_atb#v=onepage&q&f=false](https://books.google.com.ua/books?id=QAsbd2oi7LMC&printsec=frontcover&hl=uk&source=gbs_atb#v=onepage&q&f=false). - (20.11.2017).

5. Roberts G. D. (2012). *The Mountain Shadow*. London : Little, Brown Book Group, 2012. 560 p.

6. Sparks N. (2013). *A Walk to Remember*. London : Little, Brown Book Group, 208 p.

7. McNaught, J. (1991). *Paradise*. New York : Eagle Syndication, Inc, 709 p.

8. Austen J. (2013). *Sense and sensibility*. London : Little, Brown Book Group, 208 p.

9. Karpchuk N. P. (2006). *Addressing in official and nonofficial English discourse (communicative and pragmatic analysis) : monographiya*. Lutsk : RVV «Vezha» Lesya Ukrainka Volynsk. state univ., 162 s.

## O‘ZBEK TILIDAGI O‘XSHATISHLARNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

*Shaxnoza Qurbonova Xolbek qizi*  
ToshDO‘TAU stajor tadqiqotchichi  
+998903484565

*Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvopragmatik jihati tadqiq etilgan.*

*Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, pragmatolingvistika, pragmatik tahlil, o‘xshatish.*

Ijtimoiy hodisa bo‘lgan til insoniyatning eng katta yutuqlaridandir. Uning paydo bo‘lishi, tabiati, rivojlanish qonuniyatlari, tilning “hayot tarzi” asrlar davomida olimlar e’tiborini tortib kelgan. Til va madaniyat, til va tafakkur o‘rtasidagi aloqa masalasi o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan masalalardan hisoblanadi.

Til odamlarning muloqot qilish, fikrlarini ifodalash va his-tuyg‘ularini etkazish uchun muhim vositadir. Tilning eng ko‘zga ko‘ringan xususiyatlaridan biri uning obrazli iboralar yordamida jonli tasvir va qiyoslar yaratish qobiliyatidir. Bu iboralar orasida o‘xshatish ham adabiyotda, ham kundalik suhbatda muhim o‘rin tutadi. O‘xshatish - bu "o‘xshash" yoki "kabi" so‘zlari yordamida bir-biriga o‘xshamaydigan ikkita narsani taqqoslaydigan nutq shakllari. Ular tilni boyitish, uni yanada rang-barang, jozibali va xayoliy qilish uchun xizmat qiladi.

Tilshunoslik ilmida mantiqiy kategoriya bo‘lmish o‘xshatishning lisoniy voqelangan shakli – lingvistik o‘xshatishlarga Arastu davridan boshlab katta e’tibor qaratilgan, deyish mumkin. U “ko‘chma so‘z (metafora) narsaga xos bo‘lmagan, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko‘chirilgan yoki o‘xshatilgan so‘zdir”, deya ta’rif bergan ekan, undan so‘ng metafora qisqargan o‘xshatish, nom ko‘chishning alohida bir ko‘rinishi yoki nom ko‘chishning har qanday usuli sifatida ta’riflanib kelindi [1]. O.S.Axmanova fikricha “O‘xshatish – bir predmetni

boshqasiga ular o‘rtasidagi umumiy bo‘lgan xususiyat asosida qiyoslash” ta’kidlaydi [2]. M.Yo‘ldoshev esa o‘xshatishlarni ikki turga ajratadi: an’anaviy va xususiy muallif o‘xshatishlari. “Xususiy-muallif o‘xshatishlari yozuvchining o‘z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘z o‘xshatishlaridir” [3]. An’anaviy o‘xshatishlar qadimdan jonli so‘zlashuv tilida ham, badiiy tilda ham qo‘llanib kelib, bugungi kunda o‘zining ohorini yo‘qotgan, vaqt o‘tishi bilan oddiy nutq hodisasiga aylanib ulgurgan o‘xshatishlardir. Masalan, qo‘yday yuvosh, tulkiday ayyor, toshday qattiq, oyday chiroyli, somonday sarg‘aymoq kabi birikmalar o‘z emotsionalligini yo‘qotgan. “Xususiy-muallif o‘xshatishlari yozuvchining o‘z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlaridir. Bunday o‘xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi.

Qayd etish kerakki, o‘zbek tilida o‘xshatish qurilmalarining konstruktiv tarkibi borasidagi fikrlarda bir xillik yo‘q. M.Mukarramov o‘zining “O‘zbek tilida o‘xshatish” nomli monografiyasida ularni o‘xshatiluvchi ob’ekt, o‘xshatilayotgan predmet, o‘xshatma belgi deb atagan [4]. O‘xshatishni shakllantiruvchi to‘rt unsurning nomlanishi borasida N.Mahmudov talqinidagi variantni eng maqbul deb hisoblaymiz: “...1) o‘xshatish subyekti, 2) o‘xshatish etaloni, 3) o‘xshatish asosi, 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi.

Sof lisoniy nuqtai nazardan bu to‘rt unsur bir sodda gap doirasida ifodalanar ekan, gapning mazmun sig‘imi ortadi, til taraqqiyotining umumiy tendensiyasiga mutlaqo muvofiq ravishda asimmetrik tizimli gap shakllanadi, yani kichik shakl katta mazmun ifodasi uchun xizmat qiladi. Bu esa she’r, umuman, badiiy asar poetikasi uchun ham alohida ahamiyatlidir, chunki ayni holat ijodkorga turli narsa-hodisa, murakkab holat va shu kabilarning behad ixcham tavsiflarini, yorqin obrazlarini yaratish imkonini beradi.

Masalan , *Bobur ayiqdek uyquchi bola*. Bunda: *Bobur* - o‘xshatish subyekti, *ayiq* - o‘xshatish etaloni. *uyquchi* - o‘xshatish asosi; *-dek* - o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

N.Mahmudov turg‘un o‘xshatishlar mohiyatini shunday tushuntiradi: “...ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodachilar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi [5].

O‘xshatishlarning pragmatik xususiyatlari ham o‘ziga xos. Ixsham shakl orqali ko‘proq axborot berishda, ma’noni implisit ifodalashda o‘xshatishlardan foydalanish mumkin.

*Ilondek yaltirab yotgan yo‘lkadan o‘z soyasini bosgancha, sekin-sekin yurib ketdi* (O‘.Hoshimov). Keltirilgan misoldagi *ilondek yaltirab yotgan* o‘xshatishi turg‘un o‘xshatish bo‘lib, unda *ilon yaltirab yotadi* degan presuppozitsiya anglashiladi. *Shoxlari qalin, xuddi narvondek bir-biriga yaqin turardi*

(O‘.Hoshimov). Keltirilgan misolda *xuddi narvondek* o‘xshatishli qurilma mavjud bo‘lib, *xuddi, va, –dek* qo‘shimchasi orqali o‘xshatishlar ishtirok etgan.

Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalardan eng faoli – *dek, – day* affikslaridir. Bu affiklar o‘xshatishlarning shakllanishi uchun asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. [-*dek*], [-*day*] qoshimchalarining ma’nodoshlik xususiyatlari tilshunoslarimiz tomonidan e’tirof etilgan. Formal tilshunoslikda bu affikslar ravish yasovchi qo‘shimcha sifatida berilgan. [-*dek*], [-*day*] affikslari orqali yasalgan ravishlar harakat va holatning yashash asosida ifodalangan narsa yoki belgi xususiyat bilan o‘xshashigi, qiyoslanishini bildiradi.

*Ko‘zimni o‘yib olishga qasd qilgandek, yuzimga qanotini tegizib, chig‘ir-chig‘ir qiladi* (O‘.Hoshimov). Ushbu gapda o‘yib olishga *qasd qilgandek* degan erkin o‘xshatishli qurilma mavjud. Ko‘zni o‘yib olish uchun *qasd* qilinadi degan presuppozitsiya anglashiladi.

O‘xshatishlar har bir xalqning o‘ziga xos tafakkuririni, yashash tarzini namoyon etadi. Dengizni ko‘rmagan xalq uchun uning qanday ekanligini tasvirlash uchun axborot beruvchi tinglovchi uchun ma’lum bo‘lgan narsa-hodisalardan foydalanadi.

*Qo‘shiq tugashi bilan zal yana dengiz to‘lqiniday guvillab ketdi* (O‘.Hoshimov). O‘xshatishli qurilmada *dengiz to‘lqini guvillaydi* degan presuppozitsiya anglashiladi.

Umuman, o‘xshatishli qurilmalar o‘ziga xos ma’no ifodalovchi vositalar bo‘lib, yashirin ma’noga ishora qilishi bilan gapni mazmunan murakkablashtiradi, ixcham shakl orqali ko‘p ma’no ifodalashda qo‘l keladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filol. fan. nomz. dis... avtoref. – Toshkent, 2000. – 23 b.
2. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. – M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1966. – S. 444.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 124 b.
4. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish: Monografiya. – Toshkent, 2003. – B. 14.
5. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – B. 6.

#### **SPORT TERMINOLOGIYASINING O‘ZBEK TILIDAGI O‘RNI**

*Tojiyev.B.B*

DTPI Filologiya fakulteti dekan o‘rinbosari  
tojiyev\_2021@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqola sport terminologiyasining o‘zbek tilidagi o‘rni va ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Unda sport atamalarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zbek tiliga moslashtirilishi jarayonlari tahlil qilinadi. Xalqaro sport terminlarining transliteratsiya orqali kirib kelishi va milliy sport turlariga xos atamalarning shakllanishi muhokama qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi sport matbuoti va ommaviy axborot vositalarining yangi terminlarni ommalashtirishdagi

roli haqida so‘z yuritiladi. Maqolada sport atamalarini milliyashtirish va xalqaro terminlarni qabul qilishning muhim ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqola o‘zbek sport terminologiyasini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qiladi va kelgusida terminologiyaning rivoji bilan bog‘liq istiqbollarga ishora qiladi.

**Abstract.** This article is dedicated to exploring the role and significance of sports terminology in the Uzbek language. It analyzes the emergence, development, and adaptation of sports terms into Uzbek. The discussion focuses on the introduction of international sports terms through transliteration and the formation of terms specific to national sports. Additionally, the role of Uzbek sports media and mass media in popularizing new terms is examined. The article emphasizes the importance of nationalizing sports terms and appropriately adopting international terminology. It also reviews scientific approaches to the development of Uzbek sports terminology and highlights prospects for its future growth.

**Kalit so‘zlar.** Sport terminologiyasi, o‘zbek tili, transliteratsiya, milliy sport turlari, sport matbuoti, sport madaniyati, terminlarning o‘zlashtirilishi, xalqaro sport turlari, milliy sport turlari, xalqaro sport atamalari.

**Keywords.** Sports terminology, uzbek language, transliteration, national sports, sports press, sports culture, assimilation of terms, international sports, national sports, international sports terms.

Sport insoniyat hayotida muhim o‘rin tutadigan sohalardan biridir. Ushbu soha rivoji jamiyatning umumiy madaniyati va sportga bo‘lgan e‘tibori bilan chambarchas bog‘liq. Sportning rivoji, ayniqsa, so‘z boyligimizning kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Sport terminologiyasining o‘zbek tilidagi o‘rni ham o‘ziga xos mavzudir. Bu terminlar qanday shakllangan va ular o‘zbek tilining boyligini qanday to‘ldirib kelayotganini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

1. Sport terminlarining paydo bo‘lishi va rivoji. Sport terminologiyasining shakllanishi xalqaro sport bilan bog‘liqdir. Ko‘pgina sport turlari Yevropa va Amerikada paydo bo‘lib, butun dunyoga tarqalgan. Shu sababli ko‘plab sport atamalari boshqa tillardan, asosan ingliz va frantsuz tillaridan kirib kelgan. Masalan, “futbol”, “basketbol”, “tennis”, “golf” kabi atamalar xalqaro miqyosda umumiy bo‘lib qolgan. O‘zbek tiliga esa bu terminlar asosan transliteratsiya orqali kirib kelgan.

Keyinchalik milliy sport turlarining rivojlanishi bilan birga, o‘zbek tilida yangi sport terminlari paydo bo‘ldi. Masalan, kurash, uloq-ko‘pkari kabi milliy sport turlari o‘zbek terminologiyasida o‘ziga xos o‘rin egallagan.

2. Terminlarning o‘zbek tiliga moslashtirilishi. O‘zbek tilida sport atamalarini moslashtirish va ularga muqobillar topish muhim masala hisoblanadi. Tilshunoslar va sport mutaxassislari tomonidan bu borada muayyan ishlar olib borilgan. Ba’zi terminlar bevosita tarjima qilinadi, masalan, “ko‘tarish” (lifting), “yugurish” (running) kabi. Lekin ayrim terminlar o‘zbek tilida sinonimlari yoki mos ekvivalentlari bo‘lmaganligi sababli o‘z shaklida qabul qilinadi. Masalan, “penalti”, “chempion”, “referi” kabi atamalar bunday misollardir.

O‘zbek tilida terminlarni milliyashtirish va xalqaro atamalarni to‘g‘ri qabul qilish sportga bo‘lgan munosabat va sport madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

### 3. O‘zbek tilidagi sport matbuoti va terminlarning o‘zlashtirilishi

Sport terminlari o‘zbek matbuotida keng qo‘llanilib kelmoqda. Xususan, sport yangiliklari, maqolalar va sharhlar orqali xalq orasida yangi terminlar ommalashib bormoqda. Bunda, ommaviy axborot vositalarining roli katta. Matbuot terminlarni to‘g‘ri qo‘llashi va ularni ommalashtirishdagi vazifasi o‘zbek sport tilining rivojida muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbek tili sport matbuotida yangi so‘z va iboralarni muvaffaqiyatli qabul qilib, ularni xalq tiliga singdirib kelmoqda.

Sport terminologiyasining o‘zbek tilidagi o‘rni ko‘p qirrali va boydir. U xalqaro terminlar va milliy sport turlari orqali boyib bormoqda. Terminlarning o‘zbek tiliga moslashtirilishi til boyligini yanada kengaytiradi. Kelajakda sportning rivoji bilan birga o‘zbek tilidagi sport atamalari ham yanada boyib borishi kutilmoqda.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Nurmatov, Sh. "O‘zbek tilida sport terminlarining o‘zlashtirilishi". – Toshkent, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, 2018.
2. Islomov, A. "Til va sport: sport terminologiyasi masalalari". – Toshkent: Fan, 2020.
3. Xusanov, M. "O‘zbek tilida sport matbuotining rivoji". – O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2021.
4. Karimova, G. "Milliy sport turlari va ularning o‘zbek tilidagi terminologiyasi". – Toshkent, 2019.
5. Azizov, S. "Sport atamalari tarjimasi va muammolari". – Tarjima ilmi, 2022.

## **TILSHUNOSLIKDA OPPOZITSIYA VA ANTONIMIYA TUSHUNCHASI**

*Xaitova Gulhayo Tovasharovna*

Termiz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

[xaitova.gulhayo@mail.ru](mailto:xaitova.gulhayo@mail.ru)

+99897 810 12 27

**Annotatsiya:** Tilshunoslikdagi antonimiya va oppozitsiya leksik, fonologik, morfologik va sintaktik sohalarda ma’noni farqlashni osonlashtiradigan asosiy qarama-qarshilik mexanizmlarini ifodalaydi. Ushbu maqolada, ko‘plab tilshunos olimlarning fikrlariga tayangan holda, oppozitsiya va antonimiya tushunchalari o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Ziddiyat, qarama-qarshilik, antonimiya, oppozitsiya, til sathlari, grammatik oppozitsiya, fonetik oppozitsiya

Ko‘plab tilshunos olimlarning ta’riflarida antonimiyani tilning tuzilishi uchun asosiy bo‘lgan “qarama-qarshi” tushunchasining ifodasi sifatida qabul qilish aks ettirilgan. Masalan, rus tilshunosi O. S. Axmanovning “Lingvistik atamalar lug‘ati” da antonimlarga semantik qarama-qarshiliklar deb ta’rif beradi [1:50]. T.V Jerebilo esa “lingvistik atamalar va tushunchalar lug‘ati”da “antonimlar bu – qarama-qarshi ma’nolarga ega bo‘lgan leksik va boshqa til birliklari o‘rtasidagi semantik munosabatlar” [2: 35] deya izoh berib o‘tgan. Shunday qilib, birinchi holda,

antonimiya va qarama – qarshilik sinonim sifatida ifodalanadi, ikkinchisida antonimiya qarama-qarshilik natijasida yuzaga keladigan munosabatlarning faqat bitta turidir.

Nemis tadqiqotchisi S. Lebner o‘zining “Semantikani tushunish” asarida misol sifatida “sotib olish” (buy) so‘zini keltiradi, buning uchun u bir nechta muqobil antonimlarni ko‘rsatadi: “sotish” (sell), qarz olish “borrow”. Oxirgi uchta fe‘l narsalarni sotib olishning muqobil usullarini bildiradi, lekin ma‘lum semantik elementlarning mavjudligi yoki yo‘qligi bilan bir-biridan farq qiladi. “Sotib olish” va “sotish” fe‘llarining o‘zaro bog‘liqligiga kelsak, oppozitsiya nuqtai nazaridan kelib chiqilganda, ular bir xil vaziyatning belgisi bo‘lib xizmat qiladi [3: 208].

Keng ma‘noda qarama-qarshilik ob‘ektiv voqelikning asosiy toifalaridan biri va bizning fikrlash jarayonimizdir. Shuning uchun, ba‘zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra – xususan, V. A. Mixaylova – bu tushunchalarni aniqlashda antonimiyaning lingvistik tomonini ifodalovchi qarama-qarshilik va ziddiyat o‘rtasidagi nomuvofiqlik muhim rol o‘ynashi mumkin deya ta‘riflaydi [4:3]. Shu asosda, aytishimiz mumkinki antonimiyaning o‘zi tilning kategorik mohiyatini aks ettiradi.

Ko‘plab tilshunoslar tomonidan keltirilgan ta‘rif va tadqiqlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ziddiyat deganda qarama-qarshi yoki qarama-qarshi ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlar orasidagi leksik-semantik munosabatlarning o‘ziga xos turi tushuniladi. Antonimlar – biri ikkinchisining inkorini yoki qarama-qarshiligini ifodalaydigan so‘zlardir. Bu munosabat, birinchi navbatda, til leksikasi ichidagi so‘z ma‘nolari bilan bog‘liq. Antonimiya hodisasi tilshunoslikning leksikologiya bo‘limida izchil o‘rganiladi.

Qarama-qarshilik keng, umumiy tushuncha bo‘lib, ma‘no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita lingvistik obyekt – so‘zlar, iboralar yoki g‘oyalar o‘rtasidagi har qanday munosabatni bildiradi. U leksik semantika ya‘ni so‘z ma‘nolari bilan cheklanmaydi, lekin tilning turli sathlarida paydo bo‘lishi mumkin.

Oppozitsiya nafaqat so‘z ma‘nolari jihatidan balki kengroq lingvistik va hatto madaniy kontekstlarda ham har qanday kontrast yoki qarama-qarshi munosabatlarga ishora qiladi. Oppozitsiyalar tilshunoslikning turli sohalarida mavjud bo‘lib, shu sohadagi farq va o‘xshashliklar tahlil qilishga xizmat qiladi.

Jumladan, Fonologik oppozitsiya, grammatik oppozitsiya, Semantik oppozitsiya, sintaktik oppozitsiya va boshqalar.

Fonologik oppozitsiya deganda tildagi tovushlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik tushuniladi, ular ma‘noda farqlar hosil qilishi mumkin. Tilshunoslikda bir so‘zni boshqa so‘zdan ajrata oladigan eng kichik tovush birliklari fonemalardir. Agar ikkita tovush fonologik jihatdan qarama-qarshi bo‘lsa, bu so‘zda bir tovushni ikkinchisiga almashtirish uning ma‘nosini o‘zgartirishi mumkinligini anglatadi.

Grammatik oppozitsiya deganda tildagi ikki yoki undan ortiq grammatik shakllar yoki tuzilmalar o‘rtasidagi qarama-qarshilik tushuniladi, ular turli ma‘no va funksiyalarni ifodalaydi. Bu qarama-qarshilik zamon, son, hol, jins, jihat, mayl kabi grammatik tizim doirasida yuzaga keladi, bunda grammatik shakllardagi farq ma‘no yoki vazifa farqiga mos keladi.

Aspect	Oppozitsiya	Antonimiya
<b>Umumiy tushuncha</b>	Tilning turli sathlarida (fonologik, grammatik, semantik va boshqalar) umumiy kontrast yoki ma’no farqi.)	Qarama-qarshi ma’noli ikki so‘z o‘rtasidagi o‘ziga xos kontrast (semantik fokus)
<b>Til sathi</b>	Turli sohalarda qo‘llanilishi mumkin (fonologiya, sintaksis, diskurs)	So‘zlarga va ularning ma’nolariga (leksik semantika) maxsus qo‘llaniladi
<b>Turlari</b>	Ikkilik yoki murakkabroq bo‘lishi mumkin (masalan, fonologik oppozitsiya, sintaktik oppozitsiya)	Ikkilik antonimlar, gradativ antonimlar va aloqador antonimlarni o‘z ichiga olad
<b>Misollar</b>	“Birlik” va “Ko‘plik” (grammatik oppozitsiya); “p” va “b” (fonologik oppozitsiya)	“Issiq”, “Sovuq”, “O‘lik”, “Tirik” semantik oppozitsiya
<b>Xulosa</b>	Oppozitsiya keng ko‘lamli tushuncha	Antonimiya-oppozitsiyaning o‘ziga xos turi.

Xulosa sifatida shunday to‘xtamga kelishimiz mumkinki, antonimiya faqat so‘z ma’nolari o‘rtasidagi qarama-qarshilik bilan bog‘liq bo‘lgan oppozitsiyaning o‘ziga xos turi bo‘lib, Oppozitsiya esa tildagi har qarama-qarshilikni, u tovush, sintaksis yoki ma’noda bo‘lishidan qat’i nazar, umumiy va keng ko‘lamli tushunchadir.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

- 1.Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. – Изд. 2-е. – М.: Издательство «Советская энциклопедия», 1969. – 606 с.
2. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов и понятий/ Т.В. Жеребило. - 5-е изд., испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2010. – 486 с.
- 3.Lebner Löbner S. Understanding Semantics / S. Löbner. – 2nd edition – Abingdon:Routledge, 2013. – 379 p.
4. Михайлов В.А. Генезис антонимических оппозиций : антонимия и отрицание : Учеб. пособие / В.А. Михайлов. – Л.: Ленингр. ун-т, 1987. – 80 с.

## TOVAR YORLIQLARI TILINING O‘RGANILISHI VA ZARURATI

*Orifjon Choriyev*

Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

TDYU Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

e-mail: o.choriev@tsul.uz,

ORCID: 0000-0002-2341-5511,

Tel.: +998912377659

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tovar yorliqlari tilining o‘rganilishi va zarurati borasida to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, tovar yorliqlari ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasi hisoblanganligi uchun ham yorliqlarning tili aniq va ravon bo‘lishi lozimligi, bu yorliqlar iste‘molchilar uchun xavfsizlik manbai hisoblanishi, shuningdek xorijiy va milliy olimlarning tadqiqotlari misolida tovar nomlari va tovar yorliqlari matnidagi muammoli holatlar va tovar yorlig‘i matnining marketing va iste‘molchini ishontirishdagi ahamiyati kabi masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar ifodalangan.

**Kalit so‘zlar:** iste‘molchi, ishlab chiqaruvchi, tovar nomi(neyming), tovar yorlig‘i, marketing, kam yog‘li, qarsildoq, xolesterinsiz.

Mahsulot yorliqlarida qo‘llaniladigan tilni o‘rganish juda muhim, chunki yorliqlar ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Yorliqlar mahsulot haqidagi muhim ma‘lumotlarni, jumladan, uning tarkibi, foydalanish yo‘riqnomasi va ehtimoliy xavflarni yetkazadi. Bundan tashqari, yorliqlar iste‘molchilarning idrokiga va xarid qilish xatti-harakatlariga ta‘sir ko‘rsatish orqali marketingda ham muhim rol o‘ynaydi. Mahsulot yorliqlarining lingvistik tahlili shaffoflikni, tartibga solish standartlariga muvofiqlikni va madaniy me‘yorlarga moslikni ta‘minlaydi. Bu esa bugungi global bozorda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga qadar tovar nomlari(neyming) va tovar yorliqlari tilini o‘rganish bo‘yicha xorijiy va milliy olimlarimiz tomonidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarning bir nechtasining mazmun-mohiyati, tadqiqotdan erishilgan natijalari borasida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Jumladan, K.C.Mohr va H.Delislelar oziq-ovqat yorliqlari va ularning iste‘molchilarning ovqat tanloviga ta‘siriga bag‘ishlangan tadqiqot olib borishgan. Ular bu tadqiqotda iste‘molchilar oziq-ovqat yorliqlaridagi “ozuqaviy ma‘lumotlar”ni qanday tushunishlari va bu yorliqlarning ularning xarid qilish xatti-harakatlari hamda ovqatlanish tanloviga qanday ta‘sir ko‘rsatishini o‘rganishni maqsad qilishgan. Ushbu tadqiqot yog‘ miqdori, kaloriyalar soni va kunlik iste‘mol foizi kabi ozuqaviy ma‘lumotlarning tushunarligini va samaradorligini aniqlashga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ular oziq-ovqat yorliqlari muhim ma‘lumotlarni taqdim etsa-da, ko‘pchilik iste‘molchilar texnik atamalarni tushunishda qiynalib, ongli qarorlar qabul qilishda qiynalishini aniqladilar. Mualliflar oziq-ovqat yorliqlarida aniqroq va soddaroq til ishlatishni taklif qilib, yorliqning tushunarligini oshirish sog‘lom ovqat tanloviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini ta‘kidladilar. Bu tadqiqot jamoat salomatligini yaxshilash bo‘yicha sa‘y-harakatlarda lingvistik

shaffoflik zarurligini ko‘rsatdi[1]. Mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borgan olimlardan yana biri Aradhna Krishna hisoblanadi. U “Sezgi marketingining umumiy sharhi: Idrok, muhokama va xulq-atvorga ta’sir etish uchun sezgilarni jalb qilish” bo‘yicha tadqiqot olib borgan bo‘lib, unda mahsulot yorliqlari orqali iste’molchilar xulq-atvorini shakllantirishda “sezgi marketing”ning rolini o‘rgangan. Xususan, tadqiqotda mahsulot yorliqlaridagi bo‘yoqdor so‘zlar (masalan, "qarsildoq," "silliq") iste’molchilarning kutilmalari va mahsulot tajribasiga qanday ta’sir qilishi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Krishna yorliqlardagi tavsiflovchi tilning iste’molchilarning mahsulot ta’mi, sifati va umumiy taassurotini idrok etishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Masalan, yorqin sezgi tavsiflovchilari bilan bezatilgan yorliqlar iste’molchilarning oziq-ovqat mahsulotlaridan kutishini va ulardan zavqlanishini oshirishi aniqlandi. Tadqiqot iste’molchilarning sezgilarini jalb qilishda lingvistik elementlarning kuchini ta’kidlab, yorliq dizaynini marketing strategiyalarining ajralmas qismiga aylantirdi[2]. Tovar yorliqlari tili bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan yana biri A.Hersey va J.C.Andrewslar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning tadqiqotida “Ovqatlanish va sog‘liq haqidagi da’volar: Me’yoriy asos va iste’molchilar talqini” masalasi o‘rganildi. Ular oziq-ovqat yorliqlaridagi “kam yog‘li”, “xolesterinsiz” va “yurak uchun foydali” kabi “sog‘liq haqidagi da’volarni” iste’molchilar qanday tushunishini baholashni maqsad qilishgan edi. Bu tadqiqotchilar tovar yorliqlarida qayd etilayotgan da’volar haqiqatdan ham sog‘liq uchun foydali ekanligi faktini va iste’molchilarni chalg‘itish-chalg‘itmasligini o‘rganishgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ko‘p iste’molchilar sog‘liq haqidagi da’volar ta’siriga tushib, bunday yorliqli mahsulotlarni aslida bo‘lganidan sog‘lomroq deb qabul qilishadi. Mualliflar aldanchi tilning oldini olish uchun sog‘liq bilan bog‘liq da’volarga qat’iyroq qoidalar o‘rnatishni taklif qilishdi. Bu tadqiqot iste’molchilarning oziq-ovqat mahsulotlari sog‘lomligi to‘g‘risida asosli qarorlar qabul qilishini ta’minlash uchun aniqroq til zarurligini ta’kidlaydi[3].

O‘zbek tilshunosligida tovar nomlari (neyming) bo‘yicha D. Lutfullayeva, D. Xudoyberganova, M.Saparniyazova[4], M.Madiyeva va boshqa olimlar tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, mazkur ishlarda nom yaratishning lingvistik jihatlari tahlil qilingan. Xususan, M.Madiyevaning ta’kidlashicha, har bir brend nomi iste’molchilar ongida mahsulotning sifati haqida umumiy tasavvur uyg‘otadigan manzarani shakllantiradi, “brend tasviri” esa lingvomadaniy xususiyatga ega. Tovar nomini yaratishda muhim rol o‘ynaydigan lingvomadaniy xususiyatlar ularning hududiy farqli belgilarida ham kuzatiladi. Brendlarning nomlanish jarayonida, nafaqat, til xususiyatlari, balki mazkur jamiyatda yashovchi xalqlarning dunyoqarashi va bilimlar yig‘indisi ham hisobga olinadi. Chunki har bir brend nomi ostida ma’lum bir millatning milliy dunyoqarashi yotadi. Bu o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalq olamini anglash, tilni vujudga keltirgan xalq dunyoqarashini tushunish demakdir. Bu tarzda til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlovchi lisoniy birliklar, xususan, brendlarning lingvomadaniy tadqiqi o‘zbek tilshunosligida bu sohadagi izlanishlarni mazmunan to‘ldiradi[5].

Xulosa qilib aytganda, mahsulot yorliqlaridagi tilni o‘rganish shaffoflikni ta’minlash, qonuniy talablarga rioya qilish va madaniy me’yorlarga moslashish uchun

muhimdir. Bunday tadqiqotlar xavfsizlikni oshirish, ishonchni mustahkamlash va marketing samaradorligini yaxshilash orqali ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga foyda keltiradi. Ishlab chiqaruvchilar uchun lingvistik bilim qonuniy majburiyatlarni bajargan holda mahsulotlarning keng auditoriyaga maqbul bo'lishini ta'minlaydi. Iste'molchilar uchun esa xavfsiz va ongli tanlov qilish uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'lish kafolatlanadi. Bunday tadqiqotlar tufayli ishlab chiqaruvchilar ham, iste'molchilar ham tobora raqobatlashib borayotgan jahon iqtisodiyotida muloqot, ishonch va bozordagi faoliyat samaradorligining yaxshilanishidan manfaatdor bo'ladilar.

***Adabiyotlar ro'yxati; Библиографические ссылки; References:***

Ko‘nglimda armon yotar Buzilgan ro‘zg‘or misol<sup>19</sup>.

Ushbu she’rda shoirning ichki kechinmalari va hayotdagi noxush holatlar aks etadi. Keling, uning tahlilini ko‘rib chiqaylik: She’r, tabiat va inson munosabatlarini, shuningdek, ijtimoiy adolatsizliklarni o‘z ichiga oladi. Shoir, bog‘bon va tabiat o‘rtasidagi aloqani va insonlarning o‘zaro munosabatlarini tasvirlaydi. She’rda kuchli iztirob va umidsizlik hissi mavjud. "Ko‘nglimda armon yotar" iborasi shoirning ichki xafagarchiliklarini ifodalaydi. Har bir misra turli holatlarni va muammolarni

<sup>19</sup> To‘ra Sulaymon, "Yurakdan chiqqanlar", o‘zbek she’riyatining tanlangan asarlari, Toshkent, 2021

tasvirlaydi. Masalan: "Gulzorni alaf bossa, zog‘ bossa bog‘bon turib" — bu yerda tabiat va insonning muhim o‘rni ko‘rsatiladi. "Muallaq qolsa kimdir" — bu ibora noaniqlik va befarqlikni anglatadi. "Buzilgan ro‘zg‘or misol" — bu tasvir shoirning o‘z hayoti va muammolarini ifodalaydi. Buzilgan ro‘zg‘or, odatda, yo‘qotish va ezgulikdan mahrum bo‘lishni anglatadi.

She‘r, hayotdagi murakkabliklar, tabiat va insoniy kechinmalar haqida chuqur fikr yuritadi. O‘quvchi she‘r orqali shoirning ichki iztiroblari va atrofdagi muammolar haqida o‘ylashga majbur bo‘ladi.

She‘rni lingvistik tahlil qilishda bir necha jihatlariga e‘tibor qaratish mumkin: til, sintaksis, leksik ma‘nolar va uslubiy xususiyatlar. Keling, "Gulzorni alaf bossa" she‘riga lingvistik tahlilni amalga oshiraylik.

Leksik tahlil:

"Gulzor" — tabiat va go‘zallikni anglatadi.

"Bog‘bon" — inson, tabiatni parvarish qiluvchi shaxs sifatida.

"Muallaq" — noaniq yoki barqaror bo‘lmagan holat.

"Qolsa" — qaramlik yoki befarqlikni bildiradi.

Sintaksis tahlil:

- She‘rda murakkab va sodda gaplar bir-biri bilan bog‘langan.
- Har bir misra o‘zida yangi ma‘no keltiradi, bu esa o‘quvchiga yaxlit tasvir yaratadi.
- "Yer turib, osmon turib" — bu ibora asaridagi barqarorlik va beqarorlikni ta‘kidlaydi.

Stilistika Tasviriy vositalar: She‘rda tasvirlar va metaforalar ko‘p qo‘llaniladi. "Buzilgan ro‘zg‘or" — ro‘zg‘orning buzilishi orqali inson hayotidagi murakkablik va qiyinchiliklar aks ettiriladi. Qaytish va takrorlanish: She‘rda ba‘zi so‘zlar va frazalar takrorlanishi orqali ma‘noni kuchaytiradi. Fonetik tahlil: She‘rda ritmik va ohangdorlikni ta‘minlovchi vokal va konsonant tovushlar mavjud. "Ko‘nglimda armon yotar" — bu jumladagi "yotar" so‘zi hissiy kuchni yanada oshiradi. Pragmatik tahlil: She‘rning konteksti va shoirning maqsadi: she‘rda inson hayoti, tabiat va ijtimoiy muammolar haqida fikr yuritiladi. Bu o‘quvchiga o‘z hayotidagi qiyinchiliklar va noxushliklar haqida o‘ylashga undaydi. Lingvistik tahlil she‘rni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi, undagi til vositalari va strukturalar orqali shoirning hissiyotlari va fikrlarini o‘zida aks ettiradi. Agar sizda yana biror savol yoki boshqa she‘rlarni tahlil qilishga qiziqish bo‘lsa, men yordam berishga tayyorman!

### Xulosa

To‘ra Sulaymonning “Armon” she‘ri inson ruhiyatining murakkabligini, ichki kechinmalarni va umidlarni ifodalaydi. Lingvistik jihatdan, she‘r boy va nozik ifodalarga ega, poetik jihatdan esa chuqur ma‘nolarni o‘z ichiga oladi. Ushbu she‘r, o‘zbek adabiyotida insoniy his-tuyg‘ularni ulug‘lashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarga o‘z ichki dunyosini anglashda yordam beradi. To‘ra Sulaymonning “Armon” she‘ri o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu she‘rning lingvistik va poetik tahlili, uning ma‘nosi va estetik jihatlari bilan tanishishimizga yordam beradi. She‘rda o‘ziga xos til uslubi va sintaktik tuzilma qo‘llanilgan. To‘ra Sulaymon,

o‘zining mahoratli so‘z tanlovi bilan, o‘z fikrlarini aniq va ta’sirchan ifodalaydi. She’r asosan ruhiy kechinmalar, orzular va ularning amalga oshishi bilan bog‘liq. Armon – bu insonning ichki dardlarini, umidlarini va kechikkan maqsadlarini aks ettiradi. She’rda o‘ziga xos ritm va rima tuzilishi mavjud, bu esa o‘qishni osonlashtiradi va she’rning musiqiyiligini oshiradi. She’rda tabiiy tasvirlar va ichki kechinmalar o‘zaro bog‘langan. Tasvirlar orqali muallif o‘quvchini o‘z ichki olamiga jalb qiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

- 1.M. Xolmirzayeva, "O‘zbek adabiyotida uslub va janr", O‘zbekiston, 2015.
- 2.Sh. Rahmonov, "O‘zbek she’riyatida obraz va tasvir", Tashkent, 2018.
- 3.A. Qodirov, "She’r tahlili: nazariy va amaliy jihatlar", Tashkent, 2020.
- 4.F. Jalilov, "Adabiyotda uslubiy tahlil va metodologiya", O‘zbekiston, 2016.
- 5.To‘ra Sulaymon, "Yurakdan chiqqanlar", o‘zbek she’riyatining tanlangan asarlari, Tashkent, 2021.
- 6.B. Karimov, "O‘zbek shoirlari: Yozuvchilar va ularning asarlari", Tashkent, 2019.
- 7.S. Abdullayeva, "Lingvistika va adabiyot nazariyasi", O‘zbekiston, 2017.
- 8.R. Sultonov, "Poetikaning asosiy tamoyillari", Tashkent, 2018.

**DENOV ADABIY MUHITI IJODKORLARI FAOLIYATI VA ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTI**

*Musayeva Dilrabo Ziyadullayevna*

Surxondaryo viloyati Denov tumani 96-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Denov shahrining boy adabiy merosi va uning hozirgi o‘zbek adabiyotiga ta’siri muhokama qilinadi. Denovning o‘zbek adabiyoti tarixidagi muhim o‘rni, u yerda yetishib chiqqan iste’dodli shoir va yozuvchilarning ijodiy faoliyati hamda ularning asarlaridagi xususiyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Denov adabiy muhitining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, uning kelajak avlod yozuvchilari uchun ilhom manbasi sifatidagi roli hamda milliy adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasi bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Denov adabiy muhiti, misollar, adabiyot, badiiyat, she’riyat, drammatizm, insoniylik, tasavvur olami, ruhiyat, badiiylilik, diniy mavzu, insoniylik olami.

**Kirish**

Adabiyot – inson bilan asrlar osha hamohang yashab kelayotgan fan hisoblanadi. U o‘z bag‘rida inson tafakkurining go‘zal qirralari, nozik sarchashmalari, badiiyati, she’riyatning ajib sirlari-yu, nasrning betakror tuhfalarini yashirgan. Adabiyot sohasida qalam tebratgan har qanday ijodkor borki, u o‘zining takrori yo‘q ifodalari, ajoyib, sara so‘zlari orqali kishi qalbidan joy oladi, ana shunday ijodkorlardan biri bu Mengziyo Safarovdir.

Mengziyo Safarov (1938–1994) o‘rta maktabni 1956-yili a’lo baholar bilan tugatib, bir yil Xayrobod paxta tozalash zavodida ishchi bo‘lib ishladi. 1957-yili Toshkent davlat universitetining tarix va arxeologiya bo‘limiga o‘qishga kirdi, o‘qishni muvaffaqiyatli tamomladi. Ikki yil Uzun tumanidagi Oydin nomli o‘rta maktabda o‘qituvchilik qildi, ikki yil O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyida ilmiy

xodim bo‘ldi. U tom ma‘nodagi qadimshunos edi, mana uning qadimshunos haqida aytganlari: “Qadimshunos o‘tmishga sayohat qiladi. Tuproq qadimshunos uchun ajdodlar tarixining buyuk kitobidir. U o‘tmish ajdodlar hayotini shu topildiqlar orqali tiriltiradi. Tarix manzaralarini kashf etadi”<sup>20</sup>. “Yer ustida tirik yurganlarni yozadiganlar ko‘p, men yerning tagida indamaslar olamida yotganlarni yozishni istayman”. Mengziyo Safarov uzoq yillar “Surxon tongi” gazetasida tarjimon, adabiy xodim, bo‘lim mudiri, radioeshittirish qo‘mitasida muharrir, bir necha yillar, oz emas, ko‘p emas o‘n yildan ortiq davri davomida “Payg‘ambar oroli” qo‘riqxonasida ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari vazifalarida ishladi. U muttasil yigirma yil (1974–1994) davomida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Surxondaryo bo‘limini boshqardi.

“Ona yer qo‘shig‘i” (1969), “Turnalar uchadi” (1972), “Olis qirlar ortida” (1977), “Povest va hikoyalar” (1978), “Tabiat ehromi; Umr chorrahalarida” (1985, Z.Egamberdiyev bilan hamkorlikda), “Ona tuproq qo‘shig‘i” (1989) (XX asr O‘zbek hikoyasi antologiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 624 b. – B. 140-144-betlarda yozuvchining “Tog‘larda gulxan yonadi” hikoyasi berilgan).

Adabiyot o‘z bag‘riga ko‘plab iste‘dodli insonlarni olgan. Bu kabi ijodkorlar o‘zlarining mohir san‘atlari ila barchani rom aylagani rost. Toshtemir Turdiyev ham shunday ijodkorlardan biri sanalib, uning ijodini mutolaa qilgan har bir inson she‘riyat shaydosiga aylanmay qo‘ymaydi. Toshtemir Turdiyev tabiatiga taalluqli haqiqatlarni jamoatchilik fikri, ijtimoiy amaliyot ertaga yanada ravshan torttirib absolyut haqiqat maqomiga olib chiqadi. Ayni shu ma‘noda Denov va denovliklarning fidoyi farzandi Toshtemir Turdiyevning ichki qiyofasiga nisbatan “e’tirof va ehtirom”ning hanuz cheki, chegarasi ko‘rinmaydi. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid mazkur kitobda Toshtemir Turdiyevni “Tosh va “Temir”ga qiyoslaydi. Zotan, “Tosh” ham, “Temir” ham mangu haqiqatga daxldor unsurlardan.

Topganim haqiqat, topmaganlarim  
Hayotni hayrat ham sayqalga o‘rang.  
Ziyo ham farishta, yaxshi yomonni  
Kitobga qo‘yilgan haykaldan so‘rang.  
Go‘zal ham, g‘azal ham uyat, andisha,  
Armon, kemitgimni yoparsan, bolam.  
Men bilgan, bilmagan haqiqatlar ko‘p,  
Ularni kitobdan toparsan, bolam.  
O‘zingni angla, ham unutmaz zinhor  
Ertak ham qasida, ota ham ona.  
Mustaqil Vatan ham, hayot ham Qomus  
Avesto, Qur‘on ham haqiqatxona.  
Ularning asosi, mezoni mehnat,

1. Сафаров М. Она тупроқ кўшиғи. Қиссалар, эсселар, ҳикоялар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 119.

Til bilan tafakkur, tarozi ham sang.  
Nisbiy yo absolyut, mangu haqiqat  
Inson ham, mehri ham sakkizinchi rang.

Haqiqiy san’atning shaydolari ko‘p, oshiqdari bisyor. Ijodkor o‘z asarini yurak qalami bilan yozadi, qo‘l bilan emas. Dardlarini yurakdan to‘kadi, ko‘z yoshi ila yuvadi, qo‘llari orqali iroda etadi. Ana shunday yurak qalamini qo‘lga olgan inson bu Iskandar Xalilovdir. Iskandar Xalilov (Muzaffarzoda) 1959-yilda Denov tumanidagi Qiziljar mahallasida, ajdodlari ilm va xattotlik bilan shug‘ullanib kelgan Mullo Muzaffar xonadonida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tamomlagach, 1977-1978 yillarda Dushanbe hunar-texnika bilim yurtining noshirlik bo‘limida tahsil olgan. Harbiy xizmatni 1982-1984 yillarda o‘tagach, 1989-1991 yillarda Chag‘aniyon (G‘alaba uchun) gazetasida 1991-1993 yillar mobaynida “Sadoyi Surxon” gazetasida muxbir, adabiy bo‘lim mudiri vazifalarida mehnat qilgan. 1990-1995 yillarda Dushanbe davlat pedagogika institutining Tojik tili va adabiyoti fakultetida sirdan tahsil olgan. 1994-1996-yillarda “Chag‘aniyon” gazetasi tahririyati qoshidagi “Denov va denovliklar tarixi” bo‘yicha ijodiy ish yurituvchi 1995-2000-yillarda “Mahorat” ijodiy ishlab chiqarish kichik korxonasi direktorlik lavozimida ishlagan. Uning “O‘shor” tarixiy-badiiy risolasi, “Lo‘liga aytilmagan sir” she‘riy to‘plamlari chop etilgan<sup>21</sup>.

Denov adabiy muhitining serqirra ijodkorlaridan biri shoira Xolbib Ergashovaning Surxon elida ko‘plab muxlislari bor. Shoira bilan suhbatlashsangiz, kamtarin, kamsuqum ko‘ringan ayolning vujudida elning og‘riqlari, millatning dardi yotadi. Shirin ovozida yangrayotgan so‘zlar turli tuyg‘ular bo‘lib, ruhiyatingizga orom beradi. Qaysi mavzuda gap boshlamang, albatta, mulohaza, keng mushohada bilan javob beradi.

Shoira Xolbib Ergashova 1960-yilning 24-fevralida Denov tumanida tavallud topdi. Ilk saboqni tumandagi sakkiz yillik 11-sonli (hozirgi 84-umumiy o‘rta ta’lim) maktabda o‘qishni tamomladi. 1977-1979-yillarda Termiz qishloq xo‘jalik bilim yurtining iqtisod bo‘limini imtiyozli diplom bilan tugatadi. Shu yili ilk mehnat faoliyatini Denov tumani xalq ta’limi bo‘limida iqtisodchi vazifasida boshlaydi. Xolbib tez orada o‘z kasbining ustasida tanildi. Biroq uning uchun eng aziz bo‘lgan ijodi hamisha birga edi, boshqa bir olamga chorlar edi. 1998-yilda Termiz davlat universitetining filologiya fakultetiga sirdan o‘qishga kirdi. Muallimlik faoliyatini o‘zi ilk bor saboq olgan 84-son o‘rta maktabda kutubxonachilikdan boshlaydi.

1989-yildan Xolbib Ergashova o‘zbek tili va adabiyoti muallimmasi sifatida tanila boshladi. Uning tilshunoslik sohasidagi maqolalari gazeta va jurnallarda chop etildi. Ayniqsa, “Kelajak maktabi va men uni qanday tasavvur etaman” nomli monografik ilmiy ishi uchun 1993-yilda “O‘zbekiston xalq ta’limi a’lochisi” nishoni va O‘zbekiston Xalq ta’limining “Faxriy yorliq”lari bilan taqdirlandi. 1993-yili iqtidorli muallima universitetni imtiyozli diplom bilan yakunladi

### **Xulosa**

<sup>21</sup> “Таълимда филологияни ривожлантиришнинг глобал масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжумани материаллари (Жиззах, 2021 йил 3 май, Ўзбекистон). – Жиззах. 2021. – 522 б.

Badiiy adabiyot o‘z bag‘rida ko‘plab ijodkorlarni yetishtirgan, ularni tarbiyalagan, ijodning nozik qirralarini anglashga yordam bergan ajib san‘at hisoblanadi. Ana shu san‘atning shakllanishi qadim tarix davrlariga borib taqalib, bugungi kunga qadar uning rivojlanishi to‘xtayotgani yo‘q, aksincha, yanada taraqqiy etmoqda. Xilma-xil mavzuda yozilayotgan asarlar, adabiy yo‘nalishlar rivoji – ushbu fanning naqadar keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi.

Denov adabiy muhiti Surxon adabiy muhitining bag‘rida sayqallangan yo‘nalish hisoblanib, ushbu yo‘nalishda ijod qiluvchilarni bevosita uch guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq masala sanaladi:

Denov adabiy muhitida shakllangan lirik yo‘nalishda ijod qilganlar

a) Denov adabiy muhitida shakllangan epik yo‘nalishda ijod qilganlar;

b) Denov adabiy muhitida shakllangan dramatik yo‘nalishda ijod qilganlar.

Mengziyo Safarov tarix yo‘nalishi bilan shug‘ullangan ijodkor sanalsa-da, biroq u adabiyot sohasida qalam tebratishni ham yonma-yon holda uddalagan ijodkor sanaladi. O‘z asarlari bilan muxlislari qalbidan joy olgan Mengziyo Safarov “Ona yer qo‘shig‘i”, “Olis qirlar ortida”, “Ona tuproq qo‘shig‘i” kabi qator asarlar muallifi sanaladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. “Таълимда филологияни ривожлантиришнинг глобал масалалари” mavzusidaги xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Жиззах, 2021 йил 3 май, Ўзбекистон). – Жиззах. 2021. – 522 б.
2. Сафаров М. Она тупроқ кўшиғи. Қиссалар, эсселар, ҳикоялар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 119.
3. Is‘hoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006. – B. 128.
4. Jo‘raev O. Majoziy didaktik talqinlar. – Toshkent: Adabiyot va san‘at. 1989.
5. Каримов Н ва бошқалар «XX аср ўзбек адабиёти тарихи». – Тошкент, 1999. – Б. 544.

#### **BAXSHICHILIK SAN‘ATIDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN‘ANALARINING RIVOJLANISHI**

*Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi

[dilnozaxushbaxtova@dpi.uz](mailto:dilnozaxushbaxtova@dpi.uz)

UDK: 821.512.133

**Annotatsiya.** Maqolamizning ma‘zmoni baxchilikning o‘ziga xosligi, rivoji haqida. Bu maqola orqali xalq og‘zaki ijodining yirik janri bo‘lgan dostonlarimizning hozirgi kungacha sayqallanib yetib kelishida Sherobod dostonchilik maktabining benazir xizmatini ommaga yetkazish va shu bilan birgalikda bu maktabdan yetishib chiqqan baxshilarimizning mashaqqati benihoya ekanligini ko‘rsatishdir.

**Kalit so‘zlar:** do‘mbira, chechanlik, doston, baxshixilik, Sherobod dostonchilik maktabi, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, chechanlik.

Baxshichilik san‘atida ustoz-shogirdlik an‘analari, ularning doston ijro etish usul va yo‘llaridagi o‘zgachaliklar, farqli tomonlar nazariy jihatdan “dostonchilik maktabi” atamasini yuzaga keltirdi. Garchi baxshilar repertuar birligi, ijrodagi

umumiy o‘xshash tomonlar, epik mahorat masalalari bilan birbirlariga o‘xshash bo‘lsa-da, dostonchilik maktabi doirasida xususiyjihatlarini bilan farqlanib ham turadilar. Bu kabi xususiyatlarni folklorshunos T. Mirzayev quyidagicha izohlaydi: “...umumlashgan puxta epik an‘ana doirasida ma‘lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo‘llar, uslublar o‘zgachaligi, ustoz-shogird munosabatlari”dagi farqli tomonlardan iborat. Dostonchilik maktablariga xos mana shunday farqlar respublikamizda ko‘plab dostonchilik maktablarini yuzaga keltirdi va bir qator badihago‘y baxshi-shoirlarning tarbiyalanishi hamda jonli an‘analarni davom etishiga sabab bo‘ldi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, dostonchilik maktablarining yuzaga kelishi, taraqqiyoti va ijro usullari baxshilar san‘atining ijtimoiymadaniy jarayonlarda ommalashuvi bilan bog‘liq holatlardan hisoblansada, ikkinchi tomondan badihago‘y baxshilarning o‘z uslub va mahoratlarini takomillastirib, shogird baxshilarni tarbiyalab yetishtirganliklari sabab bo‘lgan.

Folklorshunos olimlarning XX asr davomida olib borgan ilmiy kuzatishlari respublikamizda ko‘plab dostonchilik maktablari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, surxondaryo va Qashqadaryo dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir. Ayni paytda bir vohaga xos dostonchilik maktablari ham bir-birlari bilan o‘xshash va farqli tomonlarga ega. Buni Surxondaryo dostonchilik maktablari misolida tahlilga tortsak. Ma‘lumki, Surxondaryoda ham baxshichilik (dostonchilik) san‘ati ancha kuchli va qadimiy an‘analarni saqlagan holda yetib kelgan hamda baxshilar auditoriyasini kengaytirgan. Ustoz baxshilarning soz va so‘zdagi mahorati, epik an‘analarga qat‘iy rioya qilishlari, birinchidan, shogirdlar tarbiyalab, doston ijro etishni davom ettirgan bo‘lsa, ikkinchidan, o‘sha ustozning yashash hududi geografik jihatdan baxshichilikning markazlashuviga asos bo‘lgan (Ba‘zan esa baxshi-shoirlarning tarbiyalanishi geografik joy bilan bog‘lanmaydi).

Sherobod, Boysun, Beshqo‘ton dostonchilik maktablarining shu hududlar bilan bog‘lanishi fikrimiz isbotidir. Folklorshunos olimlar A.Qahhorov, A. Ergashevlar o‘zlarining uzoq yillik kuzatuvlari natijasida Surxondaryoda dostonchilik maktabining asoschisi sifatida Bobo shoirga nisbat beradilar. Bobo shoir Sherobod dostonchilik maktabining asoschisi Shernazar Berdinazar o‘g‘lini tarbiyalab, baxshichilik san‘atini o‘rgatganligi va baxshining ko‘plab shogirdlarni yetishtirganligi poetik maktabning asoschisi sifatida uning nomi bilan bog‘lanishiga sabab bo‘lgan. M. Afzalov “O‘zbek xalq shoirlari” maqolasida Sherna baxshining ustoz-shogirdlik munosabatiga alohida e‘tibor qaratadi: ”Sherna o‘z davrining eng chechan, so‘zga boy san‘atkor shoirlaridan bo‘lib, shogird yetishtirishda ham Shernaga tenglashadigan ustoz bo‘lmagan. Shernazar shoir Surxondaryo va Qashqadaryo hatto Turkmanistonning ayrim shahar va qishloqlariga borib doston aytib, tinglovchilarni hayratga qoldirgan. Xalq orasida o‘z dostonlari bilan ma‘lum va mashhur bo‘lgan Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Ahmad yuzboshi, Saodat yuzboshi, Normurod Shernazar o‘g‘li, Jo‘ra Eshmurod o‘g‘li va boshqa iste‘dodli xalq shoirlarini tarbiyalab yetishtirgan Shernazar Berdinazar o‘g‘lidir”. Ushbu dostonchilik maktabining so‘ngi vakili Umir shoir Safarov ham bevosita Shernazar Berdinazar o‘g‘lining shogirdi hisoblanadi. Beshqo‘ton dostonchilik maktabi haqida

ham shunday fikr bildirish mumkin. Maktabning asoschisi sifatida Alim yuzboshiga nibat beriladi. Uning Normurod Poyon o‘g‘li, Ahmad baxshi, Xoliyor Abdukarim o‘g‘li, Boymurod Boymat, Xoliyor Alim va boshqa ko‘plab talantlarni yetishtirganligi ushbu hududda doston ijro etish an‘analarining jonli jarayonda davom ettirilganligi kuzatilgan.

Vohadagi uchinchi poetik maktabning asoschisi Abdurasul yuzboshi esa Mirza yuzboshi, Eshmurod Sherdan o‘g‘li, Mirzaqul yuzboshi va boshqa shogirdlarga doston ijro etish usul va yo‘llarini o‘rgatib shuhrat qozongan. Dostonchilik maktablari faqatgina o‘z hududlari doirasida doston ijro etmasdan, balki o‘zaro aloqada ham bo‘lganlar.

Dostonlarni tinglash, ularga tanqidiy baho berish, o‘zaro tortishuvlar baxshi-shoirlarni doston ijro etish malakalarini boyitib borgan. Har bir dostonchilik maktablariga xos ijro usullari, doston namunalari mavjud bo‘lsa-da, ammo keyingi davrda ijtimoiy-madaniy hayotimizda yuzaga kelgan o‘zgarishlar dostonchilikka xos an‘analarni buzilishiga olib keldi. Hattoki, Kofrun va Beshqo‘ton dostonchilik maktablari tugab, uning ijro xususiyatlari umumo‘zbek dostonchilik maktablari ijrosiga moslashgan. Sherobod dostonchilik maktabi baxshi-shoirlari ijro repertuari haqida ham shunday xulosaga kelish mumkin. Jonli jarayondagi mavjud baxshi-shoirlar repertuari va ijro xususiyatlari borasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, Surxondaryo vohasida baxshichilik san‘ati an‘anaviy ijro xususiyatlarini saqlab, jonli jarayonda yashab kelgan bo‘lsa-da, globallashuv jarayonlari, axborot almashuvining tezlashish holatlari an‘anaviy jonli jarayonlarni sustlashtirdi. Kofrun, Beshqo‘ton dostonchilik maktablari ijro xususiyatlariga xos usullar so‘nib bo‘ldi. Hattoki, Sherobod dostonchilik maktabi baxshilari nisbatan jonli jarayonlarni saqlab turgan bo‘lsa-da, doston ijro etish usul va yo‘llarini og‘zaki o‘zlashtirgan Qora va Chori Umirovlar, Shoberdi Boltayev kabi baxshishoirlar ijrosida ham quramalik, bir dostonga xos xususiyatlarni ikkinchisi tarkibiga kiritish, individual ijodkorlik usullari kuchayib borayotganligidan dalolat bermoqda. Baxshilar o‘zlarini yangi davr ijodkori sifatida baholamoqdalarki, bu narsa folklorga xos individual va jamoa ijod mutanosibligining buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Ikkinchidan, bugungi kunda baxshilar ijrosida doston ijro etishga nisbatan terma ijodkorligi kuchayib bormoqda. Baxshilarning erkin ijodkorlik tuyg‘ulari an‘anada mavjud bo‘lmagan “yasama” dostonlarni to‘qishga imkon bermoqda. Shodmon, Rasul, Ravshan va boshqa baxshilar repertuari bunga misol bo‘la oladi. Uchinchidan, baxshichilik san‘ati bugungi kunda ham Surxon vohasida yangicha ijro usullari bilan davom etib bormoqda. Chunki bugungi adabiy-madaniy o‘zgarishlar baxshi dunyoqarashi va uning ijro jarayoniga ta‘sir etib, zamonaviy talqinlarga ehtiyoj sezdirmoqda.

Yirik tilshunos olim Yevgeniy Dmitrevich Polivanovning (1891-1938) yozishicha, baxshi so‘zi asli xitoycha bo‘lib, “uning xitoy tilidagi shakli “paksi”(hozirgi xitoy tilida “bo-shi”) bo‘lgani holda turkiy tilga mo‘g‘ul tili vositasida o‘zlashgandir”<sup>22</sup> “Turk tilining etimologik lug‘ati” da baxshi so‘zi haqida

<sup>22</sup> Polivanov D.Ye. Ko‘rsatilgan asar.-S.-29.

quyidagilarni o‘qiymiz: “Xitoycha pak-si (po-si ham deyiladi : ustoz, yozuvchi, kotib ma’nolarini anglatadi) dan bahsi-baksi. Bu so‘z, asosan, shaman e’tiqodli turklarga oid bo‘lib, “to‘y-tantalarni boshqaruvchi kishi” ga nisbatan ishlatilgan. Baxshichilik necha-necha asrlar davomida avlod-dan-avlodga o‘tib kelayotgan g‘aroyib san’atdir. Xar bir baxshi xotirasida o‘tmish an’alarini saqlab, uni avlodlarga yetkazgan va bu epik an’ana har gal ijro jarayonida yanada boyib, yangilanib borgan. Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur (1370–1405) hukmronligi yillarida Davlatshoh baxshi degan kishi bo‘lgan. “Akbarнома”da esa Mirbaxshi degan bosh baxshining nomi tilga olib o‘tiladi,” Qutatg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Merosnoma” kabi adabiy merosimizning nodir namunalari ham “baxshi” (uyg‘ur tilida xattot, kotib, umuman, ma’rifatchi, ma’naviyatchi) deb ataluvchi kotiblar tomonidan ko‘chirilgan<sup>23</sup>.

Baxshi xalq dostonlarini yuqori, professional darajada, asosan, do‘mbira, shuningdek, qo‘biz jo‘rligida ijro etuvchi, ularni ajdoddan-avlodga o‘tkazuvchi xalq san’atkoridir. Biroq el orasida baxshi, deganda gohida kelajakni ko‘ruvchi folbin, duoxon, kinnachilar ham tushuniladi. Kinnachibaxshilar sehrli, deb bilingan so‘zlari va g‘ayritabiiy tuyuladigan harakatlari bilan kasal kishini darddan xalos qilishga yoki kelajakdan darak berishga intilishadi. Bunday faoliyat usuli shomonlik ham deyiladi. Shuningdek, turkmanlar «baxshi» deganda xalq hofizini tushunsalar, qozoqlar kinnachi-shomonni «baqsu», deb atashgan<sup>24</sup>. Baxshilik san’ati markazi O‘zbek folklorshunosligida Boysun, Bulung‘ur, Nurota, Narpay, Qo‘rg‘on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o‘zbek-laqay va boshqa shunday markazlar ham ma’lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma’lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko‘ra bir-biridan ajralib turadi.<sup>25</sup>

Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo baxshilarining ko‘pchiligi doston kuylayotganda odatdagi ovozini musiqa asbobi navosiga moslab o‘zgartirishadi. Ovozni sozga jo‘rlash baxshilar orasida «Tillo tarozi», deb ataladi. Baxshilar orasida yana bir qancha turkum ijodkorlar bor. Ularning ayrimlari dostonlarni do‘mbira chertib, biroq tovushini o‘zgartirmasdan, odatiy bir tarzda aytsalar, boshqa bir ijrochilar dostonlarni hech bir so‘zsiz, faqat og‘zaki aytishgan<sup>26</sup>. Baxshichilik san’atida o‘zbek dostonchiligi mif – afsona – rivoyat – naql – ertak – doston bosqichlarida shakllanadi: “Doston” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “qissa”, “hikoya”, “tarix” ma’nolarini ifodalaydi. O‘zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi. Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandi masnaviy – ikki misradan iborat, faqat she’riy shaklda yaratiladi. Ikkinchi tur dostonlar og‘zaki ijod mahsuli sifatida folklor an’analarga bo‘ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M. Saidov ta’rificha, og‘zaki ijoddagi dostonlarda she’riy va nasriy parchalardan iborat badiiy

<sup>23</sup> Denov tumani davlat arxivi.425-jamg‘arma,1-ro‘yxat, 16--ish, 20-varaq.

<sup>24</sup> O‘zbek folklorining epik janrlari / O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 7-kitob. - T.: Fan, 1981

<sup>25</sup> Surxondaryo viloyati davlat arxivi.1.17jamg‘arma,1-ro‘yxat. 52-ish,71-varaq.

<sup>26</sup> Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – T.: Fan, 1969.

manba – matn bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning muzikasi bo‘lishi lozim (Bu o‘rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik muzika asari bo‘lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do‘mbira cherta bilishi yoki qo‘biz chala bilishi zarur. To‘rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo‘lishi va qo‘shiq aytish mahoratini egallagan bo‘lishi zarur<sup>27</sup>.

Xalq og‘zaki ijodida doston o‘tmish zamonlar to‘g‘risida qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir. V.M.Jirmunskiyning fikricha: “Epos-bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamining jonli o‘tmishidir. Uning ilmiy-tarixiy qimmatini, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir”<sup>28</sup>. Dostonning yaratilishi xalqimizning ma‘naviy maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan mahkam bog‘liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g‘oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi. Dostonlarimizdagi ulug‘vor poetik umunlashgan va yuksak badiiy obrazlar ularni dunyo folklorining tengsiz namunalari-rus bilinalari, ukrain dumalari, karelo-fin runlari, yoqut olonxosi, qozoq botirlar jiri, buryat uligerlari, qirg‘iz “Manas”i, qoraqalpoq “Qirq qiz”i, hind “Mahabxarata”si, G‘arb va Sharqning ulkan eposlari qatoriga qo‘ydi. Epos o‘tmish zamonlar to‘g‘risida qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir<sup>29</sup>. M.Saidovning ta‘kidlashicha, doston murakkab san‘at asari bo‘lib, uning doston bo‘lishi uchun adabiy matn, musiqa bo‘lishi, kuylovchi hofizlik san‘atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur. O‘zbek xalq dostonlari ko‘p qirrali va keng mavzuli bir ijoddir. U uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelindi. Shu tariqa unda turli zamonlar qatlami yuzaga keldi. Bu holat ularni muayyan bir turlarga bo‘lib o‘rganishni taqoza etadi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

- 1.Xushbaxtova , D. J. qizi. (2022). SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKILLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(4), 48–52. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/1367>
- 2.Jirmunskiy V. M.,ZarifovX. T., O‘zbekskiy narodniy geroicheskiy epos, M, 1947;
- 3.Karriev B. A., Epicheskiye skazaniya o Kerogli u tyurkoyazichnix narodov, M., 1968;
4. Xushbaxtova , D. J. qizSpeech Culture in Primary Education
- 5.Jirmunskiy V. M.,ZarifovX. T., O‘zbekskiy narodniy geroicheskiy epos, M, 1947;
- 6.Karriev B. A., Epicheskiye skazaniya o Kerogli u tyurkoyazichnix narodov, M., 1968;
- 7.Muradov M., Epos "Gorogli", T., 1984;

<sup>27</sup> Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – T.: Fan, 1969.

<sup>28</sup> Жирмунский В.М. Народный героический эпос. Л., ГИХЛ, 1962.

<sup>29</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., ГИХЛ., 1947

8. Go‘ro‘g‘li dostonlari, to‘rt jildli, 1—4-jildlar, T., 1996—1999; Intizor. 5. Nurali, T., 1964; Gulixiromon, T., 1965;
9. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. --T.: "Fan". 2008.
10. Afzalov M. O‘zbek xalq baxshilari.-T.: "Sharq yulduzi" 1946.N\_0 10- 11;
11. Ko‘ngling o‘zga bo‘lmasin. Qarshi- "Nasaf" nashriyoti. 2009.

## O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK LEKSEMASINING IZOHLANISHI

*Zarnigor Shoyimqulova Soatmurod qizi*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi  
[zshoyimqulova@gmail.com](mailto:zshoyimqulova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada moddiy madaniy etnografizmlar xalqning qadimiy yashash tarzi, tirikchiligi bilan aloqador bo‘lib, bevosita ishlab chiqarishning moddiy ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shu jarayonda hosil bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, ish qurollari, zargarlik buyumlari, turli predmetlar bilan bir qatorda unga aloqador urf-odatlar, an‘analar, irim-sirimlar ham kiradi

**Kalit so‘zlar:** Etnografik leksema, etnoleksemalar, urf-odat, etnografizm

### **Kirish. Mavzuning dolzarbligi.**

Dunyo va o‘zbek tilshunosligida etnografik leksik qatlam tadqiqiga bag‘ishlab olib borilgan ilmiy izlanishlarga tayanib, tilidagi etnoleksemalarni quyidagi semantik guruhlariga ajratish mumkin:

**I.** Moddiy-madaniy etnoleksemalar (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik...kabi ishlab chiqarish bilan bog‘liq predmetlarni ifodalovchi etnografizmlar).

**II.** Ma‘naviy madaniyat bilan bog‘liq etnografizmlar (din, til, musiqa, adabiyot, san‘at.....);

**III.** Ijtimoiy munosabat bilan bog‘liq etnografizmlar (oila, nikoh, jamoaviy o‘yinlar, turli ijtimoiy birlashmalar).

Moddiy madaniy etnografizmlar xalqning qadimiy yashash tarzi, tirikchiligi bilan aloqador bo‘lib, bevosita ishlab chiqarishning moddiy ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shu jarayonda hosil bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, ish qurollari, zargarlik buyumlari, turli predmetlar bilan bir qatorda unga aloqador urf-odatlar, an‘analar, irim-sirimlar ham kiradi. - dehqonchilik bilan bog‘liq etnografizmlar.

Dehqonchilik bilan bog‘liq etnografizmlarni quyidagi kichik tematik guruhlariga bo‘lishimiz mumkin:

-ish qurollari nomini ifodalovchi etnografizmlar: omoch, bo‘yinturug‘, tirkish, mola, tish, arqon, qop, shoxa, g‘albir, chig‘il, surug‘, pushta, xo‘rjin, o‘q;

-ozuq-ovqat, milliy taom nomlarini ifodalovchi etnografizmlar; atala, ko‘ksomsa, chuchvara, yupqa, to‘ntarma, kesgan osh, o‘moch osh, tobanon, shirguruch;

-dehqonchilik bilan bog‘liq urf-odatlarini ifodalovchi etnografizmlar: shoxmoylar, galagov, xo‘ppi, tob tortmoq; - chorvachilik bilan bog‘liq etnografizmlar:

Chorvachilik bilan bog‘liq etnografizmlarni quyidagi kichik guruhlariga bo‘lish mumkin etnografik leksika; qurt, suzgi, kelagay, qaymoq, ayron, tandir go‘sh, qaynatma, qotqaymoq, palla, chakki, qorin go‘sh, qovurdoq, ko‘gan, kapa, qilliq, gupi, to‘shayil, uzangi, ko‘mma;

-chorva mollari va ularning a‘zolari nomini ifodalovchi etnografizmlar: qo‘chqor, taka, echki, shishak, chori, mangi, panji, chibich, tuvcha, g‘unanjin, baytal, toy, kurra, tuyoq, oshiq;

-chorvachilik bilan bog‘liq etnografik urf-odatlar; ent solish, taqa-qo‘chqor qo‘yish, enchi, joyuv, chagana, navbat, dam bermoq, abruk chiqarmoq, barakasini bermoq, dangana, mol tuganlash, bichmoq, uyaz, jaylov, uyur, to‘piq olmoq, to‘piq yutmoq, xomtalash;

-ovchilik bilan bog‘liq etnografizmlar: chodir, jela, mix, putta, putta qo‘ymoq, savat, tapaqa; - hunarmandchilik bilan bog‘liq etnografizmlar: juvoz, tolqoshiq, urchiq, tosh, chiy, ergana, adip, arqov, juntaroq.

Hunarmandchilik xalqimizning qadimiy ishlab chiqarish usullaridan biri hisoblanib, temirchilik, zargarlik, duradgorlik, kiyim-kechak va uni tikish-pichish...kabi ko‘plab kasbiy faoliyat turlari, shu jarayon bilan bog‘liq ish qurollari va hunarmandchilik buyumlari nomini ifodalovchi etnografik leksikani o‘z ichiga oladi. Ushbu semantik guruhga mansub etnoleksemalar dehqonchilik va chorvachilik bilan bevosita aloqador bo‘lmagani bois ham alohida tematik guruhlariga ajratish joiz deb bildik.

Hunarmandchilikka oid etnoleksemalar ham jins-tur munosabati asosida shu kasblar nomi bilan bog‘liq yana kichik guruhlariga bo‘linishi mumkin: temirchilik, kulolchilik, tikuvchilik, zargarlik, asalarichilik, duradgorlik kabi.

### **Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar sharhi.**

Ta’kidlab o‘tilgan sohalarga oid atamalarni etnografik aspektida o‘rganish ushbu sohalarning rivojlanish bosqichlari va ularning xalq hayotida tutgan o‘rnini aniqlash bilan birga o‘zbek tili lug‘atchiligi uchun ko‘plab etnografik leksemalarni bera oladi. Moddiy-madaniy etnografizmlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lib, unda etnosning xo‘jalik hayoti aks etadi. Ma’naviy va moddiy-madaniy etnografizmlar semantik-funksional jihatdan bevosita aloqador bo‘lib, xalq hayotining shu sohalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jihatlarini yanada rivojlantirishda muhim omil sanaladi.

Ma’naviy madaniyatni ifodalovchi etnoleksemalar etnosning tili, og‘zaki va yozma adabiyoti, san’ati, musiqasi, an’anaviy tibbiyoti, e’tiqodi, diniy, axloqiy an’analari va mentalitetini o‘z ichiga oladi. Ushbu mavzuiy-tematik guruhga mansub etnografizmlar semantik xususiyatiga ko‘ra serqirra bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida deyarli o‘rganilmagan.

Tarixiy yozma yodgorliklar, xalq og‘zaki va yozma dostonchiligi, diniy va nasriy asarlarda xalqimizning ma’naviy qadriyatlarini o‘zida aks ettirgan etnoleksemalar na tilshunoslar, na adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganildi. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu semantik sistemaga mansub etnoleksemalarning lingvistik tadqiqi tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari, xususan, fonetika, morfemika, morfologiya, sintaksisni o‘rganish bilan taqqoslaganda sezilarli darajada ortda

qolmoqda. Ma’naviy-madaniy etnografizmlar xalqimizning tarixi, o‘ziga xos milliy belgilari, qadimiy e’tiqodi, diniy qarashlari, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tafakkurining maxsuli bo‘lgani bois, ushbu leksik-semantik guruhga oid 80 etnoleksemlarning rivojlanish bosqichlarini etnolingvistik jihatdan chuqur tadqiq qilish hozirgi o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

**Muhokamalar.** Ijtimoiy munosabatlarning ilk ko‘rinishlari kishilik jamiyatining shakllanishiga sabab bo‘lgan deyish mumkin.

Ijtimoiy munosabat bilan bog‘liq etnografizmlarni quyidagi kichik guruhlariga bo‘lish mumkin:

-to‘ylar va ular bilan bog‘liq etnografizmlar;

-milliy o‘yinlar va ular bilan aloqador etnografizmlar va b. Leksik birliklar semantikasida umuminsoniyatga yoki muayyan etnosga xos madaniyat belgilari ham aks etadi.

Muayyan etnosning milliy-madaniy xususiyatlari alohida olingan leksik birliklar misolida ochib beriladi. Ayni shu birliklar tilning milliy-madaniylik belgisini yorqin namoyish eta oladi. Masalan, qurbonlik, kelinsalom, hayit, do‘ppi, chopon, ro‘mol leksemalari denotativ ma’nosidan tashqari, ular ifoda etgan udum va kiyimlarning o‘zbek xalqi madaniyatiga xosligi haqidagi ma’lumotni ham tashiydi.

Til leksik qatlamida milliy madaniy ma’no ifodalovchisi bo‘lgan etnoleksemlar qardosh xalqlar, umuman, millatlar o‘rtasidagi mushtarak bo‘lgan etnik, lingvistik, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatlarni tahlil qilish imkonini beradi.

**XULOSA.** Surxondaryo viloyati dehqonchilik va chorvachilikka oid etnografizmlar aholining turmush tarzi bilan bog‘liq holda shakllanganligi uchun tarixiy-genetik asoslariga ko‘ra tub va o‘zlashma so‘zlardan iborat.

Muayyan etnosning milliy-madaniy xususiyatlari alohida olingan leksik birliklar misolida tilning milliy-madaniylik belgisini yorqin namoyish eta oladi.

Dehqonchilik va chorvachilikka oid etnografizmlar xalqning o‘tmishi, milliy madaniyati, turmush tarzi haqida muhim xulosalar chiqarish vositalaridan bo‘lib, ular muayyan xalq etnomadaniyatini o‘rganishning muhim omilidir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek shevalarida leksik moslik va ularning adabiy tilga munosabati («O‘zbek shevalari leksikasi»). – T.: Fan, 1966. – B. 16-17;
2. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. – T.: Fan, 1962. – B. 202–205.
3. Abdiev M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. – B. 14-15.
4. To‘ychiev B. Yaylov, qishlov, keraga va oltin so‘zlarining shakllanishi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2000, №3, – B. 68.

## O‘ZBEK VA TURK TILLARI O‘RTASIDAGI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

*Zarnigor Shoyimqulova Soatmurod qizi*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

[zshoyimqulova@gmail.com](mailto:zshoyimqulova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu ishda turk va o‘zbek tillarida so‘zlashuvchilarning sotsiolingvistik hayoti o‘rganiladi. Tilning jamiyatdagi roli, ko‘p tillilik, dialektlar, shahar va qishloq o‘rtasidagi tafovutlar, ta‘lim va til siyosati hamda madaniyatlararo ta‘sirlar tahlil qilinadi. O‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning ko‘p tillilik holati va rus tilining ta‘siri muhim o‘rin tutadi, ayniqsa shahar joylarda. Turk tilida esa milliy birlik va davlat tilining o‘rni asosiy rolni o‘ynaydi, lekin ingliz tili va globalizatsiya jarayonlarining ta‘siri ortib bormoqda. Ish, turli madaniyatlar va siyosiy jarayonlar orqali tillarning rivojlanishi va o‘zgarishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Sotsiolingvistika, O‘zbek tili, Turk tili, Ko‘p tillilik, Dialektlar, Til siyosati Globalizatsiya

O‘zbek va turk tillarining lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish, bu tillarning o‘ziga xos tarixiy, madaniy, va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini yoritishga yordam beradi. Bu tillar turkiy tillar oilasiga kiradi, lekin har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbek va Turk tillarining umumiy xususiyatlari: 1. Turkiy ildiz: O‘zbek va turk tillari bir ildizdan kelib chiqqan bo‘lib, bu ularning grammatik va leksik tizimlarida umumiylikni saqlab qolgan. Masalan, ot va fe‘l tuzilmalarining o‘xshashligi, qo‘shimchalarning ishlatilishi va o‘zak so‘zlarning umumiyligi bu tillarda mavjud. 2. Sintetik tuzilish: Ikkala til ham sintetik tillar qatoriga kiradi, ya‘ni ular ko‘pincha so‘zga qo‘shimchalar orqali ma‘no yuklaydi. O‘zbek va turk tillarida qo‘shimchalar orqali so‘z o‘zgartirish va yasash keng qo‘llaniladi. 3. Sifatlashgan qo‘shimchalar: O‘zbek va turk tillarida sifatlashgan qo‘shimchalar yordamida yangi so‘zlar yasash imkoniyati katta. Bu, ayniqsa, ijtimoiy va madaniy tushunchalarga yangi ma‘nolar berishda yordam beradi. 4. Sinfiy madaniyatlar: O‘zbek va turk tillarida turli sinflarga bo‘lingan jamiyatlar o‘z aksini topgan. Masalan, turk tilida zamonaviy madaniyat va jamiyat tushunchalari yetakchilik qilgan bo‘lsa, O‘zbek tilida tarixiy va an‘naviy madaniyatni aks ettiruvchi terminlar keng tarqalgan.

O‘zbek va Turk tillarining lingvomadaniy farqlari:

1. Leksik farqlar: O‘zbek tili arab va fors tillaridan ko‘proq ta‘sirlangan bo‘lsa, turk tiliga ko‘proq fransuz va ingliz tillarining ta‘siri kuzatiladi. Shu sababli, zamonaviy turk tilida yevropa tillaridan kirgan so‘zlar ko‘proq uchraydi.
2. Fonetik farqlar: O‘zbek va turk tillarida ayrim fonetik farqlar mavjud. Masalan, O‘zbek tilida o‘, g‘ kabi tovushlar bor bo‘lsa, turk tilida bu tovushlar yo‘q. Bunga qo‘shimcha ravishda, turk tilida yumshoq ‘g‘ (ğ) mavjud bo‘lib, bu tovush O‘zbek tilida ishlatilmaydi.
3. Madaniy tushunchalar: O‘zbek va turk tillarida madaniy tushunchalar o‘zining milliy mentalitetiga mos ravishda shakllangan. Masalan, O‘zbek tilidagi "mehmondo‘stlik" tushunchasi turk tilidagi "misafirperverlik" tushunchasiga o‘xshash bo‘lsa-da, har ikki tilning madaniy ma‘nosida o‘ziga xos farqlar mavjud. Bu

tillarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish orqali, ularning madaniy va tarixiy rivojlanishi haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin. O‘zbek va turk tillarida so‘zlashuvchilarning sotsiolingvistik hayoti har ikkala xalqning tarixi, madaniyati, siyosati va jamiyatidagi o‘zgarishlarga chambarchas bog‘liq. Har ikki tilning so‘zlashuvchilari turli sotsiolingvistik omillarga qarab, turli tillar bilan aloqa qilib kelgan va bu tillarning rivojlanishi hamda jamiyatdagi o‘rni shunga mos ravishda shakllangan.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning sotsiolingvistik hayoti:

1. Ko‘p tillilik va tillar aralashuvi: O‘zbekiston ko‘p millatli davlat bo‘lib, mamlakatda o‘zbek tilidan tashqari rus, qozoq, qirg‘iz, tojik kabi boshqa tillar ham keng tarqalgan. Ayniqsa, shahar joylarda rus tili ko‘p ishlatiladi va o‘zbek tiliga leksik va grammatik jihatdan ta‘sir qiladi. Ko‘plab o‘zbeklar rus tilini yaxshi biladi, bu esa tillar aralashuviga olib kelgan.

2. Tillarni qo‘llash konteksti: O‘zbek tili davlat tili sifatida ta‘lim, rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari va kundalik hayotda keng qo‘llanilsa-da, rus tili ilmiy va texnik adabiyotlarda, shuningdek, xalqaro muloqotlarda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, yoshlar orasida ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ham ortib bormoqda.

3. Dialekt va lahjalar: O‘zbek tilida bir qancha dialekt va lahjalar mavjud. Misol uchun, Toshkent va Samarqand dialektlari orasida sezilarli fonetik va leksik farqlar bor. Qishloq va shahar joylardagi tilni ishlatish odatlari ham o‘zaro farq qiladi. Shahar joylarda ko‘proq adabiy til ishlatilsa, qishloq joylarda mahalliy lahjalar ustun.

4. Siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ta‘siri: O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘zbek tili davlat tili sifatida mustahkamlandi va bu jamiyatdagi ko‘plab sohalarga ta‘sir qildi. Shu bilan birga, ijtimoiy tabaqalashuv va modernizatsiya jarayoni ham tillarning qo‘lida so‘zlashuvchilarning sotsiolingvistik hayoti Turkiya va boshqa turk tilida so‘zlashuvchi jamoalarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlariga ko‘ra shakllanadi. Bu hayot bir necha omillar bilan ta‘sir lanadi, jumladan, ko‘p tillilik, dialektlar, shahar-qishloq farqlari, madaniyatlararo ta‘sir va globalizatsiya jarayonlari.

Turk tilida so‘zlashuvchilarning sotsiolingvistik omillari: Davlat tili va milliy birlik: Turk tili Turkiyada davlat tili bo‘lib, milliy birlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Turkiyada barcha rasmiy hujjatlar, ta‘lim va ommaviy axborot vositalari asosan turk tilida olib boriladi. Turk tilida so‘zlashish fuqarolik va milliy identifikatsiyaning muhim qismidir. Ko‘p tillilik: Garchi turk tili Turkiyada eng ko‘p ishlatiladigan til bo‘lsa-da, mamlakatda kurd, arab, arman va boshqa tillarda so‘zlashuvchi etnik guruhlar ham mavjud. Ayniqsa, Turkiyaning janubi-sharqiy hududlarida kurd tilida keng so‘zlashiladi. Bu tillar asosan mahalliy darajada ishlatiladi va o‘zlarining sotsiolingvistik muhitiga ega. Shahar va qishloq tafovutlari: Shahar va qishloq joylarida tilning ishlatilishi farq qiladi. Shahar joylarida adabiy turk tili ko‘proq qo‘llanilsa, qishloq joylarida turli dialektlar va lahjalar ustunlik qiladi. Shuningdek, shaharlarda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini bilish talab yuqori bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni ham aks ettiradi. Dialektlar va mahalliy

lahjalar: Turkiya bo‘ylab turk tilida ko‘plab dialektlar mavjud. Masalan, Istanbul dialekti adabiy til sifatida qabul qilingan bo‘lsa, Egey, O‘rta Yer dengizi, Sharqiy Anadolu va Qora dengiz mintaqalarida o‘ziga xos dialektlar mavjud. Bu dialektlar fonetik, leksik va grammatik jihatdan farqlanadi. Ijtimoiy tabaqalanish va geografik omillar dialektlarning qanchalik kuchli qo‘llanilishini belgilaydi. Ta’lim va til siyosati: Turkiyada turk tilida ta’lim majburiy bo‘lib, barcha maktablarda bu tilda o‘qitiladi. Xususiy maktablar va universitetlarda esa ingliz tilida ta’lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Ingliz tilini bilish Turkiyada xalqaro aloqalar, texnologiya va ilmiy sohalarda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqa tillarda, jumladan, kurd tilida ta’lim olish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, bu kurd jamiyatida ba’zi ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirgan. Madaniy ta’sir va globalizatsiya: Turk tilida so‘zlashuvchilar global madaniyat ta’sirida yashamoqda. Kino, musiqa va boshqa ommaviy axborot vositalarida ingliz va boshqa yevropa tillarining ta’siri ortib bormoqda. Shu bilan birga, globalizatsiya turk tiliga yangi so‘z va ifodalarni kiritmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, shahar yoshlari orasida keng tarqalgan. Internet va ommaviy axborot vositalari: Internet va ijtimoiy tarmoqlar til madaniyatini shakllantiruvchi muhim omilga aylandi. Yosh avlod turk tilini internet madaniyati va globallashtirish ta’sirida o‘zlashtirayotgan bo‘lsa, bu ba’zan tilning rasmiy va adabiy me’yorlaridan chetga chiqishga olib keladi. Shu bilan birga, turk tilida kontent ishlab chiqarish o‘sib bormoqda, bu esa tilning xalqaro darajadagi tarqalishini oshiradi. Umuman olganda, turk tilida so‘zlashuvchilarning sotsiologik hayoti ko‘p qatlamli bo‘lib, tarixiy meros, milliy birlik, globalizatsiya va ko‘p tillilikning birlashuvi natijasida shakllangan. Turk va o‘zbek tillaridagi so‘zlashuvchilarning sotsiologik hayotini tahlil qilish uchun quyidagi adabiyotlardan foydalanildi:

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Crystal, David. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed., Blackwell Publishing, 2008.
2. Fishman, Joshua A. Sociolinguistics: A Brief Introduction. Rowley: Newbury House Publishers, 1972.
3. Ergin, Muharrem. Türk Dil Bilgisi. İstanbul: Bayrak Basım Yayın, 1993.
4. Ferguson, Charles A. "Diglossia." Word, vol. 15, no. 2, 1959, pp. 325-340.
5. Iskandarova, Shahlo. "Sociolinguistic Aspects of the Uzbek Language in Uzbekistan." International Journal of Humanities and Social Science, vol. 4, no. 6, 2014, pp. 93-100.
6. Schiffman, Harold. Linguistic Culture and Language Policy. Routledge, 1996.

## FANLARNI BOG‘LAB O‘QITISH VA INTERATSIYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI

*To‘rayeva Sayyora Sattorovna*

*Surxandaryo viloyat pedagoglarni yangi  
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi*

*“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasini,  
katta o‘qituvchi. [torayeva4@gmail.com](mailto:torayeva4@gmail.com)*

**Annotatsiya.** O‘zbekiston so‘ngi yillarda keng ko‘lamli islohotlarni amaliyotga joriy etishga ustuvor vazifa sifatida qaramoqda. Buning yorqin natijasi o‘laroq sifatli ta‘lim integratsiyasi masalalari asosida aytish mumkin. Maqolada adabiyot va tarbiya fanini zamon va makon kontekstida integrativ o‘qitish masalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, tarbiya, ota-ona, mehnat qilish, islohot, ma‘rifatparvarlik, milliy va diniy bag‘rikenglik, ijtimoiy-fuqaroviy, yuksak ma‘naviy fazilat yangi O‘zbekiston, innovatsiya, kreativlik, kalabratsiya, kommunikativlik.

**Абстрактный.** В последние годы Узбекистан считает реализацию масштабных реформ приоритетной задачей. Можно сказать, что это яркий результат, основанный на вопросах интеграции качественного образования. В статье рассматриваются вопросы интегративного преподавания литературы и образования в контексте времени и пространства.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, воспитание детей, труд, реформа, просвещение, национальная и религиозная толерантность, социально-гражданская, высокие моральные добродетели, новый Узбекистан, новаторство, творчество, коммуникабельность, коммуникабельность.

**Abstract.** In recent years, Uzbekistan has been considering the implementation of large-scale reforms as a priority. It can be said that this is a bright result based on the issues of quality education integration. The article covers the issues of integrative teaching of literature and education in the context of time and space.

**Key words:** education, upbringing, parenting, work, reform, enlightenment, national and religious tolerance, social-civil, high moral virtues, new Uzbekistan, innovation, creativity, collaboration, communicativeness.

**1. Kirish.** Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoga o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga zamon talablari asosida tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sog‘lom e‘tiqodlilik, ma‘rifatparvarlik, milliy va diniy bag‘rikenglik, ijtimoiy-fuqaroviy, yuksak ma‘naviy fazilatlarni shakllantirish dolzarb vazifalar bo‘lib qolmoqda.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yangi O‘zbekistonni bunyod etishga kirishgan ilk kunlardan o‘q yosh avlod tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratdilar va bu masala hayot-mamot masalasi ekanligini qayd etdilar: ”Ma‘lumki yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI- asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot

masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada mutlaqo bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘maydi”.<sup>30</sup> [1.504-505-b

## 2. Metodlar.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvdagi «Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish -xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir»<sup>31</sup> nomli ma’ruzasida sohadagi yutuqlar, muammo va kamchiliklarga alohida to‘xtalib o‘tdi: «Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar «ommaviy madaniyat» tahdidi faqat chetdan g‘arbdan kirib keladi, desak qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin”,- degan fikrni alohida ta’kidladi. Darhaqiqat, jamiyatimizda ana shunday illatlarning oldini olish, farzandlarimiz ongu tafakkurini va qalbini «ommaviy madaniyat»dan asrab-avaylashda aynan adabiyotni asosiy vosita qilib olishimiz maqsadga muvofiq.

“Tarbiya” fani darsliklaridagi mavzularni o‘qitishda “Hikoya” metodi yaxshi samara beradi.

“Hikoya” metodi haqida ma’lumot berib o‘tamiz.

“Hikoya” metodi o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir. Metodning samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining nuqt mahorati, so‘zlarni o‘z o‘rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog‘liq. Hikoya qilinayotgan materialni samaralsh maxsus reja asosida amalga oshiriladi.

Metodning samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning yondoshuviga bog‘liq. Shuning uchun hikoyaning mazmuni mavhid muammolarga tayanishi, ularni kengayrtirishga xizmat qilishi zarur. Shuningdek hikoyani axborotlar bilan boyitish bugungi kunning eng muhim masalasidir.”Hikoya” metodining ahamiyatli tomoni shundaki voqiyalar hayotiy tarzda, ketma-ketlikda hikoya qilinadi.

Natijda o‘quvchilar bu hikoyani oson va uzoq vaqt eslab qolishadi va o‘zlari duch kelganda muammolarga yechim topa olishadi.

«Tarbiya» fanining 10-sinf dasturidan o‘rin olgan «Oiladagi burch va mas’uliyat” mavzusini o‘qitishda **“Hikoya”** metodini qo‘llashning ahamiyat juda katta.

Darsni mustahkamlashda sinf o‘quvchilarini to‘rt guruhga bo‘lib quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-guruhga: «*Oila – qanday maskan?*»

2-guruhga: «*Oilada ota va onaning o‘rni*»

3-guruhga: «*Oila mas’uliyatining jamiyatdagi o‘rni*»

4-guruhga: «*Oila shani va qadri*» mavzularida “Hikoya” metodidan foydalanib, o‘z guruhiga berilgan mavzu bo‘yicha har bir guruh a’zosining oilasi haqidagi

<sup>30</sup> M.Mirziyoyev.Milliy taraqqiyotni qatiyat biln davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.504-505 bet

<sup>31</sup> M.Mirziyoyev..Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish — xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, 2017 -yilning 3 –avgust.

hikoyasini jamlab turib hikoya tuzish topshiriladi. Vaqt tugagach guruh sardori kichik guruh hikoyasini aytib beradi. O‘qituvchi har bir hikoyaga o‘z munosabatini bildiradi va yakun yasaydi.

Dars yakunida o‘qituvchi bolalarning hikoyasidan kelib chiqqan holda Oiladagi burch va mas’uliyat deb atalishi borasida xulosa qiladi.

Mazkur metod o‘quvchilarda eng avvalo o‘z oilasidan faxrlanish, shu oilaga munosib bo‘lish hislarini tarbiyalasa, ikkinchidan, o‘quvchilarda fikrlash, mulohaza qilish, erkin mushohada yuritish qobiliyatining shakllanib borishiga zamin hozirlaydi.

“Tarbiya” fanining 11-sinf dasturiga kiritilgan “Oila mas’uliyati, shani va qadr” mavzusini o‘qitishda “Hikoya” metodini qo‘llash ham ijobiy samara beradi va uzoq vaqt o‘quvchilar xotirasida qoladi.

Hikoyamiz qahramonlari 11-sinf o‘quvchisi Mirabbosning ota-onasi Otabek va Ra’nodir. Otabek umumta’lim maktabini bitirgach, harbiy bilim yurtiga o‘qishga topshirdi. O‘qishga kuzatayotganda otasi o‘g‘lining belidan dast ko‘tarib, vatan xizmatiga bog‘lagan beling mustahkam bo‘lsin, -degani edi.

Otabek o‘qishni bitirib, ish boshlaganida otasi yana duoga qo‘l ochdi: “Yo‘ling yorug‘ bo‘lsin, bolam...”.

Otabek o‘shanda otasining ko‘zlari yoshlanganini ko‘rib, qalbidagi iftixorni tasavvur qilgandi. Har bir ota-ona farzandining ulug‘ ishlarni qilganini ko‘rganida “ota o‘g‘il” deb suyadi, qiziga esa “ona qizim” deb murojaat etadi. Buning tagida shunday hikmat bor: “Bugun seni suysam, ertaga senga suyanaman”, -degani.

Otabek dastlab O‘zbekiston qurolli kuchlarida leytenant bo‘lib ishladi. U harbiy xizmatni yurtimizning chegara harbiy qismlarida sadoqat bilan xizmat qildi. Otabek mehnat kodeksidagi huquqidan foydalanib ta’tilga chiqdi va jonajon mahallasiga qaytdi. Ota-onasini sekingina gap boshladi, uning ulg‘ayib qolganini, uni uylantirmoqchi ekanligini, ko‘zining ostiga olib qo‘ygan qizi bo‘lsa aytishini, sovchilikka borib kelishini, mahallaning to‘ylarida qatnasib kelayotganligini aytdi. Shu misol asosida o‘quvchilarimiz nikoh marosimlarimizning jamiyatdagi ahamiyatini yana bir bor his etadilar.

Otabek sinfdoshi Ra’noning uyiga sovchi yuborishini aytdi. Ra’no Otabekning sinfdoshi, maktabni a’lo baholarga tugatib, o‘zi orzu qilgan til va adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirgan va tugatgan. Mahallaning mehnatkash va odobli qizlaridan. Yetti mahalla unga havas bilan qaraydi. Ota-onasi o‘g‘lining bu tanlovidan xursand bo‘lib ketdi.

Otabekga otasi qarorini hurmat qilishini aytib, o‘g‘liga shunday pand-nasihat qildi:

**Oilaning muqaddasligi, oiladagi muhit-** insonning o‘ziga xos ma’naviyati, dunyoqarashi, tasavvur va e’tiqodi shakllanishida, yuksalishida muhim omil bo‘ladi. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg‘ular, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar aynan oila bag‘rida shakllanadi.

Otabekning onasi ham gapga qo‘shildi va shunday dedi: O‘g‘lim Oila muqaddas va mehr-sadoqat bilan o‘lchanadi. Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi, sog‘lom avlod tarbiyasiga doimo e’tiborda bo‘lganlar.

Bunday e’tibor avlodlar qalbi va ruhiyatiga singdirib borilgan. Bu dargohda nafaqat farzand dunyoga keladi, balki ma’nan va axloqan go‘zal tarbiya egasi bo‘lgan inson voyaga yetadi.

Oila shunday makonki, unda avlodlar kamol topadi.

Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar oilada kurtak yoyadi. Ayniqsa oilada aka-uka, opa-singil munosabatlarida kattadir. Onasi Otabekka oila manaviyatini buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirib ketgan merosimizda oila, er va xotin munosabati, ishonch asosida qurilishi lozim bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarini aytib o‘tdi. ularning xulq-atvoridagi harakatlar ibrat maktabi sifatida singdiriladi, dedi.

Otabek asosiy oila qonunchilgimizda belgilab qo‘yilgan an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadiga nikoh tuzishga tayyor edi.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlovchi muqaddas maskan hamdir. Oilada biz va avlodlarimiz tarbiya topishini Otabek ich-ichidan his qildi.

Ota-onasining uni ulgaytirgunicha qanchadan qancha mashaqatlarni yengib chiqqanini ko‘z oldiga keltirdi. Otabek bugun yurtimiz sarhadlarida burgutdek sergak turib, ota-onasini, mahallasi va vatanini qo‘riqlayotganidan xursan bo‘lib, to‘lqinlanib ketdi.

Uning uyida to‘y. Karnay sadolari ostida uning uyiga kelin keldi. Mahalla oqsoqolidan tortib, barcha qarindoshlari hamjihatlikda urf-odatlarimizga rioya etgan holda kichkina chiroyli to‘y o‘tkazildi. Oradan ma’lum bir vaqt o‘tdi. Uning uyida ham go‘dak yig‘isi eshitildi. Otabek o‘g‘li Mirabbosni suyganicha baland ko‘tardi, mendan-da ulug‘ bo‘l, bolam, dedi.

Bu – haqiqiy g‘amxo‘rlik va farzandni barcha narsadan, hatto o‘z-o‘zidan aziz bilish ifodasi.

Yillar o‘tdi. Otabekning farzandi maktabni bitirmoqda. O‘g‘lini quchog‘iga olar ekan, peshonasidan o‘pdi va toleying porloq bo‘lsin dedi. Ertaning umidi bor unda, farzandining iqboli uchun har narsaga tayyorlik mujassam bo‘ladi ushbu mehrda.

Bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunday kuchli va tartibli bo‘ladi.

“Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”, -deydi buyuk mutafakkir bobomiz Abdurauf Fitrat.

**Natija:** yuqori sinflarda “Adabiyot” va “Tarbiya” faniga kiritilgan mavzularni o‘rganish orqali o‘quvchilarda mavzularni bog‘lab o‘tish, tanqidiy tafakkurga ega bo‘lish, jamoada hamkorlik qila olish, ma’suliyat va majburiyatlarga amal qilish, jismoniy va intellektual imoniyatlarni rivojlantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallay olish, ijtimoiy borliqni his qilish va undan zavqlana olishga o‘rgatiladi.

Bitiruvchilarga sinflarda “4k” ko‘nikmalarni o‘rgatish natijasida mehnat jamoasi va mutaxassislar bilan hamkorlik qila olish, axborotlarni tahlil qilish, bilimni

muntazam oshirib borishni tizimlashtirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi, o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay olish, yurt taqdiriga daxldorlik kabi yuksak ma‘naviy -axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish bilan birga ularni amalda qulay olish singari BKM va kompetensiyalarga ega bo‘lishadi.

**Muhokamasi:** ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini etarli rivojlanmaganligi ta‘lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda. vatanga sadoqat, burch va mas‘uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev buyuk mutafakkir bobomiz Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlarini oltin fikr deb atadilar: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi ,davlatmand bo‘lishi ,baxtli saodatga erishishi yoki baxtsizlik yukini tortishi,qul va asir bo‘lishi ularning bolaligidagi o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyasiga bog‘liq”<sup>32</sup>

**Xulosa:** Shuningdek yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olmaslik, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qila bilmaslik, oilada hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olmaslik hollari uchrab turibdi.

Bular o‘z navbatida oila va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi, loqaydlik, huquqbuzarlik, “ommaviy madaniyat”ning turli ko‘rinishlari osonlikcha qabul qilinishi kabi illatlarning tarqalishiga zamin yaratmoqda.

Mavzularni o‘quvchilarning hayotidagi misollar va ishtiroki asosida tashkil etilgan darslar, nafaqat ularning ongiga, balkim vujudiga ham chuqur singib boradi. Uchinchi renessans bunyod etilayotgan yangi O‘zbekistonda fanlarining sifatli integratsiyasi, ta‘lim va tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish borasidagi dadil qadamlardan biri bo‘lib, ta‘lim tizimini jahon standartlarini tenlashtirish va jahonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 -yil 30- aprel.
- 2.M.Mirziyoyev.Milliy taraqqiyotni qatiyat biln davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.504-505 bet,I-Jild.
- 3.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir.2016- yil 7 -dekabr.

---

<sup>32</sup> Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir.2016 yil 7 dekabr.

4. Shavkat Mirziyoyev. «Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish -xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir» nomli ma’ruzasi, 2017 - yil 3 –avgust.
5. Tarbiya darsligi, 10-sinf darsligi, 2020 –yil, 23-31 betlar.
6. Tarbiya darsligi, 11-sinf darsligi, 2020- yil, 21-25 betlar.
7. Shoyimqulova, Z. Tilshunoslik fanlarini o‘qitishda personal yondoshuv tajribasi tajribasi. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 19), 283-286. 2024.
8. To‘rayeva .S. Improving the content of training of education system employees in the conditions of innovative development of society. *Science and Innovation*, 2 (4), 495-498. (2023).

## **O‘ZBEK TILIDA FE’L DERIVATSIYASI ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANI MISOLIDA**

*Yuldashova Ruxshona*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘zbek tili fanidagi fe’l derivatsiyasi mavzusi Asqad Muxtorning “*Chinor*” romani asosida tahlil qilinadi va fe’l so‘z turkumidagi qo‘shimchalar, fe’llarning yasalishi to‘g‘risida ham ushbu maqolada ko‘rishimiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** fe’l derivatsiyasi, morfologik usul, sintaktik usul, fe’l yasovchi qo‘shimchalar, Asqad Muxtorning “*Chinor*” romani.

**Annotation** in this article the topic of verb derivation in the Uzbek language is analyzed based on Asqad Muxtor’s novel and verb “*Chinor*” we can see about the construction of verbs in this article.

**Key words:** the derivation of the verb is morphological method, syntactic method, of the construction of verbs articles, Asqad Muxtor “*Chinor*” novel.

**Аннотация:** в данной статье анализируется глаголообразование в нам узбекском основе романа Аскад Мухтара “*Чинор*” также можем продвинуться в этой статье к образованию глаголов.

**Ключевые слова:** словообразование глагола, морфологический метод, синтаксический метод, глаголов аффикс Аскад Мухтара роман “*Чинор*”.

Bizga ma’lumki tilshunosligimizda “derivatsiya” atamasi mavjud. Tilshunoslikda derivatsiya so‘z yasash jarayoni deganda so‘z yasash asosi va hosila orasida denotativ (atash, nomlash) ma’nolarda farqning bo‘lishi tushuniladi. Masalan: *gul* so‘zi bir o‘simlikning nomi, agar ushbu *gul* leksemasiga –chi affiksini qo‘shsak *gulchi* leksemasi hosil bo‘ladi va bu leksema shaxs oti, ya’ni gullarni parvarish qiluvchi kishi nomi hosil bo‘ladi va aynan mana shu jarayon tilshunosligimizda **derivatsiya** deb ataladi. Tilshunosligimizda derivatsiyaning to‘rt turi mavjud. Bular: **ot, sifat, son va fe’l** derivatsiyalaridir. Ushbu maqolamizda biz **fe’l** derivatsiyasini ko‘rib chiqamiz va tahlil qilamiz. Fe’l derivatsiyasi ikki xil usulda yasaladi va bular;

1. Morfologik usul:

2. Sintaktik usul:

Birinchi usulimiz ya’ni, morfologik usulda fe’l yasovchi qo‘shimchalar o‘rganiladi, misol uchun: -r affiksini ot so‘z turkumida bo‘lgan *qayg‘u* ot so‘z turkumida bo‘lgan leksemaga qo‘shsak *qayg‘ur* so‘zi hosil bo‘ladi va bu so‘z nima qilmoq? So‘rog‘iga javob bo‘ladi. Bundan tashqari morfologik usulimizga ko‘pgina misollar keltirishimiz mumkin, masalan:

-ra ... ho‘ngra	-I ... boyi	-a ... o‘yna
-iq ... zo‘riq	-sa ... suvsa	-ik ... kechik
-ira ... yarqira	-la ... oqla	-ay ... pasay

Fe’l derivatsiyasida sintaktik usulda ikki xilda yasaladi:

1. *ot + ism* qolipida:

2. *fe’l + fe’l* qolipida:

*ot + ism* qolipida *qil*, *et*, *bo‘l* fe’llari orqali yasaladi, misol uchun:

*Ishni qil*                      *afv et*                      *tayyor bo‘l*

*fe’l + fe’l* qolipida *ol*, *ber*, *ket* fe’llari orqali yasaladi, masalan :

Sotib ol                      olib ber                      uzatib ket

Ushbu fe’llarning yasalishi sintaktik usulda bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tganidek fe’l derivatsiyasini ikki xil usulda ko‘ramiz, ya’ni morfologik va sintaktik. Fe’l derivatsiyalarini yanada chuqurroq anglab olish uchun Asqad Muxtorning “Chinor” romani asosidagi tahlilda ko‘rib chiqamiz. Jumladan, asardagi ushbu gapni olaylik “*Hatto guzar, undagi katta gavjum choyxona haqida gap ketganda ham, “Chinor”da chaqchaqlashib keldik.*” “Chinor” romanida kelgan ushbu gapimizda “*chaqchaqlashib*” leksemasini olsak. Ushbu leksemada “*chaq-chaq*” takroriy ot so‘z turkumida -lash affiksi qo‘shilishi orqali, chaqchaqlash so‘zi ya’ni fe’l hosil bo‘layapti, demak -lash affiksi orqali morfologik usulda fe’l derivatsiyasi yuzaga kelmoqda. Ushbu asarda keltirilgan boshqa misollarda ham ko‘rib, tahlil qilib ko‘ramiz. “*Ming yil uning navnihol paytini ko‘z oldiga keltirib bo‘lmaydi*”, bu gapimizda esa “*keltirib bo‘lmaydi*” birikmasi sintaktik usuldagi fe’l derivatsiyasi hisoblanadi, ya’ni yuqorida aytganimizdek *ism+fe’l* qolipida “*keltirib*” ravishiga “*bo‘lmaydi*” fe’li qo‘shilishi orqali *ravish+fe’l* qolipida sintaktik usulda fe’l

derivatsiyasi yasalganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolamda fe‘l derivatsiyasini tahlil qilib o‘rganar ekanmiz men sizga ushbu mavzuni mukammalroq o‘rgatish uchun ko‘pgina misollar va tahlillarni ko‘rsatib o‘taman : “ *Go‘yo Ochil buva ham ming yillardan beri yashayotgandeg-u yana ming yillar umr ko‘radigandek...*” –ushbu keltirilgan misolimizda “*yashayotgandek*” leksemasida morfologik usulda fe‘l derivatsiyasi yasalyapti ya’ni ushbu leksemamizda “yosh” ot so‘z turkumiga tegishli leksemaga -a qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida “yasha” ko‘rinishida fe‘l yasalayapti va bundan tashqari “yosh” leksemasiga -a affiksi qo‘shilishi orqali “yosh” so‘zidagi “o” unlisi “a” unlisiga fonetik hodisa sifatida o‘zgarayotganini ko‘rishimiz mumkin....“ *U nimani o‘ylagan bo‘lsa, shuni yozgan*” bu gapimizda “*o‘ylagan bo‘lsa*” birikmasini olamiz va bu birikma aslida sintaktik usulda ya’ni ism+fe‘l qolipidagi birikma hisoblanadi, lekin bu birikmada “o‘y” so‘ziga -la affiksi qo‘shilib fe‘l va “o‘yla” fe‘liga -gan qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali sifatdosh yasaliyib , natijada sintaktik usuldagi fe‘l hosil bo‘lgan.“*-Menga qarang , men buning uchun ham unga tanbeh berolmayman* “ Asqad Muxtorning “Chinor” romanida keltirilgan bu gapimizda “*tanbeh bermoq*” birikmasini olaylik. Bu birikmamiz ko‘rinib turganidek fe‘l+fe‘l qolipidagi birikma hisoblanadi ya’ni “bermoq” fe‘li orqali yasalayotganini ko‘rishimiz mumkin.“*Abdusamadni ko‘rib qolib, negadir o‘zi ham bilmay , oldiga yugurib bordi.*” Bu gapimizda “*yugurib bordi*” birikmasi ham fe‘l+fe‘l qolipida bo‘layapti va sintaktik usulda yasalayapti. “ *Hadya uning aytib yig‘lashiga tushunmadi-yu, juda qo‘rqib ketdi.*”Asarda keltirilgan ushbu gapimiz ham fe‘lli birikma bo‘lib sintaktik usulda “*qo‘rqib ketdi*” birikmasi orqali yasalayapti. Biz bunday misollardan juda ham ko‘p keltirishimiz mumkin. Endi morfologik jihatdan ham tahlil qilib ko‘rsak. “*Sharofat xolaga u uzoqdan allaqanday qorayib ko‘rindi.*”“Chinor” romanida keltirilgan ushbu gapimizda “*ko‘rindi*” leksemasini olaylik bu so‘zimizda qanday? So‘rog‘iga javob bo‘luvchi “ko‘r” leksemasiga -in affiksi qo‘shilishi orqali nima qil? So‘rog‘iga javob bo‘luvchi “ko‘rin” leksemasi hosil bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, keltirilgan ushbu gapimiz fe‘l derivatsiyasining morfologik usulida yasalgan ekan. Yana fe‘llarimizdan misol keltirishimizdan oldin derivatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan, yonma-yon bo‘lgan “relyatsiya” atamasi haqida ham qisqacha aytib o‘tsak. “Relyatsiya” atamasida asos va hosila orasida denotativ ma‘nodagi farqning yo‘qligi tushuniladi. Misol uchun: *qush – qushni, maktab-maktabga, uy-uydan* va boshqa ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin. Biz bu ta‘rifdan kelib chiqqan holda “derivatsiya” va “relyatsiya” atamalarini farqlashimiz kerak. Qisqa qilib tushuntirsak “derivatsiya” asosga yangi ma‘no beradi, ammo “relyatsiya” asosga hech qanday yangi ma‘no bermaydi va bu

tushuncha faqat ismni ismga bog‘lash uchun xizmat qiladi. “Relyatsiya” atamasi haqida biroz ma’lumotga ega bo‘lgan bo‘lsak o‘zimizning mavzumizga qaytsak. Demak asarda keltirilgan ushbu gapni olaylik; “Hozirgina tim qora atrof, tekis dalalar, ekinlar, o‘tloqlar tiniq ko‘k ranga kirib, shabnam qatralari jimirlagan, pastliklar oqar daryo kabi yiltilladi.” Ushbu gapimizda “yaltilladi” leksemasini olamiz. Bu leksemada “yalt-yalt” so‘ziga -illa affiksi qo‘shilishi orqali “yaltilladi” holat fe’li morfologik usulda yasalganini ko‘rishimiz mumkin. “ *Baxt... men aminmanki; Onabibi baxtning nima ekanligini aytib berolmadi.*” Ushbu gapimizda sintaktik usulda bo‘lgan fe’l+fe’l qolipidagi “*aytib berolmadi*” birikmasini olishimiz mumkin. “ *Orif aka qo‘lidagi xatning o‘qituvchi arzi tasdiqlashi kerak bo‘lgan hujjat ekanini eslab, haligi bolalik quvonchini yo‘qotdi.*” Bu gapimizni tahlil qilar ekanimiz “ *eslab*” hamda “*yo‘qotdi*” leksemalarini morfologik usulda yasalganini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni nima? So‘rog‘iga javob bo‘luvchi “es” leksemasiga -la affiksini qo‘shilishi orqali “esla” fe’li hosil bo‘layapti. Endi “yo‘qotdi” so‘zini olsak “yo‘q” leksemasiga -ot affiksining qo‘shilishi orqali nima qildi? So‘rog‘iga javob bo‘luvchi “yo‘qotdi” leksemasi hosil bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. “ *Mariya Vasilyevna qo‘lida o‘ynab turgan bargni birinchi marta ko‘rayotgandek, aylantirib-aylantirib tomosha qilardi.*” “Chinor” romanida keltirilgan ushbu gapimizda “*tomosha qilardi*” birikmasini tahlil qilamiz, bu birikma ism+fe’l qolipidagi birikma bo‘lib nima? So‘rog‘iga javob bo‘luvchi “tomosha” leksemasi orqali “qilardi” fe’liga qo‘shilib ot+fe’l qolipida sintaktik usulda so‘z birikmasi yasalayapti. “ *Ayraport katta gavjum edi. Qandaydir sermulozamat yigitlar kelib Ochil buva bilan salomlashishdi.*” Ushbu gapimizdan “*salomlashishdi*” leksemasining tahlilini ko‘ramiz. Bu fe’limiz ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan “salom” leksemasiga -lash affiksini qo‘shilishi orqali yasalgan va morfologik usulda bo‘lgan fe’l hisoblanadi.

Ushbu maqolada fe’l derivatsiyalarining sintaktik va morfologik usullarinigina tahlil qildik xolos. Bundan tashqari fe’lning ko‘pgina turlari, jumladan: harakat va holat fe’llari, aqliy faoliyat, jismoniy faoliyat fe’llari, fe’llarni hosil qiluvchi qo‘shimchalar va yana boshqa ko‘plab fe’l qismlari mavjuddir. Biz bu maqolamizda Asqad Muxtorning “Chinor” romani asosida fe’l derivatsiyalarini va ularning qanday usulda qo‘llanganligi haqida tahlillar qildik. Nafaqat bu asar, balki, boshqa asarlarda ham bunday misollar juda ham ko‘p. Shu sababli biz xohlagan asarimiz asosida fe’l derivatsiyasining tahlillarini o‘tkazishimiz va bunday tahlillar orqali bilimimizni yanada oshirishimiz ham mumkin bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tganimdek “derivatsiya” atamasi bu so‘zlarga ya’ni

leksemalarga turli xil affikslar ( qo‘shimchalar ) qo‘shishimiz orqali yangi ma‘noni beradigan so‘zlarni hosil qilishimizdir. Biz sizlar bilan bu maqolada faqatgina fe‘l so‘z turkumining derivatsiyalarini ko‘rib chiqdik fe‘ldan tashqari ham biz sifat, ravish va ot kabi so‘z turkumlarining ham derivatsiyalarini ya‘ni yasalishlarini ko‘rib chiqishimiz ham mumkin.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

- 1.Sayfullayeva R.R va boshqalar.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent:IRNMU,2020.[181]
- 2.Asqad Muxtor “Chinor” romani. Toshkent-Yoshlar matbuoti
3. Rahmatullayev Sh.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent-Universitet,2006.[159]

**Abdulla Qahhorning hikoyalarda so‘z qo‘llash mahorati  
( “Bemor” hikoyasi tahlili asosida )**

*Xudoyberdiyeva Diyora*

DTPI Filologiya fakulteti

filologiya va tillarni o‘qitish:o‘zbek tili ta‘lim  
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada biz Abdulla Qahhor hikoyasi misolida Sinonim so‘zlar, dialektal so‘zlar shular bilan bir qatorda frazeologizmlar va so‘zlarning ifodaviylik jihatdan tahlillari haqida ma‘lumot berib o‘tamiz.

**Kalit so‘zlar:**Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi,sinonim so‘zlar, frazeologizmlar, ijobiy bo‘yoqli leksema, salbiy bo‘yoqli leksema, dialektal so‘zlar, graduonimik qator.

**Аннотация:** В этой статье мы предоставим информацию о синонимах, диалектных словах, а также фразеологизмах и экспрессивном анализе слов на примере рассказа Абдуллы Каххора.

**Ключевые слова:** рассказ Абдуллы Каххора «Пациент», синонимы, фразеология, лексема с положительной окраской, лексема с отрицательной окраской, диалектные слова, градуонимический ряд.

**Annotation:** In this article, we will provide information on synonyms, dialectal words, as well as phraseologisms and expressive analysis of words on the example of Abdulla Qahhor's story.

**Key words:** Abdulla Qahhor's story "The Patient", synonyms, phraseology, lexeme with positive color, lexeme with negative color, dialectal words, graduonymic series.

Tabiiyki, so‘z tilning eng muhim birliklaridan hisoblanadi. So‘z– tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktur ma‘noviy birligidir. Badiiy asarda keng qamrovli til birliklaridan va boshqa grammatik, leksik birliklardan foydalanish yozuvchining mahoratini belgilab beradi. Jumladan, Abdulla Qahhor asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha qatlamlari uchun ham boy poetik material bera olishi kuzatiladi. Yozuvchi so‘zlarni qo‘llashda katta mahoratga ega bo‘lishi bilan bir qatorda asar syujetiga mos ravishda

xalqimizning maqol, ibora kabi tuganmas xazinalardan ham foydalangan. Biz ushbu tahlilni yozuvchining “Bemor” hikoyasi misolida ko‘rib chiqamiz. Bu hikoyada qo‘li kalta, nochor ahvoldagi Sotiboldi va erta vafot etgan, kasalmand ayol, uning jajjigina qizchasi holati bayon etilgan.

Sinonim so‘zlar tahlili. Tilshunoslikda sinonimiya hodisasi o‘tmishga ega bo‘lib, ancha keng tahlil qilingan hodisalardan biri hisoblanadi. Sinonim (yunoncha “bir nomli”) lar yozilishi, talaffuzi turlicha, ammo ma'nosi yagona bo‘lgan so‘zlar demakdir. Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo‘lib, ifoda semasidan farqlanadi. Masalan: *U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi* (“Bemor”). Ushbu parchada kelgan *ingramoq* so‘zi mungli tovush chiqarishni ifodalaydi. *Ihramoq* so‘zi unga sinonim bo‘la oladi. Bu so‘z og‘riq, alam ifodalovchi ovoz chiqarmoq ma'nosini ifodalaydi. So‘zlar o‘zaro sinonim bo‘lgani bilan ularning ifoda semalari har xil. Yuqorida keltirilgan gapda bemor *ihradi* desak gapda ma‘noviy g‘alizlik seziladi. Bemor *ihradidan* ko‘ra bemor *ingradi* birikmasi gapimizga ko‘proq mos tushadi. Sinonim bo‘lgan so‘zlarda ma‘no yakdil bo‘lsa ham, ma‘no nozikligi, hissiy ma‘no qo‘llanilishiga qarab so‘zlar bir-biridan farqlanadi.

Frazeologizmlar tahlili. Frazeologizm ibora deb ham yuritiladi. Birdan ortiq mustaqil leksema birikuvidan tashkil topib obrazli ma‘naviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi. Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi. Abdulla Qahhor asarlari ham frazeologik jihatdan tadqiq etilgan. Masalan,

*Joni uzilmoq- vafot etmoq*

*Oyoqqa bostirmoq-tuzalishiga yordam bermoq*

*Azob tortmoq-qiynalmoq*

Hikoyada shu kabi iboralar o‘rnida oddiy so‘zlarni ham qo‘llasa bo‘ladi. Yozuvchi iboralardan foydalanishdan qahramon ichki dunyosi uchun yoki qahramon dialogi aniqligini ta‘minlashni maqsad qilgan. Qahramonlar nutqida xalq og‘zaki ijodi namunlari uchraydi.

Dialektal so‘zlar tahlili. Dialektal so‘zlar bu shevalarda faol qo‘llanib, adabiy til sathida kam yoki umuman qo‘llanmaydigan leksik birliklardir. Bunday leksik birliklar sheva vakillari nutqida faol ishlatiladi. Masalan: *U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko‘milib savat to‘qiydi*. Ushbu gapda *oftobshuvoq* so‘zi o‘zbek tilida tojikcha *oftob* oti *chuvalangan, tarqoq* ma‘nosini anglatadigan o‘zbekcha *chuvoq* sifatidan tuzilgan bo‘lib, “ta‘sir kuchi oz, yoqimli quyosh nuri” ma‘nosini anglatadi. Bu ot o‘zbek so‘zlashuv tilida optovshuvoq tarzida f tovushini p tovushiga, b tovushini v tovushiga, ch tovushini sh tovushiga admashtirib aytiladi. Bu so‘z asosan shevaga xos ya‘ni dialektal so‘z hisoblanadi. Bundan tashqari hikoyada qo‘llanilgan “*doktorxona*” so‘zi asli tilimizda shifoxona tarzida qo‘llaniladi, ammo shevamizda *doktorxona* tarzida qo‘llaymiz.

Graduonimik qatorlarda sinonim so‘zlar tahlili. Graduonimiya hodisasining sinonimik qatorlarda ham kuzatilishi, graduonimiya va sinonimiyaning ayrim o‘rinlarda zich bog‘lanishini, ularni o‘zaro bog‘lanishda o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi. Masalan: *1.Sotiboldi kasalni o‘qitdi* (“Bemor”).

2. *Bemor og‘irlashdi* (“Bemor”).

Bu ikki gapdagi kasal va bemor so‘zlari o‘zaro sinonim so‘zlardir. 1. *Kasal– jismoniy yoki ruhiy kasallik ta’sirida bo‘lmoq*. 2. *Bemor– Organizmning odatdagi biror holati buzilganligini ifodalaydi*. Ushbu sinonimlar narsa-hodisa, belgi, harakat-holat kabilarni anglatuvchi hamda uslubiy va ayrim ma’no nozikliklari bilan lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra farqlanuvchi leksemalardir. *Kasal* va *bemor* so‘zlaridan bemor so‘zi kasal so‘zidan og‘irroq ahvoldagi insonni ifodalaydi. *Kasal-betob-bemor* shaklidagi qatorni tashkil etadi. Shuning uchun ularni ham graduonimik, ham sinonimik qatorni tashkil etadi desak bo‘ladi. Bundan tashqari:

1. *Sotiboldining xotini og‘rib qoldi*.

2. *Bemor oxiri o‘sal bo‘ldi*.

Yuqoridagi keltirilgan gapdagi “*og‘rib qolmoq*” va “*o‘sal bo‘lmoq*” so‘zlarini ham sinonimik, ham graduonimik so‘zlar qatoriga kiritishimiz mumkin. Ikkalasi ham “*kasal bo‘lib qolmoq*” ma’nosida ishlatiladi, ammo “*og‘rib qolmoq*” dan ko‘ra “*o‘sal bo‘lmoq*” birikmasida bemorning ahvoli og‘irroq va tuzalishiga umid yo‘qligini ifodalaydi. Ular ma’nosida ma’lum bir darajalanish qatorini hosil qiladi.

So‘zlarning ifodaviylik jihatdan tahlili. Ana shu jihatdan o‘zbek tili leksemalari bo‘yoqsiz va bo‘yoqdor qatlamga bo‘linadi. Bo‘yoqsiz leksika borliq hodisalarini boricha aks ettiradi va u so‘zlovchining munosabatini ifodalamaydi. Boshqacha aytganda, bo‘yoqsiz leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semalari nol darajada bo‘ladi. Bo‘yoqdor leksikada leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semasi bo‘rtib turadi: *ulkan, badnafs, oniy*. Bo‘yoqdor leksemaning ifodaviyligi ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra bo‘yoqdor leksemalar **ijobiy bo‘yoqdor** leksema va **salbiy bo‘yoqdor** leksemaga bo‘linadi. Ijobiy bo‘yoqdor leksema so‘zlovchining borliq hodisasiga ijobiy munosabatini ifodalaydi.

Ba’zi misollarni ko‘rib, xulosa qilamiz. Masalan:

1. *Sotiboldining xotini og‘rib qoldi*. Ushbu gapda “*og‘rib qoldi*” birikmasi o‘rnida “*kasal bo‘ldi*” birikmasini ham ishlatish mumkin. Ammo “*og‘rib qolmoq*” birikmasi ijobiy bo‘yoqni ifodalaydi. Ya’ni “*kasal bo‘lmoq*” birikmasiga nisbatan ijobiyroq munosabatni bildiradi.

2. *Bemor og‘irlashdi*. Bu gapdagi “*bemor*” leksemasining o‘rniga “*kasal*” leksemasini ham ishlatishimiz mumkin. Ammo , “*bemor*” leksemasi “*kasal*” leksemasiga nisbatan ijobiy bo‘yoqdorligi ko‘proq.

3. *Yana ko‘zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi-saharga borib uzildi*. Yuqorida keltirilgan gapdagi “*uzildi*” leksemasi o‘sha ayolning vafot etganligini ifodalab kelyapti. Leksema salbiy bo‘yoqdorligi ko‘proq bo‘lgan so‘zlarni o‘rnida ishlatilgan. Biz so‘zlashuv uslubida ham “*o‘ldi*” deyishdan ko‘ra “*vafot etdi*”, “*bandaligini topshirdi*” , “*uzildi*” so‘zlarini ko‘proq ishlatamiz. Chunki “*o‘ldi*” leksemasida salbiy bo‘yoq ko‘proq. Mazkur tahlil orqali Abdulla Qahhor asarlaridagi so‘zlarni frazeologik, dialektal, sinonimik, ifodaviylik va graduonimik jihatdan tahlil qilib ko‘rib chiqdik.

Umuman olganda, tilga xos leksemalar, ularning denotativ va konnotativ ma’nolari, so‘zlarning grammatik shakllari hamda semantikasi ana shu manbalar

orqali o‘rganiladi. Shoir va yozuvchilarning so‘z qo‘llash mahorati buning yorqin namunasi hisoblanadi. Badiiy asarda qo‘llangan til birliklari boshqa uslublardagiga nisbatan uslubiy vazifa bajarishi, emotsional-ekspressivlik vazifasining yuqoriligi bilan farqlanib turadi. Abdulla Qahhor tildagi kamchiliklar, chigallik, balandparvozlik, qashshoqlikdan iborat so‘zlardan uzoq yuradi. Uningcha, so‘zlar asarga chertib, tanlab olinishi lozim. Unda ishlatilgan so‘z kuchli, ifodali, ravshan, sodda, toza, xalqqa yaqin bo‘lishi kerak, til hayotni to‘g‘ri ko‘rsatishga xizmat qilsin. So‘z yoki birikma badiiy tasvirning muhim vositasidir. Ammo ularning badiiy matnda qo‘llanish darajasi, badiiylikni ifodalash imkoniyatlari turli-tuman. Abdulla Qahhor asarlarining jozibasi va o‘ziga xosligi ham yozuvchining til birliklaridan foydalanish mahoratida yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor asarlari adabiyot sahifalarida barhayotdir.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: IRNMU, 2020.
2. Madvaliev A. tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-5 jildlar.
3. Mahmudov N. Til. – T.: “Yozuvchi”, 1998, -B. 40
4. Abdulla Qahhor . Tanlangan asarlari. –Toshkent: G‘afur G‘ulom.
5. Qurbonova M. “Abdulla Qahhorning so‘z tanlash mahorati” maqolasi

**ONA TILINI O‘QITISHDA TESTLARDAN FOYDALANISH**

**Qarshiyeva Rayxona Ne‘mat qizi**

Samarqand davlat universitetining  
Denov tadbirkorlik va pedagogika  
institutining 2- bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili darsi jarayonida test bilan bog‘liq metodlarni qo‘llash imkoniyatlari , test metodlari turlari ,ayrim testlar sharhi , testlardan foydalanish usullari va eng asosiysi ularning afzalliklari haqida fikr yuritilgan .

**Kalit so‘zlar:** Usullar, dars, o‘quv jarayoni , noan‘anaviy o‘qitish , ona tili, prinsiplar, ochiq va yopiq test.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются возможности использования методов тестирования, виды методов тестирования, обзоры некоторых тестов, способы использования тестов и, самое главное, их преимущества.

**Ключевые слова:** Методика, урок, учебный процесс, нетрадиционное обучение, родной язык, принципы, открытое и закрытое тестирование.

**Abstract:** This article discusses the possibilities of using test-related methods, types of test methods, reviews of some tests, methods of using tests and, most importantly, their advantages.

**Key words:** Methods, lesson, educational process, non-traditional teaching, native language, principles, open and closed test.

Dars jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch ishlatmasdan ,qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida o‘qituvchi dars jarayonida egallagan bilim darajasini dars jarayoning o‘zida tekshirish uchun o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab

etiladi. Test bilan bog‘liq metodlardan foydalanish orqali bir vaqtning o‘zida sinfdagi 30 nafar o‘quvchilarni balki millionlab imtihon topshiruvchilarni muayyan foaliyatdagi test topshiriqlari bilan har bir insonning imkoniyatlarini aniqlash shuningdek, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Ba‘zan tajribali o‘qituvchilar test orqali dars jarayonida olingan bilimlarni tekshirish noto‘g‘ri deb hisoblashadi. Sababi o‘quvchi bilmagan saviliga ham javoblardan birini tanlashi va bu berilgan javob ayrim hollarda to‘g‘ri bo‘lib chiqishi mumkin deb hisoblashadi.

Bunday hollarda testlarning boshqa metodlaridan ya‘ni ochiq test metodlaridan foydalanish faydali usuldir. Test metodikasidan ona tili darslarida foydalanish samarali, chunki ona tili darslaridagi imlo qoidalari bilan bog‘liq mavzularni testlar orqali o‘quvchiga tushuntirish oson va samaralidir.

Hozirgi kunda dars jarayonlarida qo‘llanilayotgan ta‘lim metodlari xilma-xil hamda ko‘p sonli bo‘lib ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu sababli darsni qiziqarli olib borish masuliyati o‘qituvchiga bog‘liqdir. Shuni hisobga olgan holda zamonaviy ta‘lim metodlarini turlarga ajratish uchun zarur bo‘lgan asosiy aniqlab olish lozim. Bu belgilar quyidagilar bo‘lishi mumkin; ko‘zda tutilgan natijaga erishish, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, dars jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash shular jumlasidandir. Ona tili darslarida testlar orqali o‘rganiladigan mavzular soni juda ko‘p. Masalan: imlo testlari orqali ona tili darsida foydalanish samarali usuldir. Bu testlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining imloviy jihatdan bilimlarini sinashi va mustahkamlashi mumkin:

Qaysi so‘z to‘g‘ri?

- A) Tarjimayi xol
- B) Tarjimayi hol
- C) Tarjimai hol
- D) Tarjimai xol

Bu test orqali o‘quvchilar orfagrafik bilimlari tekshiriladi. Ushbu testda “tarjimayi hol” so‘zi to‘g‘ri yozilgan. Shu bois “B” varianti to‘g‘ri. Demak ona tilini o‘qitish metodikasida onglilik prinsipiga asoslanish ma‘no va mazmuni anglab amaliy vazifalar so‘rash, tinglash, o‘qish, yozish kabilarni bajarishda o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakaga ijodiy tashabbuskorlikka mustahkamlikni oshirishga imkon beradi.

Ona tili ta‘limini ongliligi quyidagi prinsiplarga asoslanadi.

- 1) So‘z boyligini oshirish va ma‘noviy guruhlar ustida ishlash.
- 2) Fikr bildirganda mantiqiy izchillikni ta‘minlash.
- 3) Tilning ifoda imkoniyatlaridan to‘g‘ri va o‘rinli, nutqiy vaziyatlarda mos ravishda foydalana olish.
- 4) Mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

Ona tili darsida testlardan foydalanish orqali: ona tili imlosi talaffo‘zi, yozma nutqda tinish belgilarini to‘g‘ri ishlatish yuzasidan zarur ko‘nikma va malakalar bilan ta‘minlanadi.

Ona tili o‘qitish tamoyillari quyidagilar.<sup>1</sup>

1. Til materialiga, nutq organlarining o‘shiga, nutq malakalarining to‘g‘ri rivojlanishiga e‘tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, o‘z bo‘lsa-da, e‘tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, fonetik ko‘nikmalarga yetarli e‘tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta‘lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg‘ulotlarda eshituv va ko‘ruv ko‘rsatmaliligini ta‘minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o‘qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2. Til ma‘nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma‘nolarini) tushunish tamoyili. So‘zni, morfemani, so‘z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma‘lum voqea-hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash demakdir. Til ma‘nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning ham ma‘nolarni, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o‘zaro bog‘langan holda o‘rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o‘rganish, o‘zlashtirish mumkin. Sintaksisni o‘rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so‘z yasashiga suyanadi va hokazo. So‘zni morfemik tahlil qilish uning ma‘nosini tushunishga yordam beradi. Tilning ham ma‘nolarni bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, o‘qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o‘stirish tamoyili. Til — juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, o‘z bo‘lsa-da, uning qonuniyatlarini, o‘xshashliklarini o‘zlashtirmay ay turib, uni yodda saqlab bo‘lmaydi. Bola gaplashish, o‘qish, eshitish bilan til materiallarini yig‘adi, uning qonunlarini o‘zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay ay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni emas, balki so‘z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo‘yoqdorligini ham tushunishni ko‘zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi. Bu esa matnning mazmuni va uning o‘ziga xos „nozikklik“larini ham anglab yetishga yordam beradi.

5. Og‘zaki nutqni yozma nutqdan oldin o‘zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta‘sir etadi va til o‘qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o‘qituvchi bilan o‘quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo‘nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tili fanida testlardan foydalanish orqali o‘quvchi test tahlili kabi ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladi. Masalan ushbu test orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin.

*Shunday o‘g‘li va qizi uchun yashayotganini anglab yetdi.* Mazkur gapda qanday fonetik hodisalar mavjud?

- A) Tovush tushishi
- B) Tovush almashishi
- C) Tovush orttirillishi
- D) Yuqoridagilarning barchasi.

Ushbu test namunasida fonetik hodisalarning turlarini ko‘rib chiqish nazarda tutilgan. Bu gapda *shundan* so‘zida “n” tovushi ortgan ya’ni shu+n=shundan so‘zi hosil bo‘lgan. Demak Tovush orttirillishi bor. Keyingi so‘z o‘g‘li bu so‘zda “i” tovushi tushgan ya’ni o‘g‘il +i=o‘g‘li so‘zi hosil bo‘lgan. Demak Tovush tushishi ham bor. Keyingi so‘z *anglab* bu so‘zda tovush almashishi yuz bergan ya’ni ong+lab= anglab so‘zi hosil bo‘lgan. Bu kabi mavzularni testlar orqali o‘quvchiga taqdim etish dars sifatini samaradorligini oshiradi .

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ona tili o‘qitishga katta ahamiyat berila boshlandi. Bunda 1989-yil 21-oktabrda „O‘zbek tiliga Davlat tili maqomini berish haqida“gi qaror alohida o‘rin tutadi. Ta’lim sohasidagi bu o‘zgarishlar ona tili o‘qitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Shunday qilib, fan sifatida ona tili o‘qitish metodikasining o‘z predmeti, vazifasi, nazariy va ilmiy sohasi bo‘lib, bir qator fanlar o‘rtasida uning ma’lum o‘rni bor. Ona tili fanini tushunarligini oshirish va sifatli ta’lim berish uchun har xil metodik testlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. “Ona tilini o‘qitish metodikasi” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlagan Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009.
2. “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn yaratishning ahamiyati va o‘rni” qo‘llanmasi nashriyoti 2021.

**MUROD MUHAMMAD DO‘ST ROMANLARI POETIKASI (“LOLAZOR” ROMANI ASOSIDA)**

**Qorayeva Xolida Nurmatovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Magistratura bo‘limi O‘zbek tili va adabiyoti  
yo‘nalishi 1-kurs magistranti  
qorayevaxolida220@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** *Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romani, o‘zbek adabiyotining zamonaviy namunasi. Asar, janubiy O‘zbekistonning go‘zal tabiatida kechadigan hikoyalar orqali, an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy hayot o‘rtasidagi ziddiyatni yoritadi. Roman, tabiat va inson ruhining o‘zaro aloqasini, sevgi va umidning kuchini aks ettiradi. Qahramonlarning ichki kechinmalari va orzulari orqali, muallif insoniy his-tuyg‘ularni chuqur tasvirlaydi. “Lolazor” – bu inson ruhining go‘zalligi va murakkabligini ko‘rsatuvchi poetik asar bo‘lib, adabiyot ixlosmandlari uchun muhim ahamiyatga ega.*

**Kalit so‘zlar:** *“Lolazor” romani, Murod Muhammad Do‘st, o‘zbek adabiyoti, zamonaviy asar, an’anaviy qadriyatlar, zamonaviy hayot, tabiat, inson ruhi, sevgi, umid, ichki kechinmalar, insoniy his-tuyg‘ular, poetik asar, adabiyot ixlosmandlari.*

**ABSTRACT:** *Murod Muhammad Dost's novel “Lolazor” is a contemporary example of Uzbek literature. The work explores the conflict between traditional*

*values and modern life through stories set in the beautiful landscapes of southern Uzbekistan. The novel reflects the interconnection between nature and the human.*

**KEYWORD:** “Lolazor” novel, Murod Muhammad Dost, Uzbek literature contemporary work, traditional values, modern life, nature human spirit, love hope, inner feelings, human emotions, poetic work, literature enthusiasts.

### **KIRISH**

Poetika badiiy asarlarda ifoda vositalari tizimi haqidagi fan, eng qadimiy adabiyotshunoslik fanidir. Keng ma’nodan poetika adabiyot nazariyasi tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Adabiyot nazariyasi sifatida adabiy tur va janrlar xususiyatini, oqim va yo‘nalishlar, uslub va metodlarni o‘rganadi hamda badiiylik darajasi o‘rtasidagi ichki bog‘lanish va o‘zaro munosabat qonuniyatlarini tadqiq etadi.

“Badiiy adabiyotning asosida, shubhasiz, inson ma’naviyati bilan bog‘liq muammolarning badiiy ifodasi turadi. Shu bosidan ham hech bir ijodkor yo‘qki, o‘z asarida bu masalani chetlab o‘tgan bo‘lsin. Murod Muhammad Do‘st ijodi, jumladan romanlari yuzasidan ham shu fikrni aytish mumkin”. U xilma-xil janrdagi asarlari bilan ona yurtimizning yaqin o‘tmish tarixi va o‘z davrining to‘laqonli manzarasini shu bilan birga zamondoshlarimizning yuksak fazilatlarini faqat o‘zigagina xos bo‘lgan tabiiy hamda boy tafakkurga ega bo‘lgan uslubda tasvirlab, adabiyotimizda o‘ziga xos maktab yarata oldi, unga yangi nafas oilib kirdi. Murod Muhammad Do‘st hikoya janrida ham barakali ijod qilgan. Fikrlarimizni isboti sifatida adibning “Qaydasan, quvonch sadosi?”, “Bir toychoqning xuni.”, “Galatepaga qaytish” kabi ilk hikoyalari asarlari asosida badiiy filmlar ham suratga olingan. Boshqacha qilib aytganda, adib hikoyalarining mazmunan teranligi, yuksak haqqoniyligi, badiiy o‘tkirliги bilan o‘zbek prozasi rivojida alohida o‘rin tutadi.

Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romani o‘ziga xos poetikasi va chuqur ma’no bilan ajralib turadi. Bu asar, bir tomondan, o‘zbek adabiyotining zamonaviy uslublarini o‘z ichiga olsa, boshqa tomondan, xalqning ruhiy va madaniy hayotini aks ettiradi “Lolazor” romani O‘zbekistonning janubiy hududlarida joylashgan, an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy hayot o‘rtasidagi ziddiyatni tasvirlaydi. Do‘st, o‘z asarida, tabiatning go‘zalliklarini, inson ruhining chuqurliklarini va sevgi-muhabbatni bir butun sifatida yoritadi. Roman qahramonlari orqali insonning ichki kechinmalarini, umid va orzularini ko‘rsatadi. Murod Muhammad Do‘st, asarida epik va lirik unsurlarni birlashtirib, o‘zining betakror uslubini yaratadi. Roman ichidagi tasvirlar va xarakterlar juda jonli va chuqur ishlangan. Muallif tabiatni va uning o‘zgarishini, qahramonlarning ruhiy holatini aks ettirishda simvollar va metaforalardan keng foydalanadi. “Lolazor”da tabiatning tasviri alohida ahamiyatga ega. Muallif, o‘zbek tabiatining go‘zalligini, uning inson hayotidagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Tabiat inson ruhining aks etgan manzarasi sifatida ko‘rinadi. Bu borada, roman qahramonlarining his-tuyg‘ulari tabiat bilan bog‘liq holda, o‘zgaradi va rivojlanadi. Roman markazida joylashgan sevgi hikoyalari, insonning ichki kurashlari bilan birga kechadi. Do‘st, sevgi va umidni insonning hayotidagi eng kuchli kuch sifatida ko‘rsatadi. Qahramonlarning orzulari va ular yo‘lidagi to‘siqlar, asarning dramatik atmosferasini yaratadi.

### **“Lolazor” romani poetikasining asosiy xususiyatlari**

“Lolazor” romani, o‘ziga xos poetikasi bilan ajralib turadi. Uning asaridagi chuqur mazmun, hissiyot va stilistik xususiyatlar o‘quvchilarni hayratga soladi. Ushbu maqolada “Lolazor” romani poetikasining asosiy xususiyatlarini tahlil qilamiz. “Lolazor” romani turli xil insoniy his-tuyg‘ular, shaxsiy kurashlar va ijtimoiy masalalarni qamrab oladi. Asarda sevgining ko‘p qirrali ko‘rinishlari, umidsizlik va umid, ma’naviy izlanishlar kabi mavzular o‘rin olgan. Bular o‘zaro bog‘langan holda, muallif insoniyatni tushunishdagi chuqur fikrlarni yoritadi. “Lolazor” romani, o‘zining rang-barang stilistik vositalari bilan ajralib turadi. Muallif tasvirlar va metaforalarni samarali qo‘llab, qahramonlarning ichki olamini yorqin ifodalashga erishadi. Tasvirlar ko‘pincha tabiiy va estetik jihatdan boy, bu esa o‘quvchilarni voqealarga chuqur jalb etadi. Romanda qo‘llaniladigan til sodda va ravon, lekin bir vaqtning o‘zida chuqur ma’noga ega. Usul esa ko‘p qatlamli: o‘zgaruvchan vaqt, parallel hikoya va ichki monologlar orqali qahramonlarning fikrlari va his-tuyg‘ulari yanada chuqurroq ochiladi. Bu usul roman voqealarini dinamik qiladi va o‘quvchiga qahramonlar bilan birga his qilish imkonini beradi. “Lolazor” romanidagi qahramonlar ko‘pincha murakkab shaxslar bo‘lib, ularning ichki kurashlari asarning asosiy qismidir. Har bir qahramon o‘ziga xos ramziy ma’noga ega bo‘lib, ularning xarakterlari va hayotiy yo‘llari orqali insoniy qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar ko‘rsatiladi. Romanda ifodalangan hissiyotlar va tajribalar ko‘pincha juda chuqur va real. Muallif o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini aniq va sodda tarzda ifoda etadi, bu esa o‘quvchilarning asarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Yozuvchi, tabiiy, suyuq va jozibador uslubda o‘z fikrlarini yetkazadi.

### **“Lolazor” romanida poetikaning ahamiyati**

Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romanining tili ravon, ammo o‘qilishi qiyin. U hamma asarlar kabi yengil va oson o‘qilmaydi. Chunki uning toshi og‘ir. Roman boshqa asarlarga taqlid qilmaydi, uning o‘ziga xosligi ham shunda. Unda sevgi va ishq o‘yinlari ham asosiy planda emas. Balki bir umr bir-biriga oshnolik qilgan, “yonma-yon, ammo butkul tanholikda o‘tgan” ikki inson taqdiri, ular asnosida o‘nlab personajlar qismati, tabiati, ruhiyati orqali jamiyat va tuzumning inqirozi badiiy tahlil va talqin qilinadi. O‘z o‘rnida qo‘llanilgan kinoya, piching, qochiriq, istehzoo, kesatiqlar romanga o‘ziga xos go‘zallik baxsh etgan. Asar markazida respublikaning mas’ul rahbari Oshno hamda unga bir umr yo‘ldoshlik qilgan, uning panohida jon saqlagan Nazar Yaxshiboyev turadi. Bu ikkisi ikki olam, ikki xarakter, ikki ruhiyat egasi. Birinchisi daraxt novdasidek mo‘rt, guldek nozik. Qattiqroq shamol essa, sinib tushgudek. Siyosiy tuzum bor bo‘yi bilan o‘z nog‘orasida o‘ynata oladi. Ikkinchisi esa chapaniroq, chayirroq. Go‘yoki yantoqqa o‘xshaydi, bo‘ronga ham, jaziramaga ham dosh bera oladi. Har qanday vaziyatdan chiqib ketish yo‘lini topuvchi ustomon. Shunday bo‘lishiga qaramay, novdadek mo‘rt Oshnoning toleiga oshno. U topgan obro‘-e’tibor, yaxshi-yomon kunlar, yo‘qotishlar, xato va adashishlar, achchiq saboqlar ana shu inson bilan bog‘liq. Ammo Nazar Yaxshiboyev “Oshnoni men yaratdim”, men bo‘lmasam, Oshno ham bo‘lmas edi deb o‘ylaydi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Balki, Oshnoni Hotam Sho‘ro yaratgandir? Balki, ularning taqdirini bog‘lab qo‘yilishiga sababchi inson ham Hotam Sho‘roning o‘zidir.

Bulduruq qishlog‘idagi yuzlab yoshlar orasidan aynan Oshno va Yaxshiboyevni tanlab, ularni ilm olish uchun O‘rtaqo‘rg‘onga yuborgan u emasmidi?! Do‘stining halol yo‘l bilan pul topganini ko‘rgan Yaxshiboyev ham aynan shu maqsadda Oshnoning yo‘liga o‘tmaganmidi? Ha, Yaxshiboyev qorin g‘amida xuddi qaroqchidek adabiyotga kirib keldi. O‘rtamiyona yozuvchi bo‘lgan bu shaxs hammadan o‘zini ustun sanaydi, boshqa yozuvchilarni mensimaydi, adabiyotni ocherk, maqolabozlikdan iborat deya tushunadi. Aynan shu inson qalami ostida Qurbonoy, To‘pori kabi ilg‘orlar yetishib chiqdi va aynan Yaxshiboyev, yo‘q, yo‘q, Oshno sababli zavolga yuz tutdi. Balki, ikkisi tufayli hamdir. O‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ini lolazorga aylantirmoqni istagan Oshno mansab otiga mingach, Bulduruq uchun bir ariq suv chiqarib berishga yaramadi. Yaxshiboyev masalani eslatganida odamlar nima deydi, ular bizni mahalliychilik qilyapti deb malomat qilmaydimi, deya qo‘rqdi. Asli qo‘rqoq edi Oshno. talabalik davrida ham, mansab egasi bo‘lganda ham qo‘rqib yashadi. O‘zining jon do‘stiga ham ishonmasdi. Uning ishonchsizligi “–Yo‘q, Nazar, – dedi Oshno titrab, qaqshab, – ikkovimiz bir kunda o‘lganimiz ma‘qul. O‘shanda sen menga mag‘zava to‘kishga ulgurmayсан”, degan so‘zlaridan ham ma‘lum. Darvoqe, u hali yoshligida onasi va singlisini o‘rtaga qo‘shib, sendan voz kechmayman deb qasam ham ichgandi. Demak, uning oriyati ham juda arzon ekanki, kezi kelsa, bu do‘stlikni ham uzib, va‘dasini ham buzib yuboraveradi.

Oshno qo‘rqoqligidan tashqari sodda va uni ishontirish juda oson edi. Xuddi Moyra kabi. Birovga ergashib kelgan yengiltak Moyra uni bir zumda qanday rom etgan bo‘lsa, u egallagan mansab ham xuddi shunday rom etdi. Siyosat ham Moyra kabi. Kecha boshqasini ko‘nglini olgan bo‘lsa, bugun Oshnonikini olishga shay, ertaga esa boshqaninikini... Shuni vaqtida tushunib yetmagan Oshno bu qutquga uchdi, u ishongan ezgulikning qiymati ham Moyraning iffati kabi bo‘lib chiqdi...

U istagan odamiga yordam berar, uning bu mehribonchiligidan o‘z maqsadiga yetganlar qancha edi. “Eng yomoni – maqto‘vni yoqtirgani, maqtalgan vaqtida shamday erib tamom bo‘ladiki, taftida qo‘lini isitib olganlar qancha!” Xususan, Aleksandr Shoymardonov. U Oshnoning ishonchi tufayli butun respublikani paxta ekiladigan hududga, beshikdagi yosh boladan tortib, yotoqdagi qariyagacha paxtakorga aylantirdi, dengizni quritdi, yerlarni yaroqsiz holga keltirdi, odamlarni esa mayib-majruh qildi. Va pirovardida, Oshnoga xiyonat ham! Oshnoning ildiziga qurt tushib, mo‘rtlasha boshlagan vaqtida ko‘ngli Oshnoni sotmoq istadi...

Lekin uning ham ko‘nglida bir ezgulik bor edi. Bulduruqda bog‘ qilish. Umri oxirida o‘zi odam sirasiga qo‘shmaydigan Saidqul Mardon bilan bu orzusini amalga oshirdi. Oshno «Lolazor» deb nomlagan, ammo vaqtlar o‘tib bu nom ham unut bo‘lgan va Bulduruq sifatida qolgan qishlog‘ida bog‘ yaratdi. Hech qursa do‘sti paxta ektiraverib, paxtazorga aylantirib yuborgan yurtning bir burchagida Yaxshiboyev ekan daraxtlar ko‘kardi.

## **XULOSA**

Lolazor romani o‘zining boy poetikasi bilan adabiyotda muhim o‘rin tutadi. Uning asaridagi chuqur mazmun, hissiyot va stilistik xususiyatlar o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi. Poetikaning asosiy xususiyatlari sifatida mavzular va motivlar, murakkab qahramonlar, ko‘p qatlamli ifodalar va zamonaviy ijtimoiy muammolarni

yoritish kabilarni keltirish mumkin. Muallif o‘z qahramonlari orqali insoniy his-tuyg‘ularni, kurashlarni va umidsizlikni ifoda etadi, bu esa o‘quvchilarni chuqur fikrlashga undaydi. Tasvirlar va metaforalar yordamida o‘ziga xos bir estetik muhit yaratiladi, bu esa o‘quvchilarni voqealar bilan yanada yaqinlashtiradi. Roman, nafaqat estetik jihatdan, balki ijtimoiy-siyosiy konteksti bilan ham muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, Lolazor romani poetikasi, insoniyat haqidagi chuqur fikrlarni, hayotiy qiyinchiliklarni va umidni aks ettiradi. Bu asar, kelajakda adabiyot tadqiqotchilari uchun ko‘plab imkoniyatlar taqdim etadi va adabiyot ixlosmandlarini o‘ziga tortadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари Тошкент, 2004
2. Мурод Муҳаммад Дўст “Лолазор”, Тошкент, 1998

**“QORAQUYUN” ROMANIDA SO‘Z MA’NOLARI KO‘CHISH  
USULLARINING QO‘LLANILISHI**

**Uralova Aziza**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Konnotatsiya semantikaning ekspressiv qiymatga ega bo‘lgan uzvi sifatida nomlash jarayonlaridagi borliqni baholagan holda idrok etish va aks ettirish mahsuli hisoblanadi. Uning yuzaga chiqishida bevosita ko‘chma ma’nodagi so‘zlarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb eatdi. Quyida ko‘chma ma’no aks etiradigan til unsurlari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘z:** metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, konnotatsiya

Tilimizdagi mavjud so‘zlar ma’nolarining o‘sishi—ma’no ko‘chishi, ma’no kengayishi va torayishi tarzida ro‘y beradi. Ma’no ko‘chishi badiiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladigan unsurlardan bo‘lib, u asarning hissiy ekspressiv bo‘yog‘ini oshirishga xizmat qiladi. Normurod Norqobilov “Qoraquyun” romanida ushbu unsur dan keng foydalanishga harakat qilgan. Shu sabablidir, asarning tushunilishi, estetik ta’sir hamda ramziylik ma’nolari ochilishi yuksak darajada.

Albatta, ramziylik ma’no ko‘chishi ostiga berkingan bo‘lib, o‘zining ifodalashi zarur bo‘lgan vazifani bemalol bajara olgan. Nom ko‘chishi asosida yangi ma’no hosil bo‘lishi barcha mutaxassislar tomonidan e’tirof etilsa-da, ularning turi masalasidagi qarashlar turlicha. Ba’zi yondashuvga ko‘ra nom ko‘chishiga olib keluvchi hodisaning ikki turi ko‘rsatilsa, ayrim yondashuvlarda esa bu tur soni oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Lingvistik adabiyotlarning ko‘pchiligida esa nom ko‘chishiga olib keluvchi hodisaning to‘rt turi keltiriladi: 1)metafora 2)metonimiya 3)sinekdoxa 4)vazifadoshlik.

Ma’lumki, so‘zlar asl—real ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’no ham ifodalaydi. Bu vazifada kelgan leksemalar predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o‘sha predmet-hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Leksemalarning ko‘chma ma’nosi

faqat kontekstdagina reallashadi. Tildagi nominativ birliklarning ma’no tuzilishini o‘rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida e’tibor qilinadi. V.N. Teliya ta’rificha, “konnotatsiya til birliklari semantikasiga uzual va okkozional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo‘lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko‘ra ekspressiv qiymat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir”<sup>33</sup>.

Konnotatsiya semantikaning ekspressiv qiymatga ega bo‘lgan uzvi sifatida nomlash jarayonlaridagi borliqni baholagan holda idrok etish va aks ettirish mahsuli hisoblanadi. M. A. Mamadaliyeva konnotatsiyaning asosiy vazifasi so‘zlovchining ifodalayotgan predmetga subyektiv munosabatini aks ettirish asosida ta’sir etish, ta’sirchanlikni ta’minlash ekanligini alohida ta’kidlaydi<sup>34</sup>.

“Qoraquyun” romanida ma’no ko‘chishining uch turidan: *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa* vositasidan ijodkor unumli foydalangan. **Metafora**—nutqimizda keng tarqalgan ma’no ko‘chish usullaridan bo‘lib, o‘xshashlik asosida ma’noning ko‘chishi ustuvor. Veselovskiy, Ch.Kukin, M. Shteynlar fikricha, o‘xshatishda o‘xshatilayotgan narsalar ajratib tasavvur qilinsa, metaforada ular bir butundek tushuniladi<sup>35</sup>. Asarlarda poetik metaforadan foydalanish lingvistik metaforadan foydalanishdan ustunroq. Metafora mohiyatidagi ikkiyoqlamalikka ko‘ra bu hodisaning ikki asosiy turi farqlanadi, ya’ni lisoniy metafora va poetik(badiiy) metafora<sup>36</sup>. Metafora shakliy(belgi) va harakat o‘xshashligiga ko‘ra ma’no ko‘chishiga tayanadi.

Roman boshlanishiyoq ma’no ko‘chish vositasi bilan boshlangan va asar nomi ham xuddi shunday:

*G‘uldagi it—Qoraquyun yarim tunda tin olmay uzluksiz bir alfozda g‘azabkor irillay boshladi*<sup>37</sup>. Bu bilan ijodkor o‘z mahoratini ko‘rsatishni avval boshda niyat qilganini payqashimiz mumkin. Romanda biz shakliy o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishni kuzatishimiz mumkin. Bu o‘xshashlik asosan inson a’zolariga qiyosan amalga oshirilgan:

*To‘g‘ri, g‘anim yo‘liga behuda ko‘z tikib o‘tirmay, uning olis tog‘lar bag‘rida joylashgan ovuliga o‘zi yaroq ko‘tarib borishi mumkin edi*<sup>38</sup>. *O‘sha sayxonlik adog‘ida g‘or og‘zi qorayib ko‘zga tashlanib turadi*<sup>39</sup>. *Biroq g‘orning narigi boshiga yetish u qadar ham oson emas, buning uchun abadiy zulmat og‘ushida bo‘lgan g‘or yo‘lagi bo‘ylab kamida yuz ellik gazdan ziyod masofani bosib o‘tmoq lozim*<sup>40</sup>. *Erman, turgan gap, momo bilan g‘idillashib o‘tirmadi, shu kuniyoq qo‘rg‘on qoshiga o‘tov tikib oldi. O‘sha cho‘p sozning qorniga nari-beri ishqalansa, mungli va ingroq sas*

<sup>33</sup> Телия В.Н. Типы языковых значений. М. “Наука”. 1981. с5

<sup>34</sup> Mamadaliyeva M. A. O‘zbek tilida nominative birliklarning konnotativ aspekti. Filol.fan.nom.disser.avtoreferati. T: 1998. 10-bet

<sup>35</sup> Глюменс. К М. Образное употребление названий животных в сравнениях и метафорах//Труды СамГУ .Самарканд 1971. с109-111

<sup>36</sup> Mahmudov N, Odilov Y. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. T:Akademnashr. 2014. 9-bet

<sup>37</sup> Normurod Norqobilov. “Qoraquyun”. Toshkent,O‘zbekiston. 2016. 1-bet (quyida “o‘sha asar” nomi bilan keladi)

<sup>38</sup> O‘sha asar.4-bet

<sup>39</sup> O‘sha asar. 5-bet

<sup>40</sup> O‘sha asar. 6-bet

taraladi<sup>41</sup>. Bahsning raftoriga qarab, yig‘inni yakunlash vaqti yetganini sezgan Oqbo‘ta asta taraddudga tushdi<sup>42</sup>. Erman tun qo‘yniga o‘ta diqqat-la razm solib, biror-bir qorani ilg‘amagan esa-da, tevarakdan ko‘z uzmad<sup>43</sup>. Bu jonivor boshqa itlar kabi qish adog‘i yohud ko‘klam boshida emas, hamisha bahorning o‘rtalarida bolalaydi<sup>44</sup>. U ona itni arqonlaguncha, Erman hovli yuziga bir sidra ko‘z tashlab chiqdi<sup>45</sup>. Ustaxona joylashgan qoya biqinida turli hajm va shakl-shamoyildagi o‘yiqqlar— tabiiy tokchalarga tarashlangan toshbuyumlar did bilan terilgan. Itolmas yigitlar bilan ayrolikning dastlab yillaridayoq dovonning oftobli betida ushbu mustahkam qishki qo‘rg‘onni barpo etdi<sup>46</sup>. Qachonki poyida katta-kichik lahmilar og‘zi qorayib turgan ulkan qoyaga ro‘paro bo‘lgandan so‘nggina qavm keksalaridan eshitgan ko‘p va xo‘b eshitgan afsonaviy tilla koniga duch kelganini fahmlab yetdi<sup>47</sup>.

Yuqorida asardan olingan konkret misollarda ko‘rinib turibdiki, metafora yo‘li bilan amalga oshirilgan o‘xshashlik inson a‘zolarini tayanch qilib olingan: **tog‘lar bag‘ri, g‘or og‘zi, g‘or boshi, qo‘rg‘on qoshi, sozning qorni, bahsning raftori, tun qo‘yni, ko‘klam boshi, hovli yuzi, qoya biqini, dovonning beti, lahm og‘zi**. Ijodkorning ko‘chma ma‘nodan o‘rinli foydalana olish mahorati aynan ushbu o‘xshashlikni yuzaga keltirganida aniq namoyon bo‘lgan. Adib ma‘no ko‘chishdan shunday ustaomonlik bilan foydalanadiki, asarning ta’sirlilik darajasi yuksakka ko‘tariladi:

Biroq bu faryod qatida sog‘inch qatori, tengsiz qahr mujassam bo‘lib, har qanday yurakka adadsiz qo‘rquv hissini soladi<sup>48</sup>. Avvaliga tevarakdagi qoyalarga o‘ychan boqdi, so‘ng nigohini ovul etagidan boshlanib, naridagi tik va yuksak qoyalar poyiga tirmashgan quyuq archazorga qadadi<sup>49</sup>. Biroq qonli qasosdan hech bir naf yo‘qligi va bundan har ikkala tomon ham katta talofat ko‘rish mumkinligini bu xumgazaklarga qanday qilib tushuntirsa ekan?<sup>50</sup> Yaqin-yaqindan beri botayotgan qirmizi oftobga termulganicha, hayot shomi haqida uzundan-uzun hayol surishni odat qilgandi<sup>51</sup>. Keksalik bo‘zag‘asiga yetib, yana shuni fahmlab yetdiki, osoyishtalik degani kunlab tinimsiz quyadigan jalay-u, daxshatli tarzda kechadigan qor ko‘chkilaridan iborat<sup>52</sup>. Qibla tomondan tez-tez qo‘zg‘alib turadigan o‘tkinchi yel qanotiga ilashib kelib qoladigan bu hid o‘rnini archa va boshqa o‘t-o‘lanlar isi egalladi<sup>53</sup>. Agar tilini tiymasa, qamchilar yomg‘iri ostida qolishini fahmlab, noiloj mum tishlashga majbur bo‘ldi<sup>54</sup>. Erman suv pardasi ortidan sekin bosh chiqarib,

<sup>41</sup> O‘sha asar. 10-bet

<sup>42</sup> O‘sha asar. 14-bet

<sup>43</sup> O‘sha asar. 18-bet

<sup>44</sup> O‘sha asar. 25-bet

<sup>45</sup> O‘sha asar. 26-bet

<sup>46</sup> O‘sha asar.40-bet

<sup>47</sup> O‘sha asar. 41-bet

<sup>48</sup> O‘sha asar. 2-bet

<sup>49</sup> O‘sha asar. 8-bet

<sup>50</sup> O‘sha asar. 9-bet

<sup>51</sup> O‘sha asar. 10-bet

<sup>52</sup> O‘sha asar. 10-bet

<sup>53</sup> O‘sha asar. 25-bet

<sup>54</sup> O‘sha asar. 31-bet

*tashqariga mo‘raladi*<sup>55</sup>. *Qalbi to‘rida tez-tez mavjlanib turadigan ushbu to‘fonlar bois, umri yakunida Bardam chol nechun qo‘liga soz tutganini anglab yetganday bo‘ldi*<sup>56</sup>.

Ko‘rpaning qati bo‘lishi mumkin, ammo *faryodning qati* ma’no ko‘chishning ajoyib namunasini yuzaga keltirib, adibning individuallik xususiyatini ayon qilgan. *Xumgazak*—deya adib Ermanning gap uqmas ovuldoshlariga nisbat beradi. *Qamchilar yomg‘iri*—ushbu ma’no ko‘chish harakatiga ko‘ra o‘xshashlikni hosil qilgan, ya’ni osmonning yomg‘iri tez va qachon to‘xtashi noma’lum. *Suvning pardasi*—uyning pardasi o‘z ma’nosida, buni suvning pardasiga ko‘chirish nozik didlilikni talab qiladi. Uy pardasi har xil hasharotlardan, quyoshdan saqlasa, suv pardasi ham ayni damda shunday vazifani o‘tamoqda. Bu kabi metaforik ko‘chirishlar asarda yana ko‘plab topiladi.

*Qoraquyun*— *kishi mehr qo‘yadigan jonzot emas, yovuz niyat yo‘rig‘ida maxsus tarbiyalanayotgan “jonli o‘q”*<sup>57</sup>. *Qushqo‘nmas g‘ori Tuyako‘z vodiysining bosh darvozasidan biri hisoblansa-da, ammo bu tomondan kirdi-chiqdi kam, deyarli yo‘q desa ham bo‘lardi*<sup>58</sup>. *Tillavodiyning boshidan bu boshi tomonga borayotib, kutilmaganda boshbarmoq kattaligida tilla bo‘lagini topib oldi*<sup>59</sup>. *Shu kundan e‘tiboran Yovuzqoya nomiga ega bo‘lgan qoya yigitlarning so‘nggi va mangu makoniga aylandi*<sup>60</sup>.

Yuqoridagi kontekstlarda metafora yo‘li bilan *jonli o‘q, Qushqo‘nmas, Tuyako‘z, Tillavodiy, Yovuzqoya* leksemalarida ko‘chirish yuzaga keltirilgan. *Jonli o‘q* itni shunday nomlaganiga ko‘ra metafora bilan ma’no ko‘chgan deyishimiz bir qadar mujmal, sababi o‘qni vazifasi ham kimgadir jarohat yetkazish, joniga qasd qilishga mo‘ljallanadi, ayni itning ham Itolmasni halok qilish uchun maxsus boqilayotgani vazifalarni birlashtiradi. Shu sababli, bu ma’no ko‘chishini *vazifadoshlik asosida* ma’no ko‘chishining namunasi desak, to‘g‘ri izohlagan bo‘lamiz. *Qushqo‘nmas, Tuyako‘z, Tillavodiy, Yovuzqoya* bu ma’no ko‘chishi uchun asos shakliy va belgi o‘xshashligi hisoblanadi. Ijodkor aynan bu ko‘chma ma’nolarni qo‘llashidan ramziy maqsad ko‘zlangan.

*La‘nati Itolmas! Yaramas it! Oltin pallam*—*yigitlik davrimni xarob etdi-ya!*<sup>61</sup>. Gapida metaforik birikkan so‘z birikmasi *“oltin palla”*. Oltin so‘zining na semantik va na grammatik jihatdan davr bilan me‘yoriy matnda bog‘lana olmasligi aniq. Bu xil birikishni M.Teliya lug‘aviy-grammatik metafora orqali yuzaga chiqadi deb hisoblaydi<sup>62</sup>.

*Go‘yo o‘ziga kam qolayotgandek, zardasi qaynab*—*o‘zi nima yesa, sen manglayi qoralarga ham shuni ilinadi!*<sup>63</sup>.

<sup>55</sup> O‘sha asar. 100-bet

<sup>56</sup> O‘sha asar. 11-bet

<sup>57</sup> O‘sha asar. 43-bet

<sup>58</sup> O‘sha asar. 7-bet

<sup>59</sup> O‘sha asar. 40-bet

<sup>60</sup> O‘sha asar. 47-bet

<sup>61</sup> O‘sha asar. 52-bet

<sup>62</sup> Телия В.Н. Типы языковых значений. М. “Наука”. 1981. С11

<sup>63</sup> O‘sha asar. 44-bet

*Manglayi qora* ko‘chishini kontekstdan ajratib olsak, metafora usulida yasalganligi reallashadi, ammo kontekst ichida *manglayi qoralarga*, ya’ni manglayi qora insonlarga ma’nosini yuzaga keltirib, ma’no ko‘chishning *metonimiya* usuli qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Adib bu o‘rinda metonimiya usulini qo‘llashni afzal ko‘rgan.

**Metonimiya**— yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, qayta nomlash demakdir. Narsa va hodisalar o‘rtasida makon va zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko‘chishidan yuzaga keladi. Obyektiv borliqdagi ayrim narsa-predmetlar, belgilar, shuningdek, harakatlar o‘rtasida ma’lum umumiylik, aloqa (bog‘lanish) bo‘ladi. Ana shuning ta’sirida biror narsa, belgi yoki harakatning nomi u bilan aloqasi (umumiyli) bo‘lgan boshqa narsa, belgi, harakatni ifodalash uchun ham qo‘llanadi, unga ham nom bo‘lib ko‘chadi<sup>64</sup>.

Badiiy asar tilida har bir trop yoki ko‘chimning o‘ziga xos va mos o‘rni hamda ma’no jilosi bo‘lgani kabi, poetik nutqda, metonimiya ham estetik kategoriyalardan biri sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Poeziyada, umuman, poetik asarlarda u ifoda ta’sirchanligini oshiribgina qolmay, balki poetik asarning ruhiyatini, tabiiy olami va ohangdorligiga, ya’ni ritmiga mos ifodaning yaratilishida asosiy omil bo‘la oladi.

“Qoraquyun” asarida ma’no ko‘chishning bu turidan ham salmoqli foydalanilganligi, asarning ruhiyati va badiiyatini yana bir karra oshiradi. Quyida biz yozuvchining metonimik ma’no ko‘chish turidan qay darajada foydalanilganligini qisman izohlashga harakat qilamiz:

*It bo‘lib ovul tinchini qo‘riyman!*<sup>65</sup>. -*Kerak bo‘lsa, beshikdagi bolasigacha tig‘dan o‘tkazamiz! Ovulini yer yuzidan supurib tashlaymiz*<sup>66</sup>. —*Ovul nomusi ular uchun bir pul!*<sup>67</sup>. —*Qani, berman kel-chi, Samadvoyning tomiri!* —*dedi bu safar oqsoqollarga xos jiddiy ohangda*<sup>68</sup>. Agar bilsang, *Itolmasning itlari* meni biron ovliq yerda emas, *shundoqqina ovulim biqinidagi yong‘oqzorda bandi qilgan*<sup>69</sup>. *Shunga qaramay, Qoraqul hamisha o‘zicha masrur yuradi: “Ajal sirtmog‘i” qo‘limda! Agar istasam...*<sup>70</sup>.

Ushbu kontekstlarda *ovul tinchi*, *ovulini supurib tashlamoq*, *ovul nomusi* kabi ma’no ko‘chishidan foydalanilgan. Bu ko‘chish metonimiya asosida yuzaga keltirilgan: ovul ichidagi insonlar tinchi, ovul xalqini supurib tashlamoq, ovul insonlarining nomusi metonimik ko‘chishga aylantirilgan. *Samadvoyning tomiri* bu yerda adib Ermanni nazarda tutgan holda, metonimiyani jonlantirgan. *Itolmasning itlari*—Itolmasning xizmatchilari, *ajal sirtmog‘i*— o‘lim ma’nosini qayta nomlash orqali shakllantirilgan. Estetik ta’sirni oshiruvchi ma’no ko‘chirish usulidan adib yetarlicha, ya’ni o‘rinli foydalana olganligi o‘quvchiga salbiy ta’sirni ham ijobiy ta’sirni ham me’yorida bera olgan holda, tushunilishni soddalashtirib, bo‘yoqdorlikni oshirgan.

<sup>64</sup> O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. 1981. 223-bet

<sup>65</sup> O‘sha asar. 14-bet

<sup>66</sup> O‘sha asar. 14-bet

<sup>67</sup> O‘sha asar. 16-bet

<sup>68</sup> O‘sha asar. 21-bet

<sup>69</sup> O‘sha asar. 42-bet

<sup>70</sup> O‘sha asar.35-bet

Yuqorida metafora va metonimiyaning go‘zal namunalari guvoh bo‘ldik. Adib asarida sinekdoxa usulidan ham maqsadli foydalangan. *Sinekdoxa*— yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “birgalikda anglash yoki nazarda tutmoq, qo‘shib fahmlamoq” degan ma‘noni bildiradi. Ya‘ni bir narsaning nomi bilan uning biror qismi (bo‘lagi)ni atash yoki, aksincha, qismning nomi bilan shu qism mansub bo‘lgan butunni atashdir.

Ma‘no ko‘chishning bu turi nafaqat nutqimizda, balki adabiyotlarimizda ham keng qo‘llanilib, asar jozibasi va ta‘sir etish koeffitsientini oshiradi.

*Bundan hammaning, butun ovulning bo‘vri tutab yonayapti!*<sup>71</sup>. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *bo‘vur*—*bag‘ir, jigar; dil, ko‘ngil* ma‘nosini anglatadi<sup>72</sup>. Ushbu kontekstda bo‘vur inson a‘zosining qismi hisoblanib, qism orqali butun tushunilgan. Quyida sinekdoxa usuli bilan ma‘no ko‘chishning asardan olingan real misollar orqali tahlil qilamiz:

*Boisi, u paytda shifti past toshkulbasidagi to‘rt jonning tomog‘ini o‘ylashdan o‘zga tashvishi yo‘q edi*<sup>73</sup>. Tabiiyki, boshda zimmasiga yuklatilgan bu yuksak lavozimdan o‘zida yo‘q masrurlandi— axir kuni kechagina tosho‘choq girdida to‘rt qorako‘zning tashvishidan o‘zgasini o‘ylashni bilmagan Oqbo‘tadek kimsa sira kutilmaganda qavmboshi lavozimiga ko‘tariladi-yu, bundan quvonmay bo‘larkanmi<sup>74</sup>. O‘sha kuni oqshom oldi *Erman jigarining* holidan birrov xabar olgani kelsa, *Qalaybek* hanuz o‘g‘irlab ketilgan tulpori g‘ami va hajrida...<sup>75</sup>. Bu borada suhbatdosh tanlab o‘tirmas, *bekorchi quloq* bo‘lsa bas—hali tog‘dan- hali bog‘dan kelib, vaysagani vaysagan edi<sup>76</sup>.

Kontekstda *to‘rt jonning tomog‘i*— tomoq inson a‘zosi, ya‘ni qism orqali butun tushunilib, to‘rt farzand ma‘nosini; *to‘rt qorako‘z*— bu yerda ham ko‘z inson a‘zosi va shu a‘zodan butunlik—farzand ma‘nosini; *Erman jigarining*— aka ma‘nosini; *bekorchi quloq*— quloq inson a‘zosi, butunlikda esa inson leksemasi ma‘nosini bo‘yoqdor qilishda adib sinekdoxa usulidan unumli va o‘rinli foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, so‘z ma‘nosining ko‘chish usullari ma‘no nozikliklari bilan bir-biriga o‘xshaydi, lekin ular bitta narsa emas. Ya‘ni metafora keng ma‘noda narsalar orasidagi o‘xshashlikka, metonimiya obyektiv bog‘liqlikka asoslansa, sinekdoxa butun qism munosabati asosidagi ko‘chishni, vazifadoshlik esa ana shu nom ifodalagan predmetning vazifalari jihatdan bir xil, material jihatidan turlicha bo‘lgan narsalar o‘rtasidagi ko‘chishni anglatadi. Bu usullarning barchasi tilda keng qo‘llaniladi hamda so‘zlovchining lisoniy mahoratini, nutqiy ta‘sirchanlikni, emotsionallikni oshirishga, fikrni ixcham, lo‘nda va aniq tushunilishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Normurod Norqobilov ma‘no ko‘chishning faqat bitta usuli bilan cheklanib qolmay, barchasini matn semasidan kelib chiqib maqbullarini qo‘llagan. Bu ijodkorning ko‘chma ma‘no unsurlarini qo‘llashdagi individuallik

<sup>71</sup> O‘sha asar. 9-bet

<sup>72</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati I tom. O‘zbekiston nashriyoti. 2020. 293-bet

<sup>73</sup> O‘sha asar. 11-bet

<sup>74</sup> O‘sha asar. 11-bet

<sup>75</sup> O‘sha asar. 27-bet

<sup>76</sup> O‘sha asar. 31-bet

xususiyatidandir. Asar bu unsurlar orqali tushunchasi ixcham, lo‘nda, nutqiy ta’sirchanlik va emotsionalligi yuqori, eng muhimi tushunilishi sodda va ravonlikka ega bo‘lgan.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Normurod Norqobilov. “Qoraquyun”. Toshkent, O‘zbekiston. 2016. (quyida “o‘sha asar” nomi bilan keladi)
2. Mamadaliyeva M. A. O‘zbek tilida nominative birliklarning konnotativ aspekti. Filol.fan.nom.disser.avtoreferati. T: 1998.
3. Mahmudov N, Odilov Y. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. T: Akademya nashr. 2014.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati I tom. O‘zbekiston nashriyoti. 2020.
5. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. 1981.
6. Глюменс. К М. Образное употребление названий животных в сравнениях и метафорах//Труды СамГУ .Самарканд 1971.
7. Телия В .Н. Типы языковых значений. М. “Наука”. 1981.

**G‘ARBIY YEVROPA VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA MA’RIFATCHILIK  
ADABIYOTINING MUSHTARAK NAZARIY MUAMMOLARI**

**Yozdonqulova Ozoda Zokirjon qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institut

2-bosqich magistranti

[o.yozdonqulova@dtpi.uz](mailto:o.yozdonqulova@dtpi.uz)

<https://orcid.org/0009-0000-7082-0248>

**Annotatsiya:** Jahon adabiyotshunosligi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi ma’rifatchilik harakati jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu ulug‘vor maqsad bilan bog‘liq holda adabiy-estetik muammolarni ma’rifatchilik kontekstida o‘rganish va anglash zarurati filologiya sohasida ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Istiqloq davrida o‘zbek jadid adabiyoti va uning xorijiy manbalariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, jadid ma’rifatchilik adabiyotini G‘arbiy Yevropa ma’rifatchiligi manbalari bilan qiyosiy aspektda o‘rganish milliy adabiyotshunosligimizda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ana shu ilmiy va adabiy ehtiyojdan kelib chiqib, o‘zbek ma’rifatchiligini adabiyotini jahon ma’rifatchiligi bilan qiyosiy-tipologik o‘rganish, unda ijodkor shaxsi va jamiyat taraqqiyoti qonunlariga munosabat, ijtimoiy-axloqiy islohotlar va evrilishlarning badiiy adabiyotdagi in’ikosi kabi muammolarni tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

**Аннотация:** Мировое литературоведение конца 19 - начала 20 веков, просветительское движение в Туркестане преследует цель вывести общество на новый этап развития. В связи с этой благородной целью необходимость изучения и осмысления литературных и эстетических проблем в контексте просвещения ставит на повестку дня серьезные вопросы в области филологии. В период независимости создаются возможности для проведения научных

исследований современной узбекской литературы и ее зарубежных источников. В частности, на новый уровень в нашем отечественном литературоведении поднимается изучение литературы современного просветительства в сравнительном аспекте с источниками западноевропейского просвещения. На основе этой научной и литературной потребности проведено сравнительно-типологическое исследование литературы узбекского Просвещения с мировой Просвещением, в котором рассматриваются такие проблемы, как личность творца и отношение к законам общественного развития, отражение социально-Этические реформы и эволюция исследований художественной литературы становятся одной из актуальных проблем современного литературоведения.

**Annotation:** World Literary Studies the Enlightenment movement in Turkestan in the late 19th – early 20th centuries aims to bring society to a new stage of development. The need to study and understand literary-aesthetic problems in the context of enlightenment in connection with this grandiose goal also puts serious issues on the agenda in the field of philology. In the Istiqlal period, opportunities are being created to conduct scientific research on Uzbek jadid literature and its foreign sources. In particular, the study of Jadid enlightenment literature in the comparative aspect with the sources of Western European Enlightenment is reaching a new level in our National Literary Studies. Based on this scientific and literary need, the comparative-typological study of the literature of the Uzbek enlightenment with the world enlightenment, the treatment of the creative personality and the laws of the development of society in it, the study of such problems as socio-moral reforms and the perception of evrilish in fiction are becoming one of the pressing issues of today's.

**Kalit so‘zlar:** *antifeodal, kolonial siyosat, ma’rifatchilik adabiyoti, g‘oyaviy-mafkuraviy harakat.*

**Ключевые слова:** *антифеодальная, колониальная политика, литература просвещения, идейно-идеологическое движение.*

**Keywords:** *antifeodal, colonial politics, literature of extravagance, ideological-ideological movemen.*

XVIII asrda Yevropada taraqqiyparvar kuchlarning o‘rta asrchilik tartiblariga qarshi kurashi siyosiy tus ola boshlagani kabi adabiyotda ham bu kurash jangovar ma’rifatchilik ruhini ola boshladi. Yevropa, ilg‘or kuchlarining siyosiy kurashlari, asosan, antifeodal xarakterda bo‘lgani uchun XVIII asr adabiyoti ham, asosan, antifeodal yoki ma’rifatchilik ruhida edi. “Ma’rifat” so‘zi keng ma’noda xalqni bilimli, ma’rifatli qilish ma’nosida qo‘llansa, tor ma’noda burjuaziyaning feodalizmga qarshi kurashi avj olgan davrdagi aqliy harakatini ifoda etadi. Ma’rifatchilik adabiyoti feodal asoslarga qarshi o‘laroq maydonga chiqib, XVII–XVIII asrlarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada keng yoyilgan g‘oyaviy-mafkuraviy harakat; shu harakat g‘oyalarini o‘ziga singdirgan, targ‘ib etgan adabiyot Yevropaning turli mamlakatlarida ma’rifatchilikning maydonga kelishi vaqt jihatidan farqlanadi. U dastlab Angliyada yuzaga kelgan bo‘lsa, ijtimoiy shart-sharoitlarning yetilishi barobarida qit‘aning boshqa mamlakatlariga yoyilgan va ularning har birida konkret shart-sharoitlar bilan bog‘liq tarzda kechgan. Jumladan, Rossiyada ma’rifatparvarlik ancha kech XVIII asrning ikkinchi yarmida maydonga

chiqqan bo‘lib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida qator sharq mamlakatlari, jumladan, Rossiya tarkibidagi turkiy xalqlar yashovchi mintaqalar (Qrim, Tatariston, Ozarbayjon, Turkiston)da kuzatilgan ma‘rifatchilik harakatlari ham G‘arbiy Yevropa ma‘rifatchiligi bilan ko‘plab mushtarak jihatlarga egadir<sup>77</sup>.

Ma‘rifatchilar uchun aql-idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatiga, odamiylik fazilatlariga yuqori baho berganlar. Yevropa XVIII asr ma‘rifatchilarining aksariyati “ma‘rifatli hukmdor” g‘oyasini ilgari surgan edilar. Fransuz ma‘rifatchisi Golbax “Tabiat tizimi” va “Tabiiy siyosat” kabi asarlarida Fransiya erishishi mumkin bo‘lgan siyosiy tizim sifatida konstitutsiyaviy monarxiya haqida fikr yuritib, uning boshida ma‘rifatli hukmdor turishi lozimligini ta‘kidlaydi. “Taqdir taqozosi bilan taxtga ma‘rifatli, adolatli, mard, xushaxloq hukmdorlar o‘tirishlari mumkin va ular inson boshiga yog‘ilgan balolarning asl sababini bilib, aql ko‘rsatmalari bo‘yicha bartaraf etishga harakat qiladilar”<sup>78</sup>.

O‘zbek jadid adiblari ham siyosatda mashrutiyat (konstitutsiya) talabi bilan chiqib, xuddi Turkiyadagi “Yosh turklar”, Erondagi “yosh eronlilar” harakatlari kabi Turkistonda ham “Yosh buxorolilar”, “Yosh xivalilar” kabi siyosiy partiyalar tuzdilar va uning bosh dasturi sifatida konstitutsion monarxiyani asos qilib oldilar.

Fransuz adabiyotida Volter (“Kandid yoki optimizm”), Monteske (“Fors taronalari”), D.Didro (“Rohiba”); ingliz adabiyotida J.Svift (“Gulliverning sayohatlari”); nemis adabiyotida Gyote (“Faust”, “Ges fon Berlixingen”) va boshqa yozuvchilar ma‘rifatni tug‘ilib kelayotgan yangi sinfnig g‘oyaviy kurash quroli deb bildilar. Adabiy hayotdagi bu jiddiy o‘zgarishlar, o‘z navbatida, ozodlik sari intilayotgan Markaziy va Kichik Osiyo xalqlarida ham o‘z aksini topa boshladi. Behbudiy va Ibrat, Fitrat va Cho‘lpon asarlarida ma‘rifat g‘oyasi xoh ochiq publitsistik tarzda bo‘lsin, xoh badiiy obrazlar vositasida bo‘lsin kun tartibiga chiqdi. M.Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” dramasidan boshlangan teatrlik harakati, Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti” kabi asarlaridagi xalqning buyuk istagini to‘sayotgan “tojdor hukmdor” (Fitrat iborasi) va erk istagida yurgan xalqqa murojaat jadid adiblarini ruhlantirib yubordi. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” asari qahramonlari tilidan aytgan “Mozoristonda “Hayya a‘lal falah” (“najotga kelinglar”) xitobini kim ham eshitardi” kabi kinoyaviy so‘zlari orqali g‘aflat uyqusida yotgan xalqni uyg‘otish sari harakat qilingani natijasidir<sup>79</sup>.

Abdulhamid Cho‘lpon dastlab, “*O‘zbekim kelasan bir tanga topgan gadoyday iljayib, mallalar og‘zingga bir tepdi, ma‘rifat haromdir sartga deb*” she‘riy satrlarini yaratgan bo‘lsa, oradan ko‘p o‘tmay, “*Xalq istagi ozod bo‘lsin bu o‘lka, Ketsin uning boshindagi ko‘lanka*” deya ochiq siyosiy talablar bilan chiqishni badiiy adabiyotning zimmasiga yukladi.

G‘arb ma‘rifatchilari “Tabiiy inson” haqidagi konsepsiyani ilgari surib, ularning fikricha, inson tabiatan go‘zal va yaxshi xulqli, uni faqatgina hayot, yashash sharoiti buzadi. Ingliz faylasufi Jon Lokk falsafasi ma‘rifatchilarga katta ta‘sir o‘tkazadi.

<sup>77</sup> Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 164.

<sup>78</sup> Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Barkamol fayz mediya, 2017. – B.141.

<sup>79</sup> Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – Б. 121.

Uning “Inson aqli haqida tajriba” (1690) kitobida keltirishicha, inson olayotgan barcha bilimlar aql idrok orqali yuzaga keladi. Jamiyat hayotida katta o‘zgarishlar ketayotgan davrda esa, ma’lumki, yangicha fikrlaydigan kishilarni tarbiyalash masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. Shu bois Yevropa ma’rifatchilari ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Jon Lokkning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari (“Aql borasidagi tajriba”) XVIII asr ma’rifatchilarining inson va uning tarbiyasi haqidagi fikrlariga jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan J.J.Russoning “Emil yoki tarbiya” singari asari ham mana shu davrda maydonga keldi.

G‘arbiy Yevropa ma’rifatchilik adabiyoti manbalarda uch bosqichga bo‘lib talqin qilinadi:

1. Jurnalistikaning rivoji, yangi dramatik janrlarning paydo bo‘lishi davri (1668–1730 y.).

2. Ma’rifatchilik ruhidagi romanlarning paydo bo‘lishi va gullab-yashnashi davri (1730–1750 y.).

3. Ma’rifatchilik mafkurasida tushkunlik alomatlarining paydo bo‘lishi, sentementalizm va predromantizmining vujudga kelish davri (1750–1790 y.)<sup>80</sup>.

XVIII asrda Angliya iqtisodida yuksalish boshlanadi. Buning natijasi o‘laroq adabiyot va san’at taraqqiy etdi. Endi Angliya agrar mamlakatdan sanoati tez rivojlanayotgan kapitalistik mamlakatga aylanadi. Yirik sanoat markazlari paydo bo‘lib, shahar aholisi ko‘payadi. Sanoatchilarning boyishi xalq ommasining qashshoqlanishiga olib keladi.

Angliya Irlandiya va Shotlandiyadan tashqari, Hindiston, Shimoliy Amerika, Vest-Indiya orollarini bo‘ysundiradi. Angliya hukmron doiralarning bosqinchilik urushlari va kolonial siyosati o‘sha davr adabiyotida, Swift va Sheridan ijodida keskin hajv ostiga olinadi. Hamma yerda bo‘lgani kabi Angliyada ham ma’rifatchilik mafkurasining keskin ziddiyatlari ko‘zga tashlanib turar edi. Bu ziddiyat ma’rifatparvarlar olg‘a surgan jamiyatning garmonik rivojlanishi haqidagi g‘oyasi bilan burjua voqe‘ligining amaldagi shart-sharoitlari o‘rtasidagi nomunosiblikda ko‘rinadi. Ana shu tufayli Angliya ma’rifatchilik mafkurasining falsafiy asoslari ham ziddiyatli edi. Bu ziddiyat ingliz faylasuflari va olimlari Tomas Gobbs (1588–1679), Sheftsberi (1671–1713), Bernard Mandevil (1670–1733) kabilarning ijodida ham o‘z aksini topgan. Har bir mamlakatning ma’rifatchilik adabiyoti haqida gap borganda, o‘sha mamlakatning milliy-tarixiy sharoiti, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini nazardan qochirmaslik kerak. Chunki inqilobiy harakatlar tarixiy sharoitga qarab turlicha bo‘lgan. Angliya ma’rifatchiligining atoqli namoyandalaridan biri Daniel Defo (1660–1731) bo‘lib, u savdo-sotiq ishi bilan shug‘ullangani holda mamlakat hayotida yuz berayotgan voqealarga ham aralashadi. Ko‘p sonli maqola va pamfletlarida feodal-aristokrat cherkov reaksiyasini fosh qiladi. Burjua-parlament tartiblarini yoqlab chiqadi. Defoning adabiy-ma’rifiy faoliyati nihoyatda keng va rang-barang. Uning bir talay maqola va pamfletlaridan tashqari, iqtisod, tarix, pedagogika,

<sup>80</sup> Бондарев А.П. Пособие по истории французской литературы. Эпохи просвещения и романтизма. – М., 1982. – С.19-21.

statistika, geografiya, falsafa, tibbiyotga bag‘ishlangan ko‘plab asarlari bor. Defo buyuk kashfiyotlar davrida yashagani kabi unga shuhrat keltirgan asari “Robinzon Kruzo” romani shunday bir davrda, Angliyada paydo bo‘lishi ajablanarli emas. Chunki Buyuk Britaniya har tomondan dengiz va okeanlar bilan o‘ralgan xilma-xil sarguzashtlar, ajoyib va g‘aroyib hodisalarga juda boy mamlakat ediki, bular Defoning asarlari uchun yaxshi material bergan. Bundan tashqari, Defo dengizchilar, sayyohlar hayotiga oid ko‘plab kitoblar bilan ham tanishib chiqqan. Bunday hodisalar “Robinzon Kruzo” romanining yaratilishi uchun turtki bo‘lgan bo‘lsa-da, Defoning kitobi mutlaqo original asar hisoblanadi<sup>81</sup>. Agar Defoning ijodiga ta’sir qilgan Aleksandr Selkirk (shotlandiyalik matros) jonli odam, kimsasiz orolda to‘rt yildan ortiqroq vaqt ichida yovvoyilashib ketgan bo‘lsa, Defoning fantaziyasi bilan yaratilgan qahramon Robinzon Kruzo kimsasiz orolda 28 yil yashadi va bani odamga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni o‘zida to‘la saqlab qoladi. “Robinzon Kruzo” romanining asosiy qismi yolg‘iz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olishuviga bag‘ishlangan. Bu kurashda qahramon g‘alaba qozonadi, yovvoyi orolni inson yashaydigan ajoyib makonga aylantiradi. U og‘ir sharoitda faqat o‘z kuchi, aqli va irodasiga tayanib ish ko‘radi.<sup>82</sup>

Yozuvchi buning bilan go‘yo inson kishilar jamiyatidan ajralgan holda ham yashay olishi mumkin, degan XVIII asr falsafasiga xos qarashni isbotlamoqchi bo‘ladi. Romanda XVIII asr kishilarining qarashlariga muvofiq “Tabiiy odam” tushunchasi o‘rtaga tashlanadi. Yozuvchi Robinzonni tabiiy odam sifatida tanlab olib, uning ibtidoiy holatidan to burjuaziya madaniyatiga qadar bosib o‘tgan yo‘lini tasvirlaydi. Bu bilan insondagi “tabiiy odam” xususiyatlari hamma vaqt o‘zgarmasdan qoladi, degan xulosaga keladi. Defo adabiyotda birinchilardan bo‘lib yaratuvchanlik mehnati mavzusini ko‘tardi. Bu mehnat Robinzonning odam bo‘lib qolishiga yordam berdi.

D. Defo hamda J. Svift asarlaridagi (Robinzon hamda Guliver) romantik qahramonning tirik namoyandasi bo‘lib, hozirgacha amalga oshmagan utopiyaning **tabiiy inson** sifatidagi ramzi bo‘lib qoldi<sup>83</sup>.

Ingliz ma’rifatparvarlik adabiyotning boshqa bir namoyandasi Semyuel Richardsonning “Pamela yoki taqdirlangan fazilat” asari qahramoni kambag‘al dehqon qizi Pamela boy ayol B.xonimning uyida xizmat qiladi. Xonadon egasi o‘lgach, uning o‘g‘li janob B. Pamelani ta’qib ostiga oladi. U qizni qo‘rqitib, aldab, boyliklar hadya etib, unga ega bo‘lib chiqmoqchi bo‘ladi. Ammo sofdil qiz uning tuzog‘iga ilinmaydi. Pamelaning bukilmis irodasini ko‘rgan janob B. o‘zining buzuq niyatlaridan qaytib, saxovatli kishiga aylanadi va qizga uylanadi. Richardson romanidagi yangilik shundan iboratki, xalqdan chiqqan oddiy qiz asar qahramoni qilib olinish bilan birga romanda olijanob fazilatlar egasi bo‘lgan mehnatkash qiz buzuq, axloqsiz dvoryan vakili B.ga ta’sir etib, uning ma’rifatli dvoryanga aylantiradi. Pamelaning boshdan kechirgan qismati uning onasiga yozgan xatlarida

<sup>81</sup> Defo.D.Robinzon Kruzo. Toshkent. Yangi asr avlodi.2015.

<sup>82</sup> Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 7.

<sup>83</sup> Елистратова А.А. Английский роман эпохи Просвещения. – Москва: Наука, 1966.

bayon etiladi. Bu xatlar orqali Richardson o‘z qahramonining ichki olamini yoritib beradi. Asarni o‘sha davr Yevropa kitobxonlari zo‘r qiziqish bilan o‘qiydi.

Mazkur nikohni qiz o‘zi uchun katta baxt deb biladi. Yozuvchi janob B.ning qizga uylanishini, yuqorida qayd etilganday u janobning kambag‘al qizga nisbatan qilgan ezgu saxovati, deb qaraydi. Richardson mavjud tuzumni qoralamaydi, unga qarshi kurashga chaqirmaydi, aksincha, zodagonlar bilan oddiy kishilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va tafovutlarni axloqiy jihatdan tarbiyalab tuzatish mumkin, deb hisoblaydi. Richardson romanida mavjud ijtimoiy tuzumning qorong‘i, adolatsiz tomonlari ochib berilsa-da, lekin bizning fikrimizcha asarda o‘sha tuzumni tanqid qilish nihoyasiga yetkazilmaydi.

Muallif fikricha, xizmatkorlar o‘z ahvolining og‘irligiga norozilik bildirmasliklari, aksincha, xo‘jayinlaridan rahm-shafqat tilab, toat-ibodat qilishlari kerak. Pamela singari ming-minglab xo‘jayinlar eshigida ishlab, qaddi bukilgan ayollarga Richardson barqaror fazilat egasi bo‘lishni maslahat beradi. Yozuvchi bu oddiy mehnatkash ayollarning ochlik, qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlik tufayli fojiali ahvolga tushib qolayotgani sababiyatini tan olmaydi.

G‘arbiy Yevropa adabiyotidagi ma‘rifiy qarashlar o‘zbek jadid adabiyotida ham milliy qahramonlar ko‘rinishida bo‘y ko‘rsata boshladi. Mavjud ijtimoiy tengsizlikka asoslangan hayotni aks ettirgan qator asarlarda, masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi o‘zining yoshligi (15 yosh), soddaligi, beg‘uborligi, betakror iste‘dod sohibasi sifatida hayotni shundayligicha qabul qilish tushunchasiga ko‘ra, xuddi Richardson orzusidagi qahramondek tuyulsa-da, Cho‘lpon qahramonida qat‘iyatlilik, kurashchanlik yetishmaydi.

Adabiyotshunos olimasi Sevara Usmonova o‘z tadqiqot ishida Pamelani aqli hayoli madaniyatli xislatlarga ega qiz bo‘lgani uchun u janob B. (bo‘lg‘usi turmush o‘rtog‘i) tomonidan munosib taqdirlangani, ya‘ni u oddiy oiladan chiqqan bo‘lsa-da unga janob B. uylanishga rozi ekanligini ta‘kidlab, Pamelani ibratga loyiq deb ta‘riflaydi. Lekinda olimasi Pamelaning ijobiy xislatlarini bir umr buzuq, hayosiz hayot kechirib kelgan janob B. ning yaxshi tomonga o‘zgartirganligini, yozuvchi S.Richardsonning jamiyatdagi katta ma‘rifiy yutug‘i deb biladi.<sup>84</sup>

Olimasi o‘z baxti uchun kurashgan qiz Ra‘noni (A.Qodiriy) Yevropa ayollariga moyillikda, Zebini esa (Cho‘lpon) o‘ta mute‘likda ayblaydi. Bizning nazarimizda jadidlar millat ayollarini bilimli voyaga yetkazish bilangina millatni qayta tiklash mumkinligiga ishonishgan va islohotlarga chuqur ma‘no berishgan.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi Ra‘no o‘zining chuqur mulohazakorligi, samimiyatligi, Hamza Hakimzodaning Maysara, Jamila, Maryamxon kabi qahramonlari hayot jabhalarida o‘z o‘rniga ega, olijanob, qasoskor, ilmsevar, irodali shaxslar bo‘lib, o‘zbek ma‘rifatchilik davri adabiyotining eng sara, barkamol obrazlaridir. Bizningcha, o‘zbek adiblari yaratgan milliy qahramon qiyofasida Yevropa ma‘rifatchilik adabiyoti bilan ko‘p jihatdan umumiylik bor. Bu

<sup>84</sup> Усмонова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири. Ф.ф. бўйича фалсафа докт.Дисс.2021. 41-42-б.

umumiylikning xotin-qizlar qiyofasida namoyon bo‘lishini Qodiriy va Cho‘lpon qahramonlari orqali kuzatganda ham ma’rifatchilik adabiyotining natijasi o‘laroq fikr yuritish mumkin. Agar Richardson qahramoni Pamela o‘zining latofati, bilimi va kuchli xarakteri bilan janob B.ning e’tiborini tortgan bo‘lsa, Qodiriy va Cho‘lpon qahramonlari cheklangan, biqiq sharoitda boshqa erkaklar bilan uchrasha olmas edilar. Shunday bo‘lsalar-da, ular zamonasining podshohu yirik boylari kabi kishilarining e’tiborini tortadi, ular taqdirining evrilishida muayyan rol o‘ynaydi. Biroq bu qahramon qizlar o‘z ma’rifati tufayli bu kabi kishilardan yuksak turadi, ularga o‘zlarining ma’naviy jihatdan ustun ekanligini anglatadi. Bu holat Qodiriy qahramoni Ra’no qismatida alohida bir ma’rifiy yuksaklik tarzida kechgan bo‘lsa, Cho‘lpon o‘z romanida mute’ qahramon Zebining qismati orqali u agar yetarli darajada ma’rifat sohibasi bo‘lganida edi, o‘z taqdirini o‘zgartira olardi, mazmunidagi mantiq yotadi.

Richardsonning Kandidi kabi “Farog‘at o‘lkasi” qahramoni toshkentlik Mullo Abbos siymosi tafsiloti, maroqli va nozik suratda ishlanganligini qayd etmoq kerak. Muallif uni tasvirlashda bosh qahramonga xos bo‘lgan bir qator tabiiy chizgilar orqali uni turli holatga solib, ziyoli insonga xos xarakterli nuqtalarini yanada oydinlashtirib beradi. Yana shuni qayd etmoq kerakki, Mullo Abbos islom dini tarixini o‘rganib, uni dunyoviy ilm bilan mustahkamlaydi, jamiyat taraqqiyotini diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligida ko‘radi.

I.Gaspirinskiyning “Doru-r-rohat musulmonlari” asari o‘zining mazmun-mohiyati bilan XX asr boshlarida rivoj topgan jadidchilik harakatining tub negizini ochib beradi. Ma’rifatparvarlarning diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni egallashga chaqiriqlari ushbu asarning asosiy g‘oyasini tashkil etish bilan bir qatorda turli hayotiy voqea, ichki kechinma xayoliy tasavvurlar orqali ushbu chaqiriqni yanada yorqinroq aks ettiradi. Mulla Abbos siymosida johillik bilan ilm, ma’rifat bilan jaholat kurashi va bu kurashda aqlning g‘olib kelishini ko‘rish mumkin”<sup>85</sup>.

Darhaqiqat, dunyo xalqlari tafakkur inqilobini qiyosiy manzarasi shu kungacha bo‘lgan yozuvchi, olimlarning utopiyasi-farazlari qachonki, o‘zga insoniyat jamiyati mavjud sayyorasi bilan topishuv-tanishuvida sodir bo‘ladi?!

Yevropa ma’rifatchiligida Lessajning “Tyurkare”, Volterning “Edip”, Monteskyoning “Qonunlar ruhi”, Mablining “Evropada ommaviy huquq”, Russoning “Fan va san’at to‘g‘risida mulohazalari”, Didro bilan D’Alambening “Ensiklopediya”ni nashr etishga kirishishlari ma’rifatchilik harakatining amaliy natijalar berayotganini anglatar edi. Unutmaslik lozimki, Yevropa ma’rifatchiligi adabiy yo‘nalish emas, balki adabiyot va san’atda o‘zining to‘liq va har tomonlama ifodasini topgan, falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konsepsiyadir. Shuning uchun XVIII asr adabiyoti bevosita falsafa bilan bog‘liq edi. D.Didro boshchiligida tuzilgan Ensiklopediyada “baxt to‘g‘risidagi ilm” deb talqin etilgan falsafa, undagi inson va jamiyat haqidagi yangicha qarashlar tizimi, avvalambor, adabiyotda o‘z ifodasini topdi. Ma’rifatchilik g‘oyalari badiiy adabiyotga singdirildi va XVIII asr milliy adabiyotlar rivojidadagi alohida bosqichni tashkil etdi.

<sup>85</sup> Абдурашидов З. Кириш сўзи / И.Гаспиринский. Фароғат ўлкаси. – Тошкент: Мухаррир, 2013. – Б.9.

**Adabiyotlar ro‘uxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – Б. 121.
2. Абдурашидов З. Кириш сўзи / И.Гаспиринский. Фароғат ўлкаси. Тошкент: Муҳаррир, 2013. – Б.9.
3. Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 7.
4. Бондарев А.П. Пособие по истории французской литературы. Эпохи просвещения и романтизма. – М., 1982. – С.19-21.
5. Елистратова А.А. Английский роман эпохи Просвещения. – Москва: Наука, 1966.
6. Усмонова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири. Ф.ф. бўйича фалсафа докт.Дисс.2021. 41-42- б.
7. Қуроноф Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 164.
8. Defo.D.Robinson Kruzo. Toshkent. Yangi asr avlodi.2015.
9. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Barkamol fayz mediya, 2017. – B.141

**XURSHID DO‘STMUHAMMAD ASARLARIDA NOREALISTIK  
UNSURLAR**

*Fatullayeva Nilufar Oqiljon qizi*

Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti,  
magistratura bo‘limi O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi  
1-kurs magistranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida norealistik unsurlar badiiy konsepsiyani shakllantirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Adibning asarlarida xayol, tush va mistik hodisalar orqali inson ruhiyati va ichki kechinmalarining chuqur tasviri berilgan. Norealizm usullari muallifga voqelikni odatdagi chegaralardan tashqarida ifodalash, murakkab falsafiy va ijtimoiy masalalarni ramzlar orqali yoritish imkonini beradi. Vaqt va makonning nisbiy talqini, real va xayoliy olamlarning tutashuvi adib ijodida badiiy konsepsiyaning markaziy elementlariga aylanadi. Ushbu maqolada norealistik usullar vositasida ijodkorning inson va jamiyat haqidagi qarashlari qanday ifoda etilgani yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** norealistik unsurlar, xayol, tush, mistik hodisalar, ramziy obrazlar, fantastik elementlar.*

***Annotation.** This article analyzes the use of non-realistic elements as a means of shaping the artistic concept in the works of Khurshid Do‘stmuhammad. The author’s works provide a deep portrayal of the human psyche and inner experiences through imagination, dreams, and mystical phenomena. Non-realistic techniques enable the writer to express reality beyond conventional boundaries and address complex philosophical and social issues through symbols. The relative interpretation*

*of time and space, along with the fusion of real and imaginary worlds, becomes a central element of the artistic concept in the author's work. This article explores how the writer's views on humanity and society are conveyed through non-realistic methods.*

**Keywords:** *non-realistic elements, fantasy, dream, mystical phenomena, symbolic images, fantastic elements.*

## **KIRISH**

O‘zbek adabiyotida badiiy konsepsiyani yangicha usullarda ifodalashga intilgan ijodkorlar orasida Xurshid Do‘stmuhammad alohida e‘tiborga loyiq. Adibning o‘zi e‘tirof etganidek: “Uslub o‘zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo‘sinlari o‘zgarmasa, shu yo‘lda turli tajribalarga qo‘l urmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda, loqal o‘z ijodida ham biror bir yangilik yaratishi amrimahol”.<sup>86</sup> Uning asarlarida norealistik unsurlar – xayol, tush, mistik hodisalar va ramziy obrazlar – badiiy g‘oyalarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Norealizm nafaqat syujetni qiziqarli qilish, balki murakkab ma‘naviy va falsafiy masalalarni o‘quvchiga yetkazishning vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida norealistik unsurlar qanday qo‘llanilgani va ular badiiy konsepsiyani shakllantirishda qanday rol o‘ynashi tahlil qilinadi.

### **Norealistik unsurlar va ularning badiiy konsepsiyadagi ahamiyati**

Norealistik unsurlar asarda voqelikni o‘zgartirilgan, xayoliy shaklda tasvirlab, haqiqatni boshqa burchakdan ko‘rsatadi. Surreal, fantastik va mistik elementlar asarga estetik boylik bag‘ishlab, inson ruhiyati va ichki kechinmalarini ifodalashga yordam beradi. Norealizm orqali ijodkor o‘quvchini hodisalarning odatdagi oqimidan chiqarib, uni ramzlar va allegoriyalar orqali voqelikni yangicha talqin qilishga undaydi.

Xurshid Do‘stmuhammad o‘z asarlarida norealistik unsurlarni nafaqat syujet bezagi sifatida, balki insoniy iztirob, qiyinchilik va ijtimoiy ziddiyatlarni chuqur anglash vositasi sifatida qo‘llaydi. Uning qahramonlari ko‘pincha real hayot va xayol o‘rtasida bo‘linib qolgan murakkab holatlarni boshdan kechiradi, bu esa asarning g‘oyaviy mazmunini yanada kuchaytiradi.

### **Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida norealistik unsurlar**

Adibning ayrim hikoyalari va qissalarida tush va xayol sahnalari orqali voqealarning rivoji yoki qahramonlarning ichki olami ochiladi. Masalan, uning hikoyalarida qahramonlarning anglash qiyin bo‘lgan ruhiy kechinmalari norealistik usullar bilan tasvirlanadi. Bu usul qahramonning o‘zi ham tushunib yetmagan hissiyotlarini ifoda etishga imkon yaratadi.

Adibning ayrim asarlarida tush ko‘rish va tush orqali tushuncha olish markaziy o‘rinni egallaydi. Bu tush elementlari real va noreal olamlarning o‘zaro tutashib ketishini ko‘rsatib, inson hayotidagi murakkablik va qiyinchiliklarni ochib beradi.

---

<sup>86</sup> Do‘stmuhammad. X. Saylanma asarlar. –T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2020. 234-bet

Ushbu usul, ayniqsa, inson hayoti va taqdirining ma’nosini izlash bilan bog‘liq falsafiy masalalarni o‘rganishda dolzarbdir.

### **Norealistik unsurlar vositasida badiiy muammolarni yoritish**

Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida norealizmning asosiy vazifalaridan biri – jamiyat va inson haqidagi chuqur falsafiy masalalarni o‘rtaga tashlashdir.<sup>87</sup> Masalan, real voqelikda ifodalab bo‘lmaydigan iztirob va qiyinchiliklar qahramonning tushlari, xayollari yoki ramziy voqealar orqali ochiladi. Bu usul o‘quvchiga voqelikning ko‘rinmas tomonlarini tushunish imkoniyatini beradi.

Yana bir muhim jihat – muallifning norealistik unsurlar orqali vaqt va makon tushunchasini nisbiylashtirishidir. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida voqealar ko‘pincha turli vaqt va makon oralig‘ida yuz beradi, bu esa inson hayotidagi davomiylik va vaqtning subyektiv kechishini aks ettiradi. Shu orqali muallif inson hayotining boy ma’naviy mazmunini ochib beradi.<sup>88</sup>

### **Badiiy konsepsiya va ijodiy tajribaning tutashuvi**

Xurshid Do‘stmuhammad norealistik usullar orqali adabiy ijodda an’anaviy va modern yondashuvlarni birlashtirishga erishadi. Uning asarlarida qahramonlarning ichki olami va tashqi voqealar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xayol va voqelik chegarasi yo‘qoladi. Bu usul nafaqat asar syujetini murakkablashtiradi, balki o‘quvchini falsafiy mulohaza qilishga undaydi.

### **XULOSA**

Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida norealistik unsurlar badiiy konsepsiyani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular asarning estetik ifodasini boyitib, inson va jamiyat haqidagi murakkab masalalarni chuqurroq yoritishga yordam beradi. Adibning xayoliy va tush motivlariga asoslangan asarlari o‘quvchiga voqelikning boshqa qirralarini ko‘rsatib, adabiyotni yangi badiiy imkoniyatlar bilan boyitadi. Shu tariqa, norealizm vositasida Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida hayotning ko‘rinmas jihatlari va inson ruhiyatining murakkabligi mahorat bilan ochib beriladi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Абдурахмонов. Х. Бадийий ҳикоя ва ҳужжатлилиқнинг қўшилиши. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, 2018. 234 б.
2. Аҳмаджонов. А. Замонавий ўзбек адабиётида фантазия ва реаллиқнинг уйғунлиги. –Тошкент: “Мумтоз адабиёт”, 2019. 305 б.
3. Do‘stmuhammad. X. Saylanma asarlar. –Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2020. 287 b.
4. Қодиров. А. (2021). “Мифологик ва реаллиқ ўртасидаги бадийий чизмалар: Хуршид До‘стмухаммад ижоди”. –Тошкент: “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, №3, 2021. 180 б.
5. Назаров. У. Модернизм ва постмодернизм тушунчалари адабиётда. – Тошкент: “Адабиёт университети нашри”, 2022. 300 б.

<sup>87</sup> Қодиров, А. “Мифологик ва реаллиқ ўртасидаги бадийий чизмалар: Хуршид До‘стмухаммад ижоди”. –Т.: “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, №3, 2021.45-52-бет

<sup>88</sup> Назаров, У. Модернизм ва постмодернизм тушунчалари адабиётда. –Т.: “Адабиёт университети нашри”, 2022. 167-бет

6. Хайруллаева. Ш. Адабиётда ирреаллик ва унинг таъсир воситалари. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2017. 230 б.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI SHAKILLANTIRISHDA MULTFILM MATNLARINING AHAMIYATI VA PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

*Buronova Ra'no Abdujabborovna*

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, student*

[r.buronova@dpi.uz](mailto:r.buronova@dpi.uz)

**Anotatsiya:** *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini shakillantirishda multfilmlarning ahamiyati haqida psixolingvistik tadqiqotlar usullari orqali fikr – mulohazalar yuritiladi. Turli ilmiy tadqiqot ishlaridan iqtiboslar keltirib o‘tilgan va nutqiy aspektda tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Psixolingvistika, nutqiy aktlar, kommunikatsiya, nutqiy ontogeniz, ruhiyat.*

### **KIRISH:**

Psixolingvistikaga doir tadqiqot ishlari XIX, XX asrlardayoq dunyo ilm –fan olamida turli tajriba va sinovlar bilan qarshi olingan soha sifatida rivojlanib o‘tib kelmoqda. Psixolingvistiklar o‘z tadqiqot ishlarini bir qator davlatlar va turli jamiyatlarda muomoli masalalarni, markazga inson va uning psixologik holatini qo‘ygan ishlarni olib chiqishdi. Bunday ishlardan maqsad esa, inson va uni qurshab turgan atrof – muhitdagi voqea - hodisalarni ruh bilan idrok qilgan holda nutq bilan tushuntirish va muomolarga mana shu nutq orqali yeshim topishdan iborat edi.

Keyingi yillarda matn tahlili bo‘yicha qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar faqatgina tilshunoslik emas, til negizida shakillangan turli yangi yo‘nalishlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Xususan, psixolingvistika bevosita nutq bilan bog‘liq bo‘lib, turli vaziyatlardagi nutqiy aktlar orqali insonga ta‘sirini yoki xarakter – xususiyatlarini ko‘rsatib beruvchi sohadir.

Psixolingvistika uchun turli soha vakillari, turli yoshdagi insonlar tekshirish obyekti bo‘la oladi. Jumladan, shu kungacha eng ko‘p bolalar nutqi, nutqidagi kamchiliklar, atrof- muhit ta‘siri, bolalar ongida va nutqida mavjud bo‘lgan va bo‘lishi kerak bo‘lmagan so‘zlarning psixolingvistik ta‘sirini o‘rganilgan.

Kuzatishlar natijasida bolalarning nutqiy o‘shida nafaqat atrofdagi insonlar balki, hikoya qilish asnosida hikoyalar, ertaklar, multafilmlar, aqliy va murakkab o‘yinlar alohida ahamiyat kasb etishi olimlar tomonidan ta‘kidlab kelinmoqda.

Jumladan, Olga Lozova, Olena Litvynenko<sup>89</sup> ning ilmiy tadqiqot ishlarida eshitish va ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga hikoya va qissalarni o‘qitish, risoladagidek bo‘lgan tengdosh do‘stlarining hayotini hikoya qilib berish orqali

<sup>89</sup> Olga Lozova, Olena Litvynenko “Semantic Indicators of Personal Orientation in the Narratives of Adolescents with Deprivation of Verbal Development”. “Psycholinguistics journal”. Vol 30.No (1).2021. Pg 114-138 <https://psycholing-journal.com/index.php/journal/article/view/1211/327>

psixolingvistik ta’sir o‘tqazish va nutqini to‘g‘irlash borasida yangi metodlarni ta’kidlab o‘tadi.

Bolalarga ertaklarni hikoya qilib berish asnosida nutqidagi so‘zlar miqdorini boyitib, qayta takrorlatish asnosida esa, nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish mumkin. O‘z navbatida bola tashqi olam bilan komunikatsiyaga kirishadi.

Nutqiy ontogenizining psixolingvistikaga aylanish jarayoni kommunikativ komputetsiya bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Komunikatsiya jarayonida muloqat qilyotgan shaxs va tashqi dunyo bilan o‘zaro ta’sir solishtiriladi<sup>90</sup>.

Bolalarda nutqiy ontogeniz asosan, dialog shakilda kechadi ya’ni ularning o‘z ona tilini o‘zlashtirish darajasi nutqiy ya’ni ( og‘zaki ) shakilda bo‘lib, hikoya dialog shakilda bo‘lganligi uchun uning mana shu jihatinigina rivojlantira oladi. Ya’ni faqat yodlash.

Keyingi bolalar nutqini o‘stiruvchi va eng ko‘p ta’sir qiluvchi jarayon oila a’zolari bilan monologi jarayonida nutqiy aspektning boyib borishi.

Ovozli va harakatli multfilmlar eng keng qamrovli va deyarli barcha bolalarga psixologik va lingvistik ta’sirga ega janrga aylanib ulgurgan.

Bugungi kunda axborot va internet tarmoqlarining chegarasiz va hadsizligi sababli bolalar uchun turli davlatlar va turli studiyoda mahsulotlarining istemolchisiga aylanish imkoniyati yuzaga keltirmoqda.

Bu esa, oziq – ovqat, tibbiy xizmat va boshqa mahsulotlarni saralab istemol qilganimiz kabi bolalar uchun multfilmlarni ham saralashimiz va milliy koloretga munosiblarini bolalarimiz uchun taqdim etishimiz kerakligini ko‘rsatadi.

Butun dunyo bolalarining sevimli qahramonlariga aylangan va yillar davomida sevilib ko‘rilyotgan multfilm qahramonlarining nutqiga diqqat bilan e’tibor bersak tarkibida bolalar idrok qila olmaydigan, tushunmaydigan nutqiy birliklar mavjud ekanligini, ba’zan esa, bu birliklar odob doirasidan chetda bo‘lgan so‘zlar ekanligini bilib olamiz.

Xususan, Milliy multfilmlarimizdan “Qimmat va Zumrad”, “Quyosh yurti pahlavoni”, “Oltin tarvuz” kabilarning matniy tarkibini ko‘rib chiqamiz.

Uzoq yillardan buyon bolalarning sevimli multfilimiga aylangan “Qimmat va Zumrad” da ham bolalar anglay olmaydigan birikmalar mavjud.

Masalan: Asar qahramonlaridan biri kampir(Zumradning o‘gay onasi) nutqidan cholga qarata “ Yer yutgur chol”, “ vaqillama”, “Miyyasi aynigan chol” Zumradga qarata esa, “Yashamagur” iboralari ishlatiladi. Bu kabi iboralar mutaxassislar e’tiborini tortishi tabiiy va “Bola ongi bunday birlikarni qabul qila oladimi? Bu kabi iboralarni bola nutqiga singdirsa bo‘ladimi?” Degan savollarni yuzaga keltiradi.

O‘tgan asrning 70 -yillaridan boshlab bolalarning nutqiy faoliyati tekshirishda ularning qobilyati, qiziqishlari bilan o‘zaro bog‘liq holda ish olib borish yuqori samara berishi ta’kidlanadi. Shu asos yuzasidan bolalar ertaklarni aytib berishi,

<sup>90</sup> Nadejda Yureyva “Og‘zaki entiraktev, Maktabgacha yoshdagi bolalarning hikoyalari: Gipotezani shakillantirish bo‘yicha og‘zaki entiraktev kom ponent” Psycholinguistics journal.

takrorlashi va tushunishi ularning keyingi davriga ta’sir qilishini hisobga olgan holda bolaning nutq faoliyatida hikoyaning genizisi alohida ahamiyatlidir.

Multfilmlar mana shu ertak va hikoyalar negizida shakillangan filmlar bo‘lib, faqatgina eshitish emas, ko‘rish orqali ham ta’sir o‘tqaza olganligi sababli uning ta’sir kuchi ko‘proqdir.

Bolalar ongi sodda birliklarni qabul qila oladi. Ibora esa – “ma’nosi bir so‘zga teng bo‘lgan so‘z va so‘zlardan tashkil topgan birlikdir”<sup>91</sup>. Odatda ibora ikki so‘z birikuvidan tashkil topganligi uchun bolaning qabul qilishida qiyinchilikni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi “Yer yutgur” so‘zi qarg‘ish ma’nosida kelib, izohi bunday ahvolda bo‘lganidan ko‘ra seni yer yutsin ya’ni yerning ichiga kir ma’nolari yotadi.<sup>92</sup>

Til bu dunyodagi bilimlarni shakillantirish va saqlashning eng muhim usuli hisoblanadi.<sup>93</sup>

Til dunyoqarashi – atrof –muhitning nisbatan obyektiv holatini va o‘zaro bog‘langan til birliklarining mozaikaga o‘xshash tuzilmasini aks ettirib beradi. Bolalarda bu jarayon asta – sekinlik bilan shakillanadi. Bola bora – bora atrofdagi axborotlarni ongiga singdirgan holda tovushlar birikuvi murakkab fonetik tizm bilan ifodalangan dunyoqarashni hodisalar, leksik – semantik va gramatik ma’nolar shuningdek stilistik xususiyatlarni shakillantirib, ham konseptual, ham lingvistik dunyoqarashlarni inson olami sifatida va milliy til sifatida shakillantiradi.

Yuqoridagi birliklar esa, bola ruhiyatiga qay darajada ta’sir qilishi so‘roq ostida.

Bola o‘rtoqlari bilan o‘ynar ekan nohaqlik qilgan do‘stiga qarata “Yer yutgur seni” deydimi yoki jaxli chiqqanida “Yashamagur” so‘zini ishlatadimi? Bu birliklarni idrok qilishga katta yoshli insonlarning idroki ba’zan yetmaydi. Mana shu yerda jamiyatning har bir jabhasida psixolingvist mutaxassislariga ta’lab borligini ko‘rsatadi.

“Vaqillama” bu ibora odatda baqa yoki qurbaqaning ovoz chiqarish jarayoniga nisbatan ishlatiladi. Ovozning “vaq – vaq” shaklida eshitilishi qurbaqa “vaqillayapdi” kontekstini lisonimizda shakillantirib qo‘ygan. Bu birlikning insonga nisbatan ishlatilishi esa, uni baqaga tenglashtirish bilan teng degani.

Bola ongi dastlab nimani ko‘rsa uni o‘z holicha qabul qiladi. Kinoya, metofara, ichki ma’no kabi tushunchalarni anglab yetmaydi. Xuddi shunday, aynish hodisasi dastlab faqat yeydigan va ichadigan narsalarga tegishli ekanligini bilgan bola tabiiyki, “Miyyasi aynigan chol” iborasi nimani anglatishini bilmaydi. Hali unda miyya so‘zining o‘ziyoq so‘roq ostida turibdi.

Aslida, milliy multfilmlar eng ko‘p darajada ko‘rilishi va unda milliylik sezilib turilishi kerak. Psixologik darajada bu usul bolani milliylik, jamiyatning bir bo‘lagi sifatida o‘zini his qila olishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun bolalar uchun mo‘ljallangan multfilm va kinolarga diqqatli va e’ tiborli

<sup>91</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm>.

<sup>92</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/yer>

<sup>93</sup> Xolmanova Zulxumor Turdiyevna. Toshkent – 2019.

<https://tsuull.uz/sites/default/files/kompyuterlingmuvofiknashr19doc.pdf>

bo‘lishimiz kerak. Sababi bolalarning uch yoshgacha bo‘lgan davri ularning deyarli butun hayotiga ta’sirini ko‘rsatadi,

Mazirka, Irina Olegovna<sup>94</sup> “Og‘zaki shaxs xususiyatlarining psixolingvistik asoslari va badiiy qahramonlar dunyosining lingvistik tasviri” nomli dissertatsiyasida badiiy asarning ta’siri va uning inson nutqidagi tajalliylanishi o‘rganadi. Ishda inson bolalikdan qarilik chog‘larigacha o‘qigan va tomosha qilgan asarlari nutqiga va hayotiga ta’sir etish haqida fikrlar yuritiladi. Asar qahramonlari lingvistik tahlil qilinadi. Davr, makro va mikrosotsiatsiyaning shaxsiy kontseptual sohaning yetakchi tarkibiy qismi sifatida xarakteristik urg‘u tushunchasining rivojlanishiga ta’siri va badiiy asar qahramoni dunyosining lingvistik tasviri. Kasbning kognitiv – kontseptsiyasidagi o‘zgarishlar tufayli badiiy asar qahramoni dunyosining shaxsiy tuzilmalari va lingvistik tasviri tushunchalaridagi o‘zgarishlarini o‘rgangan.

**Xulosa:** Bu kabi tadqiqotlarning o‘ziyoq mashhur brendga aylanib ulgurgan “DISNEY”, “PIXAR” kabi kompaniya mahsulatlarini ham saralash zarur ekanligini, bugungi faol ijtimoiy hayot jarayonida bolalarga filtdan o‘tgan mahsulotlar istimol qilishini nazorat qilishimiz zarur ekanligini ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Olga Lozova, Olena Litvynenko “Semantic Indicators of Personal Orientation in the Narratives of Adolescents with Deprivation of Verbal Development”. “Psycholinguistics journal”. Vol 30.No (1).2021. Pg 114-138 <https://psycholing-journal.com/index.php/journal/article/view/1211/327>
2. Nadejda Yureyva “Og‘zaki entirativ, Maktabgacha yoshdagi bolalarning hikoyalari: Gipotezani shakillantirish bo‘yicha og‘zaki entiraktev kom ponent” Psycholinguistics journal.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm>.
4. <https://uz.wiktionary.org/wiki/yer>
5. Xolmanova Zulxumor Turdiyevna. Toshkent – 2019. <https://tsuull.uz/sites/default/files/kompyuterlingmuvofiknashr19doc.pdf>
6. Mazirka, Irina Olegovna “ Психолингвистические основы вербальной характеристики личности и языковой картины мира героев художественной литературы” диссертации и автореферата. по ВАК РФ 10.02.19 <https://www.dissercat.com/content/psikholingvisticheskie-osnovy-verbalnoi-kharakteristiki-lichnosti-i-yazykovoi-kartiny-mira-g>

---

<sup>94</sup> Mazirka, Irina Olegovna “ Психолингвистические основы вербальной характеристики личности и языковой картины мира героев художественной литературы” диссертации и автореферата. по ВАК РФ 10.02.19 <https://www.dissercat.com/content/psikholingvisticheskie-osnovy-verbalnoi-kharakteristiki-lichnosti-i-yazykovoi-kartiny-mira-g>

## SHODMONQUL SALOM SHE’RLARI POETIKASI

*Jo‘ramurodova Sitora Gulshanbek qizi*

joramurodovas@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Magistratura bo‘limi O‘zbek tili va adabiyoti  
yo‘nalishi 1-kurs magistranti.

*Annotatsiya: Ushbu maqola Shodmonqul Salomning “Borning yo‘qqa saxovati ko‘riladi” she‘rini poetik jihatdan tahlil qiladi. She‘rning mavzusi, g‘oyasi, poetik uslubi, tuzilishi va xususiyatlari batafsil o‘rganiladi. Maqolada she‘rning xalq og‘zaki ijodiyatiga yaqinligi, soddaligi va chuqur ma‘nosi ta‘kidlanadi.*

*Kalit so‘zlar: Poetik tahlil, saxovat, xalq og‘zaki ijodiyoti, g‘oya, uslub, tuzilish, xususiyatlar.*

*Abstract: This article provides a poetic analysis of Shodmonqul Salom’s poem “The Generosity of the Rich is Seen by the Poor.” The article examines the poem’s theme, idea, poetic style, structure, and features in detail. It highlights the poem’s proximity to folk oral creativity, its simplicity, and its deep meaning.*

*Keywords: Poetic analysis, generosity, folk oral creativity, idea, style, structure, features.*

### **Kirish**

Hozirgi o‘zbek adabiyoti xususan she‘riyati jamiyatimizning ma‘naviy ma‘rifiy jihatdan yuksalishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda, uning jahon adabiyoti silsilasidagi o‘rni ham o‘ziga xos va betakroridir. Hozirgi o‘zbek adabiyoti xususan she‘riyati jamiyatimizning ma‘naviy ma‘rifiy jihatdan yuksalishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xalqimiz o‘ziga xos boy madaniy va ma‘rifiy tarixga ega, xususan, o‘zbek adabiyoti. Adabiyotga komil inson tarbiyachisi sifatida qarab kelingan, chunki adabiyot inson ma‘naviyatini shakllantiradigan asosiy vositadir. Bu jarayon adabiyotimizning yirik namoyandalari yaratgan ijody an‘analarning bugungi kunda o‘ziga xos shakllarda davom etayotganida ko‘rinadi. Har qanday shoir va ijodkorning kamolotga erishuvi uning milliylikni anglashi va uni o‘z ijodida qo‘llay olishidadir. Jumladan, Shodmonqul Salom she‘rlari o‘zining sodda, lekin chuqur ma‘noliligi, jonli tasvirlari va xalq og‘zaki ijodiyotiga yaqinligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida insoniyatning eng ulug‘vor fazilatlaridan biri - saxovat mavzusi alohida o‘rin tutadi.

Shodmonqul Salomning “Borning yo‘qqa saxovati ko‘riladi” nomli she‘riga to‘xtalar ekanmiz, avvalo, she‘r mazmunan inson saxovatining oliy qadriyatlarini ulug‘laydi va saxovat bilan bog‘liq ilohiy adolatni madh etadi. “Borning yo‘qqa saxovati ko‘riladi” she‘ri bu fikrni yorqin misolda tasvirlaydi. She‘rda tabiatning o‘zi ham saxovatli ekanligi ta‘kidlanadi. Keling, buni poetik jihatdan tahlil qilamiz:

Odamzoddan o‘tar bo‘lsa, ziroatga,  
Ziroat ham shukr etmasa, hayvonzotga,  
Hayvon tilov qilolmasa, hashoratga,  
Bu tilsizlar had bilmasa, qadim Dodga,  
Va yo endi tug‘ilajak zurriyodga,  
Rizq-nasiba hikmat uchun beriladi,

Odamzodni izzat qilib turiladi.<sup>95</sup>

She’rning dastlabki qismi rizq va saxovat haqidagi falsafiy fikr bilan boshlanadi. Bunda inson o‘zidan keyin borliqni saqlab qolish, saxovat qilish va tabiatning o‘zaro bog‘liqligini anglashi kerakligi bayon etiladi. Ziroat, ya’ni yer haydash va rizq yaratish jarayoniga ham inson e’tibor qaratishi lozim, chunki bu ish inson va boshqa mavjudotlar o‘rtasidagi zanjirni tashkil etadi. Odamzodning saxovati bilan boshqa tirik mavjudotlar ham hayot davom ettiradi. Rizq va nasiba, insoniy izzat va sharaf esa Allohning hikmati sifatida beriladi. Bu bandda “odamzoddan” hayvonga, hasharotga va tilsizlarga o‘tib, oxir-oqibat Qadim Dodga (qadimiy hukm) yetib borish jarayoni orqali izchil o‘shish aks etadi. Gradatsiya orqali inson va barcha mavjudotlarning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Keyingi bandga nazar tashlaydigan bo‘lsak «Ona yer» obrazi orqali yer va tabiat insonlashadi, u “xonalagan”, “qursog‘ini panalagan” kabi sifatlar bilan tasvirlanadi. Bu orqali yer ona kabi saxovatli va hayotni asrovchi sifatida tasvirlanadi. Bundan tashqari “Ona yer” — obrazga ona sifatidagi himoya va mehr-oqibat epiteti yuklanadi. Ona yer hamma mavjudotlarga saxovatli bo‘lishga chaqiriladi. Shuningdek bu shu misraning davomida “Donning o‘shishi va yerning hosil berishi” inson saxovati bilan qiyoslanadi, insonning qilgan saxovati ham tabiatning rivojiga bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi.

O‘sayotgan, donlayotgan, shonalagan,  
Par chiqargan, tuxum yorgan, bolalagan,  
Ona yerni o‘z tarhida xonalagan,  
Qursog‘ini dovullardan panalagan,  
Xudo amr qilgan tilda allalagan,  
Yaralmishga qancha imdod beriladi.  
Borning yo‘qqa saxovati ko‘riladi.

Ona yer o‘z mevalarini insonlarga, hayvonlarga, hasharotlarga baxsh etadi. Bu saxovatli munosabat insonlarga ham o‘rnak bo‘lishi kerak. Shodmonqul Salom o‘zining o‘tmishini eslab, otasining bug‘doy tashib, parrandalarga va chumolilarga ham ulush ajratganini ta’kidlaydi. Bu xotira she’rga chuqur hissiylik bag‘ishlaydi:

Men ko‘rgandim: qishda qorli qirdan oshib,  
Otam goho ketar edi bug‘doy tashib,  
Parrandaning, chumolining donga shoshib,  
Kelganini ko‘rib, ko‘zdan mehr toshib,  
Qaytar edi, mamnun-mamnun egib boshin,  
Saxovatki, so‘rmaganga beriladi,  
Bandasiga falaklardan buyriladi.

Yuqoridagi misralar tahliliga keladigan bo‘lsak bug‘doy va chumoli obrazlari saxovat va rizq ramzi sifatida ishlatilgan. Chumoli ham rizqqa talpinadi, bug‘doy esa inson saxovatining ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. “Mamnun-mamnun” so‘zlari orqali otaning saxovatdan olgan mamnuniyati takrorlanib, hissiyot kuchaytiriladi.

<sup>95</sup> shodmonqul-salom-yangi-she’rlar-shoir-shodmonqul-salom-azizim-hayot-teleloiyhasida-2019

She’rda saxovatning ulug‘vorligi nafaqat tabiat misolida, balki insonlarning o‘zaro munosabatlarida ham namoyon bo‘ladi. Buxoriy bu misrada talmeh bo‘lib kelib uning “Saxovatda bermoq bor-u yo‘qmish so‘ror” degan hikmatli so‘zlari she’rga o‘ziga xos ma’no bag‘ishlaydi. “Talmeh – (arabcha – nazar solmoq) she’rda mashhur tarixiy voqea, afsona va dostonlar qahramonlari, taniqli tarixiy shaxslarga ishora qilish orqali tasvirlanayotgan obrazning u yoki bu jihatini ta’kidlash, bo‘rttirib ko‘rsatishga yo‘naltirilgan she’riy san’at.”<sup>96</sup> Saxovatning samimiyligi, qaytarishni kutmaslik, qalbdan kelib chiqishi ta’kidlanadi:

Ona yerga urug‘ emas, niyat qaror,  
Xayr bilan bani odam olmish baror.  
Buxoriyning aytganlari etar bedor:  
Saxovatda bermoq bor-u yo‘qmish so‘ror,  
Yomg‘irni ham sanaydigan farishta bor,  
Bul hisobdan arshda mezon yuriladi,  
Saxovatlar saxovatga beriladi.

“Saxovatlar saxovatga beriladi” misrasi bir necha band oxirida takrorlanadi. Bu takroriylik orqali muallif saxovatning universalligini va bu jarayonning qaytariluvchanligini ta’kidlaydi.

Boysundagi Choshtepada shunday bo‘lgan,  
Bir xasisning xirmoniga Xizr kelgan.

She’rda saxovatning oqibatlari ham tasvirlanadi. Xasisning xirmoniga Xizr kelgan voqea orqali saxovatsiz odamning o‘zi ham zarar ko‘rishi ko‘rsatiladi. Shodmonqul Salom o‘zining o‘quvchilariga, xalqiga saxovatli bo‘lishga chaqiradi. “Elga bersin, el qatori menga ham shon” degan so‘zlar bu chaqiriqni yanada kuchliroq qiladi. «Borning yo‘qqa saxovati ko‘riladi» she’ri o‘zining sodda tili, jonli tasvirlari va chuqur ma’nosi bilan o‘quvchilar qalbiga o‘ziga xos ta’sir qiladi. Shodmonqul Salom she’rlarida saxovatning ulug‘vorligi, uning insoniyat uchun ahamiyati yorqin va ta’sirli tarzda tasvirlangan.

### **Xulosa**

Shodmonqul Salomning bu she’ri saxovat, insoniylik, xasislik va halollik mavzularini qamrab olgan. Unda saxovatning samimiy va ichki kuch sifatida aks etishi, xasislikning esa hayotdagi og‘ir oqibatlariga olib kelishi ko‘rsatiladi. She’r insonni hayotda saxovatli, mehribon va odil bo‘lishga chorlaydi, hayotning qonuniyatlari va insonning ma’naviy kamoloti haqida chuqur mulohazalar beradi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1.Salaev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2010. – B.245.

2.Shodmonqul Salom. Borligini bilganlar. – Toshkent: Uzbekiston Milliy ensklopediyasi nashriyoti, 2013.

3.Shodmonqul Salom yangi sherlar shoir shodmonqul salom azizim hayot teleloyihasida - 2019

---

<sup>96</sup> Salaev F., qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2010. – B.245.

## O‘ZBEK ILMIY MATNLARINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI VA PLAGIAT MUAMMOSI

*Islomov Shohijahon Shuhratjon o‘g‘li,  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti  
[shoxjaxonislomov@gmail.com](mailto:shoxjaxonislomov@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA.** Maqolada lingvistik ekspertizaning vujudga kelishi va fanlar aro aloqasi shuningdek plagiat ilmiy muammo sifatida jiddiy qabul qilinishi to‘g‘risida fikrlar keltirildi.

**Kalit so‘zlar:** Lingvistik ekspertiza, filologik ekspertiza, sud-ekspertiza tizimi, yozma matn, plagiatlik.

**Kirish:**Keyingi yillarda turli fanlar aro integratsiya (g‘oyalar yoki tizimlarni bir butun sifatida birlashtirish jarayonidir.) jarayoni kuchayishi, yangi soha va yangi muammolar yechimida fanlar aro hamkorik kuchaydi. Xuddi shunday lingvistik ekspertiza sohasi ham tilshunoslik va huquq fanlari kesishuvida yuzaga keldi. Hamkorlikda sud-huquq sohasida to‘g‘ri va xolislikni taminlashda lingvistik ekspertiza turli ko‘rinishlarda (inson qadr-qimmati, obro‘yi va nufuziga ta’sir etuvchi; tahqirlovchi; tahdid qiluvchi; oilasi, dini, millatiga qarshi kurashishga da’vat etuvchi kabi munosabatga ega yozishmalar) yordamga kelmoqda.

Lingvistik ekspertizaning aynan qachon yuzaga kelganligi masalasini aniq dalillar bilan asoslash qiyin. Ilm-fanga kirib keluvchi har qanday istilohning o‘z tarixi, shakllanish bosqichi va taraqqiyot davri bo‘ladi. Lingvistik ekspertizani ham aniq bir davrda vujudga kelgan va shakllanib ulgurgan deb ayta olmaymiz. Nutqda ishlatiluvchi so‘z va gaplarning turli atributlari, xususan, uzunlik, tembr kabilarni umumlashtirish nutq muallifining ruhiy-psixologik holatiga tashxis qo‘yish imkoniyatini yuzaga keltiradi.<sup>97</sup>

Yuqorida ruhiy-psixologik tashxis imkoni lingvistik ekspertiza bera olishi haqida so‘z yuritildi. Xaqiqatdan ham til ijtimoiy hodisa der ekanmiz til bajarayotgan har bir vazifa jamiyatga aloqador. Til jamiyat bilan yashaydi, jamiyat bilan rivojlanadi umuman olganda til jamiyat bilan uzviy bog‘liq. Yozma nutq, audio matn va yozishmalar zamon zayli sababli rivoj topgani sari bu ularning lingvistik tahlil tamoyillari ham rivoj topadi. Lngvistik ekspertiza yuqorida sanab o‘tilgan matnlarda inson qadr-qimmati, shani, obro‘si va ilmiy matnlarda plagiat kabi masalalarga yechim topishga yordam bera oladi.

Mohiyatan olganda, filologik ekspertiza matnning adabiy sifati, uslubi, grammatik jihatdan to‘g‘riligi, til me’yorlariga muvofiqligi hamda boshqa belgilarini aniqlash maqsadida tahlil qilish jarayoni hisoblanadi. Zotan, ushbu ekspertiza turli maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, tarjima sifatini baholash, plagiatni tekshirish, matnning muallifigini aniqlash, nizolarga doir dalillarni berish va boshqa

---

<sup>97</sup> Musulmonova K. O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish jarayoni, bosqichlari, metodlari(avtoreferati). – Qo‘qon: 2022.– B. 5.

omillar sabab bo‘lishi mumkin. Filologik ekspertiza aynan tegishli ma‘lumot va ish tajribasiga ega til va adabiyot sohasi mutaxassislarini tomonidan amalga oshiriladi.<sup>98</sup>

Lingvistik ekspertiza juda ko‘p holatlarda kerak bo‘ladi. Masalan:

Huquqiy ishlarda: Sud jarayonlarida, ayniqsa, shubhali hujjatlar matnlarini tekshirish, yozuvlarni tahlil qilish, so‘zlarning ma‘nosini aniqlash. Jinoyat joyida topilgan yozuvlarni, audio yozuvlarni tahlil qilish, shaxslarni aniqlash kabi hollarda lingvistik ekspertiza qo‘llaniladi. Tarjimada: Lingvistik ekspertiza badiiy matn tarjima sifatini baholash, tarjimada xatolarni aniqlash, matnning asl ma‘nosini saqlab qolishda foydali bo‘ladi. Reklamada: Lingvistik ekspertiza reklama matnlarini tahlil qilish, reklama kampaniyasining samaradorligini oshirish, reklama matnlarining maqsadli auditoriyaga (xalqqa) ta‘sirini baholash va boshqa ko‘plab hollarda foydali bo‘ladi.

Umuman olganda, lingvistik ekspertiza turli sohalarda muhim rol o‘ynaydi va tilning xususiyatlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

Lingvistik ekspertiza huquq va tilshunoslik sohasining kesishuvi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, inson sha‘ni, qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi birliklarni til doirasida o‘rganuvchi tilshunoslikning amaliy yo‘nalishidir. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan muallifi noma‘lum bo‘lgan va muammoli deb topilgan diniy ekstremizm, terrorizm, turli yo‘nalishdagi tahdid va da‘vat xarakteridagi, insoniyat ma‘naviy ongiga salbiy ta‘sir etuvchi yozishmalarning lingvistik ekspertizasi bo‘yicha dunyo tilshunosligida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu anonim yozishmalar muallifini aniqlash, matnda plagiatlik holatlarini tekshirish, savdo belgisi, korxonalar nomlaridagi ko‘chirmachilikka oydinlik kiritish kabi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.<sup>99</sup>

Sud-ekspertiza tizimida yozma matnlarda turli darajadagi holatlar (haqorat, so‘kish, obro‘yiga putur yetkazish, plagiatlik, anonimlik, korrupsiya)ni baholash va tahlil qilish ehtiyoji kuchayib bormoqda. Bu esa bevosita lingvistik ekspertizani belgilashga zarurat borligini bildiradi. Zamonaviy tilshunoslik rivoji natijasida turli nazariyalar ilgari suriladi va asoslanadi. Fikrimizcha, mavjud nazariy g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish va uning samaradorligini belgilab olish zarur. Ushbu ko‘rsatilgan jihatlar aynan lingvistik ekspertologiya uchun emas, balki zamonaviy tilshunoslikning boshqa sohasiga ham muayyan darajada taalluqli.<sup>100</sup>

Plagiat ilmiy muammo sifatida juda jiddiy qaraladi. Chunki u quyidagi sabablarga ko‘ra ilmiy rivojlanishga to‘sqinlik qiladi:

Ilmiy ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Plagiat qilingan ishlar haqiqiy ilmiy yutuqlar sifatida qabul qilinmaydi, chunki ular boshqa mualliflarning g‘oyalari va tadqiqotlarini o‘zlashtiradi. Bu ilmiy jamoatchilikning ishonchiga putur yetkazadi va ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi. Ilmiy rivojlanishni sekinlashtiradi.

<sup>98</sup>Suvonov Z. O‘zbek badiiy matnlarini filologik ekspertiza qilishning nazariy-metodologik asoslari. – Qarshi: 2023.– B. 14.

<sup>99</sup> To‘rayeva D.A. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi.(Avtoreferati) – B. 160;

<sup>100</sup> Musulmonova K. O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish jarayoni, bosqichlari, metodlari(avtorferati). – Qo‘qon: 2022.– B. 5.

Plagiat qilingan ishlar yangi g‘oyalar va tadqiqotlarni yaratishga to‘sqinlik qiladi. Chunki ular o‘ziga xos ilmiy yutuqlarni taqdim etmaydi va ilmiy bilimlarni boyitishga hissa qo‘shmaydi. Talabalarning o‘rganish jarayoniga zarar yetkazadi. Talabalar plagiat qilish orqali o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Ular o‘zlarining fikrlarini shakllantirish, tadqiqot o‘tkazish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘rniga, boshqa mualliflarning ishlarini nusxalashga majbur bo‘ladi. Ilmiy axloq qoidalarini buzadi. Plagiat qilish ilmiy axloq qoidalarini buzadi, chunki u boshqa mualliflarning intellektual mulkini o‘g‘irlashni anglatadi. Bu ilmiy jamoatchilikda ishonchsizlik va nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun plagiat ilmiy muammo sifatida jiddiy qabul qilinishi va unga qarshi kurashish choralarini ko‘rish kerak. Ilmiy jamoatchilik plagiat qilishning zararli oqibatlarini tushunishi va uni oldini olish uchun harakat qilishi kerak.

#### **Xulosa:**

Lingvistik ekspertiza nafaqat sud-huquq sohasida inson huqularini himoya qilishda balki ilmiy matnlarda plagiatlik muammosini to‘g‘ri baholash va tahlil qilishda amaliy tilshunoslikning muhim sohalaridan biri sifatida rivojlanyapti.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Musulmonova K. O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish jarayoni, bosqichlari, metodlari(avtoreferati). – Qo‘qon: 2022.– B. 55.
2. Suvonov Z. O‘zbek badiiy matnlarini filologik ekspertiza qilishning nazariy-metodologik asoslari. – Qarshi: 2023.– B. 217.
3. To‘rayeva D.A. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi.(Avtoreferati) – B. 48.

## **DENOV ADABIY MUHITIDA BADIY MAHORAT MASALASI**

*Nematova Nigora Islamovna*

*Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi*

*3-sonli AFCHO ‘SM umumiy o‘rta ta’limi maktabi*

*ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Badiiy mahorat, adabiyot, san'at va madaniyatda o'ziga xos va yuqori darajadagi ifoda vositasi bo'lib, ijodkorning tasavvur va yaratuvchanlik imkoniyatlarini namoyon etadi. Badiiy mahoratning o'ziga xos jihatlari, uning texnikasi, uslubi va ifodasi har bir adib va san'atchining individual yondashuviga bog‘liq. Ushbu masalani o'rganish, san'at va adabiyotda badiiy ifodaning o'rni, ahamiyati va rivojlanishini tushunishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** Adabiyot, badiiy mahorat, san'at, madaniyat, yozuvchilik, ijodiy mahorat, gumanizm, estetik tuyg‘u, syujet.

#### **Kirish**

Adabiyot shunday fanki, uni majoziy ma'noda keng jang maydoniga qiyos etsak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi, unda qalam jangchilari – shoir-u yozuvchilar – o‘zaro jang maydonida kurashga tushadilar. Jangning asl sababi esa ularning mahoratida namoyon bo‘ladi. Kimdadir yozuvchilik mahorati ustunlik qilsa,

yana kimlardadir shoirlik mahorati katta rol o‘ynaydi. Bu borada so‘z yuritar ekanmiz, mahoratning, aslida, nima ekanligi xususida fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq masala sanaladi. Wikipedia onlayn lug‘atida ushbu so‘zga quyidagicha ta’rif beriladi:

Biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at mohirlik. Ijodiy mahorat. Yozuvchilik mahorati. Mahorat orttirmoq. Mahorat ko‘rsatmoq. Mahoratga erishmoq. Uning asosiy kasbi duradgorlik bo‘lib, bu hunarda mahorati katta edi. [S.Ayniy](#), “Esdaliklar”. Ustoz bilan shogird mahoratda tenglashib, gohi shogird qo‘li ustunlik qila boshladi.

Demak, mahorat mohirlik, ustalik ma’nosini anglatuvchi termin hisoblanar ekan. Badiiy adabiyotidagi mahorat masalasi esa bevosita ijodkorning yozgan asarining qanchalar ta’sirli ekanligi bilan baholanadi. Badiiy istiloh sifatida esa u quyidagi ma’noga egadir:

Poetik yoki badiiy mahorat yozuvchining o‘ziga xos badiiy olami, badiiy asarni yaratishdagi san’atkorligidir. Ijodkorning badiiy mahorati asar tilining mohirona berilishida, obraz yaratishida, badiiy tasvir vositalaridan o‘z o‘rnida, mohirona foydalanishida, asar kompozitsiyasini to‘g‘ri va tizimli shakllantirishda va h.k.larda yaqqol namoyon bo‘ladi<sup>101</sup>.

Bulardan tashqari badiiylikning quyidagi 10 ta mezonni yozuvchining badiiy mahoratini aniqlashga yordam beradi:

1. Gumanizm (insonparvarlik).
2. Estetik tuyg‘uni shakllantira olish.
3. Hayotiy haqiqatga sodiqlik.
4. Chuqur mushohada.
5. Muallif g‘oyasining mantiqiyliги va ijodiy fantaziyasining kengligi.
6. Umumlashtirish va tipiklashtirish qobiliyati.
7. Badiiy detallarning aniqligi va qaysidir g‘oyaga xizmat qilishi.
8. Syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat.
9. Qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan ochib berilishi.
10. Asar tilining boyligi va rang-barangligi<sup>102</sup>.

Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan mezonlarga e’tibor berar ekanmiz, ulardan dastlab insonparvarlikning o‘rin olishi bejizga emasligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Sababi, insoniyliги bo‘lmagan har qanday inson xoh u yozuvchi bo‘lsin, xoh shoir baribir o‘zida badiiy mahoratni aks ettira olmaydi va buni asarlariga ham singdira olmaydi. Insoniylik qalbida jo‘sh urgan ijodkorgina asarlarini badiiy mahorat bilan yarata oladi. Badiiy mahoratni yuzaga keltiruvchi ikkinchi unsur esa bu estetik hissiyotni shakllantirish sanaladi. Sababi, adabiyot olamida aks etgan har qanday asar o‘zida yagona maqsadni birlashtiradi u ham bo‘lmasa o‘quvchida estetik didni uyg‘otish va u orqali o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatishdir. Hayotiy haqiqatga sodiqlik mezonni esa badiiy mahoratning yana bir sharti sanaladi. Bu nima degan savol har bir insonga qiziq tuyuladi, nazarimizda. Hayotiy haqiqatga sodiqlik bu badiiy asarlarni

<sup>101</sup> [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

<sup>102</sup> [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

hayot haqiqatlariga asoslangan holda yaratish, uning real voqealarga asoslanishini ta’minlashdir. Xuddi shunday boshqa unsurlar ham badiiy adabiyotni yuzaga keltirishda birdek muhim ahamiyat kasb etadi.

“Badiiy asar kompozitsiyasiga xizmat qiladigan har bir unsurning poetikasini o‘rganish va shu asosda ilmiy tadqiqot olib borish mumkin. Masalan, rus olimlaridan D.S.Lixachev qadim rus adabiyoti poetikasini, I.V.Silanev motivlarning, V.V.Vinogradov syujet va uslubning, N.E.Falikova xronotopning, N.Bandurina va Z.Suvanov obrazlarning, Y.Solijonov badiiy nutqning, K.Hamrayev kompozitsiyaning poetikasini tadqiq qilishgan va muhim ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarishgan<sup>1</sup>. Ayniqsa, asar syujeti va janrlar tipologiyasi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan olimlarga O.M.Freydenberning fundamental monografiyasi juda katta nazariy material beradi” degan edi Haqqulov I<sup>103</sup>.

Denov adabiy muhitidagi nasriy yo‘nalishda ijod qilgan ijodkorlar asarlariga ham e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning asarlaridagi insonparvarlik g‘oyalarining o‘ziga xosligi, inson hissiyotlariga alohida urg‘u berish, hayotiy qonun-qoidalariga hamisha sodiq qolish, insoniy sifatlarni ulug‘lash, asarlardagi chuqur mulohaza, o‘y, muallif tomonidan keltirilgan fikrlarning izchilligi, uning ijodiy kuchining o‘ziga xosligi hamda shu kabi jihatlarni anglashimiz mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu muhitning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, ijodkor asarlarida g‘oyalarni ma’lum qolipga solish va izchil tarzda tipiklashtirishga harakat qiladi. Asarda ishtirok etgan badiiy detallar aniq hamda asardan o‘rin olgan g‘oyaviy mavzu o‘ziga xoslikka ega. Asarlardagi syujetlar muallif g‘oyasidan kelib chiqqan holda belgilangan hamda asardan o‘rin olgan qahramonlarning o‘z ruhiyati, ichki dunyosi kitobxonni o‘ziga maftun etadi.

Sahroning bepoyon kengliklarida yilning uch oyini aytmasa, tashqi dunyodan butkul uzilgan elatlar yashardi. Yirik-yirik tijorat markazlari tomon yo‘lga chiqqan karvonlar ba’zan bu ovullar haqidagi uzuq-yuluq afsonanamo gaplarga bo‘lgan qiziqishlari tufayli shu tomonlarga yo‘l solishardi. Karvonni izzat-ikrom bilan kutib olishgach, avvaliga ovul ulug‘i o‘tovida mehmonnavozlik bo‘lib, so‘ng savdo ishlari g‘imirlay boshlar, bozor shu darajadagi avjga minar ediki, yirik shaharlardagi savdo markazlaridan qolishmasdi. Sahroda bir-birlariga nisbatan g‘anim urug‘lar yashab kelardi. Ular o‘rtasidagi bu dushmanlik azaldan quduqqa boy hududlar ustidan nazoratni o‘z qo‘llariga olish masalasida edi. Ulusu bilan Azsu ana shunday urug‘lardan edi. Ulusu ovulida suvga mo‘l quduqlar joylashgan bo‘lib, hayotlari to‘kin va barqaror, boshqa urug‘lar, xususan, Azsu doim quduqlaridagi suv tanqisligidan qiynalardi. Bir zamonlar osmondan balo yog‘ilib, kasalliklar avj olganida Azsu ovuli ulug‘lari kengashib, Ulusuga chopar jo‘natishgan va bunday degandilar: “Tangri yer-ko‘kni, suvni hammamiz uchun bergan, sening ajdodlaringning yutug‘i ertani ko‘ra bilganida, bugun- gi yemagini ertaga ataganida, mening ajdodlarimning gunohi buguni bilan yashaganidadir. Shu kechirilmas xato

<sup>103</sup> Haqqulov I. Ijod iqlimi. – Toshkent: Fan, 2009.

evaziga ko‘p jonlarni qurbon berib kelamiz. Kelingiz, qon-qarindoshlik ipini bog‘laylik, Tangri bundan va bizdan xushnud bo‘lajak”.

Sarvar To‘rayevning “Karvonqush” hikoyasi orqali ijodkorning afsonalar orqali hayotiy haqiqatlarni anglatish mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Bu hikoyasi orqali barcha xalqlar totuvlikda yashash kerakligini ochib bergan.

### **Xulosa**

Denov adabiy muhitida shakllangan nasr. yo‘nalishi ham Surxon adabiy muhiti tarkibida o‘rganilgan yo‘nalish hisoblanib, ushbu yo‘nalishda qator ijodkorlar ijod qilganliklari bilan ajralib turadi, nasr. yo‘nalishi ham o‘z bag‘rida xilma-xil mavzularni aks ettirganligi bilan ahamiyatli sanaladi. Denov adabiy muhiti nasriy yo‘nalishining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, ijodkorlar xilma-xillikni o‘z asarlariga singdirishga harakat qilganlar, ya‘ni tarix va zamonaviy hayot, muhabbat va qarama-qarshiliklar, oila va notinchlik va hokazo.

### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Haqqulov I. Ijod iqlimi. – Toshkent: Fan, 2009.
2. Is‘hoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006. – B. 128.
3. Jo‘raev O. Majoziy didaktik talqinlar. – Toshkent: Adabiyot va san‘at. 1989.

### **Internet saytlari:**

1. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
2. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

## **BADIY MATNDA BARQAROR BIRIKMALARNING VOQEALANISHI**

*Boydavlatova Dildora Rustamovna*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi  
3-kurs 304-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Bir-biriga qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi sheva va dialektlar bir-biridan farq qilishi barchamizga ma‘lum. Diniy barqaror birliklarning shevaviy xususiyatlarini o‘rganish esa ikki til o‘rtasidagi umumiy va xususiy jihatlarni yanada kengroq aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** din, barqaror birliklar, sheva, dialekt, lahja.

**Barqaror birikmalar** «Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.» **Iboralar, maqol-matallar va hikmatli so‘zlar** barqaror birikmalar hisoblanadi.

**Iboralar.** Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga

muvofig iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma’no talqini berishning yo‘llari juda xilma-xildir. Bunga «umumtil iborasi zamiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin.»<sup>58</sup> Frazologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo‘ldoshev tomonidan keng o‘rganilgan.<sup>59</sup> Badiiy matnda eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilardan iborat: 1. **Ibora tarkibidagi ayrim so‘zlarni almashtirish:** *Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo‘lib qolasiz.* (S.Ahmad) *Mingboshining falon – falonlari bizni ko‘ziga iladimi?, -deb xabar ham qilmabmiz. Nega indamaysanlar? Og‘zingga paxta tiqdingmi hammang? Dunyoda o‘z oyog‘iga o‘zi bolta chopadigan ahmoq ham bo‘ladimi?* (Cho‘lpon) 2. **Ibora tarkibini kengaytirish.** Bunda ibora tarkibiga yangi so‘z kiritiladi. Tilimizda *jar solmoq* iborasi mavjud. Cho‘lpon uni *qo‘shkarnayi bilan jar solmoq* tarzida kengaytiradi: *Mingboshilikni tortib olib, el ko‘zida tamom sharmanda qiladiganday! Abdisamat bilan Yodgor echki, Umarali puchuqlar yana qo‘shkarnayi bilan jar soladiganday!* 3. **Ibora tarkibini qisqartirish.** Ibora tarkibidagi ayrim so‘zlarni tushirib qo‘llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshiriladi. Ammo yozuvchilar bundan o‘z badiiy maqsadiga ko‘ra foydalanadilar. Tilimizda *qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urmoq* iborasi mavjud bo‘lib, uning ma’nosi «*ixlosi qaytib, ishonmay qo‘yib, diqqat-e’tibordan soqit qilmoq*» tarzida izohlanadi. Cho‘lpon «Kecha va kunduz» romanida uni mana bunday qisqartirilgan holda qo‘llaydi: *Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o‘zboshimcha harakatlariga yo‘l qo‘yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo‘l yuvishimiz kerak bo‘ladi.* Bu iboraning noyib to‘ra nutqida *qo‘l yuvmoq* tarzida qisqarishi nafaqat shakl ixchamligi uchun, balki ma’no siljishi uchun ham xizmat qilgan. Noyib to‘raning «voqealar shu taxlit davom etsa, oz vaqt ichida biz qishloqni tashlab chiqishimizga to‘g‘ri keladi» demoqchi ekanligi mazkur ibora orqali ta’kidlangan. Bundan ko‘rish mumkinki, ayni iboraning qisqargan varianti «tashlab chiqmoq», «ajralmoq», «qochib qolmoq» kabi yangi ma’no qirralari bilan matn badiiyatini boyitgan.

Badiiy asarda qo‘llanilgan iboralarni o‘rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo‘ladi.

## KIRISH

“Sheva” atamasi forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sin, ravish kabi ma’nolarni ifodalab, biror bir tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismidir. “Lahja” arabcha so‘z bo‘lib ifoda, so‘z, sheva, ovoz kabi ma’nolarni ifodalaydi. Dialekt-yunoncha sheva, so‘zlashish

ma'nolarini; lahja-arabcha ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini bildiradi. Shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisidir. Masalan: o'g'uz lahjasi qipchoq lahjasi, qarluq lahjasi kabi.<sup>1</sup> MUHOKAMA NATIJALAR Axborot manbalarida sheva, lahja, dialekt termini o'rnida idioma terminini ham qo'llashadi. Idioma-o'zga qarindosh tillardan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadigan mustaqil tildir. Ingliz tilshunoslari Chambers J.K va Piter Trudgillar idioma termini o'rnida variety-farqlilik terminini qo'llaydi.

O'zbek lingvistikasida Oллоh, farishta, shayton leksemasi bilan bog'liq juda ko'p diniy barqaror birliklar mavjud bo'lib, ular turli lahjalarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan: Oллоh chorladi, Oллоhga omonatini topshirdi birikmalarining shevada quyidagi ko'rinishlari mavjud: tamam bo'ldi, uzildi, jan berdi, qaza qildi, dunyadan yeti, napayt bo'ldi. Napayt bo'ldi birligi asosan bolalarga nisbatan qo'llaniladi.<sup>3</sup> Худо урган бадйаға йеддъ палпъснъ гърпытъ birligi Xiva shevasiga mansub birlikdir.<sup>4</sup> Oллоh qo'llasin barqaror birikmasini ayrim holatlarda Ollo qo'llasin shaklida ham talaffuz etishadi. Bu holatda birinchi so'zdagi undosh tovushning tushishi apokopa kuzatiladi. Bundan tashqari islomiy so'z hisoblanmish Alloh yarlaqasin ma'nosini bildiruvchi Barakalloh birligi so'zlashuv nutqida barakalla sifatida ham qo'llaniladi va bu so'z aslida arabcha Barakallah feek so'zidan kelib chiqqan. Bibi mushkulkushod-forscha mushkulni oson qiladigan ayol. Bibi mushkulkushod So'fiylik tariqatiga asos solgan Bahouddin Naqshbandiyning xolasi sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda ushbu so'zning bo'mushkul shakli mavjud. Diniy barqaror birikmalar lahjalarda shakllanish jarayonida bir qator fonetik hodisalar ham kuzatiladi. Jumladan: assimilatsiya hodisasi, odatda unli va undoshlar tizimida baravar qayd etiladi, ammo ular tilning konsonantizm hodisasi tizimida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jarayon progressiv va regressive assimilatsiyaga bo'linadi. Regressiv assimilatsiya hodisasiga o'zbek tilidagi Ollohu akbar termining Oblohu akbar shaklida talaffuz qilinishini misol qilishimiz mumkin. Barchamizga ma'lumki, Samarqand va Buxoro shevasidan boshqa barcha shevalarda f harfi p tarzida talaffuz etiladi. Shu tufayli Xudo shifo bersin birligi ba'zida Xudo shipo bersin tarzida ham qo'llaniladi. Ayrim diniy barqaror birliklarning shevaviy xususiyatlarda ikki xil fonetik hodisa kuzatiladi. Masalan: qarg'ash ma'nosida qo'llaniluvchi Oллоhning qahriga duchor bo'lg'in birligi qipchoq lahjasida - Olloning qariga duvchar bo'lg'in tarzida talaffuz etiladi. Ya'ni bu yerda tovush tushishi va tovush orttirilish hodisasi kuzatilmoqda. Oллоh, Xudo, shayton, jin, farishta leksemali diniy barqaror birikmalarning shevaviy xususiyatlari yana quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Sheytanga dars beredi-shaytonga dars beradi (hiylakor odam). Jigittin davi kepti, xuda bersin!- Yigitning ishi o'ngidan kelibdi ma'nosida. Jin-jibir-arabcha jinlar ma'nosida. Qaranada jar jag'alap jirme, jin-jibiralar chalap ketmasin!

Juvarmek-forsiycha. Yigit yoshida, qirg'illagan yoshida o'lmoq. Urushi qurisin, ko'p jigittlar juvarmek bo'ldi. Juvarmek vo'lgirlar jaylavda juvanamdi vo'g'irlapti. Ilahide, ilahikide-arabcha+turkey so'z. Yaratgandan qilgan gunohlari uchun birovga yomonlik tilash. Ilahide, sho' vo'g'irinin uyi kuyip, vo'g'irlagan qo'yi vo'zig'a qirg' xudayi bo'sin! Nike qiyuv-arabcha+turkcha so'z. Nikoh xutbasini o'qish, nikohni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish. Ilgeri yaxshi edi, bir axshamda ham nike

qiyg‘ichedi, ham qadelerini vo‘tkizgichedi, kegin to‘ychi tamasha ko‘rgichedi, bilmeymen bu tamildi kim chig‘ardi, bir xil jerda to‘ydan bir hafta aldin, bir xil jerda uch kun aldin nike qiyip qo‘yadilar. Nikesiga saluv-arabcha+turkcha so‘z. Qizni yoki ayolni erkakning nikohiga solish. Kuyav qariyem bo‘sa bay dep, bayqushti majburlep sho‘nin nikesiga soldilar. Uyi sinuv-turkiy so‘z. Erkak kishining ayolining o‘lishi. Bayqushtin uyi sinip, jash balalariman qaldi. Allag‘a amanat-arabcha ibora. Ollohga omonat tarzida qo‘llaniladi. Jigitlar Rassiya, hammesi Allag‘a amanat. Diniy barqaror birliklar so‘zlashuv nutqida turli dialekt va shevalarda turlicha namoyon bo‘ladi. Jumladan: Xuda raxmet qisin-Xudo raxmat qilsin6 (Xuda rahmet qisin katapajan, bergan bir qancha shalilaringizdi axlap guruch qilib jep, bug‘dayga jettik, qo‘limiz kaltaligidan sizlerdi irzayam qilalmadiq). Murut avlash-arab, turk tillaridagi so‘zlar asosida hosil bo‘lgan birikma. Pirning o‘z muridlaridan nazr yig‘ib, duo berish odati. Eshan baba uzaq jo‘ldan murut avlap kepti, ag‘ayinnardi chaqirinar, kep pirdin duvasini ap ketsinner! Perishtesi bosim bo‘luv-forscha, turkcha so‘zlar asosida hosil bo‘lgan birlik. Bilimi oshib, yuzi nurga to‘lmoq. Bekar jurganinnen mo‘llanin aldig‘a borib vo‘qisan, ham namazlig‘indi uyrenesen, ham juzinde perishten basim bo‘ladi. To‘rt tamani qibla-turk va arab so‘zlari asosida hosil bo‘lgan birikma. Bugunnen bashlap ishten bo‘shadin, to‘rt tamanin qibla, ustingda Xuda, qayaqa ketseng keteber! Xuda birdi-fors va turk so‘zlari asosida hosil bo‘lgan birlik. Ollohning yagonaligini o‘rtaga qo‘yib ichiladigan qasam. Xuda birdi sizdi jamanlag‘an davrede men jo‘g‘edim! Xudaning kuni-forscha-turkcha so‘zlar asosidagi ibora. Har doim. Nime bala, xudaning kuni qantqa talaship ukelerindi jilatasan!

### XULOSA

Diniy barqaror birikmalar turli lahja va shevalarda turlicha namoyon bo‘ladi va ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Diniy barqaror birliklar shevalarda aks etganda bir qator fonetik va grammatik o‘zgarishlarga duch keladi. Bu esa ilmiy izlanuvchidan har tomonlama chuqur bilim sohibi bo‘lishni talab etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Yoqub Saidov. O‘zbek dialektologiyasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. Buxoro. Durdona nashriyoti. 2021.
2. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. Toshkent. 2016. B.147
3. Nazar Rajabov. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. 1996
4. Ф.А.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. Луғат. ЎзФА нашриёти.
5. Islom ensiklopediyasi
6. O‘.A.Xudoynazarova. Ingliz va o‘zbek tillarida mifonim komponentli frazeologizmlar. Monografiya. Globe Edit nashriyoti. 2023. 149 b.

## ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINING TA'LIM SOHASIDA TUTGAN O'RNI

*Haydarova Munira Jumqulovna*

Surxondaryo viloyati Denov tumani

61-maktabning Ona tili va Adabiyot fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, ona tili va adabiyot haqida umumiy tushunchalar va undagi umumiy qoidalar haqda so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, integrativ yondashuv, metod, tadqiqot, fanlararo aloqadorlik, yangi texnologiyalar, ona tili, adabiyot, so‘z turkumlari

Har bir xalqning, millatning o‘z tili va adabiyoti bo‘lganidek, o‘zbek millatining ham turli ma’no so‘zlarga boy ona tilisi va boy tarixga ega adabiyoti mavjud. O‘z ona tilini bilmagan kishi o‘zligini anglay olmasligi haqida turli xil hikmatli so‘zlar ham mavjud xalqimizda. O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tiliga 1989-yil 21-oktabrda davlat tili maqomi berilganidan boshlab, ona tilimizga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. O‘zbek adabiyoti esa juda katta ma’naviy, tarixiy xazinaga boy hisoblanadi.

Til- millat ko‘zguvidir. O‘z tilini bilish, o‘rganish, izlanish, uning ustida tadqiqotlar olib borish har bir millat farzandining vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili to‘g‘risida”gi, “Talim to‘g‘risida”gi qonunlari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “2004-2009- yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”ga muvofiq boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish oldiga yangi-yangi vazifalar qo‘yilmoqda. “Ona tili” fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Ma’lumki til o‘rganishni boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘rganish juda muhim sanaladi. Ona tilini o‘rganish bolajonlarda og‘zaki va yozma nutq shakllanib, rivojlanishiga xizmat qiladi. Ona tili fanini o‘qitishning bir qator maqsad va vazifalari mavjuddir.

Umumiy o‘rta ta’limi muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi: o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘z g‘alar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

"Adabiyot" so‘zi arabcha "adab" so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, u keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Keng ma’noda qo‘llanilganda "adabiyot" so‘zi o‘qishga mo‘ljallab yozilgan va chop qilingan barcha asarlarni o‘z ichiga oladi. Shunga qaramay, "adabiyot" so‘zi (termini) tor ma’noda ham juda faol ishlatiladi va bunda

so‘z san`atiga daxldor bo‘lgan asarlar — badiiy adabiyot tushuniladi. E`tiborli jihati shuki, istilohning ayni shu tarzda (tor va keng ma`nolarda) qo‘llanilishi rus va boshqa bir qator tillarda ishlatiluvchi "literatura" so‘ziga ham xosdir. Zero, bu termin ham "litera" ("harf") so‘zidan olingan bo‘lib, keng ma`noda umuman chop etilgan mahsulotni, tor ma`noda badiiy adabiyotni anglatadi. Mutaxassislar "adabiyot" so‘zining tor ma`nosini ishlatamiz va bunda badiiy adabiyotni nazarda tutamiz.

Demak, adabiyotning o‘rganish sohasi — predmeti badiiy adabiyot ekan. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarini har jihatdan va atroflicha o‘rganadi. Adabiyotshunoslikning predmeti bo‘lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko‘lami juda keng. Ularning bir qismi umumestetik (badiiy san`at sohalarining barchasiga xos) muammolar sirasiga kirsa, boshqa bir qismi sof adabiyot muammolari sanaladi.

Ona tili va adabiyot tushunchalari bir-biriga uzviy bog‘liqdir. Shu boisdan , bu ikki fan darslari maktablarda kuchaytirilgan holda tashkil etilinmoqda. Til adabiyotning asosiy quroli. Tilning umumxalq (jonli, milliy), ma’lum qoidalarga asoslangan adabiy til, badiiy (poetik) til kabi ko‘rinishlari mavjud. Til - badiiy obraz yaratish vositasi. So‘z yordamida turli-tuman manzaralar, his-tuyg‘ular, fikr va hodisalar jonli, ta’sirchan holda tasvirlanadi. Badiiy asardagi har bir so‘z asar mazmunini ifodalashga xizmat qiladi. So‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash yozuvchi va shoirning mahoratiga bog‘liq. Ijodkor tilning maxsus leksik imkoniyatlari (sinonim va antonimlar, arxaizm va neologizmlar, dialektizm va jargonizm professionalizm va varvarizmlar) dan shuningdek, monolog, dialog, poliloglardanunumli foydalanadi. Badiiy asar tilining xususiyatlari, nazariy asoslari ilmiy adabiyotlarda yoritilgan.

Adabiyot fani asosan adabiy, badiiy asarlardan tashkil topganligi bois, ularning bir necha xil turlari mavjud. Adabiy tur, adabiy janr, epos, lirika, drama, roman, tarixiy roman, falsafiy roman, qissa, hikoya, ocherk, tragediya, komediya. Adabiy asarlar shakl jihatidan rang-barangdir, bu esa ularni alohida guruhlarga ajratib o‘rganishni taqozo qiladi. Adabiyotni birinchi bo‘lib Arastu (er.av. 384-322 yillar) o‘zining «Poetika» asarida epos, lirika, drama kabi uch turga ajratib ko‘rsatgan. Adabiy turlar janrlardan tarkib topadi.

Janr» fransuzcha so‘z bo‘lib, «tur», «jins» degan ma’noni anglatadi. Adabiy turlar bir- birlaridan, avvalo, voqelikni gavdalantirish usuliga ko‘ra farqlanadi. Epos voqeani, lirika inson ruhiy holatini, drama kishi xarakterini gavdalantiradi. Epos so‘zlashuv nutqiga yaqin bir tarzda yozilsa, lirika misra, qofiya, bandga asoslanadi. Drama dialog va monologlardan tashkil topadi.

Epos yunoncha so‘z bo‘lib, yeros «so‘z», «nutq», «hikoya» degan ma’noni anglatadi. Epos xalq ijodiyotiga mansub yirik hajmli asar. Masalan, “Alpomish” qahramonlik eposi. Roman, qissa, hikoya, ocherk, feleton epik tur janrlari hisoblanadi.

Lirika (yunoncha so‘z bo‘lib, «lira jo‘rligida aytish» demakdir). She’riy asarlarda musiqiy ohang, ritm mavjud bo‘ladi. G‘azal, ruboiy, tuyuq, fard, muxammas, musaddas, qasida, chiston kabilar Sharq mumtoz lirik janrlari hisoblanadi. Ularda vafodorlik, sevgi-muhabbat, insoniylik, do‘stlik, hayot haqidagi dard va iztiroblar aks ettiriladi.

«Drama» yunoncha «harakat» degan ma’noni anglatadi. Dramatik asarlar sahna uchun yaratiladi. Ularning ilk namunalari eramizdan oldin yaratilgan. Tragediya, komediya, opera, balet kabilar dramatik tur janrlari hisoblanadi. Esxil, Sofokl, Evripid, Shekspir singari ijodkorlarning asarlari tragediyaning yuksak namunalari. O‘zbek adabiy otida Behbudiyning “Padarkush”, Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek» tragediyalari ma’lum va mashhurdir. Komediya “Quvnoq kishilar qo‘shig‘i” degan ma’noni bildiradi. Aristofanning «Chavandozlar», «Burgutlar», Shekspirning «Qiyiq qizning quyulishi», Molerning «Don Juan» kabi asarlar mavjud. Yuqorida adabiy janrlar haqida qisqacha to‘xtaalib o‘tildi. Qachonki, o‘quvchi mana shu janrlar haqida va o‘z ona tilisi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lsagina bu fanlarning tub mohiyatini tushunib yetishi mumkin.

Bugungi kunda ta’lim sohasiga har qachongidan ham ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida ta’limning birlamchi ishtirokchilari bo‘lgan o‘qituvchilarga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o‘qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo‘lmog‘i shart va zarurdir. O‘qituvchi o‘quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to‘g‘risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning – fanlararo aloqadorlikning o‘rni juda muhimdir.

Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvdan keng foydalanish – o‘quvchilarning fanga doir bilimlarini puxta o‘zlashtirishida yetakchi samara beradi. ASOSIY QISM Keyingi yillarda ta’limda integrativ yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko‘plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini integrativ o‘qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta’lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar ko‘ndalang qo‘yildi. Xususan, A.G‘ulomov, H.Ne‘matov, B.Ziyomhammadov, B.Abdullayeva singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili va adabiyot ta’limidagi o‘rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. Til ta’limida integrativ yondashuv xususida U.Musayev, D.Yo‘ldosheva kabi pedagoglarning ilmiy izlanishlaridan ham ma’lumotlar olish mumkin. Jumladan, K.Mavlonovning “Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari” bo‘yicha olib borgan izlanishlari ham alohida ahamiyat ega [1.254]. “Integratsiya” - ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir [1.380]. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Integratsiyani tafakkur o‘stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa va ta’lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etish mumkin.

Ma’lumki, o‘quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o‘zgarishlarining ham bo‘lishini taqozo etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Chunki ular allaqachon o‘z ta’lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Buyuk Britaniya, Koreya, Shveysariya, Vengriya, AQSh, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda bizning ta’lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi. Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu

tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta’limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘qitishni ko‘rsatadi. Ta’lim tizimida ona tili darslarini olib borishda bu fanni bevosita adabiyot bilan bog‘lab o‘qitish yaxshi natija beradi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligini olaylik. Ushbu darslikda “Leksikologiya” bo‘limini o‘rganish uchun 39 soat ajratilgan. Bu bo‘lim va undagi mavzularni adabiyot faniga bog‘lagan holda badiiy asarlar, hikmatli so‘z va maqollar, she‘rlar orqali tahlil etilsa, bu ham ta’limiy, ham tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. Quyidagi 6-sinf adabiyot darsligidan olingan parcha O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidan olingan bo‘lib, o‘quvchilar parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tahlil qilish orqali, har bir so‘zning lug‘aviy ma‘nosini, salbiy va ijobiylik xususiyatini farqlab, badiiy asarni yanada teranroq anglab yetadi. “Ziqna bo‘lmay, o‘l! – deb o‘yladi xotinini so‘kib, – azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi”. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichlarida, mavzular oddiydan murakkabga tomon o‘sib boradi. Masalan, 9-sinfda o‘quvchilar ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini bilishlari, shu orqali o‘z nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, nutq uslublarini bir-biridan farqlay olishlari kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchidan nazariy bilimlarni yetkazib berish va ularni amalda qo‘llay olish uchun o‘quvchilarda yetarli ko‘nikma va malakalarni hosil qilish talab etiladi. Bunda dastlab o‘qituvchi nutq uslublari haqida umumiy ma’lumot beradi va o‘quvchilarga kerakli manbalarni yozdirib o‘tadi. Yangi mavzu bayonidan so‘ng o‘qituvchi mavzuni bevosita boshqa fanlar bilan bog‘laydi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar qo‘liga har xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materillarni tarqatadi.

#### XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tili. Ona tili lug‘at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an‘analarini ifodalaydigan so‘z va tushunchalardan iborat bo‘ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Tilni o‘raginish esa adabiyotni o‘rganish bilan bog‘liqdir. Adabiyot fani o‘quvchilarga uzoq o‘tmishdan hikoyalar keltiradi, buyuk yozuvchi va shoirlarning mukammal badiiy asarlarri , badiiy janrlar haqida ma’lumotlar olishlariga , o‘qib-o‘rganishlariga imkoniyat yaratadi, ona tili darslarini adabiyot bilan uyg‘unlikda olib borish, o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini yanada boyitadi. Ona tilida darslarida yangi mavzuni tushuntirishda adabiyot darsligida berilgan hikoya, she‘r, maqol, hikmatli so‘zlar va badiiy asarlardan misollar keltirib, darsni integrativ tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, oliy ta’limda tahlil yuzasidan bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lib, til bo‘yicha nazariy ma’lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Mavlonova, K. (2016). Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o‘rganish metodikasi. Mashhur-press.
2. Musayev, U. (2002). Integratsiya darajalari. Xalq ta’limi - №6
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (1981). M.: Русский язык.

4. Холиқова, Н. (2020). Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадиий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in educational sciences, (3).

5. Kholikova, N. D. (2020). The genesis and poetic evolution of character Shirin. Alisher Navoi and the XXI century.

6. Djokhongirovna, K. N. (2020). The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6).

7. Холиқова, Н. (2020). 9-синф адабиёт дарсида ширин образини генезисига кўра ўрганиш. Science and Education, 1(Special Issue 2).

8. Kholikova, N. (2020). POETIC FEATURES OF UZBEK POETRY OF THE NATIONAL AWAKENING PERIOD. Theoretical & Applied Science, (4).

## RASMIY USLUBDAGISO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

**Sattorova Mavjuda Yusuf qizi**

Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahar 8-IDUM

Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda rasmiy-idoraviy uslubning boshqa uslublardan o‘xshash va farqli tomonlari o‘rganib chiqilgan, bundan tashqari bu uslubning leksik-semantik, grammatik jihatdan tahliliga ham alohida urg‘u berilgan rasmiy uslubda qo‘llanadiga iboralar uslubiyati.

**Kalit so‘zlar:** rasmiy uslub, hujjatlar, matn yaratish, yozma nutq, yozishmalar, uslub, ishonchnoma, subyektiv baho ifodalovchi shakllar.

**Kirish.** Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog‘ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo‘lishi. Bu uslubda ham so‘zlar o‘z ma'nosida qo‘llanadi, ko‘pchilikka ma'lum bo‘lgan ayrim qisqartma so‘zlar ishlatiladi, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, belgilansin, o‘tkazilsin, tayinlansin kabi so‘z va so‘z birikmalari ko‘plab uchraydi. Rasmiy uslublar, xususan, davlat va muassasa ishlarida, ilmiy tadqiqotlarda, yoki ijtimoiy muloqotlarda keng qo‘llaniladi. Ushbu uslubning leksikasi aniq, ravon va aniq ifodalashga qaratilgan bo‘lib, o‘z ichiga ko‘plab iboralar va atamalarni oladi. Ushbu maqolada rasmiy uslublardagi iboralar leksikasi va uning asosiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi, Rasmiy uslublar bir necha turga bo‘linadi, jumladan:

1. Rasmiy hujjat uslubi: Davlat hujjatlari, qonunlar, farmonlar, protokollar va boshqa rasmiy hujjatlarda qo‘llaniladigan uslubdir. Bu uslubda iboralar ko‘pincha standartlashtirilgan va qat'iy shaklda bo‘ladi.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Hatto fe‘l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so‘z shakllari tanlanadi, ya‘ni “harakat nomi” deb ataluvchi so‘z shakllari faol ishlatiladi. “...tayyorgarlikning borishi haqida”, “...qarorning baiarilishi to‘g‘risida”, “...vordam berish maqsadida”, qabul ailishinsizni so‘rayman” kabi. Hujjatlarning mohiyati va maqsadiga muvofiq ravishda, ularda so‘roq va undov gaplar deyarli qo‘llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilining ikki vazifasi - xabar berish va buyurish vazifalari amalga oshadi. Masalan, ma‘lumotnomada axborot ifodalanadi, buyruqda buyurish aks etadi, bayonnomada esa ham axborot (“eshitildi ham buyurish (“Qaror qilindi...”) o‘z ifodasini topadi

2. Ilmiy uslub: Tadqiqot va ilmiy maqolalarda qo‘llaniladi. Bu uslubda terminologiya va maxsus iboralar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular aniq ma‘lumotlarni yetkazishga yordam beradi.

3. Ijtimoiy uslub: Ijtimoiy tadbirlar, konferentsiyalar va boshqa rasmiy uchrashuvlarda qo‘llaniladi. Ushbu uslubda iboralar ko‘pincha rasmiy va hurmat bilan ifodalangan bo‘ladi.

Rasmiy uslublarda iboralar, asosan, quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Aniqlik: Rasmiy uslublarda iboralar aniq va tushunarli bo‘lishi zarur. Bu, o‘quvchilarga yoki tinglovchilarga ma‘lumotlarni to‘g‘ri anglashlariga yordam beradi.

2. Qat‘iylik: Rasmiy hujjatlarda yoki ilmiy ishlarda, iboralar qat‘iy va o‘zgarmas bo‘lishi kerak. Bu, hujjatning rasmiyligini va muhimligini ta‘minlaydi.

3. Maxsus terminologiya: Har bir rasmiy uslub o‘ziga xos terminologiyaga ega. Masalan, ilmiy uslubda maxsus atamalar va iboralar ko‘p qo‘llaniladi, bu esa ilmiy muloqot uchun zarur.

4. Formal ohang: Rasmiy iboralar doimo rasmiy va professional ohangda ifodalanadi. Bu esa muayyan mavzuni yoki masalani jiddiy qabul qilishni ta‘minlaydi. Rasmiy uslublarda iboralar leksikasi, ularning maqsadi va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu uslubda iboralar, aniq, qat‘iy va maxsus terminologiyaga ega bo‘lishi zarur. Bu nafaqat rasmiy hujjatlarni, balki ilmiy ishlarni ham o‘qish va tushunishni osonlashtiradi. Rasmiy uslublardagi iboralar leksikasi, axborot almashinuvi va professional muloqotni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Rasmiy uslublar muloqotning ma‘lum bir kontekstida qo‘llaniladigan, aniq maqsadga xizmat qiluvchi, tartibga solingan va standartlashtirilgan uslublardir. Ular, ko‘pincha, davlat va muassasa ishlarida, ilmiy tadqiqotlarda, huquqiy hujjatlarda, ijtimoiy muloqotlarda va boshqa rasmiy muhitlarda ishlatiladi. Rasmiy uslublarning leksikasi, ya‘ni iboralar to‘plami, o‘zining aniqligi, qat‘iyligi va maxsus terminologiyasi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada rasmiy uslublarda iboralar leksikasining mohiyati, xususiyatlari, turlari va ahamiyati kengroq tahlil etiladi.

Rasmiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari bor:

1. Aniqlik: Rasmiy iboralar ma‘lumotni aniq va ravon yetkazishga qaratilgan. Har bir ibora aniq ma‘noni anglatishi va o‘quvchiga yoki tinglovchiga xato tushuncha qoldirmasligi zarur. Masalan, "bajonidil" iborasi "to‘g‘ri va halol" ma‘nosini anglatadi, bu esa o‘z navbatida tushunishga qiyinchilik tug‘dirmaydi.

2. Qat'iylik: Rasmiy uslubda ishlatiladigan iboralar o‘zgarishsiz, qat'iy va aniq bo‘lishi zarur. Bu hujjatlarning rasmiyligini, ularning amal qilishi va qo‘llanilishini ta'minlaydi. Misol uchun, "qaror qabul qilindi" yoki "rezerv qilindi" kabi iboralar rasmiy matnlarda muhim ahamiyatga ega.

3. Maxsus terminologiya: Har bir rasmiy uslub o‘ziga xos terminologiyaga ega. Ilmiy uslubda ko‘plab maxsus terminlar, masalan, "tadqiqot metodologiyasi", "nazariy asoslar", "eksperimental ishlar" kabi iboralar qo‘llaniladi. Rasmiy hujjatlarda esa "huquqiy normalar", "bajonidil bajarilgan ishlar" kabi atamalar ishlatiladi.

4. Formal ohang: Rasmiy iboralar doimo rasmiy va professional ohangda ifodalanadi. Ular muayyan masalalarni jiddiy qabul qilishni ta'minlaydi. Masalan, "ma'lum qilamiz" yoki "tavsiya etamiz" kabi iboralar rasmiy muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Rasmiy uslublar bir necha turga bo‘linadi: Rasmiy hujjat uslubi: Bu uslub davlat hujjatlari, qonunlar, farmonlar, protokollar va boshqa rasmiy hujjatlarda qo‘llaniladi. Rasmiy hujjatlar doimo qat'iy va standartlashtirilgan iboralardan iborat bo‘ladi. Ularning tuzilishi va tilida aniq qoidalar va normativlar mavjud. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori” yoki “ma'lum muddat ichida” kabi iboralar ko‘plab rasmiy hujjatlarda uchraydi. Ilmiy uslub: Tadqiqot va ilmiy maqolalarda qo‘llaniladigan uslub. Bu uslubda terminologiya va maxsus iboralar muhim ahamiyatga ega. Ilmiy muloqotda aniq va qat'iy iboralar yordamida tadqiqot natijalari va nazariyalar taqdim etiladi. Misol uchun, "tadqiqot natijalari ko‘rsatmoqda" yoki "tajribaviy usullar" kabi iboralar ilmiy asarlarda ko‘p ishlatiladi. Ijtimoiy uslub: Ijtimoiy tadbirlar, konferentsiyalar va boshqa rasmiy uchrashuvlarda qo‘llaniladi. Ushbu uslubda iboralar ko‘pincha rasmiy va hurmat bilan ifodalangan bo‘ladi. Misol uchun, "hurmatli mehmonlar", "ijobiy natijalar", "rahmat" kabi iboralar ijtimoiy muloqotlarda keng qo‘llaniladi. Rasmiy uslublarda iboralar leksikasi axborot almashinuvi va professional muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Rasmiy uslublarning muhim jihatlari quyidagilardan iborat: Huquqiy asos: Rasmiy hujjatlarda iboralar o‘z ma'nolariga ega va ular huquqiy normalar va talablarni aniq ifodalashda yordam beradi. Masalan, "fuqarolarning huquqlari" yoki "ma'muriy javobgarlik" kabi iboralar fuqarolar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tushunishga yordam beradi. Professionalizm: Rasmiy iboralar professional muloqotning belgisidir. Ular, ko‘pincha, aniq va rasmiy ohangda ifodalanadi. Bu esa muayyan masalalarga jiddiy yondashishni ta'minlaydi. Ilmiy va rasmiy matnlarda qo‘llaniladigan aniq terminologiya tadqiqotlarning jiddiyligini oshiradi. Axborotning aniq yetkazilishi: Rasmiy uslublarda iboralar orqali axborot aniq, tartibli va tushunarli tarzda yetkaziladi. Bu, o‘quvchilar yoki tinglovchilar uchun muhimdir, chunki ular mazmunni to‘g‘ri anglashlari zarur. Samarali muloqot: Rasmiy uslublarda ishlatiladigan iboralar o‘rtasida aniq bog‘lanishlar mavjud bo‘lib, bu muloqotni samarali qiladi. Misol uchun, "bajonidil" va "tavsiya etamiz" kabi iboralar muloqotning oqimini ta'minlaydi.

Rasmiy uslublarda iboralar leksikasining rivojlanishi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Yangiliklar va zamonaviy talablar bilan birga, rasmiy iboralarga yangi terminlar va iboralar qo‘shilishi mumkin. Bu jarayon, shuningdek, global muloqot va

madaniyatlararo aloqalar bilan bog‘liq. Misol uchun, axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan "onlayn", "elektron hujjatlar", "vatsap" kabi zamonaviy terminlar rasmiy uslublarda o‘z o‘rnini egalladi.

#### Xulosa

Rasmiy uslublarda iboralar leksikasi, uning maqsadi va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu uslubda iboralar aniq, qat’iy va maxsus terminologiyaga ega bo‘lishi zarur. Bu nafaqat rasmiy hujjatlarni, balki ilmiy ishlarni ham o‘qish va tushunishni osonlashtiradi. Rasmiy uslublardagi iboralar leksikasi, axborot almashinuvi va professional muloqotni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, rasmiy uslubni bilish va tushunish har bir shaxs va tashkilot uchun muhim ahamiyatga ega. Rasmiy uslublarda iboralar leksikasi taraqqiyoti esa nafaqat mahalliy, balki global darajada ham ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayon xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Rasmiy-idoraviy uslubning boshqa uslublardan farqli jihatlari bilan bir qatorda o‘xshash tomonlari ham mavjuddir. Muloqot vaziyati va sharoitga muvofiq ilmiy, badiiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslublar nutqning yozma shakliga mansubdir. Bu uslublar, asosan, yozma nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, bu uslublarda yozma shakl yetakchilik qilsa ham, nutqning og‘zaki shaklini ham inkor qilib bo‘lmaydi. Badiiy uslubga tegishli, sahna uchun mo‘ljallangan asarlarda og‘zakilik bo‘lsa, ilmiy uslubga doir bo‘lgan ilmiy ma’ruzalar og‘zaki shaklda namoyon bo‘ladi, lekin rasmiy uslubga tegishli bo‘lgan ish qog‘ozlari faqat yozma nutq orqali yuzaga chiqadi. Bu ham rasmiy-idoraviy uslubning boshqa uslublar ichida yana bir o‘ziga xos xususiyatidir. Rasmiy uslub grammatik jihatdan ko‘p hollarda ilmiy uslubga o‘xshab ketadi, lekin boshqa uslublardan farqlanib turadi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati; Библиографические ссылки; References:**

1. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №5 49
2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma-Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020.
3. Mukarramov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili.
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldashev I. Davlat tilida ish yuritish.-Toshkent: “Cho‘lpon”, 2007.
5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish.-Toshkent: “Cho‘lpon”, 2013.
6. Qo‘ng‘urov R, Karimov S. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. Bibliografik ko‘rsatkich. Samarqand, 1984.
7. Suyarova A. O‘zbek tilida ish yuritish. Uslubiy qo‘llanma-Namangan, 2018.
8. Abzalova M., Yo‘ldasheva D. Tilshunoslikka kirish-Toshkent: “Universitet”, 2005.
9. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi-Toshkent: “YURIST MEDIA MARKAZI”, 2009.
10. Nurmonov A., Sobirov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili-Toshkent: “ILM ZIYO”, 2013.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası

Terishga berildi: 19.10.2024-yil.  
Bosishga ruxsat etildi: 20.10.2024-yil.

**Manzilimiz:** 190507, Surxondaryo viloyati  
Denov shahri Sharof Rashidov ko‘chasi 360-uy.  
[info\\_dtpi@yedu.uz](mailto:info_dtpi@yedu.uz), [dtpi@yexat.uz](mailto:dtpi@yexat.uz)  
+998-95-650-77-57

Maqola nashr ettirish maqsadida bog‘lanish uchun:  
+998 88 810-57-07, [https://t.me/qahramon\\_ruziev](https://t.me/qahramon_ruziev)

*Maqolalarda keltirilgan fikr va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.*